

Utayeva Feruza Xolmamatovna

ARXEOLOGIYA VA ETNOLOGIYA

DARSLIK

5120300 - Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha)

5120400 - Arxeologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun

BUXORO – 2022

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Buxoro Davlat Universiteti

Utayeva Feruza Xolmamatovna

ARXEOLOGIYA VA ETNOLOGIYA

DARSLIK

5120300 - Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha)

5120400 - Arxeologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun

BUXORO – 2022

Utayeva F.X.

Arxeologiya va etnologiya fanidan (Arxeologiya qismi): [Matn] : Darslik /

F.X.Utayeva . - Buxoro : Sadriddin Salim Buxoriy “Durdona”, 2022. - 278 b.

KBK

63.3(543)ya73

Darslikda “Arxeologiya va etnologiya” fanining arxeologiyaga doir mavzulari yoritilgan. Vatanimiz va jahon xalqi sivilizatsiyasi tarixida arxeologiya va arxeologiya fanining o’rni beqiyos. Tarixni yoritishda va o’rganishda arxeologlar olib borgan tadqiqot ishlarining ahamiyati juda kattadir. So’nggi yillar ichida jahonda ko’plab arxeologik kashfiyotlar qilinib, muhim ma’lumotlar to’plandi. Olimlar tomonidan topib tekshirilgan bu yangi ashyolar eng qadimgi va o’rta asrlar tarixi haqidagi bilimlarni kengaytiradi.

Ushbu darslik Buxoro davlat universiteti 5120300 - Tarix (jahon mamlakatlari bo’yicha), 5120400 - Arxeologiya ta’lim yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan. Mazkur darslikdan arxeologiya va tarix ta’lim yo’nalish talabalari, hamda o’tmish bilan qiziquvchi keng kitobxonlar, geograf, o’lkashunos va tadqiqotchilar foydalanishi mumkin.

Mas’ul muharrir

Sh.A.Hayitov, professor tarix fanlar doktori

Taqrizchilar:

F.U.Temirov - Buxoro tarixi kafedراسi mudiri, t.f.f.d. (PhD)

Shukurillayev Yu.A. - tarix fanlar nomzodi, dostent

O’quv qo’llanma O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 13-may 166-sonli burug’i bilan nashrga tavsiya etilgan. Qayd etish raqam 166-055

ISBN 978-9943-7846-7-3

So'z boshi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2016 yil 30 dekabrda mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuvida "Ilm-fan yutuqlari Vatanimiz ravnaqiga xizmat qilsin" mavzusida nutq so'zladi. "Ijtimoiy-gumanitar fanlar-tarix, arxeologiya, sharqshunoslik, O'zbekiston xalqlari madaniy merosi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida salmoqli natijalarga erishilmoqda. Olimlarning suhbatidan inson o'ziga beqiyos ma'naviy boylik oladi, qalb kengliklarini, tafakkur teranligini his qiladi. Xalqimizda "Oqqan daryo oqaveradi" degan dono naql bor. Shu ma'noda, el-yurtimizning qon-qonida azaldan bo'lgan aql-zakovat, ilmu ma'rifat tufayli, siz kabi zahmatkash va fidoiy insonlarning xizmatlaringiz tufayli O'zbekiston zaminidan yangi xorazmiylar, beruniylar, ulug'beklar etishib chiqadi va Vatanimiz shuhratini butun dunyoga yuksaltiradi, deb ishonaman".¹- degan gaplari har bir ilm ahli uchun yana ishlashga va yangi tadqiqotlar o'tashga kuch bag'ishladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida aytilgan mamlakatimizni modernizatsiya qiliushning ustuvor yo'nalishi bo'yicha vazifalari barcha soha va tarmoqlar singari oliy ta'lim muassasalari faoliyatini sifati hamda samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratishni talab qilmoqda².

Oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustivor yunalishlarni belgilashda zamonaviy bilimga ega yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini yanada

¹ Мирзиёев Ш.М. "Илм-фан ютуқлари Ватанимиз равнақига хизмат қилсин" // Қаранг: Мирзиёев Ш.М. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. –Б.166,179 .

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 7-fevraldagi PF 49 47-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni [Elektron resurs] ,<http://strategie.regulation.gov.uz/document/2>

takomillashtirish, oliy ta'lim sifatini oshirishni tubdan oshirish muhim ahamiyatga ega³.

Vatanimiz va jahon xalqi sivilizatsiyasi tarixida arxeologiya va arxeologiya fanining o'рни beqiyos. Tarixni yoritishda va o'rganishda arxeologlar olib borgan tadqiqot ishlarining ahamiyati juda kattadir. So'nggi yillar ichida jahonning, jumladan O'rta Osiyoning turli hududlarida ko'plab arxeologik kashfiyotlar qililib, muhim ma'lumotlar to'plandi. Olimlar tomonidan topib tekshirilgan bu yangi ashyolar eng qadimgi va o'rta asrlar tarixi haqidagi bilimlarni kengaytiradi. Mazkur manba va ashyolar jahon tarixining qadimgi davr siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlari haqida to'laroq tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi.

Jahonda ibtidoiy odamlar tarqalishi jarayonidan boshlab, xalqlarning tarixida turli xil murakkab voqealar sodir bo'lgan. Ular ibtidoiy to'da davri, ibtidoiy xo'jaliklari va mehnat qurollari, urug'chilik tuzumining vujudga kelishi, xo'jalikning ishlab chiqarish shakllariga o'tilishi, binokorlik va hunarmandchilikning rivojlanishi, ishlab chiqarishda metallning ishlatila boshlanishi, ilk shaharlar va davlatlarning tashkil topishi, antik davri, o'rta asrlar me'morchiligi va moddiy madaniyatining rivojlanishi bilan birga boshqa ko'pdan-ko'p voqealar bilan bog'liq.

Boy tariximiz durdonasi bo'lgan madaniy merosimizni asrab-avaylab, kelajak avlodlar uchun bezavol etkazishimiz zarur. Hozirgi vaqtda ularning soni 7 mingdan ziyodni tashkil etadi.

Afsuski, keyingi paytlarda bebaho madaniy merosimiz bo'lgan ayrim obidalarga zarar etkazish holatlari uchrayotgani bu borada e'tibor susayotganidan dalolat beradi. Bu ish nafaqat Madaniyat vazirligi, balki mahalliy hokimliklar, mahalla, ommaviy axborot vositalari va keng jamoatchilikning ham diqqat markazida bo'lishi kerak.⁴

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi PF-5847 –sonli “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. “Халқ” сўзи” газетаси, 2020-йил 30-декабрь.

Talabalar qadimgi tarixni o'rganishda qimmatli arxeologik manbalarga e'tibor berishlari lozim. Jahonda tekshirilgan barcha turdagi arxeologik yodgorliklar va ularda topilgan moddiy manbalar, insoniyat toshdan yasagan oddiy qo'pol cho'qmordan boshlab, uzluksiz mehnat natijasida yuksak madaniyat darajasiga yetib kelishining asosiy qonuniyatlarini ochib beradilar.

Ushbu darslikda talabalarga - tariximizning muhim voqealarini arxeologik manbalar asosida o'rganish uchun yordamchi manba bo'lib, Jahon, O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida yashab o'tgan ibtidoiy odamlar, qadimgi qabilalar va xalqlarning tarixini, madaniy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini yoritishda muhim qo'llanma hisoblanadi.

Mazkur darslikda oliy o'quv yurtlarining arxeologiya va tarix ta'lim yo'nalish talabalari, hamda o'tmish bilan qiziquvchi keng kitobxonlarga mo'ljallangan.

1-mavzu. Arxeologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Reja

1.1. Arxeologiya fan sifatida

1.2. Arxeologiya fani maqsadi va vazifalari.

1.3. Arxeologiya fani ish uslubi va tadqiqot turlari.

Tayanch so'zlar: Arxeologiya, arxeolog, xronologiya, yer usti arxeologiya, suv usti arxeologiya, o'lkashunoslik, etnografiya, ekspeditsiya, stivilizatsiya, arxeologik yodgorlik, moddiy manba, arxeologik kompleks va h. k.

1.1. Arxeologiya fan sifatida

XVIII asrdan shakllangan arxeologiya tarixiy fanlar bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy etib keldi.

«Arxeologiya» - so'zi yunonchadan olingan bo'lib – “arxayos” qadimgi, «logos»-fan so'zlaridan tarkib topgan. Qadimiyat haqidagi fandır (Qadimshunoslik). Uni dastlab, miloddan avvalgi IV asrda Aflotun «Gippiy» dialogida, qadimgi zamon haqidagi fanni nazarda tutib ishlatgan. Shu tariqa bu so'z qadimgi Yunonistonda qo'llanilgan va o'tmish masalalari muhokamasi ma'nosini anglatgan. Vaqt o'tgach, uning ma'no doirasi ancha o'zgarib, kengayib borgan va tarix fanining muhim tarmoqlaridan biriga aylangan.

M.Ye. Massonning ta'rificha arxeologiya - tarixning bir sohasi bo'lib, kishilik jamiyati o'tmishi va faoliyatini xilma xil izlariga, aksariyat hollarda moddiy yodgorliklarga, imkoniyat bo'lgan joyda esa yozma manbalarga, til, etnografiya, geologiya, tuproqshunoslik, antropologiya, zoologiya, botanika va boshqa fanlar yutuqlariga tayanuvchi fandır. Yevropa davlatlari singari Rossiya jamiyatida ham Sharqqa qiziqish ortadi. Chor hukumati a'zolari Kavkaz va O'rta Osiyo hududlarida amaliy san'at namunalari va qo'l yozma asarlarni izlash va yig'ishga qiziqish kuchayadi. **1839 yilda** Odessa tarix va qadimiyat jamiyati tashkil etilib, **1844 yildan** olib borilgan qazuv ishlarining natijalari har yili nashr etib borilgan. **1818 yil** Osiyo muzeyi tashkil etildi. **1846 yil** Peterburgda arxeologiya va numizmatika jamiyati tashkil qilinib, bu jamiyat arxeologik ishlarni tashkil etish bilan shug'ullangan. **1855 yil** Peterburg universitetida Sharq

fakulteti ochiladi. Uning birinchi dekani **Kazanbek** O'rta Osiyoda bir necha marta ekspeditsiyalar uyushtirib, qator tarixchi olimlarni yuboradi. Turkiston o'lkasi Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingach, bu yerda ham mazkur fanga qiziqish orta boshlaydi. **1895 yil 11 dekabrda** Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi tuziladi. XIX asrning 80-90-yillarida mahalliy aholi orasidan ham qadimiyatga qiziquvchilar ko'payadi. Masalan, Mirza Buxoriy Mirza Abdullo, Mirza Barat Mullaqosimov, Akram Polvon Asqarov, Muhammad Vafo, Alixo'ja Yunusov, Mirza Hakim va boshqalar qadimgi buyumlar hamda chaqatangalarni to'plash bilan shug'ullanishgan. Bu davrda Afrosiyob, Ulug'bek rasadxonasi va Poykand xarobalarida dastlabki qazuv ishlari olib borilgan. Keyinchalik V.L. Vyatkin Afrosiyob xarobasini (1925, 1929-30), B.P. Denike qadimgi Termizni (1926-27), M.Ye. Masson Ohangaron vodiysini (1925-28), Ayritom xarobalarini (1932-33), qadimgi Termizni (1936-38), A.Yu. Yakubovskiy Zarafshon vodiysini (1934, 1939), V.A. Shishkin Tali Barzu (1936-38) va Varaxshani (1936-39), S.P. Tolstov va Ya.G'. G'ulomov qadimgi Xorazm vohasida (1937-50), A.P. Okladnikov Teshiktosh va Machay g'orlarini (1938-39), V.V. Grigorev Qovunchitepa xarobalarini qazib o'rgandilar. 1940 yilda O'rta Osiyo Davlat universitetining Tarix fakulteti bazasida M.Ye. Massonning tashabbusi bilan O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasini tashkil etiladi. Kafedra a'zolari tomonidan O'rta Osiyoning turli respublikalarida, ayniqsa Turkmaniston va O'zbekistonda keng ko'lamli qazuv ishlari olib borildi. 1963 yilda Qashqadaryo vohasining yuqori qismini tadqiq etish uchun Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiyasi tashkil etiladi. 1970 yilda O'zR FA Arxeologiya institutining tashkil etilishi arxeologik tadqiqotlarning ko'lamini yanada kengaytirdi. XX asr davomida butun O'rta Osiyo hududida barcha davrlarga taalluqli arxeologik yodgorliklar, qadimgi kanallar, suv o'zanlari o'rganildi. 2001 yil 24 oktabrda Termiz Arxeologiya muzeyi Termiz shahrining 2500 yilligi munosabati bilan (2 aprel 2002 yil) tashkil etildi. Ushbu muzey O'rta Osiyodagi yagona mutaxassislashtirilgan muzey hisoblanadi.

Arxeologiya - moddiy madaniyat manbalari asosida insoniyatning o'tmishini o'rgatuvchi fan hisoblanadi. Arxeologik manbalar tarixiy manbalarga nisbatan ancha qadimiydir.

Mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-yarog'lar, zeb-ziynatlar, uy-joy, ustaxonalar, mudofaa va irrigastiya inshootlarining qoldiqlari hamda o'tmishga oid turli topilmalar Arxeologiyaning bosh manbai bo'lib, ularni chuqur ilmiy o'rganish asosida o'tmishdagi kishilik jamiyatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tarixining umumiy manzarasi tiklanadi. Shu sababli, Arxeologiya tarix fanining bir tarmog'i hisoblanadi.

Arxeologik manbalar arxeologik yodgorliklardir, ya'ni inson tomonidan yaratilgan turar-joy qoldiqlari, odamlar yashagan g'or va ungiralar, mehnat qurollari, sopol idishlari, san'at obidalari, qoyatosh rasmlari, shuningdek, moddiy materialga bitilgan yozma manbalar ham kiradi. Arxeologlar kishilik madaniyati tarixini o'rganishda moddiy va yozma manbalarga tayanib ish ko'radilar.

Arxeologiyada qadimgi buyumlarni o'rganish birdan bir maqsad qilib olinmaydi, topilmalarni tilga kiritish va o'sha zamon nafasini tiklash arxeologiyaning asosiy maqsadidir. Shuning uchun topilmalar tarixiy tadqiqotlar uchun faqat manba sifatidagina ilmiy qimmatga ega bo'ladi. Arxeologik yodgorliklar ibtidoiy makonlar, qishloq va shahar harobalar, qoyatosh rasmlari, istehkomlar, ibodatxonalar, mozarqo'rg'onlar, qabristonlar va qadimgi sug'orish inshootlari hisoblanadi. Arxeologlar mazkur topilmalar yordamida o'sha davr manzarasini, insonlarning yashash sharoitini, jamoada mavjud udumlar va qaysi taraqqiyot bosqichida turganliklarini aniqlaydilar.

Arxeologik yodgorliklar yer ostida yoki yer ustida joylashgan bo'ladi. Yer ostidagi yodgorliklarni o'rganish jarayonida arxeologlar madaniy qatlamlarga alohida e'tibor beradilar.

O'rta Osiyoning jazirama quyoshi ostida, yoki qorli sovuq Alyaska hududlarida arxeologik tadqiqot ishlarini olib borish, yohud Florida ko'rfazlarida

halokatga yuz tutgan ispan kolonistlari kemalari qoldiqlarini dengiz tubiga sho'ng'ib qazuv ishlarini olib borish, arxeologiya fanining naqadar og'ir ilm ekanligini ko'rsatadi. Arxeologiya nafaqat dalada amaliy faoliyat olib borish, balki laboratoriya va ilm markazlarida intellektual ishtiyoq bilan tadqiqot ishlarini olib borishdir ham. Bu esa fanning muhim qismi hisoblanadi. Unda, arxeologik qazuv ishlari natijasida topilgan ashyolarni laboratoriyada qayta tadqid va tahlil qilib, tarix fanini moddiy manba asnosida isbotlaydi va to'ldirib boradi. Siz, arxeolog yoki arxeologiya sohasi deganda, yozuvchilar Agata Kristining "Mesopotamiyadagi qotillik", Stiven Spilbergning "Indiana Jons" kabi havf-xatarlarga boy detektiv kino filmlaridagi obrazini ko'z oldingizga keltirishingiz tabiiy, albatta. Biroq, ushbu kino sahna obrazi haqiqatdan ancha yiroq. Arxeologiya bu faqat qadim o'tmishdan qolgan iqtisodiy qiymatga ega boyliklarni izlab topish emas, balki, o'tmish kishilik jamiyati qoldirgan moddiy madaniyatlar asnosida tarixni o'rganishdir.

"Arxeologiya" so'zini mil. av. IV asrda yashagan yunon faylasufi Platon (Aflotun) o'z asarlarida "qadimgi voqealar" ma'nosida keltirgan. Ilmiy maqsadlardagi dastlabki arxeologik qazishmalar VIII asr boshidan boshlangan. XIX asr esa yirik arxeologik kashfiyotlar davri bo'lib, arxeologiya fan sifatida shakllanib bordi.


XIX asrda arxeologiya asosan 4 qismga bo'linib o'rganilar edi; Yunoniston va Rimning quldorlik davri yodgorliklarini o'rganuvchi mumtoz Arxeologiya, ibtidoiy Arxeologiya, o'rta asr moddiy-madaniyat yodgorliklarini o'rganuvchi umumiy Arxeologiya va Sharq Arxeologiyasi. XX asr boshida ular birlashib, keng mazmunli hozirgi zamon Arxeologiyasi shakllandi.

Arxeologiya fani mutaxassisi arxeolog (qadimshunos) deb nomlanadi. Arxeolog - qadimshunos ekan, unda tarixchidan qanday farqi bor? - degan savol tug'ilishi mumkin. Arxeolog qadimgi yodgorliklarni o'rganish jarayonida ajdodlar o'tmish tarixi va madaniyatidan dalolat beruvchi ashyoviy dalillar va qurilish qoldiqlarini ochar ekan, u birinchi navbatda o'z ilmiy tadqiqoti uchun birlamchi manba to'playdi. Uning o'ta muhim tomoni ham shundaki, topilgan materiallarni

o'rganish jarayoni aynan ularni ochish daqiqalaridan boshlanadi. Materiallarni tarixiy tahlil etish uning qazish jarayonidan boshlanadi. Maktab ko'rmagan va dala amaliyotida bo'lmagan "arxeolog" hech qachon arxeologik ob'ektlarni yaxshi qazishi mumkin emas, u qazigan yodgorlik qanchalar boy va noyob materiallar bo'lmasin, u fan uchun katta yo'qatishdir. Ilmiy metodik asosda qazishmalar olib borishni bilmagan izlanuvchi hech qachon yaxshi kabinet tadqiqotchisi ham bo'la olmaydi, chunki unda qadimgi madaniy qatlamlarning hosil bo'lish holatini kuzatishdek muhim ne'matdan mahrum; ilmiy qazishma malakasi yo'qligidan yodgorlik xarakterini tasavvur eta olmaydi. Bunday holatda to'la qonli arxeologik tadqiqot olib borildi, deb bo'lmaydi. Kabinet va dala sharoitida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar arxeologik izlanishlarning tub mazmun va mohiyatini tashkil etadi.

Umumun, arxeologiya fani o'z mutaxassisi bo'lmish arxeologni ko'p qirrali inson bo'lishni talab etadi. U siyosiy tarixni yaxshi bilishi va o'z navbatida arxeologiyaning tarmoq fanlari; numizmatika, antropologiya, tarixiy lingvistika, epigrafika, tarixiy geografiya, toponomika, etnografiya kabi fanlardan xabardor bo'lishi lozim. Dala tadqiqotlari jarayonida va laboratoriyalarda unga bevosita geometriya, matematika, geologiya, geografiya, kimyo, fizika, biologiya kabi aniq va tabiiy fanlardan xabardorlikni talab etadi.

Arxeologiya va tabiiy fanlar



ARXEOLOGIYA VA TARIX

Agar arxeologiya fani tarixni o'rganar ekan, tarix fanidan qanday farqli tomoni bor? Arxeologiya tarix fanining tarkibiy qismidir. Tarix asoslari arxeologiyadan boshlanadi. Ma'lumki, kishilik jamiyati tarixi tarixiy manbalar asosida o'rganiladi. Tarixiy manbalar o'z navbatida 2 turga bo'linadi.

1. **Moddiy ashyoviy manbalar** - o'tmishda inson qo'li bilan bunyod etilgan tarixiy jarayon izlarini o'zida aks ettiruvchi va kishilik jamiyati tarixini o'rganish imkonini beruvchi, hozirgi kungacha saqlangan har qanday osori atiqalar moddiy ashyoviy manbalardir.

2. **Yozma manbalar**- inson tomonidan yozib qoldirilgan barcha manbalar.

Arxeologiya fanining metodologik asoslarini tarixiy ischillik, xolislik, ob'ektivlik tamoyillari tashkil etadi, qadimgi jamiyatlarning tarixiy ketma-ketlikda rivojlanishini o'rganish arxeologiya dala amaliyoti vazifasiga kiradi. Arxeologiya tarix kabi yozma manba materiallaridan foydalanadi. Ammo, arxeologiya aksariyat hollarda asosan arxeologik ma'lumotlar asosida jamiyat tarixiy taraqqiyoti haqida umumiy tasavvur va tushunchalar beradi. Agar, yer yuzida inson paydo bo'lishidan

to hozirgi kungacha 3 million yil bo'lgan bo'lsa, unda kishilik jamiyati tarixining 99% davrini o'tmish moddiy manbalar asosida arxeologiya fani o'rgansa, qolgan 1% davr esa yozma manbalar asosida tarix fani o'rganadi. Bu bilan kishilik jamiyati tarixida yozma manbalarning paydo bo'lishi bilan arxeologiya fani chegaralanmaydi, aksincha endi moddiy manbalar bilan yozma manbalar taqqoslaniladi, tahlil qilinadi. Eng qadimgi yozma manbalar ham arxeologiya fani mahsuli asosida topilgan va epigrafika faniga tortiq qilingan. Yozma manbalar hududiy jihatdan nisbiy bo'lib, ularning eng qadimiysi mil. avv. III ming yilga tegishli G'arbiy Osiyo yozma manbalari bo'lsa, Avstraliya tarixi yozma manbalari esa 1788 yildan boshlanadi.

ARXELOGIYA MANBALARI

Arxeologiya manbalari quyidagi ikki turga bo'linadi:

1. **Tabiiy manbalar** (paleozoologiya, paleobotanika) - inson va hayvon suyaklari va o'simlik qoldiqlari geologik qatlamlar bo'lib, ularni asosan antropologlar, zoologlar, botaniklar va geologlar o'rganadilar.

2. **Inson tomonidan yaratilgan manbalar:** mehnat qurollari, qurol-aslahalar, kulolchilik buyumlari, san'at va zeb-ziynat buyumlari, qoyatosh rasmlari, yozma manbalar va h.k. Yozma manbalarni o'rganish bilan asosan tarixchilar shug'ullansalarda, arxeologlar kishilik o'tmishini o'rganishda moddiy manbalar bilan birgalikda yozma manbalarga ham tayanib ish ko'radilar.

ARXELOGIYA FANI TARIXI

Arxeologiya fani dunyodagi boshqa fanlarga qaraganda eng yosh fanlar qatoriga kiradi. Yozma manbalarning xabar berishicha, hatto Vavilon podshosi Nabonid (mil. avv. 555-539 yy.) ibodatxonalar, saroylarni ostki qismlarini qazdirtirib ko'rganligi haqida ma'lumotlar sakdanib qolgan. Yozma manbalarda "arxeologiya" termini miloddan avvalgi V asrlardan boshlab uchray boshlaydi. Jumladan Platon (mil. avv. 427-347 yy.) va Diodor Sitsiliyskiy (mil. avv. 80-29 yy.) larni asarlarida bir necha martadan "arxeologiya" terminini uchratish mumkin. Diodorning zamondoshi Diodor Galikarnasskiy Rimning Puni urushlarigacha bo'lgan davrini "Rim arxeologiyasi" atamasi bilan atagani ma'lum. Yaqin yuz

yillar keyinroq yashagan yaxudiylarning mashhur yozuvchisi Iosif Flaviy o'zining yahudiylar tarixiga bag'ishlangan "dunyo yaralgandan Nerongacha" nomli asarini "Yahudiylar arxeologiyasi" deb atadi.

Milodning boshlaridan boshlab "arxeologiya" atamasini o'rniga "antiquitates" – "qadimiyat", "qadimgi" atamaları ishlatilishi bilan birga arxeologiya tushunchasidan ko'ra ham boshqa sohalarda qo'llanila boshlandi. Ya'ni, bu davrga kelib "arxeologiya" atamasi biroz boshqacharoq mazmun kasb etdi. Masalan, "badiiy buyumlar qadimiyati", "yuridik ishlar qadimiyati" va h.k.

Rimning imperatorlari davrida "antiquarius" - ya'ni antikvariylar, qadimiyat havaskori ma'nosida ishlatildi. O'rta asrlarga kelib "antikvariylar" deb qadimgi qo'lyozmalarni ko'chirib yozadigan hattotlar aytiladi. Uyg'onish davridan boshlab esa, barcha qadimgi davrlarga oid buyumlarni saqlovchilarini "antikvariylar" deb aytiladi.

Yunonlarning "arxeologiya" atamasini yana qayta "tiriltirgan" olim Gettingen universitetining professori Xristian Gottlib Geyne bo'ladi. Ammo, X.G. Geyne arxeologiya tushunchasini ishlatar ekan, uning nazarida butun insoniyat tarixidan qolgan buyumlar emas, balki faqat antik dunyodan qolgan buyumlarni va o'sha buyumlarni klassifikastiyasini tushungan. U professor sifatida studentlarga dars berar ekan, ma'ruzasini "Gretsiya va Rimning qadimgi san'at arxeologiyasi" deb ataydi.

Arxeologiya fani tarixi odatda buyuk tadqiqotlar; Misrdagi Tutanxamon qabri, Meksikadagi Maya shahri harobalari, Fransiyadagi g'ori kabi qadimgi tosh davriga oid rangli g'or suratlari yoki Tanzaniyadagi Olduvay darasidan topilgan eng qadimgi odam suyak qoldiqlarining topilishi bilan boshlanadi. Umuman, Arxeologiyaning kelib chiqish tarixi, shakllanishi, uning fan sifatida taraqqiy topishi va taraqqiyot bosqichlari to'g'risida siz, keyingi ma'ruzalarda batafsil ma'lumot olasiz.

1.2.ARXELOGIYA FANI MAQSADI VA VAZIFALARI

Bir yarim asr muqaddam, hatto, o'qimishli qatlam vakillari ham dunyoning yaralishi va unda odamning paydo bo'lishi va uning evolyutsiyasi bir necha ming

yillar oldin paydo bo'lgan deb bilishar edi. Hozirda, arxeologiya fani tufayli uzoq o'tmishning "mavhum" voqea hodisalarini aniqlash imkoni yaraldi. Yer yuzida insoniyat tomonidan qilingan moddiy madaniyat yangiliklarini tarix faniga olib kirdi.

Arxeologiya fani moddiy manbalar asosida kishilik tarixi, ya'ni insoniyatning eng qadimgi davridan to bugungi kungacha bo'lib o'tgan taraqqiyot bosqichlari tarixi, madaniyat tarixi, shu davrlarda yer sharining turli hududlarida turli tarixiy taraqqiyot bosqichlarida shakllangan sivilizatsiyalar mazmun, mohiyati yoritib beradi. Buning uchun arxeologiya fani o'zining manbalari va ma'lumotlariga tayanadi. Arxeologik ma'lumotlar ibtidoiy g'or va ochiq joy makonlari, tosh asri qoyatosh rasmlari, ilk o'troq dehqonchilik qishloqlari, bronza davri ilk shaharlari, qadimgi va o'rta asrlar davri yirik shahar markazlari va ularning mudofaa inshootlari, mozor-qo'rg'onlar, tog'-konlari va metalchilik yodgorliklari, ixtisoslashgan hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish ustaxonalari, qadimgi irrigatsiya inshootlari va boshqa arxeologik yodgorliklarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish davomida to'planadi. Arxeologik ma'lumot va manbalar asnosida arxeologiya kishilik jamiyati bosib o'tgan tarixni tavsiflaydi va asoslaydi.

Fanning maqsad, vazifasi esa bugungi kun insonlariga, insoniyat boshidan kechirgan sivilizatsiyalar to'g'risida ma'lumot berish, ularning moddiy madaniyatini nazariy tahlil qilish, o'rgatish arxeologiya fanining bosh maqsadi hisoblanadi. Arxeologiya fanining vazifasi esa, yer qarida tepaliklar shaklida davrimizgacha saqlanib qolgan shahar va qishloqlarni, tog'lardagi g'or makonlarni arxeologik tadqiqotlar yordamida o'rganadi. Ularni chuqur ilmiy o'rganish asosida o'tmishdagi kishilik jamiyatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tarixining umumiy manzarasi tiklanadi.

Arxeologiya fanining asosiy maqsadi - arxeologik yodgorliklarni o'rganish asosida insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy madaniyat yutuqlarining uzviy taraqqiyot jarayonini aniqlash va ilmiy xulosalar berish.

Arxeologiya fanining vazifalari:

- Insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy-madaniyatning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganadi.
- Moddiy madaniyat asosida jamiyat taraqqiyotini o'rganadi.
- Har bir tarixiy davrga xos bo'lgan tarixiy jarayonlarni moddiy madaniyatda aks ettiradi.
- Arxeologiya tarixiy fanlar xususan antropologiya, etnografiya bilan hamkorlikda odamning paydo bo'lishi, rivojlanishi va migratsiya jarayonlarini o'rganadi.
- Joylardagi arxeologik ekspeditsiyalarni maxsus muassasalar: arxeologik tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlarning arxeologiya kafedralari, san'atshunoslik institutlari, muzeylar va shuningdek o'lkani o'rganish to'garaklarini tashkil etadi.



1.3. ARXELOGIYA FANI TADQIQOT TURLARI VA ISH USLUBI

Tarixda hech bir narsa, hodisa va voqea izsiz yo'qolmaydi. Ular haqida yozma manbalarda saqlanmasligi mumkin, lekin moddiy madaniyatda adbatta iz qoladi. Shularni topish, izlash va izohlash arxeologlar vazifasi sanaladi. Shu sababdan arxeologik tadqiqot ishlari hech qachon tugallanmaydi, chunki moddiy manbalaning aksariyati yer ostida bo'lib, ularni topish mushkul va nihoyatda ko'p

vaqt talab etadi. Bugungi kunda arxeologiya sohasi nihoyatda kengayib, murakkablashib bormoqda. Arxeologiya fani taraqqiyoti davrida asosan ikki tadqiqot turi shakllandi. Ular, arxeologiya va suv osti arxeologiyasi tadqiqot turlaridir.



Suv osti arxeologiyasi - arxeologiya fanining yordamchi sohasi hisoblanadi. Uning tarixi XX asr boshida grek baliqchilari tomonidan qadimiy haykalni olib ketayotgan kema g'arq bo'lgan joy topilgan vaqtdan boshlandi. Fransuz olimi Jak Kusto tomonidan akvalangning yaratilishi insoniyatning suvosti merosini o'rganishni yanada yengillashtirdi. Suv osti arxeologiyasi dengiz yoki daryolar sathi ko'tarilishi oqibatida suv ostida qolib ketgan yodgorliklarning qoldiqlarini izlab topish orqali o'tmishdagi kishilar hayoti, ularning hayot tarzi va madaniyatini o'rganadi.

Yerning geografik, geologik, iqlimiy o'zgarishlar natijasida suv tubida qolib ketgan turar joy qoldiqlari (Qora dengiz, O'rta yer dengizi) va suvga g'arq bo'lgan kemalar qoldiqlarini o'zining ish uslubi orqali tadqiq etadi. Suv osti arxeologiyasi nihoyatda og'ir tadqiqot turi hisoblanib, uning ish uslubi suv tubiga shung'igan holda qazuv va tozalash ishlarini olib boradi.

Arxeologik ekspeditsiyalar deyilganda viloyat, shahar, tuman, qishloq va boshqa joylarda moddiy madaniyat yodgorliklarini dala tadqiqot yo'li bilan o'rganish usuli tushuniladi. Arxeologik ekspeditsiya va otryadlarning ish uslubi uch bosqichli bo'lib, **arxeologik qidiruv, sinov va qazish ishlarini** amalga oshirishdan iboratdir.

Arxeologiya - (yer usti arxeologiyasi) uzoq yillar davomida yer qariga ko'milib ketgan yodgorliklarni qazib o'rganadi. Inson tomonidan yaratilgan turar-joy qoldiqlari (shahar, qishloq, qal'a, karvonsaroylar, ibodatxonalar, qo'rg'onlar va h. k.), odamlar yashagan g'or va makonlar, manzilgohlar, ungirlarni o'zining ish uslubida qazib o'rganadi. Uning ish uslubi metodologik jihatdan 3 qismdan iborat. Ular:

- **arxeologik qidiruv**
- **sinov**
- **qazish ishlari**

Ularning vazifasi yodgorlikni topish, hamda, paydo bo'lgan, yashagan, inqirozga uchragan davrlarini hamda boshqa xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

- **arxeologik qidiruv** - ilmiy tadqiqotning dastlabki bosqichi bo'lib, unda tadqiqotchi yoki ilmiy guruh kishilik jamiyatining tarixining ma'lum muammosi yechimiga qaratilgan masala bo'yicha qidiruv ishlarini olib borib, mazkur davrga oid yodgorliklarni qidirib topish bilan yakunlanadi. Agar masala paleolit davri tarixi bilan bog'liq bo'lsa, unda tog' oldi va tog' hududlari tekshirilib, g'orlar yoki buloqlar atroflarida qidiruv ishlari olib boriladi. Mezolit va neolit davrlariga oid makonlar esa tog'li hududlar bilan birgalikda pastekisliklar keng tarqalganligi sababli ushbu hududlardan izlash mumkin. Shuningdek, tog'li hududlarda qadimgi konlarning o'rni va konchilarning manzilgohlarini uchratish mumkin. Qadimgi va o'rta asrlar davrlariga oid ko'hna shahar va qishloq xarobalari esa yer yuzining barcha hududlarida mavjud.

- **sinov** - Arxeologik tadqiqot ishlarining ikkinchi bosqichida yodgorlik haqida ma'lumotlar to'planadi. Birinchi, navbatda yodgorlik taponimi va u bilan bog'liq afsonalar to'g'risida so'rab surishtirilish bilan birgalikda yuza qismida saqlanib qolgan moddiy ashyolar ilmiy tahlil qilinib, dastlabki xulosalar yasaladi. Ulardan keyin yodgorlikning davri va uning bosqichlari, madaniy qatlamlari to'g'risida umumiy ma'lumotga ega bo'lish maqsadida yodgorlikning bir qismida shurf qaziladi. "*Shurf*" nemischa so'z bo'lib, qazimoq, degan ma'noni anglatadi. Shurf kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak shaklidan iborat bo'lib, tomonlari ikki va undan ortiq hatto o'n metrdan ortiq bo'lishi mumkin.

- **qazish ishlari** - Oxirgi bosqichida yodgorlikda keng ko'lamli qazishma ishlari olib boriladi. Har qanday stratigrafik qazish ishlari yodgorlikning materik, ya'ni yerning tuproq qismiga qadar qazib tushiladi. Ayrim hollardagina planigrafik qazish ishlari olib borilishi mumkin. Planigrafik qazishma ishlari ma'lum davrga oid inshootlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, ko'pincha yodgorlikning yuqoridagi madaniy qatlamlarini o'rganishda foydalaniladi. Madaniy qatlamlarda insoniyatning turmushi tarzi, xo'jalik va g'oyaviy faoliyatlari izlari saqlanib qolgan. Bu qatlamlar yillar, asrlar davomida asta-sekin to'planib boradi. Arxeologik yodgorliklarda bir yoki bir necha o'nlab madaniy qatlam mavjud bo'lib, ularning qalinligi bir necha santimetrdan 30-35 metrlargacha

bo'lishi mumkin. Bu esa ushbu manzilgohda kishilar hayot faoliyatiniing davomiyliigi bilan bog'liq.

Arxeologik manbalarni shartli ravishda 2 turga bo'lish mumkin:


- ⊙ 1. Tabiiy manbalar inson va hayvon suyaklari, o'simliklar qoldiqlari va geologik qatlamlar bo'lib, ularni asosan zoologlar va botaniklar o'rganadi.
- ⊙ 2. Sun'iy yoki inson tomonidan yaratilgan manbalar. Ular mehnat qurollari, yarog'-aslahalar, sopol idishlari, san'at va zeb-ziynat buyumlari, qoyatosh rasmlari, yozuv hamda uning manbalari va hakoza



1. Arxeologik yodgorlikning umumiy ko`rinishi



2. Arxeologik qazishma jarayoni



3. Arxeologik tadqiqot natijasida olingan madaniy qatlam

Arxeolog olimlar barcha turdagi tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida qilingan kundalik tadqiqot ishlari natijalarini qayd qilib boradilar. Arxeologik dala tadqiqot ishlari natijasida to'plangan barcha turdagi ashyoviy manbalar tadqiqot ishlarini amalga oshirgan muassasa ilmiy laboratoriyasida qayta ishlanadi. Dastlab topilmalarni muhofazalash va tiklash ishlari bajariladi. Keyin ular turlar bo'yicha ajratilib, ilmiy tahlil etiladi va qazishma ishlari davomida Yozma qaydlari bilan umumlashtirilib mazkur yodgorlikning ma'lum hudud tarixida tutgan o'rni masalalarini yoritib berish bilan ilmiy tadqiqot ishlari yakuniga yetkazilib, ularning tafsilotlari bo'yicha tadqiqotchi tomonidan tegishli ilmiy muassasaga yozma hisobot beradi.

Arxeologik qazishmalar arxeologik qidiruv va sinov natijasida to'plangan ma'lumotlarga tayanib, mazkur joylarda yodgorlikni batamom qazib tugatishdan va yodgorlik haqida xulosa chiqarishdan iborat bo'ladi

Kosmik arxeologiyasi:

- ◆ Kosmik ma'lumotlar asosida voha arxeologik yodgorliklari joylashuvi aniqlanadi.
- ◆ Har bir yodgorlikning topografik tarxi olinadi.
- ◆ Yodgorliklar taqqoslanadi.
- ◆ Yangi yodgorliklar aniqlanadi.
- ◆ Qadimgi yollar va suv inshootlari eski o'zanlari aniqlanadi.

Mavjud ma'lumotlar asosida migratsiya jarayonlari va yo'nalishlari aniqlanadi.

Arxeologiyada tadqiqotlar metodlar, ashyolari, geografik joylashuv va xronologiyasi hususiyatlariga qarab bir necha an'anaviy fan tartiblariga bo'linadi.

Bular:

Sivilizatsion arxeologiya - Ossurshunoslik (Mesopotamiya), Klassik arxeologiya (Yunoniston va Rim), Misrshunoslik (Misr) va h. k.

Tarixiy arxeologiya -Tarixiy arxeologiya (historical archaeology) - yozuv sistemasining paydo bo'lgandan keyingi davr arxeologiyasi, yozuvgacha bo'lgan arxeologiya (prehistoric archaeology) - yozuv sistemasi paydo bo'lgungacha

bo'lgan arxeologiya, Prototarixiy arxeologiya (protohistoric archaeology) - yozma manbalar cheklangan hududlar arxeologiyasi. Masalan Alyaska, Shimoliy Kaliforniya va h.k. hududlar.

Xronologiyaga asoslangan arxeologiya - Sanoat arxeologiya - sanoat revolyutsiyasi davri arxeologiyasi, Yaqin Sharq arxeologiyasi (ayrim adabiyotlarda O'rta Sharq arxeologiyasi, Bibliya arxeologiyasi deb yuritiladi) yahudiy va xristian dini haqidagi arxeologiya, O'rta asrlar arxeologiyasi 4 asrdan 16 asrgacha bo'lgan davrlarni qamrab oladi. So'nggi o'rta asrlar arxeologiyasi 16 asrdan 20 asrlarni qamrab olgan arxeologiya, Zamonaviy arxeologiya 21 asr arxeologiyasi.

Arxeologiya va numizmatika - Numizmatika - yunoncha so'z bo'lib, tangahunoslik yoki tangalar tarixi haqidagi fanidir. Arxeologik tadqiqotlar davomida topilgan tanga yordamida har bir inshootning qurilish, mavjud bo'lish va inqirozga uchrash davrlari aniq sanalarda aniqlanadi.



Numizmatika

Arxeologiya va antropologiya - Antropologiya grekcha so'z bo'lib, "antropos"-odam, "logos"-fan' demakdir. Antropologiya uning bir tarmog'i tarixiy antropologiya qadimgi odamning tana tuzilishi va taraqqiyotini arxeologik qazishmalar jarayonida to'plangan manbalarga tayangan holda o'rganadi.



Antropologiya

Arxeologiya va etnografiya - Etnografiya - yunoncha soʻz boʻlib, “etnos” - xalq, “grafikos”-yozish demakdir. Arxeologik qazuv davomida toʻplangan moddiy madaniyat namunalari, antropologik topilmalar yordamida har bir etnik guruhning oʻziga xos madaniyati, uning bir hududdan boshqa hududga migratsiya jarayoni kompleks yondashuv orqali mintaqada yuz bergan va etnik va madaniy jarayonlar etnografiya fani bilan beʻvosita aloqadorlikda oʻrganiladi.



Etnografiya

Arxeologiya va tarixiy geografiya hamda toponimika - Har bir mintaqaning tarixiy geografiyasi va tarixiy toponimikasini yoritishda, alohida shahar

etimologiyasini aniqlashda yoki tarixiy manbada tilga olingan shaharni ma'lum bir arxeologik yodgorlik o'rnida joylashtirishdirda arxeologiya ma'lumoti juda muhimdir.

Arxeologiya va tabiiy fanlar - Arxeologiya o'z taraqqiyoti davomida geologiya, biologiya, fizika, ximiya, va matematika fanlari bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan.

Biologiya fanining metodlaridan - biri dendroxronologiya yog'ochdan yasalgan topilmalar yoshini aniqlashda qo'llaniladi. Fizika fanining yutuqlaridan biri radiokarbon ($C-14$) metodi yordamida organik qoldiqlar asosida qadimgi g'or makon yoki inshoot yoshi ± 25 yil aniqlikda aniqlanadi.

Kimyo va uning tarmoqlari yordamida san'at namunalari, xususan haykallar, devoriy suratlar, qadimgi qo'lyozmalar kimyoviy usulda qotiriladi va ularning tarkibi aniqlanadi.

Zamonaviy arxeologiya fanida matematik statistika, aerofotografiya va hozirda ayniqsa kosmik fotografiya usullaridan keng qo'llanilmoqda.

Boshqa turdagi arxeologiya fanlari sohalari.

- **Fazoviy arxeologiya** - arxeologik yodgorliklarni fazodan turib tadqiq etish turi.
- **Arxeologik buyumshunosligi** - arxeologiyaning har bir arxeologik davrga oid buyum va jihozlarni o'rganadigan sohasi. Har bir buyumning o'ziga xos kelib chiqish va taraqqiyot tarixi bor. Hozirgi kunda ishlatilib turgan buyumlar (pichoq, qozon, piyola, kosa) ibtidoiy zamonlardan boshlab necha bosqichlarni o'tib, so'nggi holatida bizga yetib kelgan. Har bir tarixiy davr va bosqichning buyumlar majmuasi arxeologiya fanida oydinlashadi. Shuning uchun har bir davrning buyum va jihozlarini o'rganishda Arxeologik buyumshunosligining ahamiyati katta.
- **Antrokologiya** (Anthracology) - toshko'mir qoldiqlari bilan shug'ullanuvchi arxeologiya.
- **Arxeometriya** (Archaeometry) - ilmiy metodologik davrlashtirish yoki arxeologik metodolokiya, masalan, radiokarbon davrlashtirish, statistika va

masofaviy sanoq va h.k.

- **Arxeozoologiya** - yodgorliklarda hayvon suyak qoldiqlarini o'rganuvchi arxeologiya.
- **Arxeobotanika** yoki **paleobotanika** - yodgorliklarda madaniy o'simliklar qoldiqlarini tadqiq etuvchi arxeologiya.
- **Jang maydoni arxeologiyasi**(Battlefield archaeology) - qadimgi janglar o'tgan maydonlarni tadqiq etuvchi arxeologiya.
- **Kompyuter arxeologiyasi** - arxeologik manbalarni kompyuterda qayta ishlash arxeologiyasi. Asosan arxeologiyada GIS (Geografik informastion sistemasi) ishlari bunga misol bo'ladi.
- **Eksperemental arxeologiya** - qadimgi davr moddiy madaniyat ashyolarini yasash texnologiyasini qayta o'zlashtirish arxeologiyasi. Masalan, ibtidoiy jamiyat tosh qurollarini yasash va h. k.
- **Sud arxeologiyasi** - arxeologik qazuv metodlarini qo'llagan holda jinoiy ishlarni ochish arxeologiyasi. Asosan harbiy va jinoiy ishlarda qo'llaniladi.
- **Landshaft arxeologiyasi** - arxeologik yodgorliklar joylashgan hudud yer tuzilishini o'rganadi.
- **Osteologiya**- suyaklar ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi.
- **Paleopotologiya** - odamlar va hayvonlar orasidagi qadimgi kasalliklar ustida tadqiqot ishlarini olib boradi.
- **Reksiologiya**- jangchi va jang ashyolarini tiklash arxeologiyasi

Savol va topshiriqlar

1. Arxeologiya fanining vazifalari nimalardan iborat?
2. Tarix va arxeologiya fanlarining o'zaro bog'liqligining asosiy tamoyillari?
3. Kishilik jamiyatini o'rganishda arxeologiya fanining o'rni?
4. Arxeologiyada qo'llaniladigan radio-karbon usuli qaysi tabiiy fanga aloqador?
5. Arxeologik topilmalarni saqlashda qaysi fan yutuqlaridan foydalaniladi?
6. Arxeologiya biyologiyaning qaysi tarmog'i bilan bog'liq?

7. Arxeologiya va matematika fanlarining o'zaro aloqadorligini izohlab bering.

Mavzuga oid test

1. Insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy madaniyat ob'ektlari sanaladi, ya'ni turli mehnat, ov va jangovor qurollar, sopol buyumlar arxeologik termin?

- A Artefakt
- B Pleystosten
- S Ekofakt
- D Antikvariy

2 Shurfning ma'nosi nima?

- A nemischa so'z bo'lib, o'zbek tilida qazimoq degan ma'noni bildiradi.
- B inglizcha moddiy madaniyat ob'ektlarini o'rganish
- S fransuzcha uzoq vaqtgacha bir joyda arxeologik tekshirishlar o'tkazish
- D xitoy tilida qulfli arxeologik manzilni o'rganish

3. O'rta asrlar o'z rivojlanishi jihatidan nechta bosqichga bo'linadi.


- A O'rta asrlar o'z rivojlanishi jihatidan 3 ta bosqichga bo'linadi.
- B O'rta asrlar o'z rivojlanishi jihatidan 2 ta bosqichga bo'linadi.
- S O'rta asrlar o'z rivojlanishi jihatidan 5 ta bosqichga bo'linadi.
- D O'rta asrlar qam o'z rivojlanishi jihatidan 4 ta bosqichga bo'linadi

4. V. V. Bartoldning bevosita rahbarligida va taklifi bilan "Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi" tuzilib, uning ustavi tasdiqlandi.

- A 1895 yilda
- B 1912 yilda
- S 1917 yilda
- D 1924 yilda

5. Nikolay Xannikov Sankt -Peterburgda "Buxoro xonligining tavsifi" nomli asarini chiqardi.

- A 1843 yilda
- B 1812 yilda
- D 1889 yilda
- D 1854 yilda



2-mavzu: Paleolit davri va uning bosqichlari

Reja:

- 2.1. Odamzodning paydo bo'lishi to'g'risidagi ilmiy yondashuv.
- 2.2. Paleolit davri umumiy xususiyatlari.
- 2.3. Ilk paleolit davri arxeologiyasi.
- 2.4. O'rta paleolit davri arxeologiyasi.
- 2.5. So'nggi paleolit davri arxeologiyasi.
- 2.6. Ibtidoiy tasviriy san'ati.

Tayanch iboralar: Antrogenz, diniy qarash, dunyoviy qarash, Sharqiy Afrika, Olduvay, Zinjantrop, Sinantrop, Neandertallar, Germaniya, Keniya va Tanzaniya, Pitekantrop, Teshiktosh, A.P. Okladnikov

2.1. Odamzodning paydo bo'lishi to'g'risidagi ilmiy yondashuv.

Insoniyat yashab turgan yer shari taxminan besh milliard paydo bo'lgan. Yerning shakllangandan keyingi davri geologik jihatdan ma'lum davrlarga bosqichlarga bo'linadi. Shundan oxirgi bosqichi sanaladigan Kaynozoy (taxminan 70 mln. yil

avval boshlangan) erasida sut emizuvchilar hukmronlik qilgan. Kaynazoy erasi o'z navbatida paleogen va neogen davrlariga bo'linib, uning oxirgisi uchlamchi va to'rtlamchi yoki antropogen (antropos-odam, genezis-tug'ilish, vujudga kelish) bosqichlariga bo'linadi. Aynan mana shu davrdan boshlab insoniyatning dastlabki ajdodlari shakllana boshlaydi.

Ma'lumki, yer yuzi o'z tarixi davomida ma'lum muddat sovib, shimoliy mintaqalar muzlik bilan qoplanib, ma'lum muddat isib turgan. Bunday holat antropogen davrida ham sodir bo'ladi. Bu davrda bir necha pleystosten muzliklari (**glyastial**-gyunst, mindel, riss va vyurm) va ular oralig'ida issiq davrlari (**interglyastial**-gyunst-mindel, mindel-riss, va riss-vyurm) bilan almashadi. Muzlikning boshlanishi ayrim iqlimshunos olimlarning ilmiy taxminlariga ko'ra qor yog'ish miqdorining ortishi sabab bo'lgan. Dastlabki muzlikning markazi Yevropa, Amerika qit'alarining shimoliy hududlari, xususan, Kanada, Buyuk Britaniya, Skandinaviya va Rossiyaning shimoliy hududlaridan o'tgan chegarasi yer yuzining 30% qismini egallab, hozirgi muzliklarga nisbatan 3 baravar katta bo'lgan. Yirik tog' tizmalari ham muzlik bilan qoplangan. Muzliklar oralig'i davrida ob-havo issiq va namchil hisoblangan. Muzlik oldi hududlarida ob-havo keskin sovuq bo'lgan tundrani tashkil etgan. Janubiy hududlarda ob-havo iliq va yog'ingarchilik mig'dori ancha yuqori bo'lgan.

Hozirgi zamon turli fan sohasi olimlari orasida antropogen davrining boshlang'ich sanasi borasida turli qarashlar mavjud. Ayrim tabiatshunos olimlar orasida uning boshlangan davrini G'arbiy Yevropadagi villafrank fauna yotqiziqlari bilan qiyoslab, 3,5/3 mln. yil avval boshlanganligini ta'kidlashsa, boshqa bir paleontropologiya (Paleoantropologiya -yunoncha palanogo, pianos - qadimgi va *anthros* - odam, fizik antropologiyaning hosillar qoldiqlari evolyutsiyasini o'rganuvchi bo'lim) va arxeologiya sohalari olimlari esa keyingi yillarda topib o'rganilayotgan paleoantropologik va moddiy topilmalarning mutlaq davrlashtirish natijalariga tayanib, uni quyi sanasini mil. avv. 3/2,5 mln. yilliklar doirasida belgilashmoqda.

Odamning kelib chiqishi. Odamning kelib chiqishi masalasi ustida olimlar bir necha yuz yillardan beri tadqiqot olib boradilar, bu masala bo'yicha turli nutai-nazarlar mavjud bo'lib, lekin ularning ba'zilar o'z isbotini hali topganicha yo'q. Odamning kelib chiqish va rivojlanishi jarayoni tarix fanida Antropogenez-yunoncha "antropos"- odam, "genezis"- rivojlanish deb yuritiladi.

Odamning kelib chiqishi, kishilik jamiyatining paydo bulishi, uning rivojlanishi va taraqqiyoti to'g'risida fanga turli xil yondoshuvlar, qarashlar mavjud. Biz ularni 2 ga bo'lib o'rganamiz.

1.Diniy qarash.

2.Dunyoviy qarashdir.

Biz yashab turgan moddiy dunyo azaldan bo'lganmi? Yerdagi hayot qachon paydo bo'lgan, odam paydo bo'lgan kabi masalalarda diniy va ilmiy adabiyot bir-birini inkor etuvchi xulosalar bilan yondoshadi.

XVII asrning ikkinchi yarmigacha organizmlar o'z ajdodlaridan hosil bo'lishidan tashqari qulay sharoitda ulik moddalardan ham paydo bo'la oladi degan tasavvurlar mavjud edi. Masalan, timsohlar balchiqlardan, arslon va yulbarslar sahro toshlaridan, sichqonlar bug'doydan hosil bo'lishi mumkin, degan afsonaviy tasavvurlar keng tarqalgan edi. XVI asrda yashagan biolog vrach **Van Gelmont** sichqonlar dondan, vrach **Parastels** baliqlar va sichqonlar sasigan suvdan paydo bo'ladi, degan fikrni targ'ib qildilar. **Parastels** hatto kichkina tirik odam gomenkulisni laboratoriyada tayyorlash uslubini ham tuzgan. XVII asrda yashagan Italiya **olimi Franchesko Redi** hayotning o'z-o'zidan paydo bo'lishi to'g'risidagi bunday tasavvurlar noto'g'riligini birinchi bo'lib tajribada isbotladi. U o'z tajribalarida shisha idishlarga bir parchadan go'sht solib, ba'zi idishlarning ustini doka bilan yopib, ba'zilarini ochiq holda qoldirdi. Ochiq holdagi idishlardagi go'shtlarga pashsha qo'ngani uchun tez orada ularda qurt paydo bo'ldi va rivojlandi. Yopiq shisha idishlardagi go'sht sasib chirisa ham, ularda hech qanday qurt rivojlanmadi. Redi o'z tajribalariga asoslanib, hasharotlar chiriyotgan go'shtdan emas, balki urg'ochi pashshalar qo'ygan tuxumdan rivojlanishini ta'kidladi. Olimlardan **A. I. Oparin** 1924 yili, **Xoldeyn**

1928 yili Yerda hayot qanday paydo bo'lganligi haqida abiogen (hayotning paydo bo'lishib. to'g'risidagi hozirgi tasavvurlarning birlamchi organik birikmalarning sintezida katta ahamiyatga egaligi) gipoteza yaratdilar. Oparin (Sovet olimi Aleksandr Oparin (1894-1980) tomonidan taklif qilingan hayotning kelib chiqishi nazariyasi uzoq vaqt davomida ilmiy dunyoda eng ta'sirchanlardan biriga aylandi. Ushbu nazariya hayotni materialistik metodologiya nuqtai nazaridan tavsiflaydi va ibtidoiy yer sharoitida sodir bo'layotgan fizik-kimyoviy jarayonlar ta'sirida hayotning o'z-o'zidan paydo bo'lishini isbot qiladi). Oparin nazariyasi kimyoviy evolyutsiya nazariyasidir. Olim o'zining g'oyalarini dastlab Sovet Ittifoqida 1924 yilda nashr etilgan va 1938 yilda ingliz tiliga tarjima qilingan "Hayotning kelib chiqishi" kitobida bayon qildi. Akademik Oparin o'z gipotezasida yerdagi hayot boshqa planetalardan ko'chib kelmaganligini, balki materiyaning milliard yillar davom etgan rivojlanishi natijasi ekanligini qayd qildi.

XX asr boshida Charlz Uolkott topgan stromatolitlar muhim ahamiyat kasb etdi. U Kanadaning g'arbida topilgan ohakdan iborat g'ovak tepaliklar va ustunlarni tekshirib, bu riflari suv o'tlaridan iborat, deb taxmin qildi. Keyinchalik olimning bu taxmini to'laligicha tasdiqlandi. 1954 yili Steli A. **Tayler Ontarioda** topilgan qazilmalarni tekshirib, ular ko'k-yashil suvo'tlar va bakteriyalardan iborat ekanligini isbotladi. Avstraliyaning g'arbiy qirg'oqlaridagi suvi juda sho'r, shunga ko'ra umurtqasiz hayvonlar bo'lmagan Sharq ko'rfazida tirik stromatolitlarni topdi va ular kembriy davrigacha yashagan ko'k-yashil suvo'tlar bilan bakteriyalarga o'xshashligini ma'lum qildi.

Shunday ekan dunyoviy bilim ham diniy bilimlar ham o'z nuqtai-nazarlarini ilgari so'radilar. Diniy ta'limot qarashlarini xurmat qilgan holda fanda odamning paydo bo'lishi haqida evolyustion ta'limot mavjudligini aytib o'tmoqchiman. Ayniqsa hozirgi vaqtda antropogenez mavzusi ko'pdan-ko'p yangi fikr mulohazalar bilan bog'langan. Insoniyatning dastlabki vakillarining qazilma qoldiqlari 1959 yilda Amerikalik olimlar tomonidan Sharqiy Afrikadagi Olduvay

daryosida topilgan. Bu odam qoldiqlari Tanzaniyaning Zinj nomli qishlog'idan tonilgani uchun uni shu nom bilan Zinjan Trop odami deb ataladi.

Bu yerda odam suyaklari bilan birga har xil hayvonlarning antiqa suyaklari va tosh qurollar ham topiladi. Zinjanthrop topilgan biologik qatlamning sanasi 1,5 - 2 million yil deb taxmin qilinmoqda. Indoneziyadagi Yava orolida 1890 yil eng qadimgi odam suyagining qoldiqlari topilgan bo'lib, uni ptekanthrop deb nomlaganlar. Yunoncha maymun odam demakdir.

Xitoyning Pekin shahri yaqinida topilgan odam suyagi qoldiqlari joy nomi bilan atalib, sinontrop Xitoy odami deb nomlangan. Sinatroplar o'tkir qirrali tosh qirollardan va tabiiy olovdan foydalanganlar.

“Ishbilarmon odam” larning vakillari bo'lgan zinjanthrop va avstrolopitek (lotincha janub odami) bundan 3-2 million yillar oldin yashaganlar. Pitekanthrop miloddan 700-600 million yillar, sinantrop esa 600-500 million yillar ilgari yashagan. Ular ilk paleolit davri odamlari deb hisoblanadi.

Zinjanthrop avstrolopitekilar oilasining eng qadimgi vakili hisoblanadi, olimlar unga “Xomaxabilis” ishbilarmon odam deb nom berilgan va u eng sodda mehnat qurollari yasay olgan.

Zinjanthrop, pitekanthrop va sinantropilar ilk toshlari ildiz utgan eng qadimgi odamlar rivojlanishini bosqichlari hisoblanadi.

Ular qaddini tik tutib yurganlar. Mehnat qurollarini yasab ishlata olganlar. Bu hol ularni hayvonot dunyosidan ajratib turgan. Sinatroplar ptekanthropilarga qaraganda murakkabroq mehnat quroli yasay bilganlar. Ming yillar davomida odamning tashki qiyofasi, miya hajmi o'zgargan.

Yer yuzi ob-havosi iliq bo'lganda odamlar manzillarda yangi anhor bo'yidagi tepaliklarda joylashgan ob-havoning keskin uzgarishi ilk paleolitning so'nggi davrlarida yer yuzi buyuk muzlik bilan qoplanganda odamlar yangi sharoitga moslashishga majbur bo'ladi. Bu hol ham ularni tashki qiyofasiga o'zgarish kiritgan.

O'rta paleolit davrida millotdan avval 100-40 ming yilliklar davrida yashagan odamlarni pitekanthropalar deb atalgan. Ularni suyak qoldiklari dastlab Germaniyadan Neandertal vodiysidan topilgani uchun shu joy nomi bilan atalgan.

Neandertallar yashash uchun g'orlarni o'zlashtiradilar. Nayza uchlarini yasaydilar, o'zlariga hayvon terisidan kiyim kiladilar, olovdan foydalanadilar. Mamont va boshqa yirik muzlik davri hayvonlarini ovlaydilar.

Neandertallar hozirgi qiyofadagi odamlarga utish bosqichidir. Kromonon Fransiya g'oridan topilgan odam suyaklari uning sunggi paleolit millioddan avvalgi 40-12 ming yilliklar davrida yashagani va jismonan hozirgi qiyofadagi odamlardan farq qilganligi ma'lum.

O'zbekiston hududida eng qadimgi odamlar ilk paleolit davrida taxminan 700-500 ming yillar oldin paydo bo'lgan olimlarning taxminicha O'zbekiston hududida yashagan eng qadimgi odamlar Janubiy Sharqiy va Sharqiy Osiyoning eng qadimgi odamlari bulishi sinatroplar Xitoy odamga yaqin qarindosh urug'dan bo'lganlar.

O'zbekiston hududida eng qadimgi odam Farg'ona vodiysida Selung'ur manzilidan va Toshkent vodiysining Kulbuloq mavzusidan Angren shahri yaqinidan topilgan. Qupol tosh qurollari bo'lib, bir tomoni kertib utkirlashtirilgan bo'lgan. Ilk paleolit davri odamlari kichik daryo buylari va buloqlar bo'yida o'zlariga makon qurganlar.

O'sha davrlarda iqlim issiq bo'lganidan kishilar bosh pana turar joy va kiyimga ehtiyoj bo'lmagan.

Insoniyatni rivojlanishida neandertal odamning o'zi alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi ta'kidlab o'tganimizdek, 1956 yilda Germaniyaning Dyussel Dorf shahri yaqinidagi neandertal g'oridagi yer qazish ishlari vaqtida tasodifan bosh suyak qopqogi va odam skeletining bir necha suyaklari topilib, shu yer nomi bilan ataladi. Bu skelet barcha qazilma odamlarining eng avvalgisi bo'lib, o'z vaqtida olimlar orasida kuchli bahslarga sabab bo'ldi.

O'sha vaqtdagi mashhur nemis olimi, Orientologi Verxov skeletning topilgan bo'laklari ibtidoiy odamga tegishli bo'lmay balki hozirgi zamon odamiga tegishli deb e'lon qildi va suyaklarning tuzilish xususiyatlarini esa alkoholizm va zaxm

kasalligi oqibatida deb tushuntirdi. Lekin bu topilmalardan keyin odamning faqat alohida qismigina emas, balki butun skeletlari, shuningdek ko'p marta tosh qurollari, kul qoldiqlari va shular bilan bir qatorda kishilik faoliyati bilan bog'liq bir qancha topilmalar birin-ketin topilaverdi.

Hozir neandertal deb atalgan bu qazilma odam yuqorida aytib o'tilgan o'tmishdagi odamlar singari yagona topilma emas: hozirgi vaqtda Yevropaning ko'p yerlarida, Janubiy Afrikada "Rodeziya odami" va "Afrikantrop" Falastinda Yava Orolida pitekantropolar topilgan joyda: Yavantrop va boshqa yerlarda ham ularning yashaganligi aniqlandi. Qrimda Sinferopol shaxridan 25 km sharqroqda Qiyikkoba g'oridan 1924 yilda G.A.Bonch - Osmolovskiy tomonidan topilgan.

O'zbekistonda topilgan teshik tosh g'oridan 1938 yilda O.P. Okladnikov tomonidan Muste tipi deb ataladigan juda sodda tosh qurollar bilan 8-10 yashar bolaning suyagi topilgan. (keyinchalik uning shogirdi Alekseev tomonidan bu suyak ayol kishiga tegishli ekanligi aniqlangan).

Shuni ko'rsatib o'tish mumkinki, g'ordagi neandertallarning alohida topilgan indevidlari yuqorida ko'rganimizdek, juda keng maydonga tarqalgan bo'lib, ular o'zaro bir-biridan farq qilsa ham bo'larning hammasi bir odamning turidir.

Qadimgi kishilarning yuqorida ko'rsatib o'tilgan vakillari odamsimon maymunlarga xos bo'lgan belgilardan asta-sekin uzoqlashib, hozirgi zamon odami tipiga yaqinlashgan: tik yurish takomillashgan, ko'z kosasi usti qavariq, iyak rivojlangan, peshona tekislangan va boshqalar, lekin eng ko'zga tashlanadigan narsa miyaning rivojlanishi natijasida bosh suyak hajmining kattalashishi bo'ldi. Hozirgi zamon yirik adashsimonlarning, qazilma odamlar va hozirgi zamon odamlari kalla suyaklarining katta kichikligini bilish uchun mavjud ma'lumotlarni solishtirilsa, quyidagilar ma'lum bo'ldi.

Gorilla 600 dan to 685 sm³ gacha.

Pitekantrop 800 dan to 900 sm³

Sinantrop 1000 dan to 110 sm³

Neandertal 110 dan to 1600 sm³

Hozirgi zamon odami 1200-1700 sm³.

Sinatrop va Neandertal odamlarning qoldiqlari bilan birga ularning mehnat faoliyatlarining izlari, xususan, juda sodda tosh qurollar topilgan. Arxeologik qazilmalar ichidan topilgan iptidoiy jamiyat davriga mansub bo'lgan moddiy madaniyat yodgorliklarining o'zi anchagina oldin bu taxminan qazilma odam topilgan davrlar ya'ni, 20 asr o'rtalaridan boshlangan va tinmay o'zgarib borayotgan arxeologik moddiy madaniyatning eng qadimgi taraqqiyoti haqida yetarli darajada aniq ma'lumotlar beradi.

Yer yuzining kattagina qismiga tarqala boshlagan paleantropalar - yangi neandertallar shu xilma-xil tabiiy sharoit va ishtimoiy mehnat jarayoni natijasida asta-sekinlik bilan rivojlanishda davom etdilar.

Oqibatda hozirgi jismoniy tipdagi "Yangi odam" neantrop darajasigacha yetib kelguncha katta tarixiy davrni bosib o'tdilar. Neandertallar o'zlarining jismoniy va aqliy qobiliyatlari bilan eng qadimgi va qadimgi odamlardan sifat jihatdan tubdan farq qilar edilar.

Shuning uchun ham uni "aql idrokli" odam - homo sapiens, deb ataganlar. Ular o'zlarining tashqi qiyofasi jihatidan hozirgi zamon odamlariga juda o'xshab ketadilar. Mutaxassislarning fikricha neandertallar bundan 40-35 ming yil muqaddam so'nggi tosh asrining boshlarida paydo bo'lgan va dastlabki eski dunyo bo'ylab keng tarqala boshlaganlar.

Ularning skeletlari, suyak parchalari, moddiy-madaniy qoldiqlari Afrika, Yevropa va Osiyoning ko'pgina joylaridan topilgan.

"Aql-idrokli" deb atalgan odamlar, dastlab O'rta yer, Qora, Kasbiy dengiz va unga tutash bo'lgan joylarda yashagan bo'lib, shu yerdan Markaziy Sharqiy, Janubiy-Sharqiy Osiyoga, Sharqiy-Janubiy Afrikaga, G'arbiy va Janubiy Yevropaga tarqalganlar.

Neantropalar tarqalgan joylar shartli ravishda qo'yidagi geografik o'lkalarga bo'linadi.

1. Yevropa muzlik o'lkasi.
2. O'rta yer dengiz o'lkasi.
3. Janubiy Afrika o'lkasi.

4. Sibir-mo'g'ul o'lkasi.

5. Hind-himolay o'lkasi.

Mazkur joylardan neandertallar yashagan juda ko'plab manzilgohlar. Bu manzilg'ohlardan esa ular qoldirilgan moddiy madaniy qoldiqlar va usha madaniyatni yaratgan kishilarning yuksak qoldiqlari, butun-butun skeletlari ko'plab topildi va topilmoqda.

Fransiyada kromanon, Komb-kapelg, Orinyak-Shanselyat, Italiyadagi "Dolalar g'ori", Grimalgdi, Kivilgon, Barmagrans, Bausso, Dextoro g'orlaridan Angliyadagi Paveliant g'oridan neontroplarning skeletlari va ularning moddiy-madaniyatiga oid buyumlar ko'plab topilgan.

Ishlab chiqarish kuchlari o'sa bordi. Kuchlarning rivojlana borishi natijasida ijtimoiy hayotda ham katta o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Bu o'zgarishlar ibtidoiy jamoa tizimining rivojlanishida xususan mehnat qurollari takomillashuvida kuzga tashlandi.

Qadimgi paleolit davrida qurollarning xili juda oz bo'lib, ular juda ham sodda ishlagan edi.

Lekin qadimgi paleolitning oxiri va so'nggi tosh asrining boshlariga kelganda manzara butunlay uzgarib, toshdan tarashlagich, qirgich teshgich va nayza uchlari, yer kavlagich qurollari vujudga keldi. Undan tashqari suyakdan va yog'ochdan bigiz, igna, suyil, nayza uchlari va boshqa murakkabroq asboblardan uchun moslamalar yasashga erishildi. Baliq ovlashning rivojlanishi munosabati bilan teskari tipli **garrpun** kashf qilishi ham ana shu davrga mansubdir.

Mehnat va ov qurollarining mukammalashuvi oqibatida ovchilik xo'jaligi va termachilik ham rivojlana bordi.

1891-1894 yillarda Gollandiyalik olim, vrash E. Dyubua tomonidan Indoneziyaning Yava orollaridan ibtidoiy ajdodlarimizning suyak qoldiqlari topib o'rganiladi va bu topilma fanga pitekantrop nomi ostida kiritiladi. 1936 yilda xuddi shu Yava orolidan pitekantrop bolasining tana suyaklari qoldiqlari topib o'rganiladi. Pitekantrop tana suyaklariga e'tibor beradigan bo'lsak, u ikki oyoqlab yurgan va miya suyagining hajmi 850-950 kub smni tashkil etgan. Pitekantrop

yashagan tabiiy muhitga e'tibor qaratsak, u o'rmonlardan iborat bo'lgan dengiz sathidan 600-1200 metr balandlikda joylashgan hududda yashagan. Yava orolida o'tkazilgan qazishmalar natijasida Pitekanthrop bilan birga qadimgi hayvonlarning suyaklari ham topib o'rganilgan va olib borilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, pitekanthrop hamda bu qadimgi hayvonlar Yava orolida sodir bo'lgan vulqon otilishi natijasida qirilib ketishgan. Ibtidoiy ajdodlarimiz insoniyatning eng qadimgi davri paleolit davridan boshlab toshlardan ov va mehnat qurollarini yasashni o'rganishgan. Ilk tosh qurollardan biri turi G'arbiy Panjob (zamonaviy Pokiston hududi) Soan daryosidan o'zanlaridan topilgan bo'lib, ular fanga ilk soan tosh qurollari nomi bilan kiritilgan. Shuningdek toshdan ishlangan qurollar Pekin (Xitoy), Keniya, Marokash, Uganda hudularidan ham topilgan.

Ilk paleolitda madaniy muhitning mavjudligi alohida joylar bilangina chegaralansa so'nggi paleolitda esa madaniyat tizim sifatida shakllanadi. So'nggi paleolitning boshlari gominid evolyutsiyasi yakunlanib zamonaviy "aqli odam" turi paydo paydo bo'ladi. So'nggi paleolitda turli-tuman tosh va boshqa qurollar notekis tarzda ko'payishi natijasida tarkibiy qurollar-tasma, uchlik, shuningdek, to'qimachilik paydo bo'ladi. Nihoyat, dastlabki tartibli ijtimoiy tashkilot - urug' tashkil topadi. Bu inqilobning mahsuli misollarining asosiy antropologik, ruhiy fiziologik, ruhiy ijtimoiy va ma'naviy birligi bo'lib, insonlar uyushmasining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, til, maishiy rivojlanishining tafovutlarga qaramasdan tarixda saqlanib qoldi.

Ibtidoiy odamlarning bilim darajasi ancha cheklangan bo'lsada, biroq yashash uchun kurash jarayonida atrof-muhitni kuzatib tajriba to'plaganlar. Natijada yangi tushuncha va tasavurlar paydo bo'lib, tafakkur va nutq rivojlana bordi. Bu esa jamiyat ma'naviy rivojlanishini tezlashtirdi. O'zlashtiruvchi xo'jalikda ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tilishi va tajribaning to'planishi natijasida yuzaga keldi.

Dastlab ibtidoiy odamlar oziq-ovqat qidirib o'zi yashayotgan muhitni yaxshiroq o'rgana boshladilar. Bu esa ularning geografik bilimini oshirgan. Tabitdagi mavjud iste'mol qilishga yaroqli o'simlik va mevalarni qidirib topishi, kuzatishi natijasida botanika bilimlari to'plagan. Yovvoyi hayvonlar ovlash

jarayonida hayvonlarning fe'li, turi, yashash joylarini kuzatish tufayli ibtidoiy odamlarda zoologiya bilimi shakllana boshladi. Bu jarayonlarni o'rganish ibtidoiy odamlar uchun zaruriy, hayot uchun kurash, tirikchilik manbai edi.

Kasallikni davolash uchun o'sha zamonning o'ziga xos sodda tabobati bo'lib, davolashda o'simliklar, mevalar, hayvonlar, mineral jismlardan foydalanganlar. Shuningdek, silash, uqalash usuli bilan ba'zi kasalliklarni davolaganlar va folbinlik, sehrgarlik va jodugarlik usullaridan ham foydalanganlar.

Ibtidoiy odamlar tabiatni, iqlimni sharoitdan kelib chiqib kuzatishi asosida ob-havoni oldindan aytib berish qobiliyati paydo bo'ladi. Tarbiya ham mehnat va turmush bilan chambarchas bog'liq bo'lib, odat va udumlar asosiy ahamiyat kasb etgan.


Ibtidoiy san'at ham odamning mehnat faoliyati bilan uyg'un holda vujudga kelgan. Ibtidoiy sanoat xilma xil bo'lib, bir necha turlarga bo'linadi:

1) Suyak, tosh parchasi, shoh, qulolchilik buyumlariga chizilgan belgilar, odam, hayvon va har xil narsalarning tasvirlari.

2) G'or devorlarga har xil ranglar bilan ishlangan hayvon, odam va buyumlar tasviri. Ularda ov, mehnat, jang va boshqa manzaralar tasvirlangan. Bunday tasvirlar Turon, Sahroi Kabr, Markaziy Osiyo, g'arbiy Yevropada ko'plab uchraydi.

3) Qoya toshlarga o'yib, chizib, ishqalash usuli bilan ishlangan tasvirlarda hayvon, buyum, qurollar va ibtidoiy kishilarning kun dalik mehnati bilan bog'liq manzaralar o'rin olgan. Qoya tosh tasvirlari Osiyo, Afrika va Yevropada ko'p uchraydi.

2.2.Paleolit davri umumiy xususiyatlari.



Paleolit (*yun. paleyos-qadimgi, litos-tosh*)-tosh asrining qadimgi bosqichi bo'lib, bu davrda ibtidoiy odamlar hamda hozirgi paytda turlari yo'qolib ketgan qazilma hayvonlar yashagan. Paleolit kaynazoy erasining so'nggi bosqichi bo'lgan antropogen (to'rlamchi) davrining eopleystosten va pleystosten bosqichlariga deyarli to'liq mos tushadi. Paleolit davrining boshlanishi yer yuzida sodda tosh qurollari yasay olish va ulardan foydalanish ko'nikmasini hosil qilgan insonyatning eng qadimgi ajdodlari paydo bo'lgan davrdan (taxminan 3/2,5 mln. yilliklar) to mil. avv. XII ming yilliklarga qadar davom etgan.

Paleolit davrining ilk bosqichlariga oid moddiy topilmalar Sharqiy Afrika hududlarida tarqalgan makonlarda o'z aksini topgan bo'lib, *Olduvay* makoni nomi bilan dastlabki bosqichi sifatida fanga kiritilgan. Qadimgi tosh asrining keyingi bosqichlari-*ashel*, o'rta paleolit (*muste*), so'nggi paleolit davrlaridan iborat bo'lib, ular quyidagi tartibda belgilanadi:

Davr	Bosqichilari	Madaniyat bosqichlari	Davriy sanalari
Paleolit	Ilk paleolit	Olduvay (ilk, o'rta, so'nggi)	mil. avv. 3/2,6 mln.-800 m.y.
		Ashell (ilk, o'rta va so'nggi)	mil. avv. 800/700-120/100 m. y.
	O'rta paleolit	Muste	mil. avv. 120/100-40/35/m.y.
	So'nggi paleolit	Madlen	mil. avv. 40/35-12 m.y.
		Tardenauz	
		Salyutra	

Olduvay davri. Sharqiy Afrikadan topib o'rganilgan dastlabki makon nomidan olingan paleolit davrining ilk bosqichi. Bu bosqichda insonyatning ilk ajdodlari shakllanib, ularga tegishli makonlar Afrika qit'asining Sharqiy hududlarida keng tarqalgan. Ulardan eng mashhuri Tanzaniya hududida joylashgan Olduvay darasidagi makonda amerikalik paleoantropolog olim Luis Liki mil. avv. 1,75 mln. yilliklarda yashagan Homa habilis - ishbilarmon odamiga tegishli suyak qoldiqlarini topib o'rganishga erishadi. Bu topilma o'z davri paleoantropologiya fani sohasidagi muhim kashfiyot sanalar edi. Yodgorlikda paleolit davrining

barcha bosqichlariga tegishli 100 metrda to'rtta madaniy qatlamlar aniqlanib, uning yuqorisi qismi so'nggi paleolit davriga oid bo'lgan. Yodgorlikning eng quyida qismidagi 40 metrli madaniy qatlami paleolit davrining ilk bosqichiga tegishli bo'lib, undan tosh qurollari va hayvon suyaklari o'rin olgan. 1-madaniy qatlamidan bir tomoni urib sindirib ishlangan qo'pol tosh qurollari-chopperlar, ikkinchi madaniy qatlamda esa ikki tomoni urib sindirib ishlangan tosh qurollari-choppinglar paydo bo'ladi. Ulardan keyingi madaniy qatlami esa ashel davriga tegishli.

Lekin, Olduvay makonidan qadimiyroq bo'lgan tosh qurollarining dastlabki namunalari Sharqiy Afrikadagi bir necha yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan topilgan. Ularning eng qadimgisi Efiopiyadagi Vest Gona (2,8-2,4 mln. avval) va Keniyadagi Koobi Fora (2 mln. yil avval) kabi makonlardan topib o'rganilgan. Mehnat qurollarining asosiy qismini vulqon lavasi qotishmasidan hosil bo'lgan jinslaridan yasalgan qurollar tashkil etadi. Boshqa bir necha qurollar esa kvarst va kremenli slanstdan yasalgan. Lekin, mazkur makonlar madaniy qatlamlarida ibtidoiy kishilar vakillariga tegishli suyaklar qoldiqlari uchramaydi.

Bu davr ibtidoiy kishilari toshlarga ishlov berishda hali aniq va maqsadli zarbalarni amalga oshirish ko'nikma va malakasiga ega bo'lmaganliklari tufayli yasagan qurollari sodda va ancha qo'pol shakl hosil qilgan.

Olduvay davrida asosan qo'pol uchirilgan uzunchoq (sferoid) qurollardir. Ular go'sht va o'simlik mahsulotlarini maydalash maqsadida foydalanilgan. Uchinchi turdagi tosh quroli "**chopper**" (inglizchada – kesuvchi) tomondan urib-uchirish asosida yasalgan bo'lib, kesish va chopish maqsadlarida foydalanilgan. Ishlov berilmagan yuqori qismi ushlab uchun qulay bo'lgan. Keyinchalik ikki tomondan urib uchirilgan "**chopping**" lardan foydalanila boshlaydi. Olduvay davri tosh qurollari turidan nukleus ham joy olgan. **Nukleus** - toshning mehnat quroli yasash maqsadida tabiiy qobig'i uchirib olingandan keyingi holati bo'lib, undan tosh qurollari yasash uchun bo'lakcha ko'chirib olish bilan bir vaqtda o'zidan qurol sifatida foydalanish mumkin bo'lgan. Olduvay bosqichi tosh qurollarining o'lchami 8-10 sm. ni tashkil etgan. Ayrim arxeologik ma'lumotlarning guvohlik

beriga ko'ra olduvayliklar dastlabki qo'l cho'qmoridan foydalanishgan. Qo'l cho'qmori zamonaviy tadqiqotlar davomida aniqlangan ashyoviy dalillarga ko'ra taxminan 1,5 mln. yilliklarda paydo bo'lgan ekan. Tosh qurolining bunday turiga nisbatan arxeologiya fanida "*bifas*", atamasi ham ishlatiladi. Dastlabki qo'l cho'qmorlari nisbatan yirik (uzunligi 35 sm. gacha). oval yoki bodomsimon shaklga ega bo'lgan og'ir mehnat quroli hisoblangan. Yuqori qismi keng va pastga tomon torayib, o'tkir tig' hosil qilgan bunday qurol bilan o'ng qo'lda zarba berilib, nisbatan og'ir vazifalar bajarilgan. Bunday turdagi tosh qurollaridan iborat moddiy madaniyat majmuasiga nisbatan "Olduvay madaniyati" atamasi ishlatilib, arxeologiya fani sohasida keng qo'llaniladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Gruziya respublikasidagi Dmanisi shaharchasi yaqinidagi makondan ham ibtidoiy odamlarga tegishli suyakalar topilgan bo'lib, uning mutlaq sanasini mil.avv. 1600 yilliklar bilan sanalangan. Yodgorlikning madaniy qatlamlaridan olduvay davriga xos tosh qurollar aniqlangan. Bu topilma odamning paydo bo'lishi to'g'risidagi monostentrik ilmiy qarashlarni inkor etishi mumkin.

Olduvay davrining oxirgi bosqichlaridan boshlab ibtidoiy odamlar Sinay yarim oroli orqali Yaqin Sharq hududlariga o'ta boshlaydi. Bu hudud fauna va florasida hozirga ancha yaqin bo'lib, bundan 2 million yillar avval Sharqiy O'rta yer dengizi yerlarida villafrank faunasiga xos fil, etrusk, gippopotam, timsoq kabi hayvonlar yashagan. Bu davrda relf ham hozirgidan ancha farq qilib, nisbatan past va tekis bo'lgan. Dengiz atrofi hududlari savannani eslatgan. Taxminan ikki million yillar avval tog' tizmalarining ko'tarilishi va tog'lar oralig'i vodiylarining pasayish jarayoni faollashadi. Tog'larning ko'tarilishi va eroziya jarayoni natijasida tabiiy g'orlar ochilib, keyinchalik qadimgi odamlar panoh topish imkoniyati paydo bo'ladi. Bunday qulay tabiiy sharoit so'nggi olduvay davri ibtidoiy odamlarining ushbu hudud bo'ylab keng tarqalishiga imkon yaratgan. Suriya va Livanning dengiz bo'yi hududlaridagi ibtidoiy makonlardan choppinglar va ularni yasashda hosil bo'lgan ko'plab mayda uchirindilar topilgan.

Ashel davri. Bu bosqichda yer yuzida ikkita muzlik oralig'i va ikki muzliklar hukmronlik qilgan davrga to'g'ri keladi (gyuns-mindel, mindel, mindel-riss va riss). Olduvay davridayoq Yevrosiyoga, ya'ni Sharqiy O'rta yer dengizi hududlarigacha tarqalgan ibtidoiy kishilar guruhining shimoliy-g'arbgaga tomon tarqala borishi Kichik Osiyodan Dardanell va Bosfor bug'ozlari orqali Bolqon yarim oroliga o'tib Yevropaning sharqiy va janubiy hududlari bo'ylab tarqala boshlaydi.

Afrikaning shimoli-g'arbiy qismi tomonga tarqalib bo'ylab siljigan boshqa bir to'lqini ilk ashel davridan Dardanel bug'ozini orqali Priney yarim oroliga o'tib, Yevropaning janubiy hududlarini egallaydi va shimoliga tomon kengayib boradi. Bu davrda Evropa, ayniqsa uning janubiy hududlarida issiq iqlim sharoiti hukron bo'lib, unga xos villafrank faunasiga xos issiq iqlim sharoitiga mos hayvonot dunyosi keng tarqalgan. Ilk ashel davriga oid arxeologik yodgorliklar Ispaniya, Portugaliya, Fransiya kabi davlatlarning hududlarida ko'plab uchraydi.

Bu paytda Olduvay bosqichida ma'lum bo'lgan tosh qurollari turi ko'payib, ularga ishlov berish takomillashadi, ayniqsa, qo'l cho'qmori yanada mukammalashadi. Ashel davrining o'rtalaridan boshlab tosh qurollariga zamonaviy arxeologiya fan tilida levallua (Parij yaqinidagi Levallua-Perre nomidan olingan) texnikasi, deb ataladigan usulda ishlov berish an'anasi vujudga keladi. Toshga ishlov berishning bunday kremenli toshning atrofidagi tabiiy qobig'i urib uchirib olingandan so'ng hosil bo'lgan gardishsimon (toshbaqa po'stiga o'xshash) shaklli nukleusdan ko'chirib olinadigan tosh bo'laklari va ularning mehat quroli sifatida ishlanish usuliga nisbatan **levallua texnikasi**, deb ataladi. Levallua texnikasi muste davrida rivojlanadi va ayrim janubiy o'lkalarda so'nggi paleolit davrida ham saqlanib qoladi. Bunday nukleuslarning konturi ilgarigiga nisbatan to'g'ri va tekis bo'lib, undan tomonlari to'g'ri va nisbatan yupqa tosh bo'laklari uchirib olish imkoniyati oshadi. Levallua texnikasiga asoslangan usul vujudga kelgandan so'ng tosh qurollari turi ancha ko'payadi. Bu davrda tosh qurollariga retushlash asosida ikkilamchi ishlov berish usuli paydo bo'ladi. Retushlash deganda, o'zak, ya'ni nukleusdan ko'chirib olingan tosh bo'lakchasiga

yordamchi vosita orqali kichik zarbalar orqali tig' hosil qilish tushuniladi. Retush suyak, yog'och va ayrim hollarda toshlar yordamida amalga oshiriladi. Keyinchalik "**otjimnyretush**", ya'ni kuch bilan siqib tig' hosil qilish usuli vujudga keladi.

Tosh qurollari bilan birgalikda ibtidoiy odamlar yog'och va suyaklardan ham mehnat qurollari yasashda keng foydalanishganliklari tabiiy. Lekin, bizgacha ularning kam sonli nusxalari saqlanib qolgan. Ularning namunalaridan biri Ispaniyaning **Torralba** manzilgohidan topilgan. U uloqtirish va kovlash maqsadlarida foydalanilgan. Angliyadagi **Klekton** makonidan tissa novdasidan yasalgan nayza topilgan. Laringen (Germaniya) makonidan ham o'ldirilgan fil qovurg'alari orasidan 215 *sm.* uzunlikdagi nayza sifatida ishlatilgan tissa navdasi topilgan.

Ashel davri uchun bir necha turdagi makonlar xos. Ular bir necha qalin madaniy qatlamlardan iborat ochiq joy, g'or-makon va ov jarayonida yashagan qisqa muddatli kulbalardan iborat bo'lgan. Ibtidoiy kishilar g'or-makonlarda va tekisliklardagi ochiq joylardagi chayla kulbalarida istiqomat qilishgan. G'orlarning ichki qismi odatda zax bo'lganligi sababli ularning oldida chaylalar barpo qilinib, ularning ayvonidan yog'inlardan tusuvchi tabiiy vosita sifatida foydalanilgan. Ibtidoiy kulbalarining izlari Tera Amanta, Lazaret g'ori, (Fransiya) va Azix g'ori (Ozarbayjon) lardan topilgan. Ularning ayrimlarida o'choq izlari uchraydi. G'orlar kishilarning yashashi uchun boshpana bo'lib qolmay yirtqichlardan himoyalantuvchi vositasi vazifasini bajargan.

Ashel davri oxiriga kelib, odamzod er yuzining keng hududi bo'ylab yoyiladi. Bu davr yodgorliklari Atlantika okeanidan sharqda Tinch, janubda Hind okeanigacha bo'lgan yerlarni ishg'ol etishadi.

Yevropaning ashel davri aholisi o'rmon fili, qisman yovvoyi ot, kamchilik holatlarda bug'ularni ov qilib kun kechirishgan. Aynan fil go'shti ibtidoiy odamlar oziq-ovqatining 5/4 qismini tashkil etgan. O'lja asosan yosh fil yoki uning bolalariga tegishli bo'lgan. Odatda o'lja ov qilingan joyda iste'mol qilingan. Bu davriga oid Torralba (Ispaniya), Ambrone yodgorliklardan topib o'rganilgan suyak

topilmalari shundan dalolat beradi. Ibtidoiy jamoa a'zolarining ov jarayoni nihoyatda mashaqatli kechgan. Birgina hayvonni ovlash uchun bir necha kunlab hayvonlar izidan ommaviy izg'ib yurishlariga to'g'ri kelgan.



Ov jarayoni

O'rta Osiyoning ashel davri arxeologiyasi. O'rta Osiyo hududi ibtidoiy kishilar tomonidan qachon egallanganligi to'g'risidagi ayrim ilmiy farazlar doirasida fikr yuritish mumkin bo'lgan yodgorliklar o'rganilgan. Ma'lumki, O'rta Osiyoning paleolit davri yodgorliklarini o'rganish ishlari A.P.Okladnikovning o'tgan asrning 30-yillarida olib borgan qidiruv ishlari natijasida Teshiktosh g'or-makonining o'rganilishidan boshlanib, hozirga qadar ko'plab yodgorliklar aniqlangan.

Hozirga qadar O'rta Osiyo hududidan ashel davrga oid yigirmaga yaqin aniqlangan ochiq turdagi joy makonlar va g'or-makonlardan iborat arxeologik yodgorliklar mintaqaning pastekistliklarida, tog' oldi va tog'li hududlarida joylashgan. Yodgorliklarning aksariyatida stratigrafik qazishmalar amalga oshirilgan, ayrimlarining sirtidan topilgan mazkur davrga oid tosh qurollari bilan

mashhur. Ashel davri arxeologik yodgorliklari O'rta Osiyoning barcha hududlarida uchraydi. Xususan, 1940-yillarida A.P. Okladnikov Turkmaniston Yangaja II, 1960-70 yillarida M.R.Qosimov Toshkent vohasi (Ko'lbuloq), U.I.Islomov Farg'ona vodiysi (Selung'ir), V.A.Ranov Janubiy Tojikiston (Qaratov I va Lohutiy I va Guldara) X.A.Altpisbaev Janubiy Qozag'iston (Bo'riqazigan, Tanirqazigan) va yaqin yillarda A.P. Drevyanko rahbarligidagi sibirlik arxeologlar guruhi (Janish va Dosti) hududlarida olib borilgan tadqiqot ishlari sababli O'rta Osiyoning ashel davri bo'yicha muhim ma'lumotlar to'plangan. Bu mintaqaning ashel davri yodgorliklari sanasi akademik U.I.Islomov tomonidan Selung'ur makonini mil. avv. 1,5 mln. yillikga oidligini e'tirof etsada, ularning asosiy qismi mutlaq davrlashtirish asosida mil.avv. 800-150/120 ming yilliklar doirasida bo'lganligi ko'pchilik mutaxassislar tomonidan ma'qulinmoqda.

O'rta Osiyoning muste davri yodgorliklari orasida Janubiy Tojikistondagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan yodgorliklari sirasiga arxeolog olim V.A.Ranov tomonidan o'rganilgan yodgorliklarda Guldara, Qaratov I va Lohutiy I yodgorliklari ashel davrining turli bosqichlaridan xabar beradi.

Ulardan eng qadimgisi Obimozor daryo vohasidagi Guldara makoni bo'lib, bu yodgorlik paleomagnet usulidagi tekshirish natijalariga ko'ra ashel davrining ilk bosqichiga oid. Makonning madaniy qatlamidan olingan tosh qurollarining hajmi ancha kichik. Tosh qurollarini dumoloq shaklli nukleuslar, tosh bo'lakchalari, uchrindilar, qirg'ichlar va sanchqilar tashkil etib, ular qayroqtoshdan ishlangan.

Ashel davrining keyingi bosqichlariga oid makonlar sirasiga Qaratov I, Lohutiy I va boshqa joy makonlari muhim ahamiyatga ega. Qaratov I yodgorligi Dushanbe shahridan 50 km. janubi-sharqda dengiz sathidan 1125 metr balandlikda joylashgan. Yodgorlikning madaniy qatlamlari erning tektonik siljishi natijasida soz tuproq tagiga ko'milib ketgan. Bu erdagi tosh qurollarining yasalishi juda sodda bo'lib, past navdagi kremen va daryo toshlaridan ishlangan. Yodgorlik mil. avv. 200 ming yilliklar doirasida sanalanadi.

Nisbatan rivojlangan madaniyat bosqichiga ega bo'lgan Lohutiy I yodgorligi Obimozor daryosining o'ng irmog'i Xashar daryosi sohilida joylashgan bo'lib,

tosh qurollari daryo toshlaridan yasalgan bo'lib, Qaratov I yodgorligidagi tosh qurollarga nisbatan ishlanishi takomillashgan shaklga ega bo'lgan. Nukleuslari gardishsimon va bir maydonchali. Tishli va uyiqliq qilib ishlangan tosh qurollari hamda chopperlar ham uchraydi. Makonning madaniy qatlamlarini termolyuminesstent usuli tekshirishlar natijalari uning 120-130 ming yil qadimiyligiga egaligini ko'rsatgan.

Ochiq turdagi makonlardan Angren shahridan janubi-g'arbda Ohangoron daryosining o'ng irmog'i Qizilolmasoyning o'rta oqimi qir-adirliklarda Ko'lbuloq bo'yida joylashgan shu nomdagi makon muhim o'rin egallaydi. Bu makonda arxeolog olim o'tgan asrning 60-70 yillarida M.R.Qosimov tadqiqot ishlarini olib borgan, keyinchalik mahalliy tadqiqotchilardan N.Xushvaqto'v, K.Kraxmallar va A.P.Drevyanko rahbarligidagi sibirlik arxeologlar tomonidan davom ettirilgan. Makon 41 ta madaniy qatlamdan iborat bo'lib, uning pastgi qismidagi ashel davrlariga oid qatlamlaridan ishlanishi ancha qo'pol tosh qurollari: qirg'ichlar, o'tkir uchli qurollar va nukleuslar aniqlangan. Bu qatlamlar o'z davrida ashel davrining so'nggi bosqichlari bilan sanalgan. Oxirgi tadqiqotlarda amalga oshirilgan mutlaq tekshirish tahlillari yodgorlikning quyi qatlami mil. avv. 800-700 ming yillik natijalarni bergan.

O'rta Osiyoning ashel davri topilmalari orasida Seleng'ur makoni ahamiyati yuqori sanaladi. Yodgorlik Oloy tog' tizmasidagi Haydarkon degan joyda joylashgan. Dastlab u o'tgan asrning 50-yillarda A.P.Okladnikov tomonidan o'rganilgan bo'lib, so'nggi paleolit davri bilan sanalangan. 80-yillarda arxeolog olim O'. Islomov va 90-yillarda uning shogirdi K.Kraxmallar tomonidan qazishma ishlari davom ettirilgan. Qazishma natijalarda yodgorlikning beshta madaniy qatlami aniqlanib, ulardan jami 1417 dona tosh qurollari, shundan 852 ta uchrindi, 306 ta turli tosh qurollari va 38 ta nukleuslar olingan. Shuningdek, havon suyaklari bilan birgalikda eng qadimgi odamlarga tegishli suyaklari ham topib o'rganilgan. Suyaklar ibtidoiy odam bosh chanoqning yuqori qismi, olti dona tish va elka suyak bo'laklaridan iborat bo'lgan. Hayvon suyaklaridan ayiq, bo'ri, yovvoyi cho'chqa, buqa, tur, ot, arxar, bug'u va nasorglarga ov qilingan.

Yodgorlikning quyi shakllangan vaqtining mutlaq davri bo'yicha ikki xil sanalar keltiriladi. U.I.Islomov yodgorlikning mutlaq sanasini mil. avv. 1,5 mln. yillik bilan davrlashtirishsa, ayrim xorijlik mutaxassislar uning qadimiyligini inkor etgan holda ashel davrining so'nggi bosqichiga oid ekanligini aytishadi.

Shuningdek, Bo'riqazigan, Tanirqazigan, Shabakti (Janubiy Qozag'iston), On Archa (Qirg'iziston), Yangaja, Qara Tengir, Qasqirbulaq (Turkmaniston) yodgorliklari O'rta Osiyo hududida ashel davrining boshlaridan boshlab ibtidoiy jamoa kishilari yashay boshlab, ularning makonlari ushbu mintaqaning tekisliklaridan tortib, baland tog' tizmalariga qadar bo'lgan keng hududlariga yoyilganligidan xabar beradi.

O'rta Osiyoning muste davri arxeologiyasi. Muste davri - riss-vyurm (interglyastial-muzlik oralig'i) va vyurm muzigi davrlariga to'g'ri keladi. Bu davrda o'tgan asrning oxirlariga qadar hukmron bo'lgan ilmiy qarashlarda odamzodning paleoantropolar, ya'ni neandertal turi yashab, ulardan zamonaviy qiyofadagi odamlar-neoantropolar ajralib chiqqanligi to'g'risidagi ilmiy qarashlar hukmron bo'lgan. Taxminan o'tgan asrning oxirgi oxirgi choragidan boshlab esa joylarda amalga oshirilgan tadqiqot ishlari natijasida to'plangan paleoantropologik topilmalarning guvohlik berishicha zamonaviy qiyofadagi ongli odamlar neandertallar bilan bir muhitda yashabganliklari isbotlandi. Bir turdagi ilmiy qarashga ko'ra neandertallar tur sifatida ongli odamlar bilan mil avv. 23 ming yillikga qadar birga yashab, keyinchalik ularning turlari qirilib ketgan ekan.

Muste davrining dastlabki bosqichi (mil. avv.120-80 ming yillar avval) riss-vyurm muzliklari oralig'i davridan iborat bo'lib, harorat issiq va yog'ingarchilik mig'dori yuqori bo'lgan paytlarda yer yuzida ashel davridagi issiqsevar fauna vakillari yashab, ibtidoiy kishilar kun kechirishlari uchun qulaylik yaratgan.

Muste davri moddiy madaniyati sohasida ma'lum ijobiy siljishlar sodir bo'ladi. Bu davrda Yevrosiyaning g'arbiy mintaqalarida tosh qurollariga ishlov berishning levallua texnikasi yanada takomillashadi. Janubiy o'lkalarda esa uning lokal hududlar uchun xos bo'lgan usullar takomillashadi. Nukleuslar mukammallashib, ular obdon tayyorlangan zarb maydonchasi bilan farq qilgan.

Zarb maydonchasi hosil qilingan nukleuslardan tekis uchburchakli uchrindilar ko'chirib olish va ulardan mehnat qurollari sifatida foydalanishlari mumkin bo'lgan. Muste davrida tosh qurollariga ishlov berish texnikasidagi o'zgarishlar bilan birgalikda ularning shakllariga o'zgartirish kiritishga qaratilgan ikkilamchi ishlov berish usullaridan ham keng foydalanilgan. Unda dastlab uchrindilarning ortiqcha qismlari sindirilib olingandan "retushlangan". Uni amalga oshirishda biror vositadan suyak, shox yoki toshlardan foydalanilgan. Bu davrda ayniqsa, qo'l kuchi bilan biror vosita orqali qattiq kertish orqali tig' hosil qilish usulidan ko'proq foydalanilgan. Bunday retushlash usulini amalga oshirish uchun ko'proq suyak yoki hayvon shoxlaridan foydalanilgan. Uchirindi bo'lagini retushlash jarayonida tosh qurol tig'i tishli yoki arrasimon shakl hosil qilgan. Natijada aniq shaklga ega bo'lgan, ko'p hollarda bodomsimon o'tkir uchli tosh kurollari vujudga kelib, ulardan xo'jalik maqsadlari va ov jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan. Tosh qurollariga ishlov berishning bunday usulidan faqat kremen navli toshlar uchun xos xususiyat sanalib, ushbu tosh navi keng tarqalgan Yevrosiyoning shimoli-g'arbiy hududlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Yevrosiyo mintaqasining janubiy o'lkalarida kremen navli toshlarning noyobligi tufayli mehnat qurollarini yasashda qayroqtosh va daryo toshlaridan foydalanilgan. Bu esa ulargaligi tufayli ularga ishlov berishning arxaik shakli saqlanib qoladi. Bu Pokiston hududida o'rganilgan Saon yodgorligi tosh qurollari nisbatan "saon texnikasi" sifatida fanga kirgan. Shuning uchun qadimshunos arxeolog olim Movius tosh qurollarining ishlanish usuliga ko'ra ikki asosiy guruhga ajratib o'rganishni taklif kiladi.

O'rta Osiyo hududi uchun arxeologik olim V.A.Ranov tadqiqotlari natijalariga asoslanib, tosh qurollariga ishlov berish texnikasiga ko'ra levallua, levallua-muste, tog'li muste, muste-saon kabi guruhlarni ajratadi. Keyinchalik Toshkent vohasidaagi Ko'lbuloq makoni tosh qurollari texnikasi asosida M.R.Qosimov tishli muste texnikasi faoliyati to'g'risidagi fikr bildirgan. Lekin, R.H.Sulaymanov mazkur davr tosh qurollarining ishlanish texnikasiga ko'ra ikki guruhga ajratishni taklifini bildiradi.

O'rta Osiyoning muste davriga oid dastlabki makon 1938 yili A.P. Okladnikov tomonidan o'rganilgan Teshiktosh g'or makoni, so'ng oradan 70 yildan ortiq davr mobaynida O'rta Osiyo hududidan muste davriga oid 200 dan ortiq arxeologik yodgorliklar aniqlangan. Muste davri yodgorliklari O'rta Osiyoning barcha hududlarida mavjud bo'lsada, O'zbekiston va Tojikiston respublikalari hududlaridan ularning soni ko'pchilikni tashkil etib, g'or makon va joy makonlardan iborat. Muste davriga oid yodgorliklarni o'rganishda D.N.Lev, V.A.Ranov, R.H.Sulaymanov, M.R.Qosimov, M.J.Jo'raqulov, T.Mirsoatov va boshqalarning olib borgan tadqiqot ishlari muhim ahamiyatga ega. Bu davrga oid arxeologik yodgorliklarning ko'pchilik qismi stratigrafik jihatdan yaxshi o'rganilgan.

Muste davri makonlari orasida Boysun tog'ining janubiy yonbag'rida dengiz sathidan 1500 metr balandlikda joylashgan Teshiktosh g'ori muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda beshta madaniy qatlam aniqlangan. Teshiktosh g'orida amalga oshirilgan qazishmalar chog'ida uch mingga yaqin tosh qurollaridan majmuasi aniqlangan. Siniq uchrindi, tosh parchalari, plastinka-parrakcha, nukleuslar va tosh bo'lakchalaridan iborat uch mingga yaqin tosh qurollari topilgan. Nukleuslarning notekis gardishlilari ko'pchilikni tashkil qiladi va ikki tomoniga ega bo'lganlari va uch burchakli va bir maydonchalilari ham mavjud. Teshiktosh g'ori tosh qurollari Samarqand janubidagi Omonqo'ton g'ori qurollariga o'xshash. Teshiktoshdan tog' echkisi, bug'u, ot, yo'lbars, ayiq, tulki kabi ko'plab hayvon va 20 dan ortiq qushlarning suyaklari aniqlangan. G'or-makonda kul qoldiqlari ham saqlangan.

Teshiktosh g'or-makonidan topilgan neandertal bolasining bosh chanog'i O'rta Osiyo hududidagi yagona paleoantropologik topilma hisoblanadi. Bosh chanog'i yuqori madaniy qatlamlardan joylashgan. Bola skleti to'liq saqlanmaganligiga ko'ra dafn etilgach yovvoyi hayvonlar o'ljasiga aylangan. Antropolog olim M.M.Gerasimov bo'laklardan iborat bosh chanoqni tiklab, uning qiyofasini tiklashga erishgan. U neandertal vakillarining 9 yoshli a'zosiga tegishli ekanligi ma'lum bo'lgan. Bola qabri atrofida tog' echkisining juft shoxlari tartib bilan terib qo'yilgan. Neandertallar marhumlarni dafn etish ko'nikmasiga ega

bo'lishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, hozirgi paytda neandertallar zamonaviy qiyofadagi odamlarning ajdodi bo'lmagan, degan qarashlar ustunlik qilmoqda. Paleantropologik ma'lumotlarning guvohlik berishicha neandertallar zamonaviy odamlar bilan birga yashashib, ular bundan taxminan 23 ming yillar burun qirilib ketishgan ekan.

Ochiq turdagi makonlardan Ko'lbuloq yodgorligi O'rta Osiyoning must davriga oid muhim yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Yodgorlikning o'rtadagi madaniy qatlamlari muste davri tarixidan darak beradi. Tosh qurollari kremniylashgan va daryo tosh navlaridan ishlangan qurollaridan iborat. Bu erdan gardishsimon dumaloq shaklli nukleuslar va shuningdek, levallua va protoprizma shakldagi nukleuslari xos. Tosh qurollari qirg'ish, kesish, teshish va boshqa maqsadlarda foydalanilgan nusxalaridan iborat bo'lib, ular tishli yoki o'yiqli usuldagi ikkilamchi ishlov asosida yasalgan. Yodgorlikning madaniy qatlamlarida kul qoldiqlari va hayvon suyaklari ham uchraydi.

Samarqand viloyati hudidida Omonqo'ton g'or-makoni, Qo'tirbuloq va Zirabuloq kabi ochiq turdagi joy makonlar mavjud bo'lib, ular arxeologik jihatdan yaxshi o'rganilgan.

Zarafshon tog' tizmasining yon bag'rida Omonqo'ton qishlog'iga yaqinida joylashgan Omonqo'ton g'ori o'tgan asrning 40-yillari oxirlari (1947-1949 yillar) da D.N.Lev tomonidan o'rganilgan, 2001 yil R.H Sulaymanov rahbarligidagi O'zMU arxeologiya kafedrasida Kolorado Universiteti Antropologiya departamenti (AQSh) hamkorlikda qayta tekshirish ishlarini amalga oshiradi. G'orning og'zi shimoliy-g'arbga tomon qaragan bo'lib, kenligi 1,5 m., balandligi 0,9 m. va ichkarisi 25 m. ni tashkil etib, taxminan yarmidan oshgandan so'ng ikkiga ajraladi. Tadqiqot ishlari davomida madaniy qatlamlari butunlay qazib olingan. Undan topib o'rganilgan qurollari kremen, kvast, diorit kabi tosh navlaridan yasalgan. Ular uchli paykonlar, plastinkasimon qurollar, chopqilar, nukleuslar va uchrindilardan iborat. Hayvon suyaklari orasida qo'ng'ir ayiq, tog' echkasi, mayda kemiruvchilar va boshqalarning suyaklari ko'plab uchraydi.

Samarqand shahridan taxminan 100 km. janubi-g'arbida Qo'tirbuloqni ochiq turdagi yodgorliklar sirasiga kiradi. Qo'tirbuloq makonidagi tosh qurollarini kremen, diorit, kvarstit va daryo toshlaridan yasalgan o'tkir uchli paykonlar, qirg'ichlar, teshgichlar, parmalar, bargsimon qurollar hamda daryoning shag'al va chaqmoq toshlaridan yasalgan chopping va chopper, yassi va gardishsimon nukleuslar, uchrindilar va boshqalardan iborat. Ular O'rta Osiyoning boshqa muste davri makonlariniki bilan umumiy o'xshashlikka ega. Unga yaqin bo'lgan joydagi Zirabuloq makoni moddiy topilmalarini ham kiritish mumkin.

Obirahmat g'or-makoni. O'rta Osiyodagi paleolit davrining noyob g'or-makonlaridan biri sanaladigan Obirahmat Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani hududida Toshkent shahridan 100 km. sharqda Tyanshon tog' tazmasining janubi-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, g'or makon A.R.Muhammadjonov tomonidan (1962) aniqlanib, M.M. Gerasimov va X.K Nasriddinovlar tomonida dastlabki qazishma amalga oshiriladi va R.H Sulaymanov (1964-1965) davom ettirgan. 1998 yildan O'zRFA Arxeologiya instituti va Rossiya FA Sibir bo'limi Arxeologiya va etnografiya institutlari hamkorligida ilmiy tekshirish ishlar qayta tashkil etiladi.

Amalga oshirilgan qazishma ishlarining natijalariga ko'ra g'or-makon 10 m. qalinlikdagi 21 ta madaniy qatlamlar aniqlangan. R.X.Sulaymanov olib borgan arxeologik tadqiqotlari natijasida makondan aniqlangan tosh qurollarining ishlanish texnikasiga bo'lgan o'z davri yondashuvlariga asoslangan olimi yodgorlikni muste davri bilan belgilagan. Keyingi qazishma ishlari natijasida toshga ishlov berish texnikasi xususiyatlarini asoslangan tadqiqotchilar yodgorlikni mustening keyingi va so'nggi paleolit davrining ilk bosqichlari bilan belgilashmoqdalar.

Yodgorlikda amalga oshirilgan bir nechata kalibrli mutlaq tekshirishlari orasida uran va radiokarbon usuli natijalarining ahamiyati katta sanaladi. Yodgorlikning yuqori madaniy qatlami mil. avv. 42000+-1400 ming yillik bilan sanalangan. Boshqa turdagi mutlaq tekshiruvlar esa, yanada qadimiyroq sanani (95 000 va 125 000 yillar) ko'rsatgan. G'or makon qalin madaniy qatlami unda ibtidoiy kishilar uzoq muddat istiqomat qilganliklaridan dalolat beradi.

G'ordan topilgan suyaklarning yarmidan ko'prog'ini yovvoyi echkilarga tegishli. Shuningdek, yovvoyi bug'u, qo'y, cho'chqa suyaklari ham mavjud. Bu yerda yashagan kishilar asosan tog' echkisini ov qilishgan. Topib o'rganilgan tosh qurollarining aksariyatini kremniylashgan toshdan yasalgan qurollar majmuasi tashkil etadi. Ular prizmasimon, ya'ni protoprizma texnikaga asoslangan turli qurollardan iborat. Qurollar hududdagi kremniylashgan mahalliy tosh zahiralarga ishlov berish imkoniyatlariga mos holda ko'chirib olingan uchrindilar nisbatan ancha qalin bo'lib, ularning ba'zilariga qayta ikkinchi marta ishlov berilgan. Asrimiz boshlarida A.P. Drevyanko rahbarligidagi ekspeditsiya xodimlari tomonidan arxeologik qazishmalarida zamonaviy qiyofadagi qadimgi odamlarga tegishli suyak qoldiqlarini topib o'rganishga muvoffaq bo'lishgan.

Muste davrining bunday turdagi makonlaridan Tojikiston Respublikasi **Vaxsh tog' tizmalarining** janubi-g'arbiy qismida joylashgan **Og'zikichik g'ori** muhim yodgorliklar sirasiga kiradi. G'ordagi madaniy qatlam 1 m. ni tashkil etadi. Bu yerdan qayroq toshdan ishlangan qurollar: plastinkalar, o'tkir uchli qurollar, parakchalar va qurol sifatida ishlatilgan uchrindilar, pichoq, qirish, kesish, teshish maqsadlarida foydalanilgan tosh parchalari qazib olingan. Bu qurollarning aksariyati retushlangan.

Ochiq turdagi makonlar sirasiga Vaxsh vohasida joylashgan Qorabura va Oqjarlar yodgorliklari tegishli. Qorabura joy-makonidan juda ko'p tosh parchalari va mehnat qurollari topilgan bo'lib, ularning yarmi qurol yasash maqsadida o'zakdan ko'chirib olingan mayda bo'laklardan iborat. Ular nukleuslar, uchrindi, uchli paykonlar. Nukleuslarning asosiy qismini bir tomonli gardishsimonlilar va kamchilik qismini esa ikki tomonli gardishsimonlari va protoprizma shaklga ega bo'lganlari tashkil etadi. Tosh qurollar orasida ayniqsa, chopper va choppinglar ham ko'p uchraydi.

Qirg'izistonning muste davriga oid makonlari ham nisbatan yaxshi o'rganilgan. Tossor va Georgiy do'ngligi bu yerdagi muste davrining mashhur makonlari sanaladi. Tossor tosh qurollari muste davrining so'nggi bosqichi va so'nggi paleolitning ilk bosqichlariga oid. Georgiy do'ngligi mehnat qurollari

yuqori pleystostenning boshlanish davriga oid. Janubiy Qirg'izistondagi Isfara daryosi vodiysidagi Xo'jag'ayir degan joydan ham muste davriga oid manzilgoh topilgan. U yerdan toshdan yasalgan-parrakchalar, qirg'ichlar, pichoqsimon qurollar, nukleuslar, sixchalar topilgan.

Paleolit davri arxeologik tadqiqotlari.

Ilk paleolit davri shell, ashel davrlariga bolingan edi. Lekin keyingi davrlarda qilingan tadqiqotlar natijasida, uni **olduvay va ashel** davrlariga bolish muvofiq deb topildi. Chunki ilgarilari **olduvay** davri yodgorliklari kam bolib, uni davr tariqasida ajratish imkoni bo'lmagan. Shell va ashel qo'l cho'qmorlaridagi vazn jihatidan farqini e'tiborga olib, ularni davr sifatida ajratishgan. Keyingi yillarda olduvay davri mehnat qurollarining Ilk paleolit davriga oid **Abbevil yodgorligi** Fransiyaning **Sena daryosidan** 1835 yilda M. Pikar dastlabki tosh qurollarini topgan. Keyinchalik **Bushe de Pert** tadqiqot ishlarini olib borgan. 1932 yildan **F.Breyl** Fransiyaning ilk paleolit davrini **Abbevil** davri deb nomlagan. Bugungi kunda Yevropada ilk paleolit davri shell emas, balki **abbevil** deb ataladi. O'zbekiston hududining geotektonik va geomagnit hodisalarini tadqiq qilish natijasida uning o'ziga xos jihatlari aniqlandi. Bu esa paleolit davri xronologiyasida o'zgarishlarga olib keldi.

Ilk paleolit **jahon arxeologiyasida** 3 mln yillikdan to - 100 ming yilliklargaacha O'zbekistonda, ilgari, ilk paleolit davri 1 mln yillikdan 100 ming yillikkacha davom etgan deb hisoblangan. Arxeologik davrlashtirishning yangi metodi asosida uning bundan 2 mln yillikdan 200 ming yillikkacha davom qilganligi aniqlandi.

Olduvay bosqichida qol cho'qmorlari (chopper)dan foydalanganlar. Qo'l cho'qmorlari odatda bir tomoni **bodomga** yoki **yurakka** o'xshab qol cho'qmorlari bundan 3 mln. yil ilgari paydo bo'lgan. Ilk qol cho'qmori **Tanzaniyadagi Olduvay** darasidan topilgan. Bunday qurollar Efiopiyaning Koda Gona, Janubiy Afrika, O'rta Osiyodagi Selung'ir makonidan topilgan. Olduvay davri odamlari termachilik va yirik hayvonlarga to'da-to'da bolib hujum qilib, ovchilik bilan shug'ullanganlar. Bu davr odamlari tabiatga to'la qaram bo'lib, uy-joy qurilishini

ham, olovdan foydalanishni ham bilmaganlar. Yirtqich hayvonlardan oddiy va dag'al qurollar bilan himoyalanganlar. Tabiat ham insonlar yashashi uchun qulay, issiq bo'lgan.

Bundan 1,7-1,6 mln. yil ilgari ikki tomoniga ishlov berilgan qo'l cho'qmoridan foydalana boshlanganlar. Bunday qurollar dastlab Afrika hududida paydo bo'lgan. Old Osiyoda I mln oldin, Yevropa hududida 750 ming yil oldin tarqalgan, **Ashel** davriga kelib odamlar birmuncha taraqqiyot darajasiga erishganlar. Endi kishilar turli tog', daryo jinslari, asosan chaqmoqtoshdan qurol yasashni o'rgana boshlaganlar. Qurollarni ishlash texnikasi birmuncha takomillashgan. Asta-sekin tosh qurollarining turi ko'paya boshlagan. Ashel davri oxiriga kelib havo keskin ravishda sovugan, muzlik davri boshlangan. Yevropa hududini muzlik qoplagan, tropic o'lkalarda esa, **plyuvia** davri ("plyuvia" lotincha so'z bolib –"yomg'ir" degan ma'noni beradi) boshlangan.

Geolog va arxeologlar yer yuzida **4 ta muzlik davri** – (1.**Dunay, Gyunst**), **2.mindel, 3.riss, 4.vyurm** muzliklari bo'lganligini aniqlashgan. Bu nomlar muzlik yotqiziqlari aniq saqlangan to'rtta alp qishlog' nomidan olingan

Kaynozoyning boshlariga kelib hozirgi Yevrosiyoning shimoliy qismi o'rnida quruqlik mavjud bo'lgan. Yevrosiyoning sharqi va janubiy-sharqida qadimiy **mezozoy** tog'lari qo'shilib ketgan. Yevrosiyo Shimoliy Atlantika botiqligi orqali Shimoliy Amerikadan ajralgan. Kaynozoy erasidagi tektonik harakatlar yer yuzasi ko'rinishini keskin o'zgartirib yuborgan.

Paleogenda Hindiston, Avstraliya va Antraktida bir-biridan ajraladi. Hindiston palasasi shimolga surilib neogenning boshlarida Osiyo bilan tutashadi. Avstraliya o'z o'qi atrofida soat mili yo'nalishiga teskari burilib shimoliy-sharqqa qarab harakatlanadi. Bunda Antarktida va Afrika deyarli harakatsiz qolgan. Afrika va Janubiy Amerika orasida Atlantika okeani aniq ifodalangan.

Kaynozoyda Yevrosiyoning O'rta yer dengizi mintaqasidan shimolda iqlim va organik dunyo mezozoy erasining oxiridagiga qaraganda o'zgacha bo'lgan. Janubda iqlim issiq va nisbatan nam, shimoliy rayonlarda esa mo'tadil iliq va nam bo'lgan.

Ilk ajdodlarmiz tomonidan dastlabki tosh qurollar yaratgunga qadar Tropik Afrika va umuman butun dunyoda muzlik davrlariga o'tish jarayoni sodir bo'ladi. Har bir muzlik davriga o'tish jarayonida o'simlik dunyosining o'zgarishi, iqlimning keskin ravishda o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. Bundan 2.5 million yil avval bunday tosh qurollarni ishlab chiqargan dastlabki ajdodimiz 35-36 gradus shimoliy va janubiy kenglikda ya'ni Afrika hududida istiqomat etgan.

Yer shari qobig'i to'rtta asosiy davrga bo'linadi. 1. Arxey, 2. Paleozoy (Proterozoy), 3. Mezozoy, 4. Kaynozoy eralari. (Arxey -grekcha "juda qadimgi" era - bu yerda yerda hayvon organizmlari hamda o'simlik organizmlari bo'lmagan. **Proterozoy** -grekcha proteros- birlamchi, zoy-hayot era- bu yerda noaniq qoldiqlar va bevosita belgilar bo'yicha boshlang'ich organizmlar yashagan bo'lishi mumkin. **Paleozoy** - grekcha "qadimgi" era unda hozirgilardan juda kam farq qiladigan, lekin ancha yuqori tuzilgan o'simlik va hayvonlar bo'lgan. **Mezozoy** -grekcha "o'rta" era unda mukammal tuzilgan o'simlik va hayvonlar bo'lgan. **Kaynozoy** - grekcha "yangi" era bu yerda o'simliklar va hayvonlar hozirgilarga borgan sari o'xshab boradi. Arxey, proterozoy eralari to'liq o'rganilmaganligi uchun biz paleozoy erasidan boshlab davrlarni o'rganamiz. "Paleozoy erasi" terminini 1837 yilda A.S. Sedjvik tomonidan, mezozoy va kaynozoy eralarining nomi 1841 yilda D.J.Filipps tomonidan berilgan. Bu uch erani ba'zan Fanerozoy deb, Arxey va proterozoy eralarini esa, Kriptozy deb atashadi.

Kaynozoy erasi uchlamchi va to'rtlamchi davrlardan iborat. Aynan Kaynozoy erasi hozir ham davom etmoqda. Hozirgi kunda kaynozoy erasiga uchinchi bir davr ya'ni zamonaviy deb nomlangan davr qo'shilgan. To'rtlamchi davr **pleystosten** va **golosten** ya'ni muzlikkacha, muzlik bosqichlari va muzlikdan keyingi bosqichlaridan iborat. Sibir yoki Avstraliya, shuningdek Shimoliy hamda Janubiy Amerikaning ajdodlarmiz tomonidan o'zlashtirilganligi haqida yetarli isbotlar mavjud emas. Bundan tashqari so'nggi pleystosten davrida G'arbiy Yevropa va sharqiy Osiyoda ham ibtidoiy odamlar yashaganligi to'g'risida yetarli ma'lumotlar mavjud emas. Yerda hayot arxey davrining ikkinchi yarmida paydo bo'ladi.

Uchlamchi va to'rtlamchi davrlar yer shari tarixi uchun muhim ahamiyatga egadir. Uchlamchi davrda yerda tog'li hududlar paydo bo'ladi. Aynan mana shu bosqichda Kavkaz, Karpat, Alp, shuningdek Ximolay va Pomir tog'laridan iborat Osiyoning markaziy qismi vujudga keladi. Biz o'simlik va hayvonot dunyosida ham ma'lum bir o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. Gigant o'simliklar, paporotniklar yo'qolib, ularning o'rniga kichik o'simliklar paydo bo'ladi. yerda umurtqasimonlar hukmronligi boshlanadi. Insoniyat paydo bo'lgan davr yer shari tarixining **kaynozoy** erasi, aniqrog'i **neogenning** so'nggi bosqichi **Eopleystosten**, **pleystosten** davrlariga to'g'ri keladi. Neogen davriga insoniyatning qadimgi ajdodlari paydo bo'ladi (driopitek, ramapitek-hozirgi kunda insoniyatning ushbu ajdodlari qirilib ketgan hisoblanadi).



Paleolit davri hayvonlari

Arxeologlar tadqiqotlarida: Pleystotsen davrida Yerning o'simlik va hayvonot dunyosida katta o'zgarishlar ro'y berdi: masalan, **Avstraliyada** eng yirik marsupial hayvonlar, diprotodonlar va marsupial sherlar yo'q bo'lib ketdi. Biroq, Shimoliy yarimsharda biologik xilma-xillik ko'paydi: bu yerda mamontlar, bizonlar va turli tuyoqlilar yashagan. Bu iqlimning keskin o'zgarishi bilan bog'liq: turli qit'alarda muzlik bo'lmagan davrlar muzlik (muzlik) davrlari bilan almashinadi. Bu nuqtada

kontinental siljish allaqachon to'xtagan edi, lekin muzliklar, ko'llar va alp landshaftlarining shakllanishi tufayli relef o'zgarishda davom etdi. Olimlar Yer bo'ylab o'n bitta yirik muzlik hodisalari va ko'plab kichik muzliklarni aniqlaydilar.

Bu hodisalar, xususan, Dnepr muzliklarini o'z ichiga oladi.

Eoplestosten va pleystosten davrlari arxeologik davrlaridan biri-paleolit davriga to'g'ri keladi. Eopleystosten va pleystosten davrlarida yer yuzida iqlimning keskin sovushi va muzlashi kuzatiladi. Bu yer yuzida sodir bo'lgan buyuk muzlashlarning markazlari Yevropaning shimolidagi tog'lar va Amerika hududi hisoblangan. Bu markazlardan muzlikarning janub tomonga siljishini kuzatamiz. Bu davrda buyuk muzliklar yer yuzining 30 % ni qamrab olgan edi. Bu buyuk muzliklarning siljishi natijasida Pireneya, Alp tog'lari, Kavkaz, Oltoy va Himolayda muzliklardan iborat tog'lar vujudga keladi. Ob-havo harorati noldan ko'tarilmagan va insoniyatning qadimgi ajdodlari faqatgina muzliklardan janub tomonlarda jon saqlashga majbur bo'lgan. XX asrning birinchi **choragida Penk va Bryukner** tomonidan Alp tog'larida ketma-ketlikda mavjud bo'lgan to'rtta muzlik davrlari qayd etiladi. Bular Gyunst, mindel, Ris, Vyurm muzliklari. Yevropa, Shimoliy Osiyo va Shimoliy Amerikada eopleystosten davri ikkita muzlik fazalari bilan xarakterlanadi. Bular Yevropa muzliklari Dunay va Gyunst bilan birga Shimoliy Amerikada Nebraska muzliklari kuzatiladi. **Boriskovskiyning** fikriga ko'ra, bu muziklar davri keng hududlarga yoyilgan muzliklar emas, balki faqatgina iqlimning keskin sovushi natijasida qisqa davrda sodir bo'lgan muzliklardir. Yevropa hududi insoniyat dastlabki ajdodlarining Pleystostendan Golosten davriga o'tish va moslashish jarayoni kechgan turli shart-sharoitlarga ega bo'lgan xudud hisoblangan. Yevropaning ayrim qismlarida iqlimning keskin o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. Eopleystosten davri davomida Yevropa va ayniqsa O'rta yer dengizi havzasi hududida iqlim iliq bo'lgan. G'arbiy Yevropa aniqrog'i Italiya va Fransiya hududlarida villafrank fauna hukmron bo'lgan. (gippapotam, iliq havoni yoqtiruvchi fil, karkidon, bug'u, tuya, qilich tishli yo'lbars, ya'ni maxayrod, makaka istiqomat etgan. Gyunstdan keyin mindel muzlik davri keladi. Bu muzlik

davri iqlimning keskin sovigan o'rta muzlik davri sifatida xarakterlanadi. Bu muzlik davridan so'ng Riss muzlik davri boshlanadi. Bu muzlik davri G'arbiy Yevropada Skandinaviya yarim oroli, Daniya, Germaniyaning kattagina qismi, Angliyaning bir qismi, shuningdek Alp va Pireneyaga tutash hududlarni qoplab olgan edi. Bu muzlik davrida issiqlikni xush ko'ruvchi hayvonlar qirilib ketadi va ularning o'rniga mamontlar paydo bo'ladi. Undan so'ng esa **Vyurm** muzlik davri boshlanadi. Ya'ni bundan 18 ming yil burun Markaziy Yevropa ajdodlarimiz istiqomat etishi uchun noqulay shart-sharoitlarga ega hudud hisoblangan. Bu davrda asosan Yevropa hududida iqlimning keskin sovushi boshqa hududlarida esa tundra zonalarining paydo bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Yevropa hududida ibtidoiy ajdodlarimiz kamchilikni tashkil etgan va hayvonot dunyosi asosan mamont va karkidonlardan iborat bo'lgan. Bundan 13,000 yil avval esa Yevropada ya'ni shimoliy-g'arbiy qismi, ya'ni Britaniya orollaridan tortib toki Rus yerlariga qadar bo'lgan hududda iqlim keskin o'zgaradi va bu yerlarda dastlabki ovchilarning paydo bo'lishini kuzatishimiz mumkin.

Bundan 10 ming yil avval esa oxirgi muzlik davri tugaydi va iqlim issiqlasha boshlaydi. O'simlik va hayvonot dunyosi hozirgi o'simlik va hayvonot dunyosi qiyofasiga kira boshladi. Kishilik jamiyati tarixini davrlarga bo'lmay turib o'rganish mumkin emas. Davrlashtirishda tarixiy jarayon zamon va davrlarga bo'linib, ular muhim voqealar bilan bir-biridan ajraladi. Tarixni, xususan ibtidoiy jamiyat tarixini davrlarga bo'lish juda murakkab bo'lib, hali bu ilmiy jihatdan nihoyasiga etgani yo'q.

Kishilik jamiyati tarixini davrlashtirishga intilish qadimgi dunyodayoq er. avv. I asrda yashagan **Rim faylasufi Lukrestiy Kar** o'zining "Narsalarning tabiati" nomli poemasida odamzod madaniyatining rivojlanish manzarasini, tosh qurollarning mis qurollar bilan, undan so'ng temir qurollar bilan almasha borganini dastlab tasvirlab bergan. Lekin bu fikr tezda unutib yuborilgan.

Shotlandiya **filosofi A.Fergyson** kishilik tarixini uch davrga: **yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiyaga** bo'lib o'rganishni tavsiya qilgan. Tosh asri esa o'z o'rnida yana qadimgi va yangi tosh davrlariga bo'linadi. Qadimgi tosh asri qazilma

odamlarning yashagan davri hisoblanadi. U vaqtda yerning iqlimi, o'simliklar va hayvonot dunyosi hozirgidan farq qilar edi. Qadimgi tosh asri kishilari silliqqlangan tosh qurollar va sopol idishlarni bilmaganlar. Ular yog'ochdan tayyorlangan so'yil va oddiy tosh qurollardan foydalanganlar.

Afrika qitasining paleolit davri tabiiy sharoiti.

Insonning eng qadimgi ajdodi sifatida olimlar Misr hududidan topilgan parapitek ning davomchisi proploptekni (yunoncha para-yaqinida, yonida pithecos-maymun) (avvalgi, oldingi) keltirib o'tishadi. Ulardan ikkita shajara kelib chiqadi. Ulardan biri plioptek va sivapitekka (Hindistonning uchlamchi davr qatlamlariga oid Sivali tog' tizmalaridan topilgan.) kelib taqaladi. Pliopteklardan hozirgi zamon gibbonlari kelib chiqqan bo'lsa, sivapiteklardan esa orangutanlar kelib chiqqan. Proplopteklarning ikkinchi bir shajarasi esa rivojlangan driopteklarni (yunoncha drio-quyuq o'rmon, ya'ni o'rmon maymunlari degan ma'noni anglatadi) keltirib chiqqan. Olimlarning fikriga ko'ra aynan driopteklar insonlar va gorilla, shimpanzelarning umumiy ajdodi hisoblanadi. Aksariyat olimlar insoniyatning dastlabki ajdodlari sifatida bundan 14 - 20 mln yil burun ya'ni miosten bosqichida Osiyo va Yevropaning janubi, Afrika qitasida yashagan driopteklarni keltirishadi. Driopteklar quyi to'rtlamchi davrlarida istiqomat etishgan. Dastlab 1902 yilda Avstraliyadan driopteklarning 3 tishi namunalari topilgan. Bu tishlardan iborat topilmalar o'zining shakliga ko'ra insonlarnikiga yaqin. Keyinchalik esa bu topilmalar soni ko'payib bordi. Driopteklar bir turdagi jonzotlar bo'lmagan. Ularning ba'zi bir turlari zamonaviy gorillar va shimpanzelarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Ba'zilar esa insoniyatning eng qadimgi ajdodlarini keltirib chiqqan. Driopitekka eng yaqin vakil sifatida olimlar tomondan Sharqiy Gruziyadan topilgan Udabnopitek ko'rsatilmoqda. Uchlamchi davrda yashagan antropoidlarning eng qadimgi vakillari odamzodga aylanish jarayonida faol ishtirok etmay, daraxtlarda yashashni davom ettirgan va oxir-oqibat shunday qolib ketishgan. Antropoidlarning yana bir vakillari o'z hayotlari uchun kurashni davom ettirishdi va oxir oqibat ularning miya xajmi emas balki tanasining

o'sishiga olib keldi. Bularga biz Yavanlik megantrop, gigantrop va gorillalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ba'zi bir olimlar esa insoniyatning dastlabki ajdodlari sifatida bundan 10 - 14 mln yil burun Hindistonning shimoli, Sharqiy Afrika topilmalari asosida fanga ma'lum bo'lgan ramapiteklarni keltirib o'tishadi. Driopiteklarning eng rivojlanib borgan vakillaridan Ramapiteklar kelib chiqqan. Ularga oid dastlabki topilmalar Hindistonning uchlamchi davr qatlamlariga oid **Sivali tog' tizmalaridan** topilgan. Ramapitek boshqa odamsimon maymunlardan shunisi bilan farq qilganki, uning oldingi qoziq tishlari bo'rtib chiqmagan va uning tashqi ko'rinishi odamga yaqin bo'lgan. Antropoidlarning keyingi taraqqiy etishi shu narsaga olib kelganki, ular orqa oyoqlaridan harakat qila boshlaydi. Keyinchalik tosh va daraxt shoxlaridan o'ziga qurollar yasay boshlaydi. Uchinchi guruh olimlar esa insoniyat eng yaqin ajdod sifatida avstrolopiteklarni keltirib o'tishadi. Avstrolopiteklarga tegishli dastlabki topilma 1924 yilda JAR hududida R. Dart tomonidan topilgan. Bundan tashqari avstralopiteklarga oid topilmalar sharqiy Afrika; Tanzaniya, Keniya, Efiopiya hududlaridan ham qayd etilgan. 1935-1961 yillar oralig'ida avstralopiteklarga oid 30 dan ortiq topilmalar qayd etilgan. Ularning miya suyagining hajmi 600-700 kub smni tashkil etgan, ular orqa oyoqlarida harakat qilgan, go'sht istemol qilganlar. Aynan ularning go'sht istemol qilishi ularda boshqa odamsimon maymunlarga nisbatan miyani kerakli ozuqalar bilan ta'minlash va keyinchalik miya hajmining o'sishiga olib kelgan. Hozirgi kunda ko'plab avstrolopiteklarga oid topilmalar qayd etilgan bo'lib, ularning aniq davri ham o'rnatilgan. Bundan 1.5 mln yil avval Zinjantrop yashgan. (Zinj bu Sharqiy Afrikaning qadimgi arabcha nomi). Unga tegishli dastlabki topilma Tanzaniyaning Olduvay darasidagi ilk to'rtlamchi davr qatlamlarida qayd etilgan. 1960 yilda esa ingliz paleontologi L. Liki aynan shu yerdan Xomo Xabilisga tegishli topilmalarni qayd etishga muvaffaq bo'lgan. Uning miya suyagining hajmi 630-680 kub smni tashkil etgan. Umurtqasi va tishlarining tuzilishiga ko'ra, u odamzodga yaqin bo'lgan. U zinjantropga nisbatan avvalroq ya'ni bundan 1 mln 750 ming yil oldin yashagan. Aynan Xomo Xabilis dastlab tosh qurollar yasashni ixtiro etgan. Albatta,

bu holat odamzod uchun xos hisoblanadi. XX asrning 60-yillarida shunday bir ixtiro amalga oshirildiki, bu esa o'z navbatida evolyusion nazariyaga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

XIX asr oxirida olimlar tomonidan avstrolopiteklarga nisbatan rivojlangan ibtidoiy odamlar qoldiqlarini topishgan muvaffaq bo'lishdi.

Noto ergaster-Noto erectus (pitekantropa) bundan 2-1,5 million yil avval Afrika hududidini tashlab uzining dastlabki Afrikadan Yevroosiyoga migrastiyasini boshlaydi. Aynan mana shu davrdan boshlab yer sharining ibtidoiy ajdodlarimiz tomomidan o'zlashtirilishi boshlanadi. Pliostena va neopleystostenning ilk bosqichida Afrika Yevroosiy qit'asi va Arabiston yarim oroli bilan bog'langan bo'lgan. Bu davrda sharqiy Afrika, Yevroosiyoning g'arbiy rayonlari, Yaqin Shaq va Arabiston yarim oroli bir-biriga yaqin bo'lgan tabiiy shart-sharoitlarga ega bo'lgan. Dastlabki ajdodlarimizning Afrika hududidan chiqib Yevroosiy hududiga migrastiya qilish jarayoni juda sekin kechgan. Biroq hozirda Arabiston yarim oroli va Yaqin Sharq hududida ibtidoiy ajdodlarimizning dastlabki migrastiyasi haqida guvohlik beruvchi yodgorliklar aniqlanmagan. Yaqin Sharq hududida ibtidoiy ajdodlarimizga tegishli bo'lgan dastlabki paleolit davri yodgorliklari Ubeydiya va Gesher-Benot-Yaakov yodgorliklari hisoblanadi. Ushbu yodgorliklarning davriy sanasi 1,4 va 0,9 million yillar bilan belgilangan. Yaqin Sharq hududidagi Ubeydiya va Gesher-Benot-Yaakov yodgorliklari ibtidoiy ajdodlarimizning Afrika hududidan Yevroosiyoga ikkinchi migrastiyasi davriga tegishli yodgorliklar hisoblanadi. Bu davrda Yevroosiyoda ashel tosh industriyasi tarqala boshlagan jarayonni kuzatishimiz mumkin. Ubeydiya yodgorligining quyi qatlamlaridan ikki tomonlama ishlov berilgan tosh qurollar namunalari kuzatishimiz mumkin. Ashel davriga qadar mavjud bo'lgan qatlamlar 1983-2000 yillar davomida Al-Guza, Sharxabil, Al-Amir, Djidfir, Al-Gabr VI g'or makonlarida qayd etilgan.

Geomorfologik va stratigrafik tadqiqotlar shuni kursatadiki Pliostena va neopleystostenning ilk bosqichida yer sharida iqlim sovushi jarayoni kuzatiladi. Dunyo okeanlari sathi 150 metrga pasayib ketadi. Chuqurligi 100 metr va kenligi 28 metr bo'lgan Bab-el-Mandeb ko'rfazi quriydi va Afrika qi'asini sharqiy Arabiston

hududi bilan bog'lab turuvchi quruqlik yo'li vujudga keladi. Yaqin Sharq hududidan ajdodlarimizning Kavkazorti va Yevropa hududiga kirib borishini kuzatishimiz mumkin. Bunga misol sifatida biz Gruziya hududida joylashgan Dmanisi topilmasini keltirib o'tishimiz mumkin. XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida insoniyat beshigi sifatida Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo hududi keltiradi. Bunga dalil sifatida esa 1981 yilda gollandiyalik olim E. Dyubua tomondan Indoneziyaning Yava orolida pitekantropa (*Noto erectus*) tana suyaklarining topilishi sabab bo'ladi.

Yaqin va O'rta Sharq paleoliti

O'rta Sharq atamasi (ingliz tilida Middle East) Britaniyaning Hindiston ishlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan 1850 yilda qo'llanilgan. Biroq 1902 yilda amerikalik harbiy dengiz nazariyotchisi Alfred Tayer Mexen tomonidan Arabiston yarim oroli va Hindiston oralig'idagi hududlarni ifodalashi natijasida bu atama tarix fanida keng qo'llanila boshlandi. Ikkinchi jahon urushiga qadar Turkiya va O'rta yer dengizining sharqiy qirg'oqlari oralig'idagi hududlar Yaqin Sharq deb atalgan bo'lsa, Mesopotamiyadan toki Birmagacha bo'lgan hududlar O'rta Sharq deb nomlangan edi. Rus mualliflari adabiyotlarida esa Yaqin Sharq atamasi qo'llanilgan bo'lib, bu atama asosida Eron, Pokiston va Afg'oniston davlatlari hududlari ham qo'shib ifodalanadi. Yaqin va O'rta Sharq davlatlariga Afg'oniston, Baxrayn, Misr, Eron, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Iroq, Turkiya, Ummon, Quvayt, Qatar, Isroil, Iordaniya, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Yaqin va O'rta Sharq hududining paleolit davri yodgorliklarining o'rganilish asosan XX asrda amalga oshirilgan. 1929-1936 yillarda ingliz tadqiqotchisi D. Garrod Falastinning Karmel tog' tizmasida paleolit davri yodgorliklarini o'rganishni boshlab beradi. Sharqiy O'rta yer dengizi havzasida A.Rust, R.Nevill, G. Vatanabelar tomonidan o'kazilgan tadqiqotlar natijasida ochiq turdagi va g'orsimon hamda paleolit davri qabrlari topilgan bo'lib. Tadqiqotchilar I. Korobkov, J. Skinner, J.Perro, L.Koplendlar tomonidan Sharqiy O'rta yer dengizi havzasi tosh davri qurollari tiologiyasi va klassifikastiyasi hamda madaniyatlarning o'zaro aloqalari ishlab chiqilgan. Paleolit davrida Yaqin va O'rta Sharq hududi keng miqyosda muzlash davrini o'z boshidan kechirmagan. Muzlash

jarayoni Yaqin va O'rta Sharq hududining shimoliy rayonlarida kechgan bo'lsa, janubiy rayonlarda esa plyuvial ya'ni yog'ingarchilikdan iborat iqlim hukm surgan. 2 million yil oldin Yaqin va O'rta Sharq hududida issiq iqlimni xush ko'ruvchi villafrank fauna va florasi mavjud bo'lgan. Yaqin va O'rta Sharq hududi rel'efi esa unchlik katta bo'lgan tog'lar va tekisliklardan iborat bo'lgan. Qirg'oq bo'yi landshafti esa savannaga o'xshagan. Yaqin va O'rta Sharq hududida bundan 1.5 million yil burun tektonik harakatlar sodir bo'ladi va tog'lar ko'tariladi. Tektonik harakatlar butun muzlik davrida davom etadi. Erroziyalar natijasida tabiiy g'orlar paydo bo'ladi. Bu esa ibtidoiy ajdodlarimizning jon saqlashi uchun tabiiy panohgoh vazifasini bajargan. Umuman olganda plyuvial davri namgarchilik yuqori darajada bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Harorat esa hozirgiga nisbatan 4-5 gradus darajada farq qilgan. Buning natijasida esa bundan 700-600 ming yil avval Falastinda iliq iqlimni xush ko'ruvchi villafrank flora va faunasi jon saqlab qolgan. Aynan bunday iqlimni xush ko'ruvchi hayvonot dunyosining mavjudligi ibtidoiy ajdodlarimizning yashab qolishi uchun zamin yaratgan. Yaqin va O'rta Sharq hududida hukmronlik qilgan villafrank faunasi bu hududda dastlabki ibtidoiy ajdodlarimizning paydo bo'lishiga olib kelgan. Ibtidoiy ajdodlarimizga oid dastlabki topilmalar Suriya va Livan hududlaridan topilgan bo'lib ulaning davriy sanasi Olduvay davri bilan belgilanadi. Yaqin va O'rta Sharq hududininng eng muhim yodgorliklaridan biri Oronta va Iordan daryosi oralig'idagi hududlarda joylashgan Ubeydiya yodgorligi hisoblandi. Uning davri sanasi Ashel davri bilan belgilanadi.

Pliostena va neopleystostenning ilk bosqichida Afrika Yevroosiyo qit'asi va Arabiston yarim oroli bilan bog'langan bo'lgan. Bu davrda sharqiy Afrika, Yevroosiyoning g'arbiy rayonlari, Yaqin Shaq va Arabiston yarim oroli bir-biriga yaqin bo'lgan tabiiy shart-sharoitlarga ega bo'lgan. Dastlabki ajdodlarimizning Afrika hududidan chiqib Yevroosiyo hududiga migratsiya qilish jarayoni juda sekin kechgan. Biroq hozirda Arabiston yarim oroli va Yaqin Sharq hududida ibtidoiy ajdodlarimizning dastlabki migratsiyasi haqida guvohlik beruvchi yodgorliklar aniqlanmagan. Yaqin Sharq hududida ibtidoiy ajdodlarimizga tegishli

bo'lgan dastlabki paleolit davri yodgorliklari Ubeydiya va Gesher-Benot-Yaakov yodgorliklari hisoblanadi. Ushbu yodgorliklarning davriy sanasi 1,4 va 0,9 million yillar bilan belgilangan. Yaqin Sharq hududidagi Ubeydiya va Gesher-Benot-Yaakov yodgorliklari ibtidoiy ajdodlarimizning Afrika hududidan Yevroosiyoga ikkinchi migratsiyasi davriga tegishli yodgorliklar hisoblanadi. Bu davrda Yevroosiyoda ashel tosh industriyasi tarqala boshlagan jarayonni kuzatishimiz mumkin. Ubeydiya yodgorligining quyi qatlamlaridan ikki tomonlama ishlov berilgan tosh qurollar namunalari kuzatishimiz mumkin. Ashel davriga qadar mavjud bo'lgan qatlamlar 1983-2000 yillar davomida Al-Guza, Sharxabil, Al-Amir, Djidfir, Al-Gabr VI g'or makonlarida qayd etilgan. Geomorfologik va stratigrafik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki Pliostena va neopleystostenning ilk bosqichida yer sharida iqlim sovushi jarayoni ko'zatiladi. Dunyo okeanlari sathi 150 metrga pasayib ketadi. Chuqurligi 100 metr va kenligi 28 metr bo'lgan Bab-el-Mandeb ko'rfazi quriydi va Afrika qi'asini sharqiy Arabiston hududi bilan bog'lab turuvchi quruqlik yo'li vujudga keladi. Yaqin Sharq hududidan ajdodlarimizning Kavkazorti va Yevropa hududiga kirib borishini kuzatishimiz mumkin. Bugunki kunda Yaqin va O'rta Sharq hududida qadimgi tosh davriga oid bir qancha yodgorliklar o'rganilgan. El-Masluk yodgorligi 1969 yilda Kolumbiya universiteti arxeologlari tomonidan Livanning shimoliy qismida topib o'rganilgan.

Isroil hududida joylashgan dastlabki ibtidoiy odamlar neandertal hisoblanadi. Isroil hududida Homo Sapienslarning paydo bo'lishi bundan 75 ming avval sodir bo'lgan. Isroil hududida Homo Sapienslar neandertallar bir vaqtning o'zida mavjud bo'lganlar. Ubyeda yodgorligi bundan 1,4 mln yil avval ibtidoiy ajdodlarimizning Afrikadan Yevroosiyoga migratsiyasi jarayoni izlarini kuzatishimiz mumkin. Bundan 20 ming avval ushbu hududda mavsumiy turar joylar va g'or-makonlar bo'lgan. Ubeydiya yodgorligidan ilk ashel tipidagi tosh qurollar topilgan. Bundan tashqari davriy sanasi 1 400000-250000 ming yilliklarin tashkil etuvchi paleolit davri yodgorliklari ham mavjud bo'lib, ulardan so'nggi ashel tipidagi tosh qurollar qayd etilgan. Iakov qizlari mosti va Tabun g'or makonlari so'nggi ashel tipidagi tosh qurollar qayd etilgan yodgorliklar

hisoblanadi. Ubeyda, hududidan ibtidoiy ajdodlarimizga oid tish namunalari, Iakov qizlari mosti suyak namunalari va Zuttie g'or makonidan esa ibtidoiy ajdodimizning bosh chanog'i (Galiley odami) namunalari topilgan. Falastin hududidagi muste davri aniqrog'i neandartellarga oid yodgorliklarga biz Kebara, Amud va Tabun yodgorliklarini keltirib o'tishimiz mumkin. Homo Sapienslarga oid yodgorliklar esa Djebel-Kafze va Sxul g'or makonlari hisoblanadi. Falastin hududida yuqori paleolit davri 48000-20000 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Tabun g'ori paleolit davri arxeologik yodgorligi hisoblanib Isroildagi Karmel tog'ida joylashgan. Tabun g'or makoni bundan 500-40 ming yil avval itidoiy ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirilgan. Tabun g'orining yuqori qatlamlari muste davriga oid bo'lib, yuqori qatlamlardan levallua texnikasi asosida tayyorlangan tosh qurollar topilgan. 1962-1972 yillarda Artur Elenek tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida so'nggi ashel madaniyatlariga oid bo'lgan 1900 ta butun va siniq bo'laklardan iborat bo'lgan tosh qurollar namunalari topilgan. Bundan tashqari Tabun g'or makonidan davriy sanasi 120 ming yilni tashkil etuvchi ayol jinsiga mansub neandertal odamining tana suyaklari topilgan. Bu topilma Isroil hududidagi eng qadimgi ibtidoiy odamlar tana suyaklari hisoblanadi. Kebara g'or makoni arxeologik yodgorlik hisoblanadigan Kechariya yodgorligidan 10 km masofa uzoqlikda Karmel tog'ining g'arbiy yon bag'rida Vadi Kebara nomli makon hududida dengiz sathidan 60-65 metr balandlikda joylashgan. G'or makon bundan 60-48 ming yil avval ibtidoiy ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirilgan. Ushbu yodgorlik Bar Yosef tomonidan gominidlar oilasiga mansub bo'lgan eng qadimgi ibtidoiy ajdodlarmizning tana suyaklari topilganligi bilan mashhurdir. Ushbu yodgorlik dastlab 1930 yilda Doroti Garrod va Fransis Tyurvil Petr tomonidan o'rganilganligiga qaramasdan eng muhim kashfiyotlar 1982 yilda amalga oshirilgan. 1982 yilda Kebara g'or makonidan neandertal odamining butunligicha saklangan tana suyaklari topilgan. Bu topilmalar arxeologlar orasida "Moshe" deb nomlangan bo'lib, uning yoshi 60 ming yilni tashkil etadi. Sxul yodgorligi Isroildagi Karmel tog'ida joylashgan bo'lib, dastlab 1982 yilda Doroti Garrod tomonidan o'rganilgan. Ushbu yodgorlik bir vaqtning o'zida ham

neandertal ham zamonaviy tipidagi odam Homo Sapienslar tomonidan o'zlashtirilgan. Sxul yodgorligining davriy sanasi 200 ming - 45 ming yilni tashkil etadi. Bu davriy sana arxeologik davrlardan hisoblangan muste ya'ni o'rta tosh davriga to'g'ri keladi. Sxul yodgorligidan 14 ta ibtidoiy ajdodlarimizning tana suyaklari topilgan. Ushbu topilmalarinng aksariyat qismi 1932 yilda Teodor Mak Koun tomonidan aniqlangan. Kafzex g'or makoni ham Isroilda joylashgan bo'lib, ilk bora 1934 yilda R. Nevil va M. Stekelis tomonidan o'rganilgan. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida levallua tipidagi tosh qurollar bilan birga 5 ta ibtidoiy ajdodimizning tana suyaklari qayd etilgan. Yodgorlikda tadqiqot ishlari 1965, 1967 va 1971 yillarda ham davom ettirilgan. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida 25 ta ibtidoiy ajdodimizning tana suyaklari topib o'rganilgan. Bu yerdan topilgan qadimgi odamdaorning tana suyaklari taxlili ularning rivojlangan yaqin sharq gominidlari guruhiga oidligini ko'rsatmoqda. Ba'zi topimalar esa gibridda ya'ni neandertal va Homo Sapienslar chatishmasidan vujudga kelgan eng qadimgi odamlar ekanligini ko'rsatmoqda. Muste qatlamlariga oid bo'lgan tosh qurollarning termolyuminestent tahlili 92-97 ming yilliklarni ko'rsatsa, elektron paramagnit rasonans tahlil natijalari ushbu yodgorlikning davriy sanasini 130-90 ming yil deb ko'rsatmoqda. Bizat Ruxama joy makonining davriy sanasi 1 million yilni tashkil etadi. Homo Sapiens tana suyaklari qayd etilgan yodgorliklardan biri bu Kesem yodgorligi hisoblanadi. Tel-Aviv universiteti arxeolog olimlarining fikriga ko'ra Kesem yodgorligining davriy sanasi 382-207 ming yillarni tashkil etadi.

Yevropa hududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar tarixi.

Yevropa hududi Shimoliy yarim sharda joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 10 mln km² ni tashkil etadi. Uning hududi shimoliy muz dengizi va Atlantika okeani suvlari bilan yuvilib turadi. Aholisi 740 mln kishini tashkil etadi. Osiyo qit'asi bilan birgalikda Yevroosiyo materigini tashkil etadi. Yevropa hududida joylashgan **Klekton-quyi paleolit** davrining eng qadimgi yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Bundan 550 - 475 ming yillar avval G'arbiy Yevropa hududida tarqalgan madaniyat hisoblanadi. Ushbu madaniyatga tegishli asosiy topilmalar

Temza daryosi havzasidan topib o'rganilgan. Klekton kelib chiqishi Buyuk Britaniyadagi Klekton siti shahri yaqinidagi manzilgoh nomidan kelib chiqqan.

Madlen madaniyati - quyi paleolit davri madaniyati hisoblanadi. Ushbu madaniyat Fransiya, Ispaniya, Shvetsariya, Belgiya, Germaniya hududlarida keng tarqaladi. Davriy sanasi 15 - 8 ming yilliklarni tashkil etadi. Ushbu madaniyat jamoalarida suyakka ishlov berish san'ati yuqori darajada rivojlangan edi. Madlen madaniyati yodgorliklarida mikrolit tosh qurollariga o'tish bosqichi kuzatiladi. Madlen ovchilari asosan g'orlarda va teri hamda suyaklardan qurilgan turar joylarda yashashgan. Orinyak madaniyati - quyi paleolitning ilk bosqichiga oid arxeologik madaniyat hisoblanadi. Fransiyaning yuqori Garonna departamentidagi Orinyak g'orida o'tkazilgan tadqiqotlar orqali, ushbu madaniyatga Orinyak madaniyati nomi berilgan. XX asrning boshlarida ushbu madaniyatga tegishli yodgorliklar Yevropa hududidan aniqlangan. Orinyak madaniyatiga oid yodgorliklar asosan Fransiya hududida keng tarqalgan. Sanasi 33000 -19000 yillar bilan belgilanadi. Orinyak madaniyati G'arbiy va Markaziy Yevropada keng tarqalgan.

Solyutre madaniyati - quyi paleolit davrining o'rta bosqichiga oid. Ushbu madaniyatga tegishli bo'lgan yodgorliklar asosan Fransiya va shimoliy Ispaniya hududlarida keng tarqalgan. Orinyak va Perigorsk madaniyatlari o'rniga kelgan madaniyat bo'lib, o'z navbvtida u o'z o'rnini Madlen madaniyatiga bo'shatib beradi. Orinyan madaniyatining davriy sanasi miloddan avvalgi 18 - 5 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Ushbu madaniyat dastlab G.Mortile tomonidan XIX asrning 60 yillarda aniqlangan va Fransiya va Luara departamenti hududida joylashgan Solyutre manzilgohi nomi bilan bog'liq. Markaziy Yevropa va Rossiyaning Yevropa qismida joylashgan bir qator so'ngi paleolit davri manzilgohlari bilan Solyutre madaniyati o'rtasida bog'liqliklar aniqlangan. Shuning Salyutre madaniyati jamoalari Shimoliy Amerikaga qadar kirib borganligi va u yerda **Klovis** madaniyatiga asos solganliklari haqida ham nuqtai nazar mavjud. Shuningdek Amerikaga dastlabki kirib kelgan ajdodlarimiz Yevropa hududidan kelishgan. Solyutre madaniyatining mahalliy madaniyati sifatida

Grimaldi madaniyati hisoblanadi. Altamira yodgorligi yuqori paleolit davri yodgorligi hisoblanib, u ichidan ko'plab ibtidoiy rang tasvir namunalari aniqlangan. Ushbu yodgorlik Ispaniyada, Santanderdan 30 yillar g'arbiy tomonda joylashgan. 1985 yildan boshlab YuNESKO ning butun jahon me'rosi ob'ektlari sirasiga kiritilgan. Altamira suratlari ibtidoiy ajdodlarimizning dastlabki diniy tasavvurlari haqida ham ma'lumot beradi. Bu yodgorlik 1879 yilda tasodifan havaskor-arxeolog Marselino de Sautuola va uning 9 yashar qizi tomonidan topilgan. 1880 yilda ushbu yodgorlik sura'tlari nashr ettirilgan. Yodgorlikning uzunligi 270 metrni tashkil etadi. Yodgorlikda qazishma ishlari 1902-1981 yillar davomida amalga oshirilgan. Xuddi shunga o'xshash yodgorliklar evropaning boshqa hududlaridan ham topilgan. Hozirgi kunda yodgorlik suratlari nusxalari Madrid, Myunxen muzeylarida saqlanmoqda.

Lasko g'ori o'zining kattaligi va suratlarining yaxshi saqlanib qolganligi jihatidan Fransiya hududida joylashgan paleolit davri yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Dastlab ushbu yodgorlik qadimgi madlen madaniyatiga tegishli deb hisoblangan, keyinchalik esa ushbu yodgorlikning ilk solyutre madaniyatiga oid ekanligi aniqlandi. Yodgorlik Fransiyaning Dordon departamenti hududida joylashgan, ya'ni Perigyo shahridan 40 km lar chamasida janubiy-sharqiy tarafda. Lasko yodgorligi 1940 yil 12 sentyabrda to'rtta o'spirinlar tomonidan tasodifan topilgan. Ular o'zlarining topilmalari haqida o'qituvchilari Anri Breylga aytishadi. Anri Breyl tomonidan 1940 yilda yodgorlikning o'rganilishi amalga oshiriladi. Anri Breyl bir necha yil davomida Ispaniya, Portugaliya va Janubiy Afrikada o'tkazadi va 1949 yilda yana Fransiya qaytib keladi. Keyinchalik Severin Blan va Moris Burgon bilan birgalikda Lasko yodgorligida amalga oshirgan tadqiqot ishlarini davom ettiradi. 1979 yilda Lasko yodgorligi YuNESKOning butun jahon me'rosi ob'ektlari qatoriga kiritiladi. Kromanyon yodgorligi Fransiyaning janubi-g'arbiy tarafida, Dordon departamenti hududida joylashgan. Bu yerda fransuz paleontologi Lui larte tomonidan ibtidoiy kishilar tana suyaklari qoldiqlari topilgan. Ushbu yodgorlik hududidan chaqmoqtoshdan ishlangan ov qurollari,

bezak buyumlari namunalari topilgan. Ushbu topilmalar Gravet va Orinyak madaniyatlari topilmalari sirasiga kiritiladi.

Mezolit davrida shimoliy Yevropa hududida ovchilik bilan shug'ullanuvchilar jamoalar madaniyati shakllanadi. Ya'ni bu xo'jalik turi Angliyaning sharqiy viloyatlaridan tortib toki Estoniya, ayniqsa Bolqonbo'yi hududlarida ravnaq topdi. Miloddan avvalgi 8 ming yillikning o'rtalariga kelib, mezolit davri ovchilari toshlardan boltalar yasab o'rmonlarda daraxtlarni kesishda ulardan foydalanishgan. Ov qurollari asosan toshdan ishlangan. Bunday tosh qurollar arxeologiya fanida mikrolit tosh qurollar nomini olgan. Mezolit davri ovchilari tosh qurollardan nafaqat ov jarayonida, balki harbiy maqsadlarda ham foydalanishgan. 1869 yilda G. De Mortile paleolit davridan so'ng neolit davri deb hisoblagan. Keyinchalik esa E. Kartile G.De Mortile fikrlarini tahlil etgan holda shunday xulosaga keldiki paleolit va neolit o'rtasida Yevropa mintaqasi uzoq davriy vaqt davomida insoniyat tomonidan o'zlashtirilmagan. Biroq bu davrga kelib, bu bo'shliqni to'ldirish imkoniyatini beruvchi bir qancha dalillar qo'lga kiritiladi.

2.3.Ilk paleolit davri arxeologiyasi.

Ibtidoiy davr kishisining eng katta yutuqlaridan biri olovning o'zlashtirilishi bo'lib, bu hodisa miloddan 300-150 ming yil muqaddam sodir etildi.

Ko'lbuloq makoni- Toshkent viloyat Ko'lbuloq degan manzilda 1963 yildan beri ma'lum bo'lib, o'sha yildan beri u yerda muttasil qazish ishlari olib borilmoqda.

Ko'lbuloq ochiq tarzdagi ko'p qatlamli makon bulib, undan 41 ta qatlam ochilgan, yuqori qatlamlari so'nggi tosh va muste quyi qatlamlaridan ashel davriga mansub madaniy qatlamdan kul, ko'mir qoldiqlari va odam g'ajib tashlagan har xil yovvoyi hayvonlar suyaklari ham topilgan. Ko'lbuloq makoni faqat O'zbekistonda yoki hatto O'rta Osiyodagina emas, jahon miqyosida eng qadimgi tosh asri yodgorligining ajoyib namunasi hisoblanadi.

Uchtut-Ijond-Vaush makonlari. Navoiy viloyatida. Bu yerdagi **Kavobi** yodgorligi chaqmoqtosh xom ashyosi qazib olinadigan shaxta bo'lishi bilan birga ilk tosh asri kishilarining ochiq manzilgohi. Kavobi yaqinida Ijond, Vaush kabi makonlar bo'lib, akademik A.Muhamadjonov raxbarligida olib borilgan .

Uchtut - Ijond - Vaush makonlaridan topilgan ashyolarning sanasi haqida arxeologlar yagona fikrda emaslar. Ba'zi arxeologlar mazkur makonning quyi qatlamidan topilgan va yer yuzasidan terilgan qurollar ashel va muste davriga oidligini bildirganlar.

Janubiy Qozog'iston yerlaridan so'ngi yillar ichida ilk tosh asriga mansub ko'plab yodgorliklar topildi. Shular orasida Takali I, II, III, Tanirqazigan, Bo'riqazigan, Kamar va Shabakti I joy-makonlari alohida asamiyatga molik yodgorliklar hisoblanadi.

Takali joy-makonlari. Bu makonlar kompleksi Qoratog' tizmasi yonbag'ridagi Takali degan joyda bo'lib, u Ko'ktol daryosi yoki Takali buloq chashmasidan 5 km sharqdadir.

Takali I, II, III deb atalmish joylardan esa 300 dan ortiq tosh buyum va tosh qurollar topilgan. Tosh buyum va qurollar mayda zarrachalik qora va kulrang-qoramtir chaqmoqtoshdan yasalgan. Chaqmoqtoshning bu turlari alohida qoyalar, harsang toshlar va shag'al toshlar shaklida Kichik Qoratog'ning shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqiy, tosh asri kishilari esa tosh qurol uchun xom ashyoni ana shu joydan olgan bo'lsalar kerak.

Takalidan topilgan tosh qurollar o'zining soddaligi, kattaligi, qo'polligi bilan qadimiy ko'rinishga ega bo'lib, Abxaziyaning (Gruziya) Yashtuxa, Satanidar degan joylaridan, Shimoliy Osetiya va Palastindan topilgan so'nggi ashel davri qurollariga o'xshab ketadi. Shuning uchun Takali tosh qurollari ilk tosh asrining so'nggi bosqichi ashel-muste davriga, ya'ni miloddan avvalgi 300 200 mingyilliklarga mansub bo'lishi mumkin.

Shabakti I makoni. Qozog'istonning Jambul viloyatidagi Sarisuv tumani, Boyqadam havzasidan 20 km janubi-g'arbda bo'lib, u yerdan siniq, nukleus, qo'pol qo'l chopqilari topilgan; qurollar ko'p jihatdan Bo'riqazigan va

Tanirqazigan quollariga o'xshab ketadi, demak, Shabakti I makonidan topilgan topilmalar ham ilk paleolitning ashel davriga, ya'ni miloddan avvalgi 700-350 mingyilliklarga mansub bo'lishi mumkin ekan.

Quyida paleolit bosqichiga mansub joy-makonlar Cho'loqtog' shaharchasidan 36 km shimoli-g'arbdagi Uchbuloq, Shabakti-Intali, Burgutli va Uzunbuloqdan, Cho'qon Valixanov va boshqa joylardan ham topilgan.

Qozog'istonning janubiy, markaziy va g'arbiy hududlarida ilk tosh asrining ashel bosqichiga mansub yodgorliklar joy-makonlar O'rta Osiyoning boshqa hududlariga nisbatan ancha keng tarqalgan.

1953 yilda Qirg'izistonning **On Archa** degan joyidan ashel-muste davriga, **Tojikiston** arxeolog va geologlarining 70-yillardagi qidiruv va qazish ishlari natijasida Qoratog' I, Loxutiy 1 va Xavolang kabi joy-makonlar topildi.

Qoratog' I joy-makoni. Tojikiston qirg'ich, teshgich, chopper, qirg'ichcha, uchrindilar, tosh parchalari, nukleuslar, butun-butun qayroq toshlar, shuningdek qo'pol tosh chopqilar topilgan. 5-qatlamdagi buyumlarning sanasi miloddan avvalgi 250-180 ming yil qadimiy davrga borib taqaladi. Bu qadimgi tosh asrining o'rta va so'nggi ashelga, Yevropadagi riss yoki riss-vyurm muzlanish davrining boshlariga to'g'ri keladi.

Xavolang joy-makoni -Xanko I va II qatlamlaridan yirik uchrindilar, tosh parchalari, tosh chopqilar va boshqa narsalar topilgan. Xavolang joy-makonining yoshi 150-160 ming yilliklarga mansub bo'lib, Qoratog' makonidan keyingi bosqich hisoblanadi.

Loxutiy I joy-makoni ham Qoratog' I kabi eng qadimiy tosh asri yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Bu makon Qoratog' I dan 80 km sharqda bo'lib, Xoshar daryosining Obimozor daryosiga quyilish yerida joylashgan. Madaniy qatlamlardan juda ko'p tosh quollar qazib olingan.

Turkmaniston hududida **Yangaja va Qora Tangerda** A.P.Okladnikov va shogirdlari arxeologik qidiruv ishlarini 1947 yilda olib borganlar.

Markaziy Kopetdog'ning -**Tomchisuv bulog'i** yaqinidagi makon diqqatga sazovordir. 20 dan ortiq qadimiy tosh qurollar topildi; V. A. Ranov ularni so'nggi ashel davriga mansub deb faraz qiladi.

V. A. Ranov O'rta Osiyoda muste davri madaniyatini o'rganish jarayonida uni levallua-muste va muste-soan guruhlariga bo'lishni tavsiya qiladi. Levallua. Unga Xo'jakent, Jarqo'ton, Obirahmat va Qo'tirbuloq makonlari kiradi; Levallua-muste. Unga Qayroqum, Qopchig'ay, Tossor va Farg'ona makonlari kiradi;

- Tog'li muste. Unga Teshiktosh, Semiganch, Og'zikichik g'or-makonlari kiradi;
- Muste-Soan. Unga Qora-Bura, Kuxi-Piyoz.

Keyinchalik yana bir texnik varianti - tishli muste davom etgan (Ko'lbuloq). Muammoni yechish uchun R. X. Sulaymonov o'zgacha yondashadi. U O'rta Osiyodagi muste davri makonlarini mehnat qurollarini yasash usullari, silliqlash va ularning miqdoriga ko'ra ikki yirik guruhga bo'ladi. Birinchisiga Ko'lbuloq va Bo'zsuv, ikkinchisiga Teshiktosh, Xo'jakent, Farg'ona makoni, Qayroqum, Jarqo'ton, Obirahmat manzilgohlar kiradi. Teshiktosh g'ori tosh qurollari Samarqand janubidagi Omonqo'ton qurollariga o'xshash.

Ochiq turdagi makonlarga Angren daryosining o'ng sohilida joylashgan Ko'lbuloq va Samarqandning janubi-g'arbidagi Qo'tirbuloqlar oiddir. Qo'tirbuloq makonidagi tosh qurollarini chaqmoqtosh diorit, kvarstit va daryo toshlaridan yasalgan o'tkir uchli paykonlar, qirg'ichlar, teshgichlar, parmalar, bargsimon qurollar hamda daryoning shag'al va chaqmoq toshlaridan yasalgan chopping va chopper, yassi va gardishsimon nukleuslar, uchrindilar va boshqalardan iborat.

Qirg'izistonning muste davriga oid makonlari yaxshi o'rganilmagan **Tossor** va **Georgiy** do'ngligi. Tossor tosh qurollari muste davrining so'nggi bosqichi va so'nggi paleolitning ilk bosqichlariga oid. Georgiy do'ngligi mehnat qurollari yuqori pleystostenning boshlanish davriga oid. Janubiy **Xo'jag'ayir** degan joydan ham muste davriga oid manzilgoh topilgan.

Og'zirikichikdan topilgan hayvon suyaklarining 14 tasi Omonqo'ton va 6 tasi Teshiktoshlardagi hayvon suyaklari bilan bir xil. Umumiy suyaklarning ko'pchiligini cho'l toshbaqasi suyaklari tashkil etadi. Bundan tashqari yovvoyi qo'chqor va echkilar, ot, eshak, bug'i xatto jundor nosorog suyaklari ham topilgan.

Obirahmat g'oridan topilgan suyaklarning yarmidan ko'prog'ini yovvoyi echki tashkil etadi. Bug'u, qo'y, yovvoyi cho'chqa suyaklari ham mavjud. Obirahmat, Omonqo'ton va Teshiktosh makonlari topilmalarida unchalik farq katta emas. **Tur** (yovvoyi buqa), buxoro bug'usi suyaklari esa kamchilikni tashkil etadi.

2.4. O'rta paleolit davri arxeologiyasi.

O'rta paleolit davri Fransiyaning Muste g'or makonida topilgani uchun shunday nom olgan. 100-40 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Hozirda esa, O'zbekiston arxeologiyasining yutuqlariga asoslanib, uning davri mil.avv. 200-100 ming yilliklar bilan belgilanmoqda. **muste va levallumuste** (rivojlangan davri) bosqichlariga ajratib beriladi. O'zbekiston arxeologiyasida 4 ta mahalliy guruhini ajratib ko'rsatadilar: **muste, levallua, levallumuste, soan.**

O'rta paleolit davrida:

- Ibtidoiy odamlar hayoti nihoyatda og'ir kechgan.
- Yer yuzida muzlik davri bo'lgan.
- Ibtidoiy odamlar sovuqqa moslashish uchun avvalgi turmush tarzini o'zgartirishga majbur bolishgan.
- Sovuqdan himoyalaniib, g'orlarni o'zlashtirganlar.
- Hayvon terisidan kiyim tikib kiyganlar va gulxan atrofida jon saqlaganlar.
- Termachilikning ahamiyati pasayib ketgan.
- Ovchilikning insonlar tirikchiligida ahamiyati oshgan.
- Ov uslublarini va qurollarini takomil lashtirish-yii taqozo etgan.
- to'da -to'da bo'lib yurib, olov bilan hayvonlarni yo jarlikka, yo g'or ichiga haydab tutganlar.
- Toshni qayta ishlash texnikasi takomillashgan.
- Ixcham qurollar yasay boshlaganlar. Bunda yangi usul **yormatexnikadan** foydalanganlar. Bunda qurol yasaladigan chaqmoqtoshning bosh tomoni

urib, tekis maydoncha hosil qilinib, shu maydoncha orqali toshning mayda paraqalari ajratib olingan. Toshidan barcha paraqalar olingach, uchirib bolmaydigan o‘zak qolgan. Bu o‘zak **nukleus** deb atalgan. Muste davri uchun disksimon **nukleuslar** va **uch burchakli tosh paraqalari** harakterli bolgan.

- O‘rta tosh davri odamlari **qumtosh** yoki **ohaktoshdan** tasma uchiga juft qilib bog‘lab, hayvonlarni oyog‘idan ilintirganlar.

O‘rta paleolit davrida **neandartal** - uning bo‘yi past peshonasi tor va nishab, qosh ustidagi suyaklari qalin, yonoq suyaklari chiqib ketgan, iyagi nihoyatda kichkina, tizzalari sal bukilgan, 2 oziq tishi bo‘rtib chiqqan, qo‘l panjalari kalta va yo‘g‘on bo‘lgan. Bu davrni O‘. Islomov, K.Kraxmal, A.Okladnikov, V.Ranov, M.Qosimov, R.Sulaymonov, T.Mirsoatov, N.Toshkenboev, Z.Abramova va boshqalar o‘rganganlar.

Teshiktosh g‘or-makoni Surxondaryo viloyatida. 1938-1939 yillarda A.P.Okladnikov tomonidan 5 ta madaniy qatlamdan toshdan yasalgan mehnat qurollari, disksimon nukleuslar diametri 10-15 smni tashkil etganligi tekshirilgan. 1938 yilda antropolog G.Gerasimov, uni o‘rganib, 9 yoshli neandertal bola deb xulosa bergan. 1970 yillarda bu odamni antropolog A.Alekseev ham o‘rgangan. Neandertal odamning 2003-2004 yillarda qilingan maxsus taxlili, uning ilk homo sapiens (homo sapiens) odami ekanligini ko‘rsatdi.

Obirahmat g‘or makoni Toshkent shahrida 1966-1972 yillarda R.X.Sulaymonov tomonidan o‘rganilgan. U mustening rivojlangan va so‘nggi bosqichlariga oid. Unda 10 m qalinlikdagi 21 ta madaniy qatlam aniqlangan. Ulardan 30 mingdan ortiq ohaktoshli chaqmoqtoshdan yasalgan turli mehnat qurollari Obirahmat odamida neandertal va homo sapiens (zamonaviy odam) odamidagi xususiyatlar o‘xshaganligi va uning olamshumul ahamiyati qayd etildi.

Xo‘jakent manzilgohi Toshkent 1958-1959 yillarda A.P.Okladnikov va X.Nasriddinovlar tadqiqotda 524 ta tosh qurollar topilgan. Shulardan paraqalar 88 ta, nukleuslar 49 ta, qolganlari tosh uchirmalari va siniqlaridir. Farg‘ona vodiysidan M.R.Qosimov muste davriga oid bir necha manzilgohlar topganlar.

Samarqand Davlat universitetining arxeologlari, O'zFA Arxeologiya instituti xodimlari tadqiqot ishlarini olib borganlar. Omonqo'ton, Zirabuloq, Go'rdara, Takalisoy kabi makonlar o'rta paleolit davrinio'rganish uchun olimlarga muhim manbalar berdi. **Omonqo'ton g'or** makoni-Samarqand viloyati Urgut tumanining Makon 1947 yilda D.N.Lev rahbarligidagi SamDU ekspeditsiyasi tomonidan topildi va 1957 yillargacha tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqotlar jarayonida qalinligi 25smdan 1,5 mgacha bolgan madaniy qatlam aniqlanib, undan 220 ta tosh buyumlar topildi. Arxeolog D.N. Levning tadqiqoticha, makon ilk va rivojlangan muste davriga oiddir.

Takalisoy g'ori - Omonqo'ton g'origa yaqin joylashgan muste davri yodgorligidir. Uni 1952 yilda D.N.Lev tadqiq qilgan. Bu makonda neandertal odamlar vaqtincha yashaganlar.Takalisoy makonidan topilgan ashyolar Qo'tirbuloq makonidan topilgan ashyolarga o'xshash bolib, bu neandertal odamlarning Zarafshon vohasida muste davri boshidan to oxirgi bosqichigacha uzluksiz yashaganlaridan darak beradi.

Qo'tirbuloq makoni - ochiq joydagi qarorgoh hisoblanadi Samarqand Qo'tirbuloq deb nomlangan buloq atrofidan topilgan.Yu.F.Buryakov rahbarligidagi O'rta Zarafshon ekspeditsiyasi 1971 yilda ro'yxatga olingan. N.Toshkentboyev o'rgangan 5 madaniy qatlam, 10 mingdan ko'proq tosh buyumlar topilgan. Qo'tirbuloq makonidan topilgan qurollarning ishlanish texnikasi Obirahmat va Teshiktosh madaniyatiga o'xshaydi.

Zirabuloq makoni - Qo'tirbuloqdan 1 km sharqda joylashgan.U ham 1971 yilda ro'yxatga olinib, tadqiqot ishlari 1978 yillar M. Jo'raqulov tomonidan olib borildi.

Go'rdara g'or makoni - Samarqand viloyati Urgut tumani Uni 1966 yilda A.Asqarov rahbarligidagi arxeologik keyinchalik N.Toshkenboyev tomonidan muste davriga oid **Qopchig'oy, Qoratorov, Ohangaron**-ustaxonalari qiziqarlidir. Ularni 1951-1965 yillarda Ya.G'.G'ulomov rahbarligidagi arxeologik otryadi tomonidan o'rganilgan. **Qopchig'ay ustaxonasi** - Farg'ona shahridan 40 km janubda, Oloy tog'ining shimoliy yonbag'rida ochiq joydagi chaqmoqtosh koni

hisoblanadi. A.P.Okladnikov, M.R.Qosimov ham tadqiqot ishlarini olib borishgan. Paleolit davri oid tosh ustaxonalari Navoiy viloyati Navoiy tumanida **Uchtut, Ijond, Vaush va Zarafshonning qadimgi irmoqlari, Ohangaron** Yodgorlik 1958 yili arxeolog X.Muhammedov tomonidan topilgan. Keyingi yillarda uni T.Mirsoatov keng kolamda o'rgandi.

Uchtut ilk va o'rta paleolit davriga oid ochiq manzilgoh va chaqmoqtosh xom ashyosi qazib olinadigan joy bolgan. U yerdan muste davriga oid tosh qurollari, qo'pol cho'qmorlar, nukleuslar, uchrindi va boshqa qurollar topilgan. Tosh ustaxonalari Zarafshonning qadimgi irmoqlari, Ohangaron daryosi bo'ylarida ham mavjudligi qayd qilingan. Ular arxeolog T.Mirsoatov tomonidan o'rganilgan. Chaqmoqtosh konlari va ustaxonalari keng tadqiq qilish ibtidoiy madaniyati tarixni o'rganishda muhim manba sanaladi.

2.5. So'nggi paleolit davri arxeologiyasi.

So'nggi paleolit davrida muzlikning oxirgi (vyurm yoki valday) bosqichga to'g'ri keladi. Bu davr davomida ibtidoiy jamoa a'zolari yangi yerlarni o'zlashtira borib yer yuzining barcha hududlarga (Amerika va Avstraliya) tarqalib bo'lada. Eng muhim yangilik insoniyat qiyofasidagi o'zgarishlarning sodir bo'lishi edi. Zamonaviy qiyofadagi odamlar-*homa sapiens sapiens*, ya'ni *kramanon* turidagi odamlarning shakllanishi bilan antropogonez jarayoni nihoyasiga etadi. Kishilik jamiyati taraqqiyotidagi bunday muhim o'zgarish ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi dastlabki tub burilish davrining boshlanishi hisoblanardi.

Ongli odamning paydo bo'lishi jamiyat hayotining barcha sohalarida muhim o'zgarish va yangiliklarning sodir bo'lishi bilan davom etadi. Moddiy madaniyat o'zgarishlaridan toshga ishlov berishning prizma texnikasi paydo bo'ladi. Prizma shakldagi nukleuslardan yupqa va uzun tosh bo'laklarini (plastinka) ko'chirib olish mumkin bo'lib, ilgargi qalin tosh bo'laklariga nisbatan tig'i o'tkir va ixcham bo'lgan qurollarga ega bo'lish imkoniyati paydo bo'ladi.

So'nggi paleolit muste davriga nisbatan yaxshi o'rganilmagan, mavjud joy-makonlar soni ham kamchilikni tashkil etadi. Bu davr kishilari faqat g'orlardagina yashamasdan, vodiylar va daryo bo'ylariga ham tushib kelib kun kechara

boshlaydilar. Shuning uchun bu davrga oid makonlar tabiat hodisalari oqibati va keyinchalik yerlarning o'zlashtirilishi natijasida ularning madaniy qatlamlar yo'qolib, hozirgi paytda saqlanib qolmagan. O'rta Osiyoda so'nggi paleolit davri mil. avv. 40/35-12 ming yilliklar doirasida sanalanadi. O'rta Osiyoning barcha hududlarida joylashgan arxeologik yodgorliklarda amalga oshirilgan arxeologik tadqiqot natijalariga asoslangan olimlar butun mintaqaning butun davrga oid arxeologik majmuasini bosqichlarga ajratishga harakat qilishgan. Masalan, arxeolog olim V. A. Ranov so'nggi paleolit davrining quyidagi to'rtta variantini ajratib ko'rsatadi: Qorakamar, Xo'jag'or, Samarqand, Ko'lbuloq.

Toshkent vohasida so'nggi paleolit davriga oid Ko'lbuloq joy-makoni va Obirahmat g'or makonlari tegishli bo'lib, ularning har ikkisi o'zidan oldingi muste davrining davomida rivojlanib, moddiy madaniyat xususiyatlarini saqlab qoladi. Ko'lbuloq joy-makonning yuqoridagi uchta madaniy qatlami so'nggi paleolit davriga oid bo'lib, tosh qurollari ishlanish usuliga ko'ra muste davridagidan farq qilmaydi.

Samarqand makoni. Samarqand manzilgohi shahar markazida Siyobcha soyining o'ng sohilida joylashgan. Makonning madaniy qatlami joylarda 3-4 va 3-7 metrdan iborat. Makondan 75 mingga yaqin tosh qurollar topilgan. Qurollarning ko'pchiligi chaqmoqtosh, diorit, amfibolit kabi tosh jinlaridan yasalgan. Tosh qurollar uchun xom-ashyo 7-8 km. shimolda joylashgan Cho'pon ota, degan joydan olib kelingan bo'lishi mumkin. Toshdan yasalgan mehnat qurollari qirg'ich, keskich, sixchalar, pichoqlar, gardishsimon nukleuslar, uchrindilar, ushatgichlar, boltalar va yupqa parrakchalardan iborat. Bular orasida hayvon terilariga ishlov berish uchun mo'ljallangan qirg'ichlar, teshgichlar va suyakdan yasalgan mehnat qurollari ham ajralib turadi. Ayniqsa, topilmalar orasida 16 sm. tosh bolta, tesha vazifasini bajaruvchi toshdan yasalgan qurol diqqatga sazovor. Bunday topilma boshqa manzilgohlardan uchramaydi. Makondada ibtidoiy odamlar yashagan chaylarning izlari ham uchraydi. Chaylaning umumiy maydoni 100 metr kvadratni tashkil etadi. M.J.Jo'raqulov Samarqand makonini so'nggi paleolit davrining o'rta bosqichiga oidligini ta'kidlaydi. Lekin, tadqiqotchi arxeolog N.

Xushvaqto'v tosh quollarini shakllariga asosan so'nggi paleolitning oxirlariga qadar yoshartirish taklifini bildiradi. Makondan topilgan odam suyaklari 25 yoshlardagi zamonaviy qiyofaga ega bo'lgan ayol jinsiga tegishli elka suyak, pastki jag'ining 9 ta tishi va boshqa tishlaridan iborat. Keyinchalik birinchi topilmaga o'xshash 35 yoshlardagi erkak yoki ayol jinsiga tegishli bo'lgan 10 ta tishi saqlangan pastki jag' topilgan.

Qorakamar varianti Shimoliy Afg'onistonning shu nomdagi yodgorligi asosida belgilangan. Turkmanistondagi Krasnovodsk yarim orolida joylashgan Yangaja II ustaxona-makoni Qorakamar variantiga mos keladigan yodgorlik hisoblanadi. Bu makondan nukleuslar, uchrindilar, parrak va parrakchalar, teshgich, keskich va boshqa tosh quollari topib o'rganilgan. Ular orasida nukleussimon qirg'ichlarning ahamiyati yuqori bo'lib, ularga o'xshash quollar Falastinning so'nggi paleolit davriga oid yodgorliklarining quyi qatlamidan ham topib o'rganilgan.

Tojikistondagi Xo'jag'or makonidan esa oq, qora va ko'k rangdagi chaqmotoshlardan yasalgan mehnat quollari majmuasi topib o'rganilgan. Bu tosh quollar nukleus, qadama, plastinka va boshqalardan iborat. Bulardan tashqari maxsus mehnat quollari: parmalagich, teshgichlar ham topib o'rganilgan.

Tojikiston Pomir tog' tizmasidan Darvoza tog'ining g'arbiy qismidagi daryo vohasida ko'p qatlamli Shug'nou joy-makoni joylashgan. Bu makonda to'rtta madaniy qatlam aniqlangan. Makonning umumiy maydoni 500 metr kvadrat bo'lib, madaniy qatlamlar nisbatan kichrayib boradi. Birinchi va ikkinchi madaniy qatlamlarda olovdan kuygan tuproq izlari aniqlangan. Uchinchi madaniy qatlamdan esa ibtidoiy jamoa kishilarining ish joyi o'rni aniqlangan. To'rtinchi madaniy qatlamda yashash joylari bo'lmagan. Olov qoldiqlari makonda odamlar uzoq yashamaganliklaridan dalolat beradi. Mehnat quollariga ko'ra manzilgoh bu yerda yashagan ovchi qabilalarining mavsumiy manzili bo'lganligidan guvohlik beradi. Shug'novdan topilgan barcha tosh quollarni uch (I-madaniy qatlam, II-madaniy qatlam, III-madaniy qatlam) guruhga bo'lish mumkin. Birinchi madaniy

qatlamdan ko'p sonli plastinka, nukleus-qirg'ichlar topilgan. Mehnat qurollari bir xilda: keskich, plastinka, retushli parrakchalar va boshqalar.

Ikkinchi madaniy qatlamda plastinkalar ko'pchilikni, nukleuslar esa kamchilikni tashkil etadi. Ammo, qirg'ichlar, ushatgichlar, keskichlar soni ko'payadi. III va IV- madaniy qatlamida esa kam sonli plastinka va nukleuslar topilgan. Bu esa pastki ikki madaniy qatlamning yoshi o'rta paleolit davriga oid ekanligidan dalolat beradi.

Arxeolog R.H. Sulaymanov rahbarligida Kolorado universiteti (Aqsh) antropologiya departamenti xodimlari bilan hamkorlikda Qashqadaryo vohasi hududida tadqiqot ishlarini olib borib, Oyoqchisoyni yuqori qismida **Hangillak** g'or-makonida qazishma ishlarini olib bordi. Qazishma davomida ko'p sonli tosh qurollari, paleozoologik va paleoantropologik topilmalar aniqlangan. Tosh qurollari kvarst va qayroqtoshlardan iborat. Bu yerdan odam oyog'ining kaftidan iborat bir nusxadagi suyak topilgan. Radiokarbon tekshirish natijalariga ko'ra g'or-makon madaniy qatlami mil.avv. 26 ming yillikga tegishli bo'lgan.

O'rta Osiyoning bu davrga oid manzilgohlarda oldingi davrga nisbatan hayvon suyaklari qoldiqlari ko'plab uchraydi. O'rta Osiyoning so'nggi paleolit davriga oid ko'pgina makonlarda hayvon suyaklari ko'proq uchraydi. Masalan, Shug'nov makonidagi o'choqlar yonida ot, ho'kiz yoki bizon, qo'y echkilarning suyaklari topib o'rganilgan. Samarqand manzilgohida ham hayvon suyaklari ko'plab uchraydi. Bu yerdagi suyaklarning ko'pchiligini ot, so'nggi paleolit davri eshagi, ibtidoiy turlarniki tashkil etsa, tuya, Buxoro bug'usi, kam sonli cho'l qo'yi, jayron, toshbaqa, bo'ri va qushlarning suyaklari aniqlangan. Bu hududda cho'l, to'qay, tog' va tog' oldi hududlarga mansub hayvonlar ko'p bo'lgan. Ko'lbuloqdan topib o'rganilgan suyaklar bug'u, ot, sirtlon, yovvoyi qo'ylarga tegishli.

Umuman olganda yer sharida yashovchi aholi turli tabiiy sharoitdan kelib chiqib, mahalliy sharoitga moslashgan hayvonlarni ov qilish va terib termachilik bilan kun kechirishgan. O'rta Osiyo hududidagi makonlardan topib o'rganilgan yovvoyi hayvon suyaklari ularning turi xilma-xilligidan dalolat berib, ibtidoiy kishilar hayotida ovchilikning ahamiyati yuqori bo'lganligidan dalolat beradi.



**Yuqori paleolit davri
ibtidoiy ajdodlarimiz
turmush tarzi**

2.6. Ibtidoiy tasviriy san'ati. Tasviriy san'at insoniyat tafakkurining mahsuli bo'lib, u kishilik jamiyatining dastlabki bosqichlaridan shakllana boshlagan. Aql idrokli odamlarning (so'nggi paleolit) paydo bo'lishi bilan san'at insoniyat oliy tafakkuri mahsuliga aylanadi. Bu davrga oid chizma-tasvir va haykaltoshlik kabi amaliy san'atining kam sonli namunalari bizgacha etib kelgan. Bunday san'at namunalari o'zida davri kishilarining xo'jalik hayoti, g'oyaviy qarashlari va ijtimoiy hayotlari to'g'risidagi dunyoqarashidan darak beradi. Ibtidoiy davr chizma-tasvirlarining dastlabki namunalarini bundan sal kam 150 yil ilgari (1879 yil) ispaniyalik arxeolog olim M. Sautol Ispaniyadagi Altamir g'orida aniqlagan. Undagi tasvirlar g'orning shift qismida joylashgan. 1895 yili ibtidoiy kishilar tomonidan chizilgan tasvirlar Fransiyadagi Lya Mut g'oridan aniqlangan. 1901 yilda esa A. Breyl Fransiyaning Vezir vohasida joylashgan Le Kombarell g'oridan mamont, bizon, bug'i, ot, ayiq tasvirlaridan tashkil topgan taxminan 300 ta tasvirlarni aniqlagan. Tasvirlar orasida qisman odamlarniki ham ham uchrab, ularning ko'pchilik qismi maska kiygan holda berilgan. O'sha yilining o'zida mazkur g'oridan uzoq bo'lmagan Fon de Gom g'oridan arxeolog Peyroni tomonidan turli hayvonlar tasvirlarini o'rganishga muvoffaq bo'ladi. Tasvirlarning ko'pchiligi ot, keyin mamont va qisman bug'ilarga tegishli bo'lgan. Tasvirlar oxra va boshqa bo'yoqlar bilan chizilib, ularning sirlar hozirga qadar aniq emas.

1901 yili arxeolog olimlar E. Kartalyakva A.Breyllar Altamir g'orini o'rganadilar. G'orning uzunligi 280 metrdan iborat bo'lib, uning shifti va devorlpriga chizilgan 150 hayvon tasvirlari kishi diqqatini o'ziga tortadi. 1959 yili zoolog olim A. V. Ryumin Rossiyaning Ural tog'ida joylashgan Kapova g'orida so'nggi paleolit davriga oid tasvirlarni aniqlashga erishadi.

Dastlab 7 ta mamont, 2 ta ot va 2 ta nasorglardan iborat jami 11 ta tasvir aniqlangan bo'lib, ularning barchasi tosh bo'lakchalari bilan chizilgan tasvirlarga qizil bo'yoqlar berib ishlangan. Ular qaysi davrga tegishli, degan savolga tasvirlarning mazmun mohiyati qadimiy ekanligidan dalolat beradi. G'orda tasvirlari keltirilgan hayvonlar allaqachonlar qirilib ketgan. Radiouglerod tekshiruvlar ularning qadimiyligidan dalolat berib, ularning dastlabkilari 30 ming yillik qadimiylikga, so'ngilari esa taxminan 12 ming yil qadimiylikga egaligini ko'rsatgan.

So'nggi paleolit davri tasviriy san'atining boshqa bir turi ayol jinsiga tegishla haykalchalardan iborat. Ular odatda yolong'och yoki kam hollarda kiyimboshi bilan ishlangan. 12-15 sm.dan iborat bu haykalchalar ohaktosh yoki ohakgil (mergel) kabi yumshoq turlardagi toshlardan va qisman hayvon suyaklaridan yasalgan.

Paleolit davri zuxrosi nomi bilan mashhur bo'lgan bir turli haykalchalar Yevropaning ko'plab davlatlari-Fransiya, Belgiya, Italiya, Germaniya, Avstriya, Chexiya, Ukraina va nisbatan ko'proq Rossiyadagi arxeologik yodgorliklaridan topib o'rganilgan.

Ilk paleolit davri bu davr yodgorliklarining sanasi 700-500 ming yil avval boshlanib, miloddan avvalgi 15000 yilliklargacha davom etgan va Ashel davri deb yuritilgan. Ashel davri oxirida Yevropani shimoliy mintaqalarini qalin muz qoplagan. Lekin U. Ismoilov shu davr odamini qoldig'ini (bosh suyagini bir bo'lagi, yelka suyagi va 10 ta tish qoldig'ini) topib o'rgangan Farg'ona vodiysini Selung'ur g'oridan, A.Qosimov esa Ko'rbuloq makonini o'rganib, Ashel davriga oid 22 ta, muste davriga oid 24 ta madaniy qatlamni o'rganadi. Bunda markaziy Osiyoga odamlar juda erta kelib joylasha boshlaganlar degan xulosaga kelish

mumkin. O'rta paleolit (muste madaniyati) davri - bu davrda mashhur yodgorliklar topilgan va 24 ta madaniy qatlam o'rganilgan. Ayniqsa, Teshiktosh Surxondaryodagi, Obirahmat Toshkent viloyatidan, Xo'jakent Toshkent viloyatidan, Ko'lbuloq Toshkent viloyatidan, Samarqand viloyatidan Omonqo'ton, Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Xo'jamazgil, Navoiy viloyatidan Ustut nomlari o'rganilib O'zbekistonning qadimgi madaniyati va san'ati tarixiga oid manbalar topiladi. Teshiktosh g'ori 5 ta qatlamdan iborat, g'orni uzunligi 20 m, balandligi 9 m, chuqurligi 21 m bo'lgan. 2859 tosh qurollar topilgan. 7 Teshiktoshdan 7-11 yashar (qiz bola) Neondertal odamini topilishi buyuk kashfiyot bo'lgan. Odam suyaklari atrofiga arxar va Buxoro bug'usi shoxlarini qo'yilishi dastlabki diniy tasavvurlarni vujudga keltirilishini ko'rsatadi. Obirahmat makoni va Paltov (tangritog' chotqol tizmasidagi) makonidan 10 m qalinlikdagi 21 ta madaniy qatlam o'rganilgan. Makon yoysimon bo'lgan, og'zi janubga qaragan, ichi keng bo'lgan. U yerdan ohaktoshli chaqmoqtoshdan yasalgan mehnat qurollar, parrandalar, qirg'ichlar, kurakchalar, keskichlar topilgan. Obirahmat esa hayvon suyagidan ishlangan bigizlar shuningdek bug'u, tog' echkisi, to'ng'iz, arxar suyaklari, gulxan, kul, ko'mir qoldiqlari topilib, u yerda odamlar 120 - 40000 yil ilgari yashaganlar va tog' mevalarini terib, yovvoyi hayvonlarni ovlaganlar. Qo'tirbuloq (Samarqand viloyati Kattaqo'rg'onida) 5 ta madaniy qatlam topilgan. Bu yerdan ikki tomoniga ishlov beruvchi bargsimon qurollar, fil, bug'u, yovvoyi ot, quyon suyaklari topilgan. Yuqori yoki so'nggi paleolit davri - miloddan avvalgi 40 - 35000 yil avval boshlangan va 12-10000 yilliklargacha davom etgan. Bu davrda hozirgi zamon odami shakllangan. Bular toshni o'yish usullarini (retush qilish, sindirib olish, o'tkirlashni) bilganlar. Bularni mehnat qurollari prizmalı, konussimon shaklda bo'lgan. Bular tosh bilan birga suyak va yog'ochdan ham foydalanganlar. Bu davr odamlarining buyuk yutug'i nayza - paykonlarini, irg'itiladigan nayzalarni, nayza - otkichlarni ixtiro qilganlar. Ishlatilishiga qarab guruhlarga bo'lganlar (ov qilish, go'shtni nimtalash, teriga ishlov berish, baliq tutish uchun sanchqi (charpun), arralovchi qurollar, suyak ignalar, bigizlar). Shuning uchun bu davr odamlarini Xamosanienslar ya'ni aqlli, idrokli va ongli odamlar deganlar.

Ta'sviriy va amaliy san'atning ibtidosi yuqori paleolitdan boshlangan. Suyakdan ayollar haykalchalari yasalgan, taqinchoqlar yasab ustiga turli xil tasvirlar o'yib tushirilgan. O'rta Osiyoda bu davrga oid 30 dan ortiq yodgorliklar topilgan, ya'ni Samarqand makoni, Toshkent viloyatida Oqtosh, Ko'lbuloq makonlari o'rganilib amaliy san'ati shakllanganligini ko'rsatadi. Shuningdek, 8 chaqmoqtoshga ishlov beradigan ustaxonalar bo'lgan. Ishqalash yo'li bilan olov hosil qilganlar. O'rta tosh (mezolit) davri - 12 - 6000 yilliklarni o'z ichiga oladi. Bu davrda insoniyat tomonidan ko'p kashfiyotlar qilindi. O'q-yoy kashf etildi va ibtidoiy san'at rivojlandi, ya'ni devorga o'yib rangli bo'yoqlar bilan ta'svirlangan san'at paydo bo'ldi. Butun ta'sviriy san'at na'munasi Surxondaryoning Zarautsoy darasidan topildi. Bunda yovvoyi buqani itlar yordamida ovlash masalasi qizil bo'yoqlar bilan berilganligi o'rganildi.

Dunyo tarixida ibtidoiy tasviriy san'at, xususan, g'orlarning devorlariga turli tasvirlar chizish so'nggi paleolit davriga oiddir (Ispaniya, Altamir g'ori). O'rta Osiyoda ungurlar va qoyatoshlarga ishlangan rasmlar mezolit davrida paydo bo'ladi. O'rta Osiyoning tog'lik hududlarida keng tarqalgan qoyatosh rasmlari ishlanish usuliga ko'ra ikki xil. Bir xillari bo'yoq (oxra) bilan, ikkinchi xillari esa urib-o'yib ishqalash, chizish usuli bilan ishlangan (petrogliflar)rasmlardir.

O'zbekistondagi qoyatosh rasmlarning eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabilar bo'lib, ular yuzdan ziyoddir. Bu yerdagi qoyatoshlarda O'zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ular ibtidoiy buqalar, sherlar va yo'lbarslar, qoplon, tulki va bo'rilar, bug'u va jayron kabilardir. Rasmlar orasida o'q-yoy, uzun qilich, xanjar, dubulg'a, qopqon kabi narsalar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Eng qadimgi rasmlar Zarautsoy (Surxondaryo) bo'lib, bu rasmlar mezolit-neolit, ya'ni mil avv. VIII-IV ming yilliklarga oiddir. Qoyatosh rasmlari orqali o'sha davr odamlarining ov, mehnat va jangovar qurollarini bilib olishimiz mumkin. Ibtidoiy jamoa tuzumi san'ati tarixi, odamzod tafakkuri, his-tuyg'ularining paydo bo'lishi va rivojlanishidan boshlab, yer yuzida birinchi davlatlarning yuzaga kelishigacha bo'lgan davr san'atini o'z ichiga oladi,

o'rganadi va tahlil etadi. Ibtidoiy jamoa tuzumidan bizgacha ashyoviy dalillar-mehnat va ov qurollari, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari etib kelgan, Shular ibtidoiy jamoa kishisining estetik va diniy qarashlarini bilishga, ibtidoiy jamoaning madaniyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Tuproq ostida qolib ketgan moddiy yodgorliklar odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, g'or va yerto'la devorlariga chizilgan surat va bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbai hisoblanadi. Bulardan tashqari, etnografiya, tarix sohasidagi fan yutuqlari, antropologiya, lingvistika, geologiya, xalq og'zaki ijodi, saqlanib qolgan turli afsonalar, fizika, himiya fanlarining yutuqlari ham shu davr tarixi va san'ati haqidagi tushunchalarning oydinlashishiga xizmat qiladi. San'at qachon va qanday paydo bo'lgan? San'at qadim-qadimda kishilarning mehnati jarayonida yuzaga keldi va rivojlandi. Odamlar mehnat jarayonida shakl tuyg'usini his etib, ritm, simmetriya tushunchalarini o'zlashtira boshladilar. Ular mehnat jarayonida tabiat kuchlarini o'zlariga bo'ysundira boshladilar. Ishlatilayotgan buyumlarning shakli bajarayotgan mehnatlarini osonlashtirishi yoki qiyinlashtirishi mumkinligini tushundilar. Qulay mehnat qurollarining unumi ularda o'z qurollariga nisbatan mehr tuyg'ularini uyg'ota bordi. Ular o'z qurollariga bezak berish orqali o'z mehrlarini izhor etishga harakat qila boshladilar. Odamlarda qulaylik va foydalilik tushunchalarining yuzaga kelishi voqelikdagi, hayotdagi go'zallik va xunukliklarni his etish imyaoniyatini rivojlantira boshladi. Inson madaniyati taraqqiyot olamiga qadam qo'ydi. San'atning yuzaga kelishi insonning ob'ektiv voqelik to'g'risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o'z avlodi tajribalaridan bahramand bo'lishga olib keldi. Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga da'vat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallashtirdi. Ibtidoiy jamoa tuzumi taraqqiyoti bosqichlari.

Tarix fani ibtidoiy jamoa tuzumi taraqqiyotini uning sostial tuzilishlga ko'ra 3 ga ajratadi.

- 1) ibtidoiy gala bo'lib yashash davri;
- 2) urug' jamoasi davri (bu davr ikkiga matriarxat va patriarxat davriga ajraladi);

3) harbiy demokratiya davri.

Arxiologiyada ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi qurol yasash uchun ishlatiladigan materiallarga qarab, uch asosiy bosqichga ajraladi:

1. Tosh asri eramizdan avvalgi 3 ming yillikkacha bo'lgan davr.
2. Mis va bronza asri eramizdan avvalgi 3-2 ming yillik.
3. Temir asri - eramizdan avvalgi 1 ming yillik.

Tosh asri, o'z navbatida, uchga bo'linadi:


1. Qadimgi tosh asri - paleolit eramizdan avvalgi 10 ming yillikkacha bo'lgan davr.
2. O'rta tosh asri - mezolit - eramizdan avvalgi 10-6 ming yillik.
3. Yangi tosh asri - neolit - eramizdan avvalgi 6-3 ming yillikni o'z ichiga oladi.

Paleolit yoki eng qadimgi tosh asri (palaios qadimgi, litos -tosh) insoniyat taraqqiyotining eng uzoq davom etgan bosqichi hisoblanadi. Bu taraqqiyotni bir qator davrlarga ajratish mumkin: eng qadimiy yoki quyi paleolit (er. av. 150 ming yilliklar), o'rta paleolit (er. av. 150-35 ming yillik), yuqori yoki so'nggi paleolit (er. av. 35-10 ming yillik). Arxeologlar ma'lumotiga ko'ra, paleolit asrida, ayniqsa, uning so'nggi bosqichlarida tasviriy san'atning hamma turlari paydo bo'ldi, diniy tushunchalar shakllana bordi. Paleolit asriga oid faktik materiallar Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alaridan topilgan, Bu davrda odamlar katta-katta toshlarning panasida, g'or va erto'lalarda to'da-to'da bo'lib yashaganlar, Bu g'or va erto'lalar ibtidoiy jamoa kishisining "uyi" hisoblangan. Shu uylarning devor va shiplariga suratlar chizganlar, bo'rtma tasvirlar ishlashga harakat qilganlar. Ana shu odamlar yashagan manzillardan topilgan mehnat, ov qurollari, turli haykal va ramziy mazmunga ega bo'lgan shakllar ibtidoiy jamoa kishilarining estetik va falsafiy qarashlarini tushunishga yordam beradi. Dastlabki rasmlar primitiv va asosan, hayvonlar ko'rnishini tasvirleydi. Mamont, yirik qo'tos, kiyik, ot va boshqa hayvonlar kontur chiziqlarda, tabiiy bo'yoqlarda ishlangan. Paleolit san'atining eng gullagan davri madlen asriga (er. av. 20-10 ming yillar) to'g'ri keladi. Bu davrda, ishlangan hayvonlar tasviri aniq, shakli real, proporstiyalari to'g'ri olingan. Ularning o'ziga xos xarakterli tomonlari (kuchli va og'ir, yengil va ziyrak) ko'rsatiladi. Ular turli holatda va ko'rinishda tasvirlanadi. Rassom ranglar

yordamidan, nursoya imkoniyatlaridan ham foydalana boshlagani sezilib turadi. Madlen davrining so'nggi bosqichlarida murakkab kompozistiyalar yaratishga intilish ortdi, tabiat manzaralari, hayvonlar to'dasi rasmini ishlash, ular harakatini biror syujetga bo'ysundirishga intilish seziladi. Shu xususida Fransiyaning Limeyl g'oridan topilgan, tosh yuzasiga ishlangan "Kiyiklar podasi" surati, Teyja (Fransiya) yaqinidagi g'ordan topilgan suyakka ishlangan hayvonlar podasini aks ettiruvchi suratlar xarakterlidir. Yuqori paleolit davrida odamlar yashagan manzillarda tosh, suyak, shox, loydan yasalgan har xil haykalchalar ham uchraydi. Relif (ko'proq uning barelefi) tabiiy tosh yuzasi yoki devor sathidagi tekisliklarga ishlov berish hisobiga yaratilgan. Haykaltaroshlikda ham hayvonlar tasvirini yasash keng o'rinni egallaydi.

Odam tasviri, ayniqsa, ayollar haykali paleolit davrida keng uchraydi. G'arbiy Yevropadan (Avstriya) topilgan "Villendorf Venerasi" deb nomlangan haykali mashhurdir. Haykal hajmi jihatidan katta emas. (balandligi 0,06 m), lekin ko'rinishi jihatidan monumental. Haykalda ortiqcha detallar yo'q, ichki kuch-qudratga to'la. Haykalda bosh qism bir oz belgilangan, yuz deyarli ishlanmagan, past tomonida tugallik yo'q. Lekin shunga qaramasdan, haykal o'zining to'laqonliligi, ichki kuchga to'laligi bilan yaxshi taassurot qoldiradi. Sharqiy Yevropa, Sibir, O'rta Osiyoda bunday ayollar haykali ko'plab topilgan. Jang voqealari, ovchilikni aks ettiruvchi murakkab kompozistiyalar yaratildi. Ishlangan suratlarda voqealarni keng, atroflicha bayon etishga intilish ortdi. Rassom o'z fikrini bayon etish uchun obrazlarni sxematik va shartli belgilar tarzida tasvirlagani holda, bo'layotgan voqeaning mohiyatini ochishga harakat qildi. Sharqiy Ispaniya, Kavkaz, O'rta Osiyodan topilgan suratlar diqqatga sazovordir. "Kiyiklarni ovlash" (Ispaniya)dan topilgan surat. Obrazlar shartli (kamon otayotgan ovchilarda bu shartlilik yaqqol seziladi), sxematik, o'ta soddalashtirilgan holda tasvirlangan. Lekin bu shartlilik rassom aytmoqchi bo'lgan fikrni tushunishga xalaqit bermaydi. Ov manzarasidagi holat kiyiklarning jon holatda qochishi, bo'lmoqda. Mezolit yoki o'rta tosh asrida odamlar katta bo'lmagan to'daga ajralgan holda yashay boshlashlari ularga bir joydan ikkinchi joyga erkin ko'chib o'tish, katta yer

maydonlaridan foydalanish imkoniyatini berdi. Qurollarning (mehnat va ov qurollari) ixcham, qulay bo'lishiga e'tibor kuchaydi. O'q kamon-yoy, qayiqning ixtiro qilinishi ibtidoiy jamoa kishisining hayoti yanada yaxshilanishini ta'minladi. Odamlar yog'och, qamishdan foydalanib, o'zlariga kerakli buyumlar yarata boshladilar. Diniy tushunchalar keng yoyildi. "Narigi dunyo" tushunchasi paydo bo'ldi, ko'mish marosimi bilan bogliq bo'lgan turli urf-odatlar yuzaga kela boshladi. Bular kishilarda murakkab tasavvur va fikrlashning paydo bo'layotganligidan dalolat beradi. Odamlar tasavvurining kengayishi, abstrakt tushunchalarning yuzaga kelishi san'atning shakl va mazmun xarakterida ham sezila boshladi. San'at mavzusi kengaydi, janrlar ortdi. Ovchilarning epchillik bilan olib borayotgan hujumlari, ov paytidagi shijoat, hayajon ibtidoiy jamoa rassomi tomonidan ifodali talqin etilgan. O'rta Osiyo (Surxondaryo, Farg'ona), Ozarbayjon (Kobiston)dan topilgan suratlarda ham shu holni ko'ramiz. Zaravutsoy (Surxondaryo), Seymalitosh (Farg'ona) suratlari mashhurdir. Bu suratlarda ovchilarning hayvonlarga hujumi aks ettiriladi. Zaravutsoydagi niqob kiyib o'ljasiga yaqinlashayotgan ovchilarni aks ettiruvchi surat o'tmish hayotining ma'naviy dunyosini bilishga xizmat qiladi.



**Laskovodagiot
tasviri. Fransiya**



**Suyakdan
ishlangan
haykallar.
Fransiya**

Glossariy- mavzuga oid atamalar izohi

- 1.Paleoantropologiya** -yunoncha palanogo, pianos - qadimgi va ānthros - odam, fizik antropologiyaning hosillar qoldiqlari evolyutsiyasini oʻrganuvchi boʻlimi.
- 2.Plyuvia** davri “plyuvia” lotincha soʻz bolib –“yomgʻir”degan ma'noni beradi.
- 3.Geolog va arxeologlar yer yuzida 4 ta muzlik davri** – 1.Dunay (Gyunst), 2.Mindel, 3.Riss, 4.Vyurm muzliklari bolganligini aniqlashgan.
- 4.Driopteklarni** - Propliopteklarning ikkinchi bir shajarasi rivojlangan driopteklar (yunoncha drio-quyuq oʻrmon, yaʼni oʻrmon maymunlari degan maʼnoni anglatadi, Olimlarning fikriga koʻra aynan driopteklar insonlar va gorilla, shimpanzelarning umumiy ajdodi hisoblanadi)
- 4.Zinjantrop** -Bundan 1.5 mln yil avval yashgan. Zinj bu Sharqiy Afrikaning qadimgi arabcha nomi.
- 5.YUNESKO** – Birlashgan Millatlar Tashkilotining taʼlim, fan va madaniyat ishlari bilan shugʻullanuvchi tashkiloti.
- 6.Altamira** – Ispaniyadagi gʻor.
- 7.Lasko** – Fransiyadagi gʻor.
- 8.Kapovaya** – Ural togʻining Boshqirdiston hududida joylashgan gʻor.

9. Qizil kitob – yo‘qolib ketish xavfi bor o‘simlik va hayvonlarning nomlari kiritiluvchi kitob.

Mavzuga doir savollar

1. Ilk tosh asrida insonning mashg‘ulot turlari haqida ma‘lumot bering?
2. Kishilik jamiyatining rivojlanishida olovning o‘rni ?
3. O‘zbekistondagi ilk tosh asri manzilgoxlarini sanab o‘ting?

Mavzuga oid test

1. Qaysi javob to‘g‘ri?

A Gorilla 600 dan to 685 sm³ gacha,Pitekantrop 800 dan to 900 sm³,Sinantrop 1000 dan to 110 sm³,Neandertal 110 dan to 1600 sm³,Hozirgi zamon odami 1200-1700 sm³.

B Gorilla 600 dan to 645 sm³ gacha,Pitekantrop 600 dan to 700 sm³,Sinantrop 1000 dan to 110 sm³,Neandertal 110 dan to 1600 sm³,Hozirgi zamon odami 1200-1700 sm³.

S Gorilla 600 dan to 685 sm³ gacha,Pitekantrop 800 dan to 900 sm³,Sinantrop 1000 dan to 110 sm³,Neandertal 100 dan to 1000 sm³,Hozirgi zamon odami 1000-1200 sm³.

D Neandertal 110 dan to 1600 sm³,Hozirgi zamon odami 1200-1700 sm³, Gorilla 400 dan to 585 sm³ gacha,Pitekantrop 800 dan to 900 sm³,Sinantrop 1000 dan to 110 sm³,

2.Moddiy manbalar asosida kishilik jamiyati tarixini o‘rganadigan fan?

A Arxeologiya B Ennografiya S Numizmatika D Paleozoologiya

3.Madaniy qatlam qanday ataladi?

A Stratigrafiya B Altar S Antrakologiya D Angob

4. Reksikologiya nima?

A Jangchi va jang ashyolarini tiklash arxeologiyasi

B Toshko‘mir arxeologiyasi S Moddiy qatlam D Suyaklarni o‘rganuvchi soha

5. “Villendorf Venerasi” deb nomlangan haykal qayerdan topilgan?

A Avstriya B Vengriya S Angliya D Fransiya

3-mavzu: Mezolit davri arxeologiyasi


Reja:

3.1. Mezolit davriga umumiy tavsif. Mezolit davrida flora va faunadagi o'zgarishlar.

3.2. Yaqin va O'rta Sharq mezolit davrida.

3.3. O'rta Osiyo mezolit davrida.

Tayanch iboralar: Golosten, oval shaklida uylar, radiokarbon tekshiruvlar, Zagros, ziyrak va yolg'iz yashovchi hayvonlar turining ko'payishi, g'orlarda yashash sharoitining qulayligi sababli, sun'iy uy-joylar, o'q-yoy.



3.1. Mezolit davriga kelib tabiiy-geografik muhit keskin o'zgaradi. So'nggi

paleolit va mezolit davrining ilk bosqichlarida hukmron bo'lgan oxirgi Vyurm muzligi erib, yer yuzida global isish boshlanadi va pleystosten golosten bilan almashadi. Ko'pchilik olimlarning ilmiy farazlariga ko'ra bu tabiiy jarayon mil. av. 8300 yillarda sodir bo'lgan. Natijada yer yuzining shimoliy hududlarida hayvanot va o'simlik dunyosi keskin o'zgaradi. Muzlik oldi hududlarida yashovchi hayvolarning ayrimlari, xususan jundor karkidon, mamont, ho'kizqo'y so'nggi paleolit davrida hayvonot olamidagi o'zgarishlar yirik hayvonlarning ko'pi so'nggi paleolit davrining oxirlaridayoq va keyinchalik esa boshqalari qirilib ketadi, qolgan qismi esa shimolga ko'chadi. Hayvanot olamidagi o'zgarishlar, ya'ni yirik hayvonlarning o'rniga tez chopar, ziyrak va yolg'iz yashovchi hayvonlar turining ko'payishi paleolit davri ovchilik an'analarining qiyinlashtirdi. Natijada bu turdagi hayvonlarga ov qilish uchun yangi vosita o'q-yoydan foydalanish va yakka ovchilik mavqeining oshishiga olib keldi. Mazkur hududlarda va janubiy mintaqalarning tog'li hududlarida ot, ho'kiz, sayga, yovvoyi eshak o'rmon hududlarida esa los, bug'u, cho'chqa, bo'ri, tulki va boshqalar yashashgan. Yer yuzining janubiy mintaqalarida mazkur davr tabiiy-geografik jihatdan keskin o'zgarishlar sezilmaydi va fauna va florada tub o'zgarishlar kuzatilmaydi.

Mezolit davri arxeologlarga XIX asrgacha ma'lum bo'lmagan va ana shunga ko'ra uzoq vaqt uning makonlari topilmagan.

Sagdullayevning ma'lumoticha: - "O'rta Osiyoda mezolit davri nisbiy tarzda miloddan avvalgi XII - VI mingyilliklarni o'z ichiga oladi. Arstixovskiyning fikricha mezolit : "Eramizdan avvalgi 12 mingdan 5 ming yilgacha davom etgan". Barcha Yevropa olimlarning fikricha mezolit davri XII - VII mingyilliklarni o'z ichiga oladi. shuning uchun umum jahonda mezolit davri XII - VII mingyilliklar deb qabul qilingan.

Mezolit so'zi "**mezos**" - o'rta va "**litos**" - tosh degan qadimgi yunon so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, o'rta tosh asri degan ma'noni bildiradi.

Yevropaning ko'p joyida mezolit ikki davrga: azil va tardenuaz davrlariga bo'linadi. Bu davrlar Fransiya makonlari nomi bilan atalgan.

Azil va tardenuaz davrlarida tabiiy sharoit qanaqa bo'lganini muzlik davrlardan keyingi hozirgi zamonnikiga o'xshash fauna qoldiqlari topilganligi belgilab beradi.

Azil davrining chaqmoqtosh va suyak quollarida asosan gladlen tipi saqlanib qolgan Azilliklar madlenliklarning bevosita vorislaridir. Azilning o'ziga xos, qalamtarosh tig'iga o'xshagan maxsus o'tkir tosh parrakchalarni qayd qilish mumkin. Bu davrda mayda chaqmoqtosh quollar - mikrolitlar (yunoncha "mikro" - kichik demak) uchraydi, ular tez orada keng tarqalgan. Mikrolitlarning ko'pi o'q uchi xizmatini bajargan.

Bu qurollardan odamlar kesish va o'rish maqsadlarida pichoq va o'roq sifatida keng foydalanganlar.

Mezolit davrining eng katta kashfiyot va yutuqlaridan yana biri - kamalak va o'qning kashf etilishi edi. Kamalak va o'q - inson kashf etgan eng dastlabki murakkab moslama bo'lib, u insoniyatning uzoq davom etgan mehnat tajribasi va zakovatining natijasi edi. Mashhur etnograf L. G. Morgan kamalak va uning o'qiga yuksak baho bergan. Chunki bu qurol uzoqqa otilishi jihatidan o'sha davrdagi boshqa qurollardan ustun edi.

O'q-yoyning ixtiro qilinishi orqasida parranda doimiy oziq-ovqatga aylandi, ovchilik bo'lsa mehnatning oddiy sohalaridan biri bo'lib qoldi. Yoy tanob va o'q juda ham murakkab quroldirki, bu asbbning ixtiro qilinishi uchun uzoq vaqt tajriba to'plangan bo'lishi, aqliy layoqat ko'proq rivojlangan bo'lishi va binobarin, ayni zamonda boshqa bir ko'p ixtirolar bilan ham tanishilgan bo'lishi kerak.

70 yillarning oxirlariga kelib esa Shved olimi Torell paleolit davridan neolit davriga o'tish bosqichini "mezolit " ya'ni "o'rta tosh" davri deb nomlaydi. Yevropaning mezolit davri miloddan avvalgi 9-6 ming yilliklar bilan davrlanadi. Yevropada ham mezolit davri buyuk muzliklarining chekinishi va hozirgi zamon iqlimiga o'zgarishi davriga to'g'ri keladi. Muzliklarning chekinishi natijasida iqlim va o'simliklar dunyosi o'zgarib ketadi. Muzlik davrining so'nggi bosqichida Yevropa shimolining katta qismida to'g'risimon o'simliklar hukmronlik qilar edi.

Asta - sekinlik bilan muzliklar shimolga tamon chekinadi va hozirgi kunda mavjud bo'lgan Boltiq dengizi paydo bo'ladi. Muzlik davrining tugashi bilan Janubiy va Markaziy Yevropada shimol kiyigi yo'qoladi ovchilarning asosiy ov manbai bo'lib bug'ular va boshqa hayvonlar qoladi. Muzlik davri ovchilarining turar joylari yengil tipdagi manzilgoh edi. Yevropada qo'lga o'rgatilgan hayvon bu it hisoblanadi. Yevropaning turli hududlarida mezolit davrida madaniyatlarining kechishi har xil bo'lgan. Shimoliy Yevropa mezoliti Yevropa mintaqasining O'rta yer dengizi va Atlantika havzalari qismlaridan ancha farq qiladi. Muzlik erishi bilan Yevropa hududidagi yashagan ibtidoiy ajdodlarimiz bug'ular izidan bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yangi yerlarni o'zlashtira boshlaganlar. Ibtidoiy ajdodlprimiz shimoliy tomonga siljishi natijasida bu yerlar Gamburg, Feder messer, Orenburg kabi madaniyatlarga asos soladi.

Germaniyaning shimolidagi mezolit davri madaniyatlariga boltalar madaniyati nomi berilgan ushbu madaniyatning asosiy yodgorliklari Pinnenburg, Dyuvenzee va Oldesloe sivilizatsiyalari hududlaridan topib o'rganilgan. Masalan: Pinnenburg qishlog'ida o'tkazilgan qazuv ishlari natijasida bir nechta manzilgohlar, qabrlar va o'choq qoldiqlari aniqlangan.

Shimoliy Skandinaviyaning mezolit davri madaniyatlari Fosna (Fosna), komsa (Komsa), va Askola (Askole) madaniyatlarini misol qilib keltirishimiz mumkun. Komsa madaniyati Norvegiyaning (Finmarker) shimoliy qismida, Finlandiyaning shimoliy qismida Skandinaviya yarim oroligacha bo'lgan hudularda keng tarqalgan.

Fanda 100 dan ortiq manzilgohlar ma'lum bo'lib, ulardan asosan toshdan ishlangan qirindilar namunalari topilgan. Finlandiyada **Komsa** madaniyati bilan bir vaqtda **Askola** madaniyati mavjud bo'lgan (unga tegishli manzilgohlar Askola viloyati, Porvan Yoki yaqinidan topib o'rganilgan) ov qurollari asosan kvarstitdan ishlangan. Ushbu ikkala madaniyat ham miloddan avvalgi VIII ming yilliklar bilan belgilanadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra ushbu madaniyat yodgorliklariga o'xshash. Ehtimolki ularning paydo bo'lishi ajdodlarimizning shimol bug'isi izidan shimol tomonga ko'chishi natijasida paydo bo'ladi, fosna madaniyati

Norvegiyaning g'arbiy qirg'oq bo'yi hududida tarqalgan. Ushbu madaniyatning fosna nomi bilan atalishi shahri nomi bilan bog'liq.

Finlandiyaning so'ngi mezolit davri madaniyatlar arxeologiya fanida suomusyarvi nomi bilan ma'lumdir. Ushbu madaniyatga tegishli yodgorliklar Finlandiyaning janubiy qismida topib o'rganilgan. Ushbu madaniyat Karelil hududida ham keng tarqalgan. Bu madaniyatning so'ngi bosqichi neolit davriga xos bo'lsada, aholisi sopol buyumlar bilan tanish bo'lishmagan. Bu madaniyatning kelib chiqishi borasida ham bir nechta nuqtai nazarlar mavjud. Birinchi nuqtai nazarga ko'ra Finlandiya ko'rfazining janubiy qirg'oqlari hududlaridan ko'chib aholi bilan bog'lansa, ikkinchi nuqtai nazarga ko'ra esa **Askola** madaniyatining so'ngi bosqichi bilan belgilanadi. Yevropaning eng qadimgi madaniyatlaridan biri bu Maglemoze madaniyatidir. Maglemoze deb nomlanishi esa Zelandiyadagi Muleruxa shahri nomi bilan bog'liq. Bu yerda 1900 yilda o'tkazilgan qazishmalar jarayonida qadimgi qishloq izlari topib o'rganilgan. Ushbu madaniyat Angliyadan Boltiqbo'yigacha, janubiy Norvegiyadan Pikardiyagacha bo'lgan hududlarda keng tarqalgan. Ushbu madaniyatlarining eng asosiy yodgorliklari Zelandiya oroli joylashgan Xolmgard va Sverdborg; Angliyadagi - Broksbern; Killing xit; Nyubyuri; Germaniyadagi - Kalbe; Dyubbartin; Dyukenzee; Shvesariyadagi - Istabi; Omossen; Sandarna yodgorliklari hisoblanadi. Skandinaviya hududida Maslemize madaniyati o'rniga Konimoze madaniyati keladi.

Azil yodgorligi Ispaniyaning shimoli va Fransiyaning janubidagi Solyutre davri madaniyati hisoblanadi. Ushbu madaniyatga oid yodgorliklar Fransiya Pireniyasi hududlaridan topilgan. Azil madaniyatini Yevropaning boshqa ilk mezolit davri yodgorliklari Tyongersk va Svidersk madaniyatlari bilan bir vaqtda mavjud bo'lgan.



Mezolit davrida o'q yoyning ixtirosi

3.2 Yaqin Sharq hududida mezolit davri Falastin va Suriya hududlarida tarqalgan Natufiy (mil. av. X-IX m.y.) madaniyatida namoyon bo'ladi. Natufiyliklar madaniyatiga o'yiqlik qilib chaqmoqtoshdan ishlangan kamon o'qlarining uchlari va geometrik, asosan, sigment shakldagi ko'psonli mikrolitlarning keng tarqalishi xos. Ular yovvoyi o'simliklarning boshog'ini doimiy yig'ish va baliqchilikga asoslangan o'zlashtiruvchi xo'jalik shakli bilan kun kechirishgan. Ko'pgina yodgorliklarda olib borilgan arxeologik qazish ishlari natijasida ko'psonli baliq suyaklari topib o'rganilgan. Mazkur madaniyat egalari g'orlarda, shuningdek, tekisliklardagi makonlarda istiqomat qilishgan. Xuli ko'li bo'yidagi Enan manzilgohidan 50 dan oval (cho'ziqlik) shaklidagi uylarning o'rni ochib o'rganilgan. Uylarning bir qismi yer sathidan past joylashgan. Uy devorlari mayda qum va tosh aralash loysuvoqlik qilingan. Uylar poliga qisman tosh plitalar yotqizilgan. Chaqmoqtoshdan yasalgan qurollarning ilmiy tahliliga ko'ra bu madaniyat so'nggi paleolit davri mahalliy **Kebara madaniyati** asosida shakllanganligidan dalolat beradi. Boshqa bir yodgorlik Yefratda Aleppodan 80 km chaqirimda joylashgan **Muraybit makoni** (mil. av. IX-VIII m. y.-VIII m.y. boshlari) sanaladi. Makondagi uylar oval shaklida bo'lib, **Enannikidan** farqli o'laroqlik yer ustida qurilgan. Ularning devorlari toshdan ko'tarilgan va ular loy bilan suvoqlik qilingan. Bu yerda aholi pasttekisliklarda yashovchi tuyoli yovvoyi

hayvonlarni ov qilish va boshqali o'simliklar-bug'doy va arpa donlarini yig'ish bilan kun kechirishgan. Bu turdagi o'simliklarning donlari qoldiqlari manzilgohlardagi madaniy qatlamlaridan ko'plab topilgan. Bu esa dehqonchilik xo'jaligiga o'tishning muhim bosqichi hisoblanadi.

Old Osiyoning boshqa bir hududida Iroqning shimolida Zagros tog'larida ham mana shunga o'xshash jarayonlar kechgan. Bu yerdagi paleolit davriga oid **Shanidar** g'or-makoning yuqori qatlamidan mil.av. X-IX ming yilliklarga oid kichik jamoa a'zolari qish faslida yashagan manzilning o'rni aniqlangan. Vodiyning pastrog'ida Zevi-Chemi-Shanidar makoni joylashgan. Bu makon zagrosliklarning yoz mavsumida istiqomat qiladigan manzilli hisoblangan. Makondan yirik tuyoqli yavvoyi hayvonlar suyaklari va boshqali o'simliklarning don qoldiqlari aniqlangan. To'plangan kremen (chaqmoqtosh) qurollarning ko'pchiligi geometrik shakllar (sigment, trapestiya) hamda to'liq va qisman silliqlangan tosh boltalar tashkil etadi. Jamoa a'zolari ko'rinishdan bo'yra va savatlardan foydalanganligini ularning loylarda qolgan izlari tashkil etadi. Zagrosdagi mezolit davriga oid boshqa yodgorliklardan Karimshaxir va Tellmelefaatlarda yashovchi aholi oval shakldagi yerto'la uylarda istiqomat qilganliklarini ko'rsatadi.



Mezolit davriga oid qoyatosh rasmlari

Mezolit davriga oid qoyatosh rasmlari. Mezolit davrida ta'svirlardagi turli xil bezak, sxematiklik va ramziy ma'nolar katta mashhurlikka ega bo'la boshladi. Amaliy san'at uchun asosiy materiallar suyaklar, baliq tishlari, toshlar, amber, yog'och edi. Mezolit davrida qadimgi odamlar diniy butparastlik g'oyalarini chuqurlashtirdilar. Dafn paytida, marhumga sharq tomon boshning majburiy yo'nalishi bilan maxsus holat berildi. Dafn chuquriga boshqa qabiladoshlar boshqa dunyoda kerak bo'lishi mumkin bo'lgan barcha narsalar: qurol-yarog', uy-ro'zg'or buyumlari, asboblari, marjonlarni qo'yishadi.

3.3.O'rta Osiyo hududidagi o'rganilgan mezolit davriga yodgorliklar past tekisliklardan tortib, baland tog'-tizmalarigacha bo'lgan hududlarda keng tarqalgan ochiq turdagi joy makonlar, g'or-makonlar va mavsumiy manzillardan iborat. Mazkur yodgorliklar stratigrafiyasi va radiokarbon tahlillariga ko'ra O'rta Osiyoning mezolit davri mil. av. X-VI ming yilliklar doirasida sanalanadi. O'rta Osiyodagi mezolit davriga oid yodgorliklari hududlar yoki madaniyatlar ajralib turadi.

Tabiatdagi bu o'zgarishlar, o'z navbatida, mezolit davri ibtidoiy ajdodlarimizning turmush tarzida ham o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi.

O'rta Osiyodagi, shuningdek, qo'shni o'lkalardagi juda ko'p yodgorliklardan mezolit davriga xos trapestiyalar, sigmentlar, uchburchaklar, qirg'ichlar o'roq-randalari, nayza va kamon o'qlarining uchlari, keskich, teshgich va har xil shakldagi uchrindi va nukleuslar ko'p topilib, ular orasida nayza va kamalak o'q uchlari - paykonlar ancha keng tarqalgan.

Mazkur davrda mayda qurolchalar qatori yirik va uzun tosh qurollar - **makrolitlar** ham keng ko'lamda qo'llanilgan. Boltasimon tosh qurollar shular jumlasidandir.

Mezolit davrining eng katta yutuqlaridan biri it, cho'chqa, qo'y, echki va boshqa hayvonlarni qo'lga o'rgatila boshlanishi edi. Arxeologik tadqiqotlarga asoslanib aytish mumkinki, mezolit davriga kelib, Old, Yaqin va O'rta Osiyoning ba'zi joylarida termachilikdan dehqonchilikka va ovchilikdan chorvachilikka, binobarin, xo'jalikning ilg'or, unumdor shakliga o'tish

boshlangan. Bu jarayon ba'zi joylarda ancha erta, boshqa joylarda bir oz kech sodir bo'lgan bo'lib, bu ishlab chiqaruvchi kuchlarning qay darajada rivojlanganligi bilan bevosita bog'liq edi. Dastlab odamlar tabiatda mavjud bo'lgan tayyor mahsulotlardan foydalanib, termachilik va ovchilik bilan shug'ullanishgan bo'lsalar, keyinchalik ular o'z mehnat faoliyatlari bilan tabiatga faol ta'sir etib, ilg'or unumdorlik xo'jaligiga - chorvachilik va dehqonchilikka o'ta boshlaganlar. Bu hol chorvachilik va dehqonchilikning ilk kurtaklari bo'lib, asl ma'nodagi dehqonchilik va chorvachilik keyinchalik qaror topdi.

Sharqiy Kaspiybo'yi (mil. av. X-VIII m. y)ning mezolit davri yodgorliklari Krasnavodsk yarim oroli, Balxanbo'yi, Qorabo'g'iz va Qo'yi O'zboy hududlarida tarqalgan. Bu yerda aniqlangan o'ttizdan ortiq manzilgohlar va to'rtta g'ormakonlar (Jebel, Qayli va Damdamchashma I, II) larda arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ularning quyi qatlamida hayot mezolit davrida boshlanib, neolit davrida davom etgan, ayrimlarida bronza davrida ham kishilar yashashgan. Mazkur hududdagi yodgorliklarning mezolit davriga oid tosh qurollari tahlili va qiyosiy tavsifiga ko'ra Balxanbo'yi (ilk, o'rta va so'nggi bosqichlari) va Sharqiy Kaspiybo'yi (ilk va so'nggi bosqichlari) lardan iborat ikki kompleks yoki guruhga ajratish mumkin. Ularning har ikkalasi uchun toshlarni tekis yorish va ulardan silliqlab mehnat qurollari yasash usuli xos. Sharqiy Kaspiybo'yi gurihidagi yodgorliklarda mikrolitlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Ustyurt (mil. av. VIII-VI ming yilliklar) Ustyurtda mezolit davriga oid 20 dan ortiq manzilgohlar o'rganilgan. Ular asosan Aydabolquduq va Jayronquduqlar atrofida to'p-to'p holda joylashgan ochiq turdagi doimiy, qisqa muddatli va vaqtincha yoki mavsumiy makonlardan iborat. Yodgorliklarning ma'lum hududda to'p bo'lib joylashishiga ko'ra ustyurtliklar aholisi ovchilari guruhi yoki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan bog'liq bo'lgan sodda ichki tuzilmadagi jamoa. Arxeolog E.B.Bijanovning ilmiy farazlariga ko'ra Ustyurt manzilgohlari mahalliy sharoitda Sharqiy Kaspiybo'yi va Janubiy Ural hududlarining mezolit davri madaniyatlarining ma'lum ta'sirida shakllangan. Bu yerda olib borilgan tadqiqot

ishlarini natijasida o'rganilgan topilmalar xususiyatlariga ko'ra quyidagi xronologik guruhlariga ajratishga harakatlari mavjud: ilk (rivojlangan mezolit) - mil. av.VIII-VII ming yilliklar va so'ngi (so'ngi mezolit va ilk neolit) mil. av.VII-VI ming yilliklar. Aholi ovchilik va baliqchilikga asoslangan o'zlashtiruvchi xo'jalik shakli bilan shug'ullanishgan. Shuningdek uy sharoitida suyak va yog'ochlarga ishlov berish ishlari ham asosiy mashg'ulotlaridan sanalgan.

O'rta Osiyoning sharqiy viloyatlarining mezolit davri nisbatan yaxshi o'rganilgan. Toshkent viloyatidagi yodgorliklar (mil.av. X-IX ming yilliklar) alohida o'rin tutadi. Toshkentning g'arbida qadimgi Bo'zsuv anhorining chap sohilida joylashgan Qo'shilish makonining madaniy qatlamlaridan 200 dan ortiq chaqmoqtoshdan yasalgan (nukleus, mayda parakchalar, qirg'ichlar, pichoqlar, boshqa turdagi silliqlangan qurollar va uchrindilar) qurollar majmuasi topilgan. Yodgorlikning madaniy qatlamlaridan qora mol, qo'y va echki suyaklari topilishiga ko'ra ularning asosiy mashg'uloti ovchilikdan iborat bo'lgan.

Farg'ona, Surxondaryo-Machay (VIII), Janubiy Tojikiston: Kofirnigon, Vaxsh, Panj vodiylari, Sharqiy Pomir (XI-VII) madaniyatlari tosh qurollar, xo'jaligi va boshqa xususiyatlariga ko'ra umumiy va o'ziga xos tamonlari bilan ajralib turadi.

Farg'ona vodiysining ham mezolit davri alohida madaniyatni tashkil etadi. Bu erda mezolit davriga oid 40 dan ortiq yodgorliklar o'rganilgan. Bu erning mezolit davri Obishir madaniyat (IX-VIII), nomi bilan ham nomlanib, uni ikki variantga yoki kompleks: Obishir (g'or-makon iborat) ilk bosqichi, Farg'ona so'nggi (tekislik). G'or-makonlar guruhiga tog'li hududlarda joylashgan Obishir va Toshko'mir guruhidagi manzilgohlar kiradi. Ulardan Obishir I, V yodgorliklari yaxshi o'rganilgan. Tekislikdagi guruhiga Sirdaryo yoqasidagi ko'llar bo'yida joylashgan bir necha o'nlab yodgorliklarni kiritish mumkin. Ularning har ikkalasi uchun ham plastinkasimon shaklda yasalgan tosh qurollar xos. Ilk bosqichida kishilar g'orlarda yashab xo'jalikning ovchilik va termachilik turi bilan shug'ullangan bo'lsalar, keyingi bosqichda, tekislikga tushib, termachilik va baliqchilik bilan kun kechirishgan.

Machay g'or makoni Surxondaryo viloyati Boysun tog'ining janubiy-g'arbida shu nomdagi qishloqda Surxandaryo (Sheraboddaryoning yuqori oqimi)ning o'ng sohilida joylashgan. Yodgorlikning madaniy qatlamlaridan tosh va suyakdan yasalgan mehnat qurollari, hayvon va odam suyaklari topib o'rganilgan. Toshdan yasalgan qurollar nukleuslar, pichoqlar, kesgichlar geometrik shakldadi (trapetsiya, sigment) mikrolit qurollar, nayza o'qi uchlar va boshqalardan iborat. Yodgorlikdan topilgan hayvon suyaklarining asosiy qismini xonakilashtirilgan hayvonlarniki tashkil etadi. Odam suyaklari yevropoid irqiga mansub kishilarga tegishli. Radiouglerod tahlillariga ko'ra yodgorlik mil. av 7550 yilliklarga oid.

Obishir madaniyati. Bu madaniyatga Farg'ona vodiysidagi bir necha mezolit davri yodgorliklari (40 dan ortiq) kiradi. Ularning ko'pchilik qismi ochiq Sharqdagi makonlar, kamchilik qismi bir va bir necha qatlamga ega bo'lgan g'or-makonlar (Obishir 1,2,3,4,5 va Toshko'mir)dan iborat. Ular ichida Obishir 1 va Obishir 5 yaxshi o'rganilgan. Ularning madaniy qatlamlaridan tosh qurollar (mikrolitlar, qirg'ichlar, pichoq qadamalari, keskich va teshkichlar, o'roq-randalar hamda nukleuslar) suyak buyumlari, chig'anoq, suyak va toshdan yasalgan taqinchoqlar shular bilan birgalikda hayvon suyaklari ham topilgan. Toshko'mir g'or-makonida Obishir makoniga o'xshash, silliqlash texnikasi ancha dag'al chaqmoqtoshdan yasalgan buyumlar mavjud.

Oshxona makoni. Bu yerda bir davrga oid uchta madaniy qatlam aniqlangan. Yirik dag'al ishlangan mehnat qurollari va kichik nafis mehnat qurollari ajralib turadi. Bu yerda silliq toshdan yasalgan ikkita o'choq va atrofida yashash maydonchasi aniqlangan.

Issiq g'or-makoni. Madaniy qatlami bir yarim metr. U yerdan kichik va o'rta hajmdagi toshlardan aylana qilib terilgan o'choq topilgan.

Markansuv madaniyati sohiblari ovchilik va terimchilik bilan kun kechirganlar. Makon mavsumiy foydalaniladigan joy bo'lib, undan o'lja izlab ovga chiqqan vaqtda yashash uchun foydalanilgan. Oshxonada topilgan yashash maydonchasi yengil turdagi chaylasimon uylarning qoldig'i bo'lishi mumkin.

O'rta Osiyodagi mezolit davri madaniyatlari va komplekslari o'ziga xos va turli xilda. Bu yerda mezolit davrining shakllanishida avvalambor so'nggi paleolit davri mamahalliy madaniyati asosiy o'rin tutgan bo'lsada, shu bilan birgalikda tosh asrining yirik madaniy markazi hisoblangan Yaqin Sharq qabilalarining ham sezilarli ta'siri bor. Shunday qilib, mezolit davrida O'rta Osiyoda xo'jaligi va madaniy xususiyatlari bilan ajralib turadigan bir qancha qabilalar yashashgan.

O'rta Osiyoda mezolit davri san'ati. San'at namunalari tog'li rayonlarda qoyatoshlarga bo'yoq bilan yoki urib, o'yib, ishlash, chizish usuli bilan ishlangan tasvirlardir. (Zarautkamar Surxondaryoda, Shaxta g'ori Tojikistonda). Zarautkamar qoyatoshlarida ov manzaralari (yovvoyi buqa, jayron va tik shoxli echkilarga qilinayotgan ov) tasvirlangan. Rasmlar qizil bo'yoqda ishlangan. Tasvirdagi hayvonlarning shakli aniq harakat qilayotganga o'xshaydi. Odamlar shakli esa shartli va harakatsiz tasvirlangan. Zarautkamarda madaniy qatlam uchramaydi. Tasvirlar borish noqulay bo'lgan joylarda chizilgan. Bunga o'xshash uslubdagi tasvirlar Shaxta kamarida ham chizilgan. Saqlangan to'rtta tasvirda odam, yovvoyi cho'chqa, ayiq tasvirlangan. Ular qizil bo'yoqda ishlangan. Zarautkamar va Shaxta kamaridagi rasmlari o'zida mezolit davri tog' ovchilarining qarashlarini aks ettiradi va ular rassom tomonidan zo'r mahorat bilan berilgan.

Zarautkamar (Surxondaryo) va Shaxta (Sharqiy Pomir Zarautkamar Sherobod shahridan taxmin 30 km Shimoliy-G'arbda **Kuxitang** tog'ining Janubiy Sharqiy yonbag'irlarida Zarutsoy tog'ida joylashgan. Kamarda madaniy qatlamlar uchramaydi. Tasviriy san'at namunalari qoya shiftlari va yon devorlarida joylashgan. Tasvirlar qizil bo'yoqlarda bo'yalgan bo'lib mezolitning so'ngi bosqichi va eng qadimgi neolit davriga oid. Ulardan uchta ov manzarasi tasvirlangan uchta komnozitsiyasi diqqatga sazovor. Birinchi tasvir 19 kishidan iborat ovchilarning yovvoyi buqalar xalqa bo'lib ov qilayotgani tasvirlangan. Ulardan ikkitasi qochishga urinmoqda. Ikinchi tasvirda ovchilar oldida jayronlarning qochayotgan va ulardan jarohatlangan holati tasvirlangan. Uchinchi tasvirda esa yovvoyi echkilarga qilinayotgan ov manzarasi aks ettirilgan.

Savol topshiiqlar:

1. Mezolit davrida flora va faunadagi o'zgarishlar haqida nimalarni bilasiz?
2. Yaqin va O'rta Sharq mezolit davridagi madaniy manzilgohlarni yozing?
3. O'rta Osiyo mezolit davrida yodgorliklarning arxeologik jihatdan o'rganilishi
4. Golosten davri haqida yozing?
5. G'orlarda yashash sharoitining qulayligi, sun'iy uy-joylar, o'q-yoyning ixtirosi?

Mavzuga oid test

1. Zarautkamar yodgorligida ta'sviriy sanat namunalari topilgan qaysi hududda joylashgan mezolit davri yodgorligi?

A Surxondaryo B Qashqadaryo S Navoiy D Toshkent

3. Muzlik davri tugagandan so'ng kishilar qanday muhim kashfiyot qilishga erishgan?

- A o'q-yoy kashf etilgan
- B mikrolit tosh qurollarining paydo bo'lishi
- S kulolchilikning paydo bo'lishi
- D dehqonchilikning vujudga kelishi

3. O'q-yoyning kashf etilishi...

- A yakka ovchilikning rivojlanishini ta'minlaydi
- B hayvonlarni xonakilashtirishga asos bo'ladi
- S chorvachilikning vujudga kelishini tezlashtiradi
- D ovchilikning ahamiyatining oshishiga olib keladi

5. Yevropaning eng qadimgi madaniyatlaridan biri Maglemoze madaniyatida qazishmalar jarayonida qadimgi qishloq izlari topib o'rganilgan qachon?

A 1900 yilda B 1892 S 2001 D 1990

4-mavzu: Neolit davri arxeologiyasi

Reja:

- 4.1. Neolit davri xususiyatlari.
- 4.2. Old Osiyoning neolit davri ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllidagi madaniyatlari.
- 4.3. O'rta Osiyoning neolit davri ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllidagi

madaniyatlari.

4.4.Kavkazning neolit davri arxeologiyasi

Tayanch iboralar: Neolit, Yaqin Sharq, Mesopotamiya va Kichik Osiyo hududlari, Ierixon A, *Lavlakon namgarchiligi*, **Hisor** madaniyatlarini, *Kaltaminor* madaniyati, *Sazag'on* madaniyati

4.1.Neolit davri xususiyatlari. Neolit - (yun. *neos*-yangi, *litos*-tosh, yangi tosh asri) o'zoq davom etgan tosh asrining so'nggi bosqichi. Neolit atamasini 1865 yilda ingliz olimi Lebbok taklifi bilan arxeologiya faniga kiritilgan. Neolit davrida odamlar yer yuzining barcha hududlarini egallashgan. Ular turli tabiiy-geografik sharoitlarga mos xo'jalik shakllarini tashkil etishib, hayot kechirishganlar. Bu esa neolit davri qabilalarining xo'jaligi va moddiy madaniyati jihatidan o'zaro farq qiladigan madaniyat yaratishlariga sabab bo'lgan.

Yer yuzining quyi qatlamidan xom g'ishtdan qurilgan uylarning o'rni aniqlangan. Yer sharining shimoliy qismida esa xo'jalikning tabiiy sharoitiga mos bo'lgan o'zlashtiruvchi xo'jalik shakllari chorvachilik vujudga keladi.

Neolit davrida kishilik jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy hayotida va moddiy madaniyatida muhim ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Neolit davrida Osiyoning tabiiy sharoiti qulay va issiq iqlimga ega bo'lgan hududlarida mezolit davrining oxirlaridayoq namoyon bo'la boshlagan ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllari - dehqonchilik va chorvachilik vujudga keladi. Yer sharining shimoliy qismida esa xo'jalikning tabiiy sharoitiga mos bo'lgan o'zlashtiruvchi xo'jalik shakllari saqlanib qoladi. Yer yuzining turli hududlarida yashagan neolit davri qabilalari o'zlari yashab turgan hududlarning tabiiy sharoitiga xos xo'jalik yuritishga majbur bo'lishgan va moddiy madaniyat yaratishgan. Yevrosiyoning janubiy o'lkalarida iqlim sharoiti nisbatan ancha qulay bo'lgan G'arbiy Osiyo hududida ilk ishlab chiqarish shakllari vujudga keladi. Hozirgi paytda "*serunum yarimoy hududi*", deb yuritiladigan Yaqin Sharq, Mesopotamiya va Kichik Osiyo hududlaridan dastlabki ishlab chiqarish - dehqonchilik va chorvachilik shakllaridan darak beradigan o'troq aholi manzillari o'rganilgan.

Umuman, neolit davrida insoniyat tabiatdagi mavjud bo'lgan tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini o'zlashtirishdan, ularni sun'iy ravishda ishlab chiqarishning xo'jaligi-dehqonchilik va chorvachilik shakllariga o'tishadi. Bu jarayonni ingliz arxeologi V.G.Chayld "neolit inqilobi", deb hisoblaydi.

Xo'jalik sohasidagi yangi yutuqlar keyinchalik yer yuzining barcha hududlariga tarqalgan. Suriya-Falastin neolit davriga oid ilk o'troq dehqonchilik qishlog'ining o'rni O'lik dengizdan Shimolda Iordan daryosi vodiysida joylashgan Tell as Sulton yodgorligida o'z aksini topgan. Bu yodgorlik Bibliyada keltirib o'tilgan qadimgi Ierixon shahrining o'rni hisoblangan. Arxeologik qazish ishlari natijasida mil. av. 8-7 ming yilga oid xayot uzliksiz ikki kompleks Ierixon A, B komplekslari aniqlangan. Manzilgoh 4 ga iborat bo'lib, toshdan terilgan aylana devor bilan o'rab olingan.

Qurol motiga va o'roqlarning dastalari dehqonchilikning paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Shuningdek Ierixon A dan bir qatorli arpa va bug'doylarning izlari qurilish materiallarida saqlangan.

Kichik Osiyo (mil av. 8 ming yil oxiri -7 ming yil boshlari) Xojilar manzilgohining quyi qatlamidan xom g'ishtdan qurilgan uylarning o'rni aniqlangan. Uylarning poli loysuvoq qilingan va devorlari bilan birgalikda qizil rangda bo'yalgan. Geometrik shaklda sopol idishlar uchramaydi. Idishlar toshdan yasalgan. Suyakdan bigiz, kremen va obsidiandan o'roq uchi qadamalari, silliqlangan tosh boltalar yasalgan. Ikki qatorli arpa ekilgan. Shuningdek bir qatorli yovvoyi bug'doylarni temachlash ham yordamchi xo'jalik hisoblangan. Bu yerda ham Ierixonliklar kabi murdalardan uyda ko'mishgan.

Old Osiyodagi ilk dehqonchilikning uchinchi bir markazi Shimoliy Mesopotamiya va unga tutash bo'lgan Shimoliy Eronning tog'li hudlari hisoblanadi. Bu yerda neolit davrida Jarmo madaniyati (VII-VI ming yilliklar) yoki ayrim tadqiqotchi olimlarning fikrlariga ko'ra Zagros madaniy birligi turidagi madaniyati rivojlangan. Jarmo madaniyatiga tegishli Jarmo yodgorligidan tashqari Zagros tog'larining Iroq qismida Telshimshara, uning Eron qasmida esa Tepaisarob va Tapaiguranlar mavjud.

Neolit davri Koreyada turli taxminlarga ko'ra, neolit davri Koreyada eramizgacha bo'lgan 8 -5 ming yillikda boshlangan. Aynan bu davrda toshga ishlov berish texnologiyasi yuqori daraja rivojlangan va ayniqsa, xanjar hamda o'roqlar ishlab chiqarish takomillashgan. Neolit davriga oid manzilgohlar yarim orol bo'ylab, ayniqsa, daryo va okean qirg'oqlarida uchraydi. Ularda tosh qurollar bilan bir qatorda baliq ovlash uchun zarur bo'lgan uzun nayza, suyakdan yasalgan qarmoqlar ham topilgani quyi paleolit davrida aholining asosiy taomi daryo va dengiz hayvonlari bo'lganligidan dalolat beradi. Keyinchalik, so'nggi neolit davrida tog' yonbag'irlarida va tepaliklarda yashagan jamoalar xo'jalik mashg'ulotlariga ananaviy ovchilik va baliqchilik bilan birga dehqonchilik hamda chorvachilik kirib kelgan. Neolit manzilgohlari sohiblari dehqonchilik mahsulotlaridan tariq, loviya va boshqa o'simliklarni yetishtirganlar. Yemi haydash asosan qolda bajarilgan bo'lib, ilk neolit davrida hayvonlar xonakilashtirilmagan. Yer, asosan, tosh omoch va hayvon shohidan qilingan kurak yordamida haydalgan; hosil tosh va suyakdan yasalgan o'roqlar yordamida o'rilgan; yetishtirilgan don va yovvoyi boshoqli o'simliklar tosh yorg'ichlar yordamida yanchilgan. Oshxona anjomlari sifatida dastlab naqshsiz silliq xum, dekcha, yog'och kosalar paydo bo'lgan. So'nggi neolit davrida taroqsimon naqshli va bo'yalgan kulolchilik buyumlari tarqala boshlagan.

Suyak mahsulotlari, uchli yoy, bigiz, garpun (katta baliqlarni ovlashda ishlatiladigan uzun nayza), igna, yer qaziydigan kurak yasash texnologiyasi rivojlangan. Kiyim tikish va baliq ovlash uchun to'r to qishda suyak ignadan tashqari, urchuq va to'quvchilik dastgohidan ham foydalanilgan. Neolit davri turar joylari dumaloq yoki to'rtburchak shaklidagi yopiq tomli yerto'lalardan iborat bo'lgan. Aynan mana shunday turar joylardan birida 5 ta o'choq topilgan bo'lib, bu yerda yashagan odamlar urug'chilik tuzumida hayot kechirishgan. Qishloqlar esa bir necha o'n va hatto, yuz yerto'ladan iborat bo'lgan. Ijtimoiy qatlamlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq keyingi davrlarda qabila sardorlarining dafn marosimlari oddiy fuqoralamikidan farq qilgan.

So'nggi neolit davrida O'zbekistonliklar uchun ma'lum va mashhur bo'lgan koreyslarning uy poli ostidan maxsus tuynuklar orqali isitish tizimi - ortdol paydo bo'lgan. Bu isitish tizimi dastlab Shimoliy Koreyadagi Nampxadon yodgorligidan topilgan. Uy poli ichki qismida kichik toshlardan tayyorlangan maxsus yo'laklar orqali yuborilgan issiq havo yordamida isitilgan.



Neolit davri insonlarning hayot tarzi

4.2. Old Osiyoning neolit davri arxeologiyasi.

Ma'lumki, mezolit davrida muzlik chekinib, ob-havo sharoiti isishi kishilar hayot kechirishlari uchun qulay sharoit tug'diradi. Boy fauna-hayvonot va flora-o'simlik ixtisoslashgan o'zlashtiruvchi xo'jalik shakllarining rivojlanishi uchun qulay imkoniyat edi. Mezolit davrida tabiiy zahiralarning aholi tamonidan muntazam o'zlashtirilishi natijasida tabiiy zahiralarnin kamayib borishi va aholi sonining ko'payishi natijasida oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi kishilarni yangi xo'jalik shakllari chorvachilik va dehqonchilikga o'tishlar sabab bo'ladi. Bu yerda mezolit davrining oxirlariga kelib, hayvonlarni qo'lga o'rgatish va o'simliklarni madaniylashtira boshlaydilar. Bu jarayon ilk bor tabiiy sharoiti

qulay bo'lgan Yaqin Sharq, Kichik Osiyo va Zagros tog'lari hududlarida sodir bo'ladi. Bu esa o'z navbatida Qadimgi Sharqning keyingi taraqqiyoti va dastlabki sivilizatsiyalarining paydo bo'lishida muhim o'rin tutadi.

Bu borada Falastinda joylashgan Natufiy madaniyati muhim o'rin tutadi. Kremendan ishlangan tosh qurollar ushbu madaniyatning asosiy alomati hisoblanadi. Ular o'yiqliq qilib ishlangan kamon o'qi uchlari va pichoqlarning tig'i sifatida yog'ochlarga qotirilgan mikrolitlarning ko'pchiligi sigmentlardan iborat. Topib o'rganilgan mehnat qurollari orasida dastali pichoqlarning umumiy soni ayrim yodgorliklarda 8% gachani tashkil etidi. Natufiy madaniyati sohiblari yovvoyi o'simliklarni muntazam termachlab kun kechirishgan. Shuningdek ularning xo'jaligida baliqchilik ham yuksak darajada rivojlangan. Baliq suyaklari Natufiy madaniyatiga oid ko'pgina yodgorliklaridan topib o'rganilgan. Natufiy madaniyati sohiblari g'or makonlardan tashqari past-tekkisliklarda sun'iy uy-joylar qurib yashashgan. Xuli daryosi sohilida joylashgan Eynan manzilgohidan 50 ta oval shaklida uy-joylar aniqlangan. Uylarning pastki qismi yer satxidan pastga qazib tushilib devorlari mayda tosh va qum aralash loysuvoq qilingan. Uylarning sathiga ayrim hollada tosh to'shalgan. Bu uy-joy qurish an'anasinig boshlanishidir. Bu madaniyat yuqori poleolit davri Kebera madaniyati asosida rivojlanib radiokarbon usulidagi tahlilga ko'ra milloddan avvalgi X-IX ming yilliklar bilan sanaladi. Topib o'rganilgan moddiy manbalarning guvohlik berishicha boshqali o'simliklar termachiligi va baliqchilik bilan kun kechirishib o'troqlashish jarayoni kuchaygan va hududi kengayib borgan. Frot daryosi sohilida joylashgan Muraybit manzilgohi buning yaqqol misolidir. Bu yerda xam uylar Eynanniki kabi oval shaklida bo'lib faqat ular yer ustiga qurilgan. Ularning devorlari toshdan terilib sirti loysuvoq qilingan.

Bu madaniyatning so'ngida aholi asta-sekin ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakliga o'tish jarayoni kechadi.

Old Osiyoning boshqa bir hududida Iroqning shimolida Zagros tog'larida ham mana shunga o'xshash jarayonlar kechgan. Bu yerdagi paleolit davriga oid Shanidar g'or-makoning yuqori qatlamidan mil.av. X-IX ming yilliklarga oid

kichik jamoa a'zolari qish faslida yashagan manzilning o'rni aniqlangan. Vodiyning pastrog'ida **Zevi-Chemi-Shanidar** makoni joylashgan. Bu makon zagrosliklarning yoz mavsumida istiqomat qiladigan manzilli hisoblangan. Makondan yirik tuyoqli yavvoyi hayvonlar suyaklari va boshqoqli o'simliklarning don qoldiqlari aniqlangan. To'plangan kremen (chaqmoqtosh) qurollarning ko'pchiligi geometrik shakllar (sigment, trapetsiya) ham da to'liq va qisman silliqlangan tosh boltalar tashkil etadi. Jamoa a'zolari ko'rinishdan bo'ya va savatlardan foydalanganligini ularning loylarda qolgan izlari tashkil etadi. Zagrosdagi mezolit davriga oid boshqa yodgorliklardan Karimshaxir va Tellmelefaatlarda yashovchi aholi oval shakldagi yerto'la uylarda istiqomat qilganliklarini ko'rsatadi

Yaqin Sharqda neolit davriga oid ilk o'troq dehqonchilik qishlog'ining o'rni O'lik dengizdan Shimolda Jordan daryosi vodiysida joylashgan Tell as Sulton yodgorligida o'z aksini topgan. Bu yodgorlik Bibliyada keltirib o'tilgan qadimgi Ierixon shahrining o'rni hisoblangan. Arxeologik qazish ishlari natijasida mil. av. VIII-VII ming yilga oid hayot uzliksiz ikki kompleks Ierixon A, B komplekslari aniqlangan. Manzilgoh 4 ga iborat bo'lib, toshdan terilgan aylana devor bilan o'rab olingan. Devorlar (eni 1,6 m) atrofida toshdan aylana minoralar (diametri 7-8 m) qurilgan. Ularning tepasiga aylana zinalar orqali ko'tarilgan. Ular mudofaa devorlari minorasi vazifasini emas, kuzatuv minorasi bo'lgan. Ichkarida devor bo'ylab, ma'lum shaklga keltirilmagan g'ishtlardan qurilgan uylar joylashgan. Uylar aylana yoki aval shaklda, ayrim hollarda yarim yerto'la shaklida. G'ishtlarga somon qo'shilgan. Murdalar uylarning bir tomoniga qurilgan. Bu davrda toshga qurollarga ishlov berishda mezolit davri an'analari davom etadi. Tosh qurollari mikrolitlardan iborat bo'lib, kamon o'qlarini tashkil etadi. Qurol motiga va o'roqlarning dastalari dehqonchilikning paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Shuningdek Ierixon A dan bir qatorli arpa va bug'doylarning izlari qurilish materiallarida saqlangan.

Yovvoyi bug'doy va arpa daryo sathidan 600-900 m. balandlikdagi tog' oldi hududlarida o'sadi. Qadimgi davrda ma'lum bo'lgan bir qatorli bug'doy Bolqon

yarim orolidan G'arbiy Eron hududigacha bo'lgan yerlarga tarqalgan. Bug'doyning ikkinchi turi bo'lgan emmer Shimoliy Mesopotamiya, Sharqiy Turkiya, Eron, Janubiy Suriya, Falastin va Livan hududlarida tarqalgan.

Neolit V bosqichida (mil. av. 7 ming yil) Shimoldan kelgan qabilalarning kelib joylashishi kuzatiladi. Bu davrga oid Tell Shayx Ali 1, Tell Munxatte, Tell Farax, Vadi Shuayb va Beyda manzilgohlari ma'lum. Moddiy topilmalar Shimoliy Suriyaning dengiz atrofi hududi (Ras Shamra) va Antaliya tekisliklari bilan aloqasidan dalolat beradi. Uy qurilishida ma'lum yutuqlarga erishiladi. Uylar aniq ulchamdagi (5,5x 4 yoki 7x3m) qurila boshlanadi. Uylarning sathi oxak suvoq qilinadi. Uylarning devorlari 1 metr balandlikgacha qizil bo'yoqlarda bo'yalgan. Qolgan qismi krem (qora) rangda bo'yalgan. Uylarning ichida mayitlar ko'milgan. Toshdan kamon, o'qlarining uchlari, keli, don yanchgich, turli idishlar, silliqlangan kichik tosh boltalari tayyorlashda foydalangan. Suyaklardan kesuvchi qurol sifatida foydalanilgan.

Loydan faqat odamlar va hayvonlarning shakllari yasalgan. Loydan kattaroq haykallar ham yasalgan, qamishdan ham yasalib, ular qizil rangda bo'yalgan. Ovchilik o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yovvoyi hayvonlardan gazel suyaklari ko'pchilikni tashkil etadi. Shuningdek qo'y, echki, cho'chqa va eshak suyaklari ham topib o'rganilgan. Ulardan faqat echki xonakilashtirilgan. It esa mezolit davridagi Ierixonliklarning ovdagi yo'ldoshi bo'lgan. Ko'rinishidan xonakilashtirilgan hayvonlardan mushuk xonakilashtirilib, u don mahsulotlari zahirasining to'planishi bilan bog'liq.

Ierixonidan janubda joylashgan Beyda yodgorligi ham neolit davri yodgorligi hisoblanadi. Uylari to'g'ri to'rt burchak shaklda. O'rtada poldan baland joylashgan o'choq bo'lgan. Uy devorlari ohak suvoq qilingan. Devor bo'ylab o'tirish uchun toshdan terib qo'yilgan. Ayrim xonalar ustaxona vazifasini bajargan. Suyakdan yasalgan uy-ro'zg'or qurollari, tosh va dengiz jonivorlaridan munchoqlar. Beydada loydan haykalchalar bilan birgalikda sopol idishlar yasash malakasi mavjud bo'lganligining ularning siniq parchalari orqali ko'rish mumkin. Sopolalar pishirilmagan.

Kichik Osiyo (mil av. 8 ming yil oxiri-7 ming yil boshlari) Xojilar manzilgohining quyi qatlamidan xom g'ishtdan qurilgan uylarning o'rnini aniqlangan. Uylarning poli loysuvoq qilingan va devorlari bilan birgalikda qizil rangda bo'yalgan. Geometrik shaklda sopol idishlar uchramaydi. Idishlar toshdan yasalgan. Suyakdan bigiz, kremen va obsidiandan o'roq uchi qadamalari, silliqlangan tosh boltalar yasalgan. Ikki qatorli arpa ekilgan. Shuningdek bir qatorli yovvoyi bug'doylarni temachlash ham yordamchi xo'jalik hisoblangan. Bu yerda ham Ierixonliklar kabi murdalardan uyda ko'mishgan.

Kichik Osiyo ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllarining to'liq nomoyon bo'lishi to'g'risidagi ma'lumotni Cheyyunyu depesa yodgorligida amalga oshirilgan arxeologik qazish ishlari natijasida aniqlangan. U mil.av 7250-6750 yillar bu yodgorlikning uylari asosan toshdan terilib satxi ohak bilan suvalib, bo'yalgan. Sopol idishlar uchramaydi. Hayvon haykalchalari mavjud. Kremendan yasalgan mikrolitsimon tosh qurollar ustunlik qiladi. Kam sonli urib ishlangan mis buyumlar uchraydi. Yodgorlikning dastlabki ikki bosqichida xo'jalikning ovchilik-dehqonchilik shakli ustunlik qilgan. Ovchilikla zubr birinchi o'rinda, ikkinchi o'rishda bo'rilarini ovlashgan. Uchinchi bosqichga kelib chorvachilik ovchilikni siqib chiqaradi. Qo'y, echki asosiy chorva hisoblangan. Dehqonchilikda bir va ikki qator bug'doy ekilgan.

Kichik Osiyodagi ilk dehqonchilik madaniyatining taraqqiy etgan shakli Markaziy Turkiyaning janubidagi Konya vodiysidagi Chatal Xyuyuk yodgorligida (mil. av. VII ming yillik ikkinchi yarmi- VI ming yillik birinchi yarmi) aksini topgan. Bu yerda mazkur davrda 20 dan ortiq ilk dehqon jamoalarining kichik qishloqlari mavjud bo'lib, ulardan yirigi Chatal Xyuyukning maydoni 13 gani tashkil etgan. Yodgorlikda aniqlangan uylar yirik o'lchamdagi xom g'ishtlardan barpo qilingan. Ularning ayrimlari devorlari sirtiga mazmunli rang-tasvirlar va bo'rtma naqshlar, xususan, buqa yoki qo'y boshi tasviri solingan. Bunday uylar dehqon jamoasi sig'inish odatlari uchun xizmat ibtidoiy ibodatxona bo'lganligi shubhasiz. Murdalar uylarning ichida kuzatuv buyumlari bilan birga qo'shib ko'milgan.

Asosiy mehnat qurollarini tosh va suyaklardan yasalgan buyumlar tashkil etadi. Obsidian tosh qurollarini yasashda asosiy xom ashyo hisoblangan. Mis buyumlar bolg'alash usulida ishlangan. Yodgorlikning yuqori madaniy qatlamlaridan sirtiga qizil rangdagi chiziqlar bilan bezatilgan sapol buyumlari uchraydi.

Xo'jaligining asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etadi. Bu yerda 14 xildagi o'simliklar madaniylashtirilib, bir va ikki qator bug'doy va arpa yetishtirilgan. Mayda va qoramol uy chorvachiligini tashkil etgan. Shuningdek, ovchilik yordamchi xo'jalik an'anasi sifatida saqlanib qoladi.

Chatal Xyuyukliklarning boy madaniyati va g'oyaviy qarashlari ibodatxonada aniqlangan qo'y, buqalar boshining bo'rtma tasviri, ayol ma'buda, qisman erkak haykalchalari yoki devorida chizilgan ov manzaralarida o'z aksini topgan. Chatal Xyuyuk ayrim tadqiqotchi olimlar ilk shahar, degan fikrni ilgari surishadi. Lekin, bu manzilgoh shahar talablariga javob beruvchi alomatlardan ancha yiroq bo'lib, dehqonchilik vohasining markazi vazifasini o'taganligi, tabiiy.

Old Osiyodagi ilk dehqonchilikning uchinchi bir markazi Shimoliy Mesopotamiya va unga tutash bo'lgan Shimoliy Eronning tog'li hududlari hisoblanadi. Bu yerda neolit davrida Jarmo madaniyati (VII-VI ming yilliklar) yoki ayrim tadqiqotchi olimlarning fikrlariga ko'ra zagros madaniy birligi turidagi madaniyati rivojlangan. Jarmo madaniyatiga tegishli Jarmo yodgorligidan tashqari Zagros tog'larining Iroq qismida Telshimshara, uning Eron qasmida esa Tepaisarob va Tapaiguranlar mavjud.

Jarmo yodgorligi eman o'rmonlar tarqalgan hududda, Iroqning shimoliy qismida, Kurdiston yerlarida joylashgan. Yodgorlik 17 gorizont iborat qalinligi 7 metrni madaniy qatlamga ega. Bu manzilgohda aniqlangan uylar loydan qurilgan, ayrim hollarda ularning tag devorlari toshdan terilgan. Uylar 20-25 xonadan iborat bo'lgan. Xonalar juda tor, uzunligi 1,5-2 metr. Ichkarisida o'choq joylashgan.

Jarmo madaniyati uchun plastinkasimon kremendan geometrik shaklidagi tosh qurollarini yasash xos belgilaridan biri sanaladi. Jarmoliklar dastlab sapol yasashni bilishmagan, keyinchalik sapol buyumlari paydo bo'lib, ularning sirtiga

naqshlar berilgan. Loydan turli o'yinchoqlar, hayvon va ayol haykalchalarini yasashgan. Topilmalar orasida toshdan yasalgan o'roq, bolta, motiga, keli va qo'l tegirmoni va suyaklarda yasalgan buyumlar xo'jalik xususiyatlarini tiklashda muhim ahamiyatga ega.

Jarmo aholisi xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shallari bilan shug'ullanganliklari shubhasiz. Dukkakli o'simliklardan kuyib ketgan bug'doyning asosiy ikki turi va bir turdagi arpa, no'xat va tariq, donlari aniqlangan. Ulardan bug'doy va arpa shubhasiz madaniylashtirilgan. Hayvonlardan dastlab echki xonakilashtirilgan. Cho'chqaning ham xonakilashtirilgani ehtimoldan holi emas. Go'sht mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning bir qismi yovvoyi hayvonlar hisobidan qondirilib, xo'jalikning ovchilik shakli ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

4.3.O'rta Osiyoning neolit davri ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllidagi madaniyatlari.

Markaziy Osiyoning janubiy o'lkalarida ishlab chiqaruvchi xo'jalikning vujudga kelishi masalasida ham turli yondoshuv va qarashlar mavjud. Ma'lumki, Markaziy Osiyoning Janubiy Turkmanistondagi neolit davri ilk ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakliga asoslangan Joytun madaniyatining ildizlarini ayrim g'arblik olimlar Eron hududi bilan bog'lashgan.

Sharqiy Kaspiybo'yi hududlarida mezolit davrining oxirlaridayoq yovvoyi hayvonlar xonakilashtirilib, neolit davrida xo'jalikning chorvachilik shakli vujudga kelganligi arxeologik jihatdan asoslangan.

Janubiy Turkmanistonning issiq haroratli tabiiy-geografik sharoiti mahalliy neolit davri jamoasining ishlab chiqaruvchi xo'jalikning ilk shakliga o'tishlari uchun asos bo'lgan. Ilk ishlab chiqarish markazlariga o'lkaning yaqinligi ham mazkur jarayonning tezlashishida o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazgan.

Amudaryoning quyi oqimi, Orolbo'yi va Qizilqum hududlarida taxminan mil.avv. VII-III ming yilliklarda hukmron bo'lgan "Lavlakon namgarchiligi" davri qulay iqlim sharoitida tabiiy oziq-ovqat zahiralarning ko'pligi o'zlashtiruvchi xo'jalik saqlanib qolishiga sabab bo'lgan. Mazkur hududlarda yashagan qabilalar

xo'jalikning ovchilik, terib termachilik va baliqchilik shakllari bilan shug'ullanishib, kun kechirishgan.

Markaziy Osiyoning shimoliy hududlari va nisbatan tog' va tog' oldi hududlarida xo'jalikning ixtisoslashgan o'zlashtiruvchi shakliga ega bo'lgan madaniyatlar rivojlanib, ushbu xo'jalik shakli uzoq muddat saqlanib qoladi.

Neolit davrida Janubiy Turkmaniston hududida ilk ishlab chiqarish xo'jaligiga asoslangan Joytun madaniyati, Amudaryoning quyi oqimi, O'zboy o'zani, Sariqqamish ko'li atrofi, Orolbo'yi va Qizilqum hududlarida o'zlashtiruvchi xo'jalik shakllariga asoslangan *Kaltaminor* madaniyati, Zarafshonning o'rta oqimida ovchi va terib termachilikga asoslangan *Sazag'on* madaniyati, Farg'ona vodiysida terib termachilik va baliqchilikka asoslangan neolit davri jamoalari madaniyati, O'zbekiston va Tojikistonning janubiy tog' va tog' oldi hududlarida termachilik va ovchilikga asoslangan *Hisor* madaniyatlarini yaratgan qabilalari yashaganlar.

Joytun madaniyati (mil. avv. VII–VI ming yilliklar) Markaziy Osiyo hududidagi neolit davrining ilk o'troq dehqonchilik madaniyati. Bu madaniyatga oid arxeologiya yodgorliklari Turkmanistonning janubi-g'arbiy qismida Kopetog' va Qoraqum cho'li oralig'ida qadimdan o'troq dehqonchilik xo'jaligini yuritish uchun qulay bo'lgan issiq iqlimli hududlarda joylashgan.

Bu madaniyatga oid birinchi o'rganilgan Joytun manzilgohi Ashg'abat shahridan 30 km. shimolda qum barxanli tepaligi joylashgan bo'lib, keyinchalik Markaziy Osiyo hududida neolit davrining mashhur bo'lgan ilk dehqonchilik madaniyatining nomlanishiga asos bo'lgan yodgorlik sanaladi. Bu yodgorlik dastlab qisman arxeolog olim B.A.Kuftin va keyin V.M.Masson tomonidan to'liq ochib o'rganilgan. Hozirgi paytda Joytun madaniyatiga oid yoki neolit davri madaniy qatlamlariga ega bo'lgan 17 ta arxeologiya yodgorliklari qayd qilingan bo'lib, ularda B.A.Kuftin va V.M.Massondan tashqari O.K.Berdiyev, A.A. Marushenko, O. Lollekova va boshqa olimlar ham tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Jebel madaniyati Turkmanistonning janubiy-g'arbida Sharqiy Kaspiybo'yi hududlarida mezolit davri o'zlashtiruvchi xo'jalik shaklidagi madaniyatning davomida chorvachilikka asoslangan Jebel madaniyati vujudga keladi. Bu madaniyat nisbatan yaxshi o'rganilgan Jebel yodgorligi nomi bilan yuritiladi. Bu erdagi mezolit davriga oid Jebel, Damdamchasma 1,2, Qaylu, Defichig'anoq va boshqa yodgorliklarning yuqori qismidagi neolit davriga oid madaniy qatlamlari mil. avv. VII-V ming yilliklar bilan sanalangan.

Kaltaminor madaniyati.(mil.avv.VII ming yillik oxiri-III ming yilliklar) dastlab 1939 yili S.P.Tolstov tomonidan Amudaryoning quyi oqimidagi qadimgi Oqchadaryo o'zani hududi Yonbosh yodgorligini o'rganish natijasida mazkur madaniyat aniqlangan.

Mil.avv. VII-III ming yilliklar Markaziy Osiyoning hozirgi cho'l hududlarida odamlarning yashashlari uchun juda qulay tabiiy-geografik sharoiti hukmron bo'lgan. Lavlakon namgarchiligi davrida Quyi Amudaryo, O'zboy va Sariqamish o'zanlari bilan birgalikda Markaziy Qizilqum, quyi Zarafshon, Sirdaryoning quyi oqimi hududlari ibtidoiy qabilalar yashaganlar. Ushbu hududlardan neolit davri ibtidoiy qabilalarining sal kam ikki mingga yaqin arxeologik yodgorliklar aniqlanib, ularning kam sonli qismida arxeologiya tadqiqot ishlari olib borilgan. Markaziy Osiyoning katta hududiga yoyilgan ibtidoiy qabilalarning ixtisoslashgan o'zlashtiruvchi xo'jalik va moddiy madaniyatidagi yaqinlik ularni umumiy nom bilan Kaltaminor madaniyati majmuasiga birlashtiradi.

Sazag'on madaniyati (mil.avv. VII-IV ming yilliklar.) O'rta Zarafshon vohasida, Zarafshon tizmasining g'arbiy qismida, Qoratepa tog'i shimoliy yonbag'irlari hududlarida mezolit-neolit davrlariga oid ibtidoiy qabilalar madaniyati. Bu madaniyatga tegishli dastlabki yodgorlik Samarqand shahridan 27 km. Janubda, Sazog'onsoyning yuqorisida, Qoratepa massivining shimoliy yonbag'rida 1966 yili arxeolog olim O.Ibragimov tomonidan aniqlanib, shu yili D.N.Lev boshchiligida arxeologik tadqiqot guruhi tomonidan tekshirish ishlari boshlangan.

Hisor madaniyati (mil.avv. V ming yillik oxiri - III-II ming yillik) Markaziy Osiyoning tog' hududlarida tarqalgan neolit davri madaniyati. Tojikistonning g'arbiy tog' oldi hududlarida A.P. Okladnikov va V.A. Ranov kabi arxeologlar tomonidan bu madaniyatga oid 100 dan ortiq makonlar qayd qilingan. Ular qisqa mudatli, mavsumiy va doimiy yashash manzillaridan iborat bo'lgan. Qisqa muddatli va mavsumiy makonlar tog'oldi hududlarida joylashgan jamoa a'zolarining ov mavsumida yashagan kulbalari tashkil qilgan. Doimiy yashash makonlari Kofirnahar, Vaxsh va ularning irmoqlari vodiylarida joylashgan.

4.4. Kavkazning neolit davri arxeologiyasi

Kavkazorti hududining neolit davri arxeologik yodgorliklarning yetarli va notekis o'rganganligi sababli bu hududda ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllarining qaror topishiga doir masalalar yechimini qiyinlashtiriladi. Hududda ishlab chiqaruvchi xo'jalik shaklining qaror topishi mil.avv. VI ming yillikda mahalliy so'nggi paleolit va mezolit davri madaniyatlari tadrijiy taraqqiyoti ta'siri natijasida shakllanganligi, tabiiy. Neolit davrining ilk bosqichlarida mintaqaning barqa hududlarida ovchilik va termachilik bilan kun kechiruvchi qabilalar tarqalgan. Davrning oxirlariga kelib aholi tog' hududlari g'orlarida ham, tekislikdagi daryo vohalari bo'ylarida manzilgohlari paydo bo'ladi. Mintaqa toshga ishlov berishning mikrolit texnikasi keng taraladi. Pichoqsimon yirik plastinalar, boltalar, motigalar, havvoncha, yorg'uchoq, o'roq dastasi kabi topilmalar mazkur hududda ilk dehqonchilik shakllarining paydo bo'laётganidan dalolat beradi. Sapol buyumlar paydo bo'lib keng tarqala boshlaydi. Mazkur hududda dehqonchilik madaniyatining shakllanishida Yaqin Sharq bilan ma'lum madaniy aloqalar muhim ahamiyati haqida fikr yuritish mumkin. Dengiz atrofi hududlarida o'ziga xos xususiyatlari bilan Zavkazning ilk dehqonchilik madaniyatidan farq qiladi. Ilk dehqonchilik madaniyati markazlaridan birinchi guruhdagi yodgorliklardan biri Adlerda daryo sohili hududida joylashgan Nijeshilov yodgorligi muhim o'rin egallaydi. Yodgorlikdan topib o'rganilgan topilmalar orasida trapetsiya sigmentlardan iborat geometrik shakllardan tashkil topgan tosh qurollar ustunlik qiladi. Ular pichoqsimon va o'roqsimon qurollar uchun qadama vazifasini

bajargan. Shuningdek, silliqlash texnikasi takomillashadi. Yodgorlikdan silliqlangan bolta aniqlangan. Kamon uchlari uchramaydi. Qadimgi qurol yarog'lardan biri otish uchun mo'ljallangan sharsimon toshlar toshlar topilgan. Sapol idishlarida naqshlar uchramaydi. Hayvon suyaklari uchramasligi o'lkada asosan dehqonchilik bilan shug'ullanganligidan dalolat beradi.

Ikkinchi guruhdagi makonlar so'nggi neolit davriga oid manzilgohlarda o'z aksini topgan bo'lib, ular mil.avv. V ming yilliklarga tegishli. Bu turdagi yodgorliklar Adler va Abxaziya hududlarida aniqlangan. Bu davrda geometrik shaklli tosh qurollar uchramaydi. Topilmalar orasida motiga va yorg'uchochlar soni ko'pchilikni tashkil etadi. Bu esa dehqonchilik madaniyati taraqqiyotining yuksalishidan dalolat beradi.

Kavkazorti hududining keyingi bosqich taraqqiyoti eneolit davri **Shulaveri-Shomutepa madaniyati** doirasida taraqqiy etadi. (mil.avv. V ming-IV ming yillikning birinchi yarmi) Kura daryosi o'rta oqimi hududida shimoliy varianti tarqalgan (Gruziyadagi Shulaverisgora, Xramis Didigora, Aruxlo; Azorbayjondagi Shomutepa) va Araks daryosi vodiysida joylashgan janubiy lokal madaniyati (Naxichavan Kyultepasi, Alikemektepasi va boshqalar). Uy-joylari tomi gumbaz shaklli yopilgan aylana shaldagi imoratlar va xo'jalik qurilishlaridan iborat. Ayrim manzilgohlar pastqam devorlar bilan o'ralgan bo'lib, ularda aylana shakdagi hovlilar joylashgan. Imoratlar paxsa va xom g'ishtdan barpo etilgan. Gumbaz tepasida qolldirilgan teshiklar xonada havo aylanishini va o'choq tutunlarining chiqib ketishini ta'minlashga xizmat qilgan.

Uylar orasi va uylarning ichki tomonida bir mayitli qabrlar aniqlangan. Murdalar yon tomoniga g'kjanak va chalqancha holda ko'milgan. Ayrim hollarda murdalarga oxra sepilgan. Ayrim qabrlarda sapol idishlari, tosh munchoqlar va obsidiandan yasalgan qurollardan iborat. Sapol buyumlarining shakli sodda va ishlanishi qo'pol. Buyumlar bankasimon shaklda, ko'pchilligi bochkasimon buyumlar va kosachalardan iborat. Kura guruhining sapollari qoramtir, Araksniki esa yorqin rangda. Yodgorliklar taraqqiyotining oxirida qizi va jigarrangli bo'yoqlarda yo'l-yo'l va to'lqinsimon naqlar bilan bezatilgan sapol buyumlarining

paydo bo'lishi tadqiqotchi olimlar tomonidan Mesopotamiya bilan madaniy aloqalardan dalolat berishi ta'kidlanadi.

Qisman loydan yasalgan haykalchalar uchraydi. Ular asosan Gruziyaning Xramis Didigora yodgorligida aniqlangan. Suyak va shoxlardan motiga, bigiz, juvoldiz, igna sapollarni pardozlagichlar va qoshiqlar tayyorlangan. Kremen va obsidiandan pichoq, to'g'nog'ich, teshgich, o'roq qadamlari va boshqalar yasalgan. Metal buyumlar faqat davrning oxirgi bosqichida uchraydi. Ular asosan munchoqlar, bigiz va qisman pichoqlardan iborat.

Bu madaniyatning xo'jaligi dehqonchilikdan iborat bo'lib, bug'doyning barcha turlari, arpa, suli, no'xat, chechevista, uzum etishtirilgan. Yerlarga motiga bilan birgalikda shoxdan foydalangilgan. Qurg'oqchil hududlarda sun'iy sug'orish tizimi rivojlanadi. Dehqonchilikga qo'shimcha chorvachilik (qo'y, echki, mol, cho'chqa) tashkil etib, odatda haydama shakda bo'lgan va o'z oylarida tog'da boqishgan. Mahalliy madaniyat an'analari asosida taraqqiy etgan eneolit davri madaniyati stivilizastiya taraqqiy etgan qo'shnilari Mesopotamiya madaniy ta'sirida taraqqiy etadi.



Neolit davri turmush tarzi

Mavzuga oid savollar

1. Neolit tushunchasining mazmunini izohlab bering?
2. Neolit davri qaysi ming yilliklarni o'z ichiga oladi?
3. Neolit davri kashfiyotlarini sanab uting?
4. Arxeologiya faniga "neolit" tushunchasini kim olib kirgan?

5. Neolit davrining o'ziga xos xususiyatlari sanab uting?

Mavzuga oid test

1. Belbashi madaniyati qaysi davrga oid?

- A. Mezolit
- B. Neolit
- C. Eneolit
- D. Paleolit

2. O'rta tosh davri qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?

- A. Mil. avv 25-12 ming yilliklarni
- B. Mil. avv 12-7 ming yilliklarni
- C. Mil. avv 6-4 ming yilliklarni
- D. Mil. avv 20-10 ming yilliklarni

3. Mezolit davri Jebel madaniyati Qaysi hududda joylashgan?

A Turkmaniston B Tojikiston S Qoraqalpog'iston D O'zbekiston

- **Kasanjol neolit qabristonidan** 35-40 yoshlardagi erkak kishi arxeologik o'rganilgan?

A Qoraqalpog'iston B Turkmaniston S Mesopotamiya D Xitoy

- **Qadimi tepa. Ashxobod viloyatining joylashgan. Bu yodgorlikda 100 m² joy ochilgan?**

A Qadimi tepa B Kasanjol S Belbashi D Oqtepa

5-mavzu: Eneolit davri arxeologiyasi

Reja:

5.1. Eneolit davrida metallurgiya ishlab chiqarish jamiyat taraqqiyotidagi tub burilish.

5.2. Eronning rivojlangan eneolit davri arxeologiyasi

5.3. Afg'onistonning qadimgi davr arxeologiyasi.

5.4. Sharqiy Yevropa eneolit davri lokal madaniyatlari.

5.5. Shimoliy Yevropa neolit davri taraqqiyoti

Tayanch iboralar: Eneolit, Shumer sivilizatsiyasi, shahar inqilobi, nom, *JTAKE*, Anovtepa, Nomozgohtepa, Oltintepa, Sarazm, Qoratepa, Yalang'ochtepa, Mollalitepa.

5.1.Eneolit davrida metallurgiya ishlab chiqarish jamiyat taraqqiyotidagi tub burilish.

Eneolit - (*lot.* "eneus" - mis, *yun.* "litos"-tosh) - mis-tosh davri mil. avv.V ming yillik boshlari - III ming yillikning boshlari bilan sanalanadi. Ayrim mamlakatlarda bu davr xalkolit (xalko-mis), deb ataladi. Bu davrning katta yutug'i kishilarning dastlabki metall-mis bilan tanishib, tosh qurollari bilan birgalikda mis qurollaridan ham foydalana boshlanishidir. Mis qurollari tosh qurollariga nisbatan ancha takomillashgan, ish unumdorligi 8 baravar yuqoriga oshgan.

Misning kashf etilishi haqida fanda 2 xil fikr mavjud. Ba'zi olimlar mis dastlab bir joyda kashf qilinib, keyinchalik shu yerdan boshqa joylarga tarqalgan degan fikrni ilgari suradilar.

Olimlar tomonidan misga ishlov berishning **4 bosqichi aniqlangan:**

- 1- bosqichda misga sovuq holda ishlov berilgan. Mis qizil rangda bo'lganligi sababli, dastlab undan turli taqinchoqlar yasaganlar.
- 2- bosqichda - misga olov orqali ishlov berib, undan turli mehnat qurollarini yasaganlar. Misning olovda erish xususiyati tasoddifan topilgan.
- 3- bosqichda rudadan misni ajratib olish usuli kashf etilgan.
- 4- bosqichda mis bilan qalayning aralashmasidan qattiq metall, ya'ni bronza kashf etilgan.

Eneolit davri xususiyatlari

- Mis-tosh davri.
- Mil. avv . IV—III ming yilliklar.
- Mis qurollar yumshoq va egiluvchan bo'lgan.
- Ilk eneolit davrida bir xonali uylar bo'lgan.
- O'rta eneolit davrida ko'p xonali uylar paydo bo'lgan.
- So'nggi eneolit davrida qishloqlar shahar qiyofasiga kira boshlagan.

- Soʻnggi eneolit davrida sopol loyiga gips koʻshilgan.
- Joʻmrakli idishlar paydo boʻladi.
- Tosh va yogʻoch olamiga yangi jism metall kirib kelgan.
- Ikki daryo oraligʻida (Mesopotamiyada) va Old Osiyoda mis-tosh davrining boshlanishi ilk bor davlat-shaharlarning vujudga kelishi bilan xarakterlanadi.
- Qabilalarning ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti bir xil darajada boʻlmagan.
- Qurilish texnikasi ancha rivojlangan
- Ilk eneolit Anov I davriga mansub idishlarning 30 % ida naqshlar uchraydi.
- Dehqonchilik qabilalari orasida olovdan tashqari, quyoshga, yerga, suvga, hosildorlikka sigʻinish keng tarqalgan.
- Eneolit davri odamning eng katta ishlab chiqarish gʻalabasi - irrigatsiya, sugʻorish texnikasi rivoj topgan davr boʻldi.
- Protogorod-soʻnggi bosqichda qishloqlar yiriklashib, shaharlar qiyofasiga oʻta boshlagan

Miloddan avvalgi IV mingyillikning ikkinchi yarmiga kelib, Qadimgi Sharqning yuqori madaniyat oʻchoqlarida va ilk quldorlik davlatlarida misdan ishlangan mehnat qurollari va zeb-ziynatlar keng tarqaladi.

Mil. avv. IV ming yillikning ikkinchi yarmida, yaʼni eneolit davrining soʻnggi bosqichida Mesopotamiya jamiyati taraqqiyotida keskin burilish davri boʻlib, Shumer sivilizatsiyasining shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Bu jarayonni G.Chayld “shahar inqilobi” sifatida tavsiflaydi. Shahar inqilobi yozuvning paydo boʻlishi va mahobatli meʼmorchilik, ayniqsa, ibodatxona qurilishlarida aniq namoyon boʻladi. Janubiy Mesopotamiya tarixida shu davr ichida koʻpgina oʻzgarishlar sodir boʻladi. Qishloqlarning shahar darajasiga oʻsib chiqishi, yangi shaklga ega boʻlgan sifatli sopol buyumlarning paydo boʻlishi, muhrlarning xususiy mulkni tasdiqlovchi vosita sifatida paydo boʻlishi, yozuvning kashf etilishi shular jumlasidandir.

Olimlarning ilmiy nazariyalariga koʻra, shahar inqilobi negizida irrigatsiya tizimining takomillashuvi asosiy oʻrin tutishini taʼkidlashadi. Nazariya asoschilaridan biri Karl Vittofogel fikrlariga koʻra, irrigatsiya tizimining joriy

qismida kanallar barpo qilish, tozalash kabi ishlarni bajaradigan ishchi kuchini ta'minlash va ularni nazorat qilish uchun kuchli jamiyat zarur bo'lgan.

Bu bevosita davlatchilikning eng qadimgi shakli - "shahar-davlat yoki "nom"larning shakllanishi bilan bog'liq. Nomlar o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'lgan bir yoki bir necha jamoa doirasida rivojlangan. Nomlarda odatda mahalliy aholi diniy-dunyoviy ehtiyojlari talablariga javob beradigan va jamoa a'zolarini ijtimoiy hayotlarini ma'lum darajada tartibga solib turuvchi markaziy ibodatxonalar mavjud bo'lgan. Uning atrofida jamoatchilik va nom ma'muriyati uy-joy imoratlari, oziq-ovqat omborlari, arsenal, shuningdek hunarmandlar yashaydigan mahalla va ularning ustaxonalari joylashgan bo'lib, umumiy mudofaa devorlari bilan muhofaza qilingan. Bu dastlabki kichik davlatning shahar markazi hisoblangan. Ma'muriy markaz atrofida dehqonlar qishloqlari, sug'oriladigan yerlar va chorva yaylovlari o'rin olgan. Ijtimoiy martabalar tabaqalanishining chuqurlashuvi va mehnat faoliyati ixtisoslashuvi. Siyosiy va diniy hokimiyat asta-sekin jamiyatni boshqaruvchi kuchga aylanib boradi. Ilgari hokimiyat boshqaruvi va qabila ichki birligini belgilovchi qon-qarindoshlik hukmronligi asta-sekin yo'qola boradi. Har qanday qon-qarindoshlik qoidalar tizimi, huquq va imtiyozlar oxir oqibat ma'muriy davlat tizimi tomonidan o'rnatilgan qonunlar bilan siqib chiqarildi.

Markaziy Osiyoning o'ziga xos tabiiy-geografik sharoitlariga ega bo'lgan keng hududlarida har xil xo'jalik shakllarini tashkil qilgan qabilalarning madaniyati tarqagan bo'lib, ular ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining turli bosqichlarida bo'lgan. Mintaqaning janubiy hududlarida neolit davri ilk o'troq dehqonchilik ishlab chiqarish xo'jaligi negzida sug'orma dehqonchilikning taraqqiyoti natijasida Qadimgi Sharq sivilizatsiyasiga xos taraqqiyot yo'lidan borgan. Shimoliy hududlarda yashovchi aholi hayotida ixtisoslashgan o'zlashtiruvchi xo'jalik shakli asosida kun kechirish tarzini saqlab qolgan.

Eneolit davrida O'rta Osiyo aholisining madaniyati bir bosqich yuqori ko'tariladi. Lekin bu yerdagi qabilalarning madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti bir xil darajada bo'lmagan. Arxeologik tekshiruv ishlari natijalari O'rta Osiyo aholisi orasida notekis rivojlanish bo'lganligidan dalolat beradi. *Unumdor*

xo'jaliklarga asoslangan qabilalar tezroq rivojlangan, *qo'shimcha* xo'jaliklar bilan mashg'ul bo'lganlari esa madaniy jihatdan bir necha yuz yillar orqada qolgan.

Turkmanistonning janubida mis-tosh davrining boshlanishi miloddan avvalgi IV mingyillikga mansub bo'lsa, xuddi o'sha zamonda O'rta Osiyoning shimoliy dasht va sharqiy tog'lik vohalaridagi qadimiy qabilalar asosan ovchilik, baliqchilik va chorvachilikning ilk shakllari bilan shug'ullanganlar.

O'rta Osiyoda va Markaziy Qozog'istonda ochiq ruda konlari va ular atrofidagi metall eritish qo'ralari bir necha hududlarda topildi.

Eneolit davri O'rta Osiyo janubida yangi madaniy va tarixiy jarayonlar bilan bog'liqdir; ulardan:

- Xo'jalikda motiga-ketmoncha bilan qilinadigan dehqonchilik va uy chorvachiligining rivojlanishi;
- Sug'orma dehqonchilik - irrigastiyaning ravnaq topishi;
- Hunarmandchilikda yangi kasblar - metallchilik, to'qimachilikning vujudga kelishi;
- Kulolchilikda muhim texnika yutug'i - xumdonlarning ishlatilishi;
- O'troqlik xo'jaligining mustahkamlanishi, ibtidoiy jamoa birlashmalari uylari va qurilishda xom g'ishtning paydo bo'lishi;
- Rangdor sopol buyumlar va loydan yasalgan bo'lib, onalik urug'iga xos bo'lgan haykalchalarning tarqalishi.

Janubiy Turkmaniston eneolit davri misolida ko'rib o'tamiz.

JTAKE - Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi 1945-yil Turkmaniston FA Prezidiumi qoshida professor M.Ye.Masson boshchiligida tashkil qilingan. JTAKE boshchiligida Janubiy Turkmanistonda tosh davriga ta'luqli Jabal makoni, neolit davriga ta'luqli Joytun madaniyati, eneolit davriga ta'luqli Anov, Nomozgohtepa, jez davriga Oltintepa, va ilk temir davriga Yoztepa va ayniqsa Parfiya madaniyati bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borilishi natijasida

dastlabki insonlar yashagan qishloqlar, shahar makonlari va ularning hayot tarzi o'rganildi.

Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi (JTAK) va O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU) "O'rta Osiyo arxeologiya" kafedrasida ilmiy jamoasi 30 yildan ortiq davr mobaynida vohaning antik davri markazi bo'lgan Govurqal'a va Erkqal'a yodgorliklarida keng ko'lamdagi arxeologik qazishmalarni olib boradilar. Mazkur tadqiqot ishlarida kafedra arxeolog olimlaridan M.E.Masson Z.I.Usmanova, M.I. Filanovich va boshqalarning xizmatlari katta. Mahalliy arxeologlardan D.Durdiev va qadimshunos arxeolog olim G.A. Kosholenkolar ham vohadagi boshqa bir arxeologik yodgorliklarni o'rganishga o'z hissalarini qo'shishgan.

Janubiy Turkmaniston eneoliti uch davrga bo'lib o'rganiladi:

- **Ilk eneolit** - (Anov I, Namozgoh I);
- **Rivojlangan eneolit** - (Anov II, Nomozgoh II);
- **So'nggi eneolit** (Nomozgoh III) ga bo'linadi. Keng darajada tekshirilgan yodgorliklardan Anovtepa, Nomozgohtepa, Qoratepa, Chaqmoqlitepa, Yassitepa va Geoksyurtepa mashhurdir.

Rivojlangan eneolit (Anov II, Iomozgoh II) davriga oid yodgorliklar Geoksyur vohasida keng ravishda o'rganilgan. Geoksyur qadimiy kanallari Tajan daryosi tarmoqlaridan chiqarilgan va suv manbai hosil etilgan erlarga, qishloqlarning yoniga olib borilgan Qadimgi kanallarning uzunligi 3 km, chuqurligi 1,2 m bo'lgan.

Tosh va mis qurollar, arpa, bug'doy donlari va boshqa ashyolar qadimgi geoksyurliklar asosan dehqonchilik bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi Ularda uy chorvachiligi ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan, qabilalar ko'proq mayda chorva - qo'y va echki boqqanlar.

Anov II madaniyatini Uy-joylar **dumaloq va to'rtburchak** shaklida bo'lgan. Uylarning eshiklari **janubga yoki shimol** tomonga qaratilgan, xonalarning ichiga ovqat pishirish uchun o'choqlar o'rnatilgan.

Mullalitepada o'tkazilgan qazishlarda qadimgi mudofaa devor qoldiqlari topilgan. **Yalong'ochtepada** katta umumiy urug'-jamo'a uylarining borligi ma'lum bo'ldi. Anov II va Nomozgoh II Sopol idishlar asosan sirti **qora** bo'yoqda geometrik chiziqlar va hayvon yoki qush rasmlari bilan bezatilgan. Radiokarbon usulida aniqlangan **So'nggi eneolit davri** (Nomozgoh III). Qoratepaning markaziy qismida 130 dan ortiq xonalar tekshirildi. Ular katta jamoa uylariga aylangan. Mullalitepada 20 ta eneolit davri uylari topilgan. Ular to'rtburchakli qurilishlar bo'lib, uy-joy, oshxona, xo'jalik xonalariga bo'lingan (maydonlari 8-15, 12-17 m²).

Turkmaniston qadimgi jamiyatining ijtimoiy, xo'jalik va madaniy rivojlanishida katta o'zgarishlar sodir bo'lgan. So'nggi eneolit ona urug'i - matriarxat tuzumidan patriarxat - ota urug'iga o'tuvchi davr deb hisoblanadi. Turkmanistonda so'nggi eneolit davri mozor-qurg'onlari o'rganilganda - go'rlarda 10-12 sklet uchraydi; demak, sag'analar urug' a'zolarining jamoa qabrlari vazifasini bajargan.

Janubiy Turkmaniston hududida hozirgi kunlargacha eneolit zamoniga mansub **32 ta** qadimgi makon-tepa ma'lum. Ularning asosiy qismi Ashxobodga yaqin joyda va Geoksyur vohasidan (Quyi Murg'ob va Tajon daryolari orasida) topib tekshirildi. Geoksyur vohasi 8 ta qadimgi qishloqdan iborat. Eneolit davrida ular o'troqlik vodiysiga aylangan va Geoksyurtepa I markaziy makoni atrofida joylashgan. Arxeologlar fikricha, Geoksyur vohasi ayrim o'troq dehqonchilik vohalarining aholisi 4000-5000 kishilik umumiy qabila a'zolaridan iborat bo'lgan.

Geoksyurtepa I atrofidagi qadimgi sug'orish maydonlari 50 - 75 gektar bo'lib, kanallarining uzunligi o'rtacha 3 km, chuqurligi 1,2 m, eni 2,4-5,5 m ni tashkil etgan.

Bir necha makonda 15-20 ta uy-joy topildi. Qazishlar natijasida uylar xom g'ishtdan qurilganligi ma'lum bo'ldi. Uylarning pollari va devorlari somonli qorishma bilan suvalgan. Eshiklar uchun yog'och ishlatilmay, ular hayvon terilari

bilan to'silgan, lekin so'nggi eneolit davrida yog'och eshiklar paydo bo'lgan, deyish mumkin.

Eneolit zamonini tarixiy-madaniy munosabatlarini o'rganishda O'rta Osiyo, Eron va Mesopotamiya aholisining madaniy aloqalariga e'tibor berish lozim O'rta Osiyo janubidagi mis-tosh davri qurilishida va tasviriy san'atida Qadimgi Sharq davlat shaharining madaniy ta'sirini ko'rish mumkin. Tashqi savdo va ayirboshlash asosida O'rta Osiyo janubida misdan ishlangan idishlar, qurollar va zeb-ziynatlar ko'payib boradi.



Rangdor sopol buyumlar

Eneolit davri Sarazm madaniyati. Zarafshon daryosining yuqori oqimi hududlarida eneolit va bronza davrlarida faoliyat yuritgan Sarazm madaniyati Samarqand shahridan 30 *km.* sharqda joylashgan bo'lib, manzilgoh nomi bilan yuritiladi. Sarazmning umumiy maydoni 90 *ga.* bo'lib, o'nta kichik tepaliklardan iborat. Yodgorlik dastlab o'tgan asrda arxeolog A.Isakov, keyin uning shogirdi R.Bobomullyoev tomonidan o'rganilgan.

Manzilgohning eneolit (Sarazm I,II) va bronza (Sarazm III, IV) davrlariga oid to'rta bosqichi qayd qilingan. Yodgorlikning quyi qatlamidan topib o'rganilgan sopol buyumlarning ishlanish usuli va ularning sirtiga solingan naqshlari Geoksur

vohasining rivojlangan eneolit davriga oid manzilgohlari yodgorliklar sopollari bilan bir xilligi kuzatilgan. Shunga asosan tadqiqotchilar Sarazm qishlog'iga Janubiy Turkmaniston ko'chib kelgan dehqonlar asos solgan, degan fikrga kelganlar.

5.2.Eronning rivojlangan eneolit davri arxeologiyasi.

Eron hududi iqlim sharoiti va landshafti bir biridan keskin farq qiladigan bir necha hududlardan tashkil topgan. Eronning eneolit davri ikki bosqichdan: ilk (mil. av. 5500-3800 yillar) va rivojlangan (mil. av. 3800-3000 yillar) bosqichlarda rivojlangan. Eneolit davrining ilk bosqichiga oid dastlabki na'munalari Eronning g'arbidagi tog'oldi hududlarida subtropik tekisliklarda quriq iqlim sharoitida rivojlangan. Sialk tepa va Chashmai Ali yodgorliklari aniqlangan eneolit davriga madaniyati va xo'jalik xususiyatlari to'g'risida muhim ma'lumot beradi. Yodgorlik 3 ga.dan iborat bo'lib, uchta rivojlanish bosqichi mavjud. Sialk I-II (ilk eneolit) Sialk III (rivojlangan eneolit). Sialk I bosqichida misdan yasalgan buyumlar soni kamchilikni tashkil qilsada kremendan ishlangan qurollar ko'pchilikni tashkil qiladi. Geometrik asosan uchburchak shaklidagi naqshlar bilan bezak berilgan sopol idishlarga ega. Xom g'ishtdan barpo qilingan uylari ichki tomondan loysuvoq qilinib, sirtiga qizil rangdagi bo'yoqlari berilgan. Ikkinchi bosqichiga kelib misdan yasalgan buyumlar keng tarqala boshlaydi. Kremendan foydalanish ahamiyatini yo'qotmaydi. Qimmatbaxo toshlardan yasalgan zeb ziynat buyumlari na'munalari xam ko'pchilikni tashkil etadi. Sopol idishlari geometrik naqshlardan tashqari zoomorf tasvirlari xam paydo bo'ladi. Shuningdek, konussimon tagli idishlar keng tarqaladi.

Sialk tepa xo'jalik faoliyati bilan bog'liq topilmalar aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganligi to'g'risidagi umumiy xulosaga kelish imkonini beradi, xalos. Markaziy Eron hududida ilk eneolit davriga oid Giyan yodgorligi yaxshi o'rganilgan. U ikki bosqichda rivojlangan. Moddiy topilmalar orasida mis buyumlar va qo'lda naqshlar berib ishlangan sopol idishlari alohida o'rin tutadi. Naqshlar bir xil rangdagi bo'yoqlarda berilgan. Chizilgan odam va uchayotgan qush tasvirlari sxematik tarzda keltirilgan. Keyingi bosqichida echki va

qush tasvirlari paydo bo'ladi. Giyan turidagi yodgorliklar shimoliy-g'arbiy Zagros hududlarida ham aniqlanib, ulardan mashhuri Kuhidaiy vodiysida joylashgan maydoni 13 ga dan iborat Chigapaxon yodgorligidir. Ilk eneolit davrining uchinchi guruh jamoasi hozirgi Xuziston viloyati hududida tarqalgan. Bu yerdagi yodgorliklar 1,5-2 ga teng tepaliklar Suza I madaniyating davomiyligidan iborat Jafarobod Jobi va Bendebal komplekslarida aksini topgan.

Jafarobod bosqichida qo'pol ishlangan va sodda naqshli sopol idishlar kremendan yasalgan plastinka qurollari keng tarqalgan.

Jobi bosqichi moddiy topilmalari nisbatan boy toshdan tesha, moticha, terrakotik uchburchakli, kichik terrakotik haykalchalar xussusan buqa, qo'y va echki va qisman ayol shakllaridan iborat. Bu bosqichda sopol idishlari xam takomillashadi. Monoxrom geometrik naqshlar bilan birgalikda xayvon tasvirlari shuningdek qator joylashgan echkilar tasviri paydo bo'ladi. Qo'lida kamon ushlab tik turgan odam tasviri aloxida axamiyat kasb etadi.

Bendebal bosqichi yaxshi o'rganilmagan sopol idishlari Jobi bosqichinikiga o'xshash. Janubiy Zagros xududi qo'lda qo'pol ishlanib yaxshi pishirilmagan sopol idishlari va kremen va suyakdan yasalgan kunsonli qurollari (Bokun VI) sodda geometrik naqshlardan (Bakun VII) tashkil topgan. Persepol yaqinidagi Talibakun yodgorligi o'rganilgan. Yuqorida keltirilgan Chili, Suza va Tolibakun komplekslari xususiyatlariga ko'ra o'zaro bog'liq bo'lib yagona lokal madaniyat birligini tashkil etadi va ularning kelib chiqish ildizi bir joyga borib taqaladi.

Rivojlangan eneolit Sialk III davriga kelib eneolit davri qabilalari Eronning kengroq hududlarini egallaydi. O'troq dehqonchilik aholi orasida hunarmandchilik ishlab chiqarishning paydo bo'lishi va rivojlanishi sodir bo'ladi. Sialk Chashmalani va boshqa yodgorliklarda xayot davom etishi bilan Tepai Hisor kabi yangi manzilgohlar qaror topadi. Yodgorliklarda amalga oshirilgan. Qazishmalar bu davrning mahalliy madaniyati eski an'analar asosida rivojlanadi. Manzilgohlar xom maydon barpo etilgan ko'pxonali uylardan tashkil topgan kulolchilik ishlab chiqarishda taraqqiy o'zgarishlari sodir bo'ladi. Sopol idishlar maxsus kulolchilik xumdonlarda pishiriladi. Oval shaklidagi xumdon Sialk III

dan topib o'rganilgan. Bu davrda kulolchilik charxida ishlangan sopol idishlar uchraydi. Tagi sharsimon idishlar, vazalar va bokallar keng tarqaladi. Idishlarning sirtidagi geometrik naqshlar o'rnida zoomoror echki, qushlar, ilon, ot, buqa, bars va odam tasvirlar egillaydi. Agar ilk eneolit davrida metal buyumlarning tarqalishi kamsonli va tor doirada kechgan bo'lsa rivojlangan bosqichga kelib ularning soni va turi keskin ko'payadi. Metal buyumlarni bolg'alash usulida tayyorlashdan tashqari quyish usuli xam joriy qilinadi. Metaldan mehnat qurollari va zeb ziynat buyumlari tayyorlangan. Bu davrda uy hunarmandchiligi ixtisoslashgan hunarmandchilikka ajralib chiqadi. Sodda geometrik tasvirga ega bo'lgan tugmasimon muhrlar paydo bo'ladi.

Markaziy Eronda mazkur jarayonlar kechadi. Hisor tepa yodgorligida amalga oshirilgan qazishmalar natijasida dastlab qo'lda ishlangan (Hisor I A) keyinchalik charxda ishlanib zoomorf shakllar berilgan sopol idishlar qiyosan ko'p sonli mis buyumlar topib o'rganilgan.

Shimoliy G'arbiy Zagros hududida Sialk III bilan bir davrda Giyan VC va VD qatlamlarining qalinligi 6 metrni tashkil etadi. Yirik manzilgohlar ham Chigapaxon (maydoni 13 ga) shakllanadi. Hozirgi Xuziston xududi zamondosh yodgorliklarga nisbatan jadallik bilan rivojlangan.

Bu davrga oid jamiyat taraqqiyoti Xuzistonda joylashgan Suza A yoki Suza I (taxminan mil. av. IV ming yillikning o'rtalari) madaniy qatlamidan topib o'rganilgan moddiy manbalari namunalari o'z aksini topgan. Bu bosqichda misdan sxematik tarzda antropomorf va zoomorf shakllardagi tasvirlar tushirib ishlangan tugmasimon tumor-muhrlar keng tarqaladi. Sapol idishlarining sirtiga geometrik naqshlar bilan birga zoomorf tasvirlar tushirish an'anasi kuchayadi. Misdan uy-ro'zg'or buyumlari, tikuv asboblari va mehnat qurollari yasalgan.

Suza V bosqichiga kelib kulolchilikda charxlardan foydalanila boshlaydi, natijada idishlarning sirtiga bezaklar berish an'anasining ahamiyati yo'qoladi. Metall buyumlarga ishlov berish texnologiyasida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi, ya'ni quyish asosida mahsulotlar tayyorlana boshlanadi. Shuningdek, piktografik yozuvlar paydo bo'ladi. Ular dastlab xo'jalik hisoblarini yuritish

maqsadlarida foydalanilgan. Qadimgi Shumer bilan qiyoslaganda xo'jalik hisoblarini yuritish ibodatxona tashkilotining mavjudligi bilan bog'liqligiga guvoh bo'lish mumkin. Bu yerda loydan barpo qilingan katta hajmdagi imoratni tadqiqotchi arxeolog olimlar qadimgi ibodatxonaning o'rni bo'lsa kerak, degan taxminga boradilar. Suza 5 bosqichiga kelib silindr izlarida ibodatxonalarning tasviri keltirilgan topilmalarga ko'ra Qadimgi Elam aholisida g'oyaviy markazning paydo bo'lganligiga amin bo'lish mumkin. Demak, bu davrda Elam sinfiy jamiyat ostonasida bo'lgan. Bu davrda qadimgi dehqon jamoasi Janubiy Zagros bo'ylab keng tarqala boshlaydi. Hozirga qadar mazkur hududda 30 dan ortiq o'troq jamoa manzilgohlari aniqlanib, ulardan Talibakun va Taligap yodgorliklari nisbatan yaxshi o'rganilgan. Talibakun yodgorligining (maydoni 2 ga.) A bosqichida tor ko'chalar bilan ajralib turgan ko'pxonali uylarning o'rni aniqlangan. Taligap yodgorligining yuqori qatlamidan ochib o'rganilgan ko'pxonali imorat o'rtasida joylashgan to'g'ri to'rtburcha o'choq arxeolog olimlar tomonidan sajdagoh sifatida e'tirof etilgan. Sopol idishlari qo'lda sifatli qilib ishlangan. Ularning sirtidagi naqshlari zoomorf va qisman sxematik tarzda antropomorf shakllardan iborat. Tugmasimon muhrlariga sodda geometrik belgilar tushirilgan. Bu yodgorliklarda mis buyumlar uchramasligi, Sheroz vohasida mis madanlarining mavjud bo'lmaganligi bilan izohlash mumkin. Talibakun taxminan mil. av. IV ming yillikning o'rtalari bilan sanalanadi. Sheroz vohasida bu davrda Suzinada sodir bo'lgan madaniy o'zgarishlar, ya'ni stilindr va piktografik yozuvlar uchramaydi. Bu Janubiy Zagros jamoasi Elamning ta'siriga tushib ulgurmaganligidan dalolat beradi. Bu hudud jamoasi moddiy madaniyati namunalari Shimoliy Ubeyd madaniyati bilan yaqin o'xshashlikga ega. Bu madaniyat uchun misdan yasalgan kelt (bolta), suyakdan yasalgan bigiz (prokolka) va obsidian plastinkalardan tashkil topgan topilmalar mazkur jamoa moddiy madaniyatini o'zida aks ettiradi. Sopol idishlari geometrik naqlardan iborat.

5.3. Afg'onistonning qadimgi davr arxeologiyasi.

Afg'oniston tabiiy-geografik jihatdan bir-biridan farq qiluvchi ikkita mintaqaja-nub va shimol hududlaridan tashkil topgan. Har ikkala mintaqada ilk

dehqonchilik madaniyatining shakllanishi bilan bog'liq manzilgohlar hozircha qayd etilmagan.

Shimolda neolit davrida ovchi, baliqchi xo'jalik shakllari bilan kun kechirishgan qabilalar istiqomat qilishganligi arxeologik jihatdan aniqlangan. Bu erdan o'nlab neolit davri o'zlashtiruvchi xo'jalik shakli qabilalariga tegishli manzillar o'rganilgan. Ulardan geometrik shakllardaga yupqa kremen pastinkalardan ishlangan tosh qurollar va qo'pol yasalgan qo'pol sapol idishlari topib o'rganilgan. Ovchi-baliqchi xo'jalik shaklidagi jamoa moddiy madaniyati Shimoliy Afg'onistonning tog'larlaridagi bir necha g'orlarda ham aniqlangan. Ulardan kremen tosh qurollar bilan birgalikda qo'pol terka va motigalar topib o'rganilgan. Bu turdagi jamoalari moddiy madaniyati mil.av. 6-5 ming yillik bilan sanalangan.

Afg'onistonda o'troq dehqonchilik madaniyatining paydo bo'lishi janubda Qandahor viloyatida mil. av. 4 ming yillikning oxirlarida sodir bo'ladi. Bu yerda eneolit davriga oid Mundigak (Mundigak I-III) yodgorligi yaxshi o'rganilgan.

Ilk bosqichiga (Mundigak I) oid madaniy qatlamidan xom g'ishtdan barpo qilingan uy-joy imoratlari, misdan yasalgan turli buyumlar va charxda yasalgan sapol idishlari aniqlangan. Sapol idishlarining sirti geometrik, asosan uchburchak shakllaridan iborat. Noma'lum hayvon tasviri keltirilgan idishlar ham uchraydi. Mundigakning naqsh bezaklari tasvirlarining usuliga ko'ra Shimoliy Belujistonning mazkur davrga oid an'analari bilan o'xshashlik mavjud. Qadahorda tayyor holdagi rivojlangan o'troq dehqonchilik madaniyatining to'satdan paydo bo'lishi Mundigakga ma'lum o'troq jamoaning kelib joylashishi natijasidir. Mundigak sapol buyumlar naqshlari Sialkaga (III) yaqinligiga ko'ra Qandahorga kelib joylashgan dehqon jamoasi Erondan kelib joylashganligi, tabiiy. Bu davrda Shimoliy Afg'oniston hududi lazuritga sharq talab yuqori bo'lgan. Qadimgi Sharqda qimmatbaho hisoblangan lazurit savdosi yo'lidagi qulay joylarni o'zlashtiri va madaniy yangiliklarning tarqalishida muhim o'rin tutadi.

Keyingi bosqichda (Mundigak II) eski an'analari taraqqiyoti davom etib, toshdan yasalgan muhrlar va misdan yasalgan to'g'nag'ichlar paydo bo'ladi.

Qandahorda bundan tashqari yana ikkita manzilgohlar: Saidqal'a va Dex Morasi Gxuday yodgorliklari ham qisman o'rganilgan. Ularning madaniy qatlamlarida yuqori sifatli sopol buyumlari bilan birgalikda qo'lda qo'pol ishlanganlarining namunalari ham aniqlangan. Bu tadqiqotchi olimlarning fikrlariga ko'ra bevosita hozircha aniqlanmagan neolit davri mahalliy madaniyati merosi bo'lishi mumkin.

Mil. av. III ming yillikda Mundigak (Mundigak III) taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga chiqadi. Bu bosqichda metallni yopiq usulda quyish asosida buyumlar tayyorlash rivojlanadi. Misdan yasalgan tesha ikki baldoqli boltalar paydo bo'ladi. Saidqal'a yodgorligidan Shimoliy Belujiston sapollariga o'xshash namunalarning uchrashi qo'shni hududlar bilan madaniy aloqalarning kengayganligidan dalolat beradi. Shuningdek, bu yodgorlikda sapollarida Janubiy Turkmanistonning Geoksyur vohasi sapol naqshlari shaklidagi bezaklarning paydo bo'lishi va ayol tasviridagi haykalchalarining tarqalishi bu yerga bir guruh qabilaning siljishi natijasida mahalliy an'analar saqlangan holda madaniyat rivojlangan, degan xulosaga olib keladi.

Mil. av. III ming yillikning ikkinchi yarmida Janubiy Afg'oniston hududida sapol idishlarining naqshlari bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi ikkita madaniyatning taraqqiy etganligi kuzatiladi.

5.4. Sharqiy Yevropa eneolit davri lokal madaniyatlari.

Shulaveri-Shomutepa madaniyati (mil.avv. V ming-IV ming yillikning birinchi yarmi) Kavkaz hududida Kura daryosi o'rta oqimi erlarida shimoliy varianti (Gruziyadagi Shulaverisgora, Xramis Didigora, Aruxlo, Ozarbayjondagi Shomutepa) va Araks daryosi vodiysida joylashgan janubiy varianti (Naxichavan Kultepsi, Alikemektepsi va boshqalar) faoliyat yuritgan.

Kavkazning eneolit davri aholisi paxsa va xom g'ishtdan qurilgan uylardan tashkil topgan qishloqlarda yashab, dehqonchilik xo'jaligini yuritgan. Dehqonchilikda bug'doyning barcha turlari, arpa, suli, no'xat, chechevista, uzum yetishtirilgan. Qurg'oqchil hududlarda yashovchi aholi sun'iy sug'orish tizimidan foydalangan. Chorvachilikda qo'y, echki, qora mol, cho'chqa boqilgan. Chorva mollari yoz mavsumida tog' va tog'oldi yaylovlarida boqilgan.

Marhumlar uylarning o'rtasida va yashash xonalarning ichida joylashgan qabrlarda dafn qilingan. Marhumlar yon tomoni bilan gujanak va chalqancha yotqizilgan holatda, ma'lum kuzatuv buyumlari bilan qo'shib ko'milgan. Marhumlarning ayrimining ustiga oxra sepilgan.

Chaqmoqtosh va obsidiandan pichoq, to'g'nag'ich, teshgich, o'roq qadamasi va boshqa qurollar yasalgan. Metaldan faqat eneolit davrning oxirgi bosqichida foydalanish boshlangan. Undan munchoq, bigiz va qisman pichoq yasalgan.

Sopol buyumlari qo'lda yasalgan. Ular bankasimon idishlar va kichik kosalardan iborat. Sopolarning sirtiga polixrom naqshlar chizilgan. Loydan haykalchalar, suyakdan turli anjomlar yasalgan.

Qadimgi dunyo jamiyati taraqqiyotida G'arbiy Osiyoga yaqin bo'lgan Yevropa hududi muhim o'rin tutadi. Yevropaning sharqiy hududining eneolit davri jamiyati xo'jalik yuritish xususiyati jihatdan G'arbiy Osiyodan farq qilgan. G'arbiy Osiyoda jamiyat sug'orma dehqonchilik xo'jaligi negizida rivojlangan bo'lsa, Sharqiy Yevropa jamiyati taraqqiyotida Bolqon-Karpat hududi metall zahirasi asosiy o'rin egallaydi. Bu yerda eneolit davri jamiyati neolit davri mahalliy madaniyatlari va qadimgi sharq ta'sirida shakllangan Karanovo madaniyatlari zaminida vujudga kelgan Gumelnista, Kukuteni-Tripoli va boshqa madaniyatlarda o'z aksini topgan.

Gumelnista madaniyati. Gumelnista mil. avv. IV ming yillikning birinchi yarmida Sharqiy Bolgariya va Janubi-g'arbiy Ruminiya va Janubiy Moldova hududida faoliyat yuritgan madaniyat. Gumelnista madaniyati yodgorliklari yirik manzilgohlar, qabrlar va kon yodgorliklardan iborat. Ulardan Karanovo, Xotnista manzilgohlar, Azmashka Varna qabristoni va Oybunar mis koni ushbu madaniyatning muhim yodgorliklardir.

Manzilgohlardan to'g'ri to'rtburchak yer usti uylari va qisman yarim yerto'la kulbalar aniqlangan. Yer usti uylari yog'ochdan qurilgan. Tik o'rnatilgan yog'och ustunlarga ko'ndalang novdalar tashlanib, sirti loy bilan suvab chiqalgan. Devorlarning sirti qora, qizil va oq rang bo'yoqda bo'yalgan. Ayrim manzilgohlar yog'och yoki val-devor va xandak bilan o'rab olingan.


Bolgariyadagi Varna qabristonidan uch yuzga yaqin qabrlar ochib o'rganilgan. Qabrlarda marhumlar chalqancha va gujanak holatda dafn qilingan. Ramziy qabr-**kenotaflar** ham mavjud. Marhumlar ma'lum kuzatuv buyumlari bilan qo'shib ko'milgan. Ular oltin, mis, marmartosh, suyak va noyob toshlardan yasalgan buyumlardan iborat. Kenotafga ham qabrlardagi kabi buyumlar qo'yilgan. Qabrlarning ayrimlarining topilmalari orasida loydan yasalib, oltin qadab chiqilgan odamning yuzi aks etgan niqob muhim o'rin tutadi. Varna "oltin mozori" nomi bilan mashhur qabrdan esa umumiy og'irligi 6 kg. dan iborat 3000 yaqin qimmatbaho zeb-ziynat buyumlari, boshqa bir qabrdan esa misdan yasalgan qurol-yarog'lar, kundalik ish qurollari: bolta, tesha, iskana va boshqalar topib o'rganilgan. Kuzatuv buyumlari marhumning hayotiylik davrida jamiyatda tutgan mavqeiga qarab qo'yilgan. Buyumlarning mig'dori va sifati marhumning ijtimoiy holatiga bog'liq bo'lgan.

Varna topilmalari eneolit davri amaliy san'ati taraqqiyoti bilan birgalikda va metall hunarmandchilikning ixtisoslashishidan darak beradi. Topilmalar orqali aholi o'rtasida mulkiy tengsizlik ijtimoiy tabaqalanish jarayonini ham kuzatish mumkin. Qurol yarog'lar ehtimol, aholi o'rtasida vujudga kelgan ziddiyatdan darak berishi mumkin.

Mamlakat janubidagi Staro Zagora shahri yaqinida Oybunar mis koni aholini metall zahirasi bilan ta'minlab, Gumelnista madaniyati taraqqiyotida muhim o'rin tutgan.

Chaqmoqtosh va suyaklardan yasalgan mehnat qurollari, sopol buyumlari, haykalchalar topib o'rganilgan. Sopollarning sirtiga har xil rang bo'yoqlarda naqshlar chizilgan. Haykalchalar xonadon egasi hisoblangan ona ma'budasini aks ettirgan.

Tripoli-Kukuteni madaniyati (mil. avv. IV ming yillikning oxiri-III ming yillikning oxirgi choragigacha) Sharqiy Yevropada faoliyat yuritgan. G'arbiy Ukraina, Moldova hududida-Tripoli, Sharqiy Ruminiyada unga yaqin Kukuteni madaniyati tarqalgan. Tripoli-Kukuteni madaniyatining uch bosqichi ajralib turadi. Tripoli-Kukuteni madaniyatiga oid yodgorliklar bitta madaniy qatlamli



Tripoli madaniyatiga oid manzillgoh

dehqonchilik qishlog'idan iborat. Bu madaniyati tarqalgan hududning ekin ekiladigan yerlarining unumsizligi sababli aholi bir joyda uzoq yashamasdan, manzilini doimo o'zgartirib turgan.

Mutaxassislarning taxminiga ko'ra Tripoli-Kukuteni madaniyati egalari har 50-70 yilda yangi yerga ko'chib o'tgan.

Qishloqlar daryo qayirida, keyingi bosqichlarida daryo bo'yi tepaliklarida qurilgan. Ayrim manzilgohlar yog'och devor, val va xandak bilan o'rab olingan. Ilk bosqichida yerto'la uylar qurilgan. Keyingi bosqichlarida yer ustida qurilgan uylar ikki, hatto uch qavatdan iborat bo'lgan. Alohida ajratilgan xonada o'choq, don saqlash uchun mo'ljallangan yirik sopol idish, yorg'uchoq o'rin olgan. Xonalardan ayrimlarining o'rtasida loydan yasalgan ayol haykalchasi o'rin olgan. Bu xona diniy marosim o'tkazish joyi-sajdagoh hisoblanib, haykalcha ayol ma'budasini aks ettirgan. Tripoli-Kukuteni madaniyati oid alohida qabristonlar uchramaydi. Marhumlar yashash uyining ichkarisida joylashgan qabrda dafn qilingan.

Mehnat qurollar chaqmoqtosh, suyak va qisman misdan yasalgan. Misdan bigiz, qarmoq va taqinchoq yasalgan. Tripoli-Kukuteni madaniyatiga oid bir necha yuzga yaqin mis buyumlar topilgan. Moldova Respublikasidagi Korbun qishlog'idan 400 dan ortiq mis buyumlar topib o'rganilgan. Korbun xazinasini nomi bilan mashhur ushbu topilma jamlanmasida sof misdan ishlangan ikkita bolta, spiralli va plastinkasimon bilakuzuklar, baldoqlar, antropomorf shakllar, eritib ishlangan mis munchoqlar bo'lgan. Tripoli-Kukuteni madaniyati taraqqiyotida Bolqon-Karpat konlaridan qazib olingan mis rudasi muhim o'rin egallagan.

Xo'jaligining asosini dehqonchilik tashkil etib, bug'doy, arpa, no'xat va tariq ekilgan. Janubiy hududda yashagan aholi xo'jaligida bog'dorchilik muhim o'rin egallagan. Uzum, o'rik, olxo'ri ekilgan. Yerga tosh, suyakdan yasalgan motiga bilan ishlov berilgan. Hayvon shoxlaridan omoch sifatida foydalanib yerga ishlov berilgan bo'lishi mumkin. Hosil tosh o'roq, keyinchalik misdan quyilgan pichoqlarda o'rilgan. G'alla donlari tosh yorg'uchoqlarda maydalangan.

Chorvachilik xo'jalikning ikkinchi tarmog'ini tashkil etib, asosan qora mol boqilgan. Cho'chqa, qo'y va echki keyingi o'rinlarni egallagan. Tripoli-Kukuteni madaniyatining oxirida yilqi xonakilashtiriladi. Ovchilik xo'jaligi ahamiyatini yo'qotmagan. Bug'u va cho'chqa ov qilingan.

Sopol buyumlari qo'lda yasalgan. Sirtiga qizil, qora va oq rangda geometrik, zoomorf va antropomorf naqshlar chizilgan. Ayol haykalchalari dastlab o'tirgan holatda, keyingi bosqichlarida tik turgan holatda tasvirlangan.

Kura-Araks madaniyati. (mil. avv. XXIX-XXIII ming yilliklar.) Janubiy va Markaziy Kavkaz, Dog'iston, Chechniya, Ingushetiya, Shimoliy Osetiyaning bir qismi, Shimoliy Anatoliya, Shimoli-g'arbiy Eron hududini egallagan madaniyat. Bu madaniyat pasttekistlikda, tog'oldi hududlarida, hatto baland tog' tizmalarida ham tarqalgan.

Uylari aylana shaklda, tomi konussimon shaklda yopilgan, ustidan shag'al tosh to'shalgan. Uylarning o'rtasida aylana o'choq joylashgan. Uylar juda tig'is joylashgan. Yerevan yaqinidagi Shengavit manzilgohining atrofi toshdan qurilgan aylana devor va xandak bilan muhofaza qilingan.

Kura-Araks madaniyati sohiblari marhumlarni manzilgohlarning yaqinidagi qabr va qabr-qo'rg'onlarda dafn qilgan. Qabrlarning shakli turlicha (to'rtburchak, g'isht va tosh terilgan) bo'lgan.

Xo'jalikning asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan. Dehqonchilikda bug'doy, arpa, tariq etishtirilgan. Texnik ekinlardan kanop ekilgan. Dengiz sathidan 2500 m. baland bo'lgan tog' hududida ham dehqonchilik qilingan. Tog'larida sug'orishning murakkab tizimi, terrasa usulidan foydalanilgan.

Yerlar hayvonga tortilgan omoch yordamida shudgor qilingan. Hayvon shoxidan yasalgan omoch nusxalari topilgan.

Chorvachilik yarim ko'chmanchi shaklida bo'lib, asosan kichik tuyoqli hayvonlar boqilgan. Qisman ot boqilgan. Shimoliy Kavkazga xonaki ot shimolda yashaydigan dasht xalqlaridan kirib kelgan bo'lsa kerak.

Kura-Araks madaniyati egalari mishyakli bronzadan foydalangan. Metallar Kavkazning o'zidan qazib olingan. Manzilgohlardan bolta, tesha, o'roq, pichoq, nayzaning uchi, taqinchoq va boshqa buyumlar topilgan. Tuxumsimon shaklda yasalgan sopollarning sirti silliqanib, ko'kimtir, qora va qizil rangda angob surtilgan.

Maykop madaniyati. Shimoliy Kavkazda Kuro-Araks madaniyati bilan bir davrda Maykop madaniyati ham rivojlangan. Bu madaniyat Taman yarim oroli va Kuban bo'yi hududidan Chechniya va Ingushetiya gacha bo'lgan yerlarga tarqagan. Bu madaniyatning nomi Maykop shahri yaqinida o'rganilgan qabr-qo'rg'onidan olingan.

Maykop madaniyati yodgorliklari qisman manzilgohlar va ko'proq qabr-qo'rg'onlardan iborat. Maykop madaniyatning oid qabr-qo'rg'on 1897 yilda arxeolog N.I.Veselovskiy tomonidan Kuban daryosining irmog'i Beloy daryosi bo'yidan topib o'rganilgan. Balandligi 11 m. tuproq uyumi tagida joylashgan o'lchami 5,3x3,73 m, chuqurligi- 1,4 m. bo'lgan yirik qabr-qo'rg'on yog'och devor bilan uchta xonaga ajratilgan. Janubdagi katta xonada erkak, qolgan xonalarda ayollar dafn qilingan. Marhumlar gujanak holatda yotqizilgan va ustidan oxra sepilgan.

Erkak qabrida oltin, kumush, serdolik, feruza va lazuritdan yasalgan turli xil buyumlar topilgan. Ulardan oltindan yasalgan sher, buqa shakli, munchoq, xalqa ajralib turadi. Oltin va kumushdan idishlar ham yasalgan. Ikkita kumish idishning sirtiga naqshlar chizilgan. Ulardan birida tog', daryo, o'simlik, hayvonlar va boshqa birida bir guruh hayvonlar tushirilgan. Birinchi idish mahalliy ustalar tomonidan yasalgan, ikkinchisi esa Mesopotamiyaning Jamdat Nasr torevtikasi bilan aloqadan darak beradi. Shuningdek, qabrdan bronza va loydan yasalgan

idishlar, bronzadan yasalgan mehnat qurollari va qurol yarog'lar topib o'rganilgan. Qabr-qo'rg'on Maykop madaniyatining ilk bosqichiga oid sardorga tegishli bo'lgan. Maykop madaniyatining so'nggi bosqichiga oid qabr-qo'rg'onlar Kuban orti hududida tarqalgan. Ular kuzatuv buyumlariga juda boy. Ularda silliqlangan tosh boltalar, o'roq qadamalari, kamon o'qi uchlari, kumushdan yasalgan to'g'nag'ich va munchoqlar, oltin uzuk, bronzadan yasalgan buyumlar va sopol buyumlar topilgan. Qabrlarning biridan bronzadan yasalgan uzunligi 63 sm. qilich nusxasining topilishi muhim ahamiyatga ega. Qilich bu yerda yashagan aholi o'rtasida ziddiyatning kuchayganligini ko'rsatadi. Bu davrda dolmenlar ham paydo bo'ladi. Dolmen tik turgan to'rtta yirik toshning ustidan beshinchi tosh yotqizib qurilgan dafn inshooti.

Maykop madaniyati egalari motiga dehqonchiligi va uy chorvachiligi bilan shug'ullangan. Sopol idishlari qo'lda va qisman kulolchilik charxida yasalgan. Qablardan turli xil kuzatuv buyumlari topilgan. Kuzatuv buyumlarining mig'dori va sifati marhumning hayot davridagi ijtimoiy holatiga ko'ra qo'yilgan.

Maykop madaniyatining ilk bosqichiga oid topilmalar Janubiy Mesopotamiya buyumlariga o'xshaydi. Bu madaniyatga Shumerdan ko'chib kelgan aholi tomonidan asos solingan.

Drevneyamniy (qadimgi chuqur) madaniyat. Bu madaniyatga (mil. avv. III ming yillikning boshidan oxirgi choragigacha) oid yodgorliklar Janubiy Ural bo'yidan Moldovagacha bo'lgan yerlarda tarqalgan. Bu madaniyatga oid yodgorliklar asosan qabr-qo'rg'onlardan tashkil topgan bo'lib, ularning o'n mingga yaqini o'rganilgan. Tuproq-qo'rg'on tagida joylashgan murakkab qurilmaga ega inshoot markazidagi chuqurda mayit o'rin olgan. Mayit chalqancha yotqizilib, ustidan oxra sepilgan. Ayrim tuproq-qo'rg'onlar tagida bir nechta qabrlar bo'lgan. Kuzatuv buyumlari kam sonli tosh qurollar, sopol idishlar va qisman metall buyumlaridan iborat. Soppollarning tagi dumaloq, tuxumsimon shaklda, sirtiga uyib naqshlar chizilgan.

Drevneyamniy madaniyatiga oid qablardan aravaning yog'ochdan yasalgan g'ildiragi topilgan. Arava ikki xili bo'lgan. Bir xili ikki va to'rt g'ildirakli,

ikkinchisi to'rt g'ildirakli, usti chodir bilan yopilgan. Ikkinchisi ko'chib yurish jarayonida odamlar yashaydigan kulba vazifasini bajargan. Aravaning kashf etilishi ko'chmanchi chorvador aholi xo'jaligining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Drevneyamniy madaniyati egalarining asosan chorvachilik xo'jaligini yuritib, qora mol, qo'y va yilqi boqishgan. Ovchilik ahamiyatini yo'qotmagan.

Afanasev madaniyati (mil. avv. III-II ming yillikning boshlari) Yenesev daryosining yuqori oqimi va Oltoy dashtlarida eneolit va bronza davrlarida faoliyat yuritgan madaniyat. Xakasiyadagi Afanasyev tog'i nomidan olingan. Bu madaniyatga oid qabrlar dastlab 1920 yilda o'rganilgan. Tog'li Oltoy, Xakasiya, Minusiy botig'i, Sharqiy Qozog'iston, G'arbiy Mongoliya va Sintsizyan hududida tarqalgan.

Afanasev madaniyati tadqiqotchilarning taxminiga qaraganda Sharqiy Yevropaning Drevneyamniy madaniyati aholisining ko'chib kelishi natijasida shakllangan. Yodgorliklari qabr-qo'rg'onlar va kam sonli manzilgohlardan iborat. Aholi yashaydigan manzilgohlar qisman o'rganilgan. Ulardan Balituyul, Elo, Qora Tenish, Tenga, Katta Tolgoek, Aragol, Kurota va boshqa yodgorliklar yaxshi o'rganilgan. Manzilgohlardan erto'la uy-joylarning o'rni ochilgan. Ayrim uylarining ichki tomonidan yog'och terib chiqilgan.

Mozor-qo'rg'onlar pastqam tuproq uyumidan iborat yoki atrofiga aylantirib tosh terilgan. Qabrlarning pastida bir-ikki yoki bir nechta chuqurdan iborat mayitxonalari joylashgan. Ularning ichki tomoniga yog'och terib chiqilgan, tomi ham yog'och bilan yopilgan. Marhumlar gujanak holatda yotqizilgan. Erkaklar bir va bir necha ayol bilan birga dafn etilgan. Ular turmush o'rtog'i va turmush o'rtog'lari bo'lgan.

Marhumlarning bosh va oyoq tomoniga sopol buyumlar, mehnat qurollari va hayvon go'shti qo'yilgan. Marhumni dafn etish marosimida, uning xotirasiga bag'ishlab olov yoqilgan va qurbonlik keltirilgan. Mehnat qurollari asosan toshdan yasalgan. Misdan yasalgan zeb-ziynat buyumlari, igna, bigiz, kichik pichoq kabi uy-ro'zg'or anjomlarining nusxasi topilgan. Kumush va oltindan yasalgan buyumlar ham mavjud. Mis buyumlari urib ishlash usulida yasalgan. Rangli

metallarga ishlov berish hunarmandchiligi etakchi o'rinni egallagan. Bu davrda mahalliy mis konlarini qazib olish jadallashadi. Afanasev tog'ida joylashgan qabrlarning biridan meteorit temirdan yasalgan bilakuzuk nusxasi topilgan.

Sopol buyumlari mato qolipda, tagi tuxumsimon yoki dumoloq shaklida yasalgan. Ular turli xil o'lchamli uy-ro'zg'or va xo'jalik buyumlaridan iborat. Bo'yi baland sopol buyumlar ko'pchilikni tashkil etadi. Sopollarning sirtiga o'yib geometrik va archa bargi shaklli naqshlar chizilgan.

Afanasyev madaniyati egalari xo'jaligining asosini chorvachilik tashkil etgan. Qo'y, qora mol va yilqi boqilgan. Yozgi mavsumda chorva otarlarini baland tog' yaylovlarida boqish an'anasi vujudga keladi. Bu bevosita chovador, ya'ni nomadlar qabilasi shakllanayotganidan darak berar edi. Ovchilik ahamiyatini saqlab qolgan.

5.5. Shimoliy Yevropa neolit davri taraqqiyoti. Sintashta-Arkaim majuasi. Sintashta-Arkaim majuasi Ural tog'ining sharqiy yonbag'irlarida, Rossiya Federatsiyasining Chelyabinskiy va Orenbur viloyatlari hududida tarqalgan. Majmua o'rganilgan manzilgoh va qabr-qo'rg'onlarning nomi bilan yuritiladi. Arxeologik yodgorliklari aylana yoki to'g'ri to'rtburchak shaklli mudofaa devori va xandaklar bilan o'rab olingan manzilgohlar va aylana shaklli qabr inshootlaridan iborat.

Bu madaniyatga oid ko'pgina yodgorliklar o'rganilgan. Yagodiy Dol va Arkaim manzilgohlari xom g'isht, devg'ish va chimdan qurilgan mudofaa devori bilan muhofaza qilingan. Kuysak manzilgohining mudofaa devori devg'isht, qumoq tuproq va toshdan qurilgan. Adland va Oligino (Tosh ombor) manzilgohlari mudofaa devorining sirtiga tosh terib chiqilgan. Manzilgohlar xandagining eni 2,5x5,0 m., chuqurligi 1,2-1,5 m. dan iborat.

Manzilgohlarning ichkarisida qurilish imoratlari tig'is joylashgan. Ular aholi uy-joylari, toat-ibodat vazifasini bajargan imoratlar, ishlab chiqarish inshootlaridan tashkil topgan. Qurilish imoratlari paxsa, yog'och karkas va ayrim hollarda xom g'ishtdan barpo qilingan. Alohida uy-joylarning hovlisida quduq, o'choq va xo'jalik o'ralari joylashgan.

Sintashta-Arkaim jamiyatiga oid dafn inshooti tepalikda, ayniqsa, daryolarning o'zaro qo'shilgan joydagi tepalikda joylashgan. Dafn inshooti qabr-qo'rg'ondan iborat. Qabr-qo'rg'onlarning pastida o'ra, chuqur, lahat qabrlar o'ringan. Bir xil qabrlarning mayitxonasi ichki tomoniga yog'och terilib, tepasi ham yog'och bilan yopilgan. Qabrlarda mayitlar yakka va jamoa bo'lib ko'milgan. Mayitlar yon tomoni bilan gujanak va chalqancha yotqizilgan. Marhum jangavor arva va ot anjomlar bilan birga ko'milgan qabrlar ham uchraydi. Bunday qabrlar jamoa sardori yoki sarkardasiga tegishli bo'lsa kerak. Erkaklarning qabrida mis va bronzadan yasalgan qurol yarog'lar (jangavor bolta, xanjar, kamon paykoni), ish qurollari, sopol buyumlar saqlangan.

Sintashta-Arkaim jamiyati aholisi uy va yaylov chorvachiligi hamda metall hunarmandchiligi bilan shug'ullanganlar. Ural tog'ida turli madanlarga boy. Mahalliy kon zahiralari metallurgiya taraqqiyotini ta'minlagan. Mis va mishyakli bronzadan turli xil mehnat qurollari, qurol yarog'lar yasalgan. Sopol buyumlar tasmasimon usulida yasalgan va sirtiga geometrik naqshlar chizilgan. Sopollarning tagi tekis. Sopollar oshxona va xo'jalik buyumlaridan iborat.

Aholi harbiylar, qohinlar, erkin jamoa a'zolari qatlamidan iborat bo'lgan. Manzilgohlarning murakkab tizimi, jamiyatda murakkab stratifikatsiya jarayoni sodir bo'lishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik ishlab chiqarishining mavjudligiga ko'ra aholi rivojlangan jamiyat tuzilmasiga ega bo'lgan. Ularning jamiyatida harbiylar toifasi yuqori mavqeiga ega bo'lib, ko'rinishdan jamiyat taraqqiyotining harbiy demokratiya bosqichida bo'lgan. Sintashta-Arkaim jamiyati Avestonda keltirilgan Ariyanam Vaychax o'lkasi tarqalgan hudud bilan bog'lash, ehtimoldan holi emas.

Andronovo madaniyati. Andronovo madaniyati Oltoyda (mil avv. II ming yillikning o'rtalari-I ming yillikning boshlari) tarqalgan madaniyat. Minisuy o'lkasida joylashgan Andronovo qishlog'i nomi bilan fanga kirgan. Bu madaniyat Ural tog'idan Yenesey daryosi bo'yigacha, taygadan Tangri tog' hududigacha yerlarga tarqalgan. Tadqiqotchilar Andronovo madaniyatining uchta, ayrimlari esa

to'rtta Petrov, Olako'l, Fedorov yoki ular oralig'ida Sargari-Alekseev kabi bosqichlarini ajratib ko'rsatadi.

Andronovo madaniyatiga oid yodgorliklar manzilgoh va qablardan iborat. Qabrlarning ayrimining atrofiga aylantirib tosh terib chiqilgan. Marhumlar tuproq qo'rg'on tagidagi mayitxonada dafn qilingan. Andronovo madaniyatining shimoliy hududidagi qablarda mayitxonasining atrofi aylanasi yog'och terilib, tepasi yog'och bilan yopilgan turi ham uchraydi. Marhumlar ko'milgan yoki kuydirilib kuli ko'milgan. Marhumlar bilan birgalikda ma'lum kuzatuv buyumlari qo'shib ko'milgan. Erkaklar qabridan metaldan yasalgan qurollar, ish anjomlari, ayollar qabridan zeb-ziynat buyumlari topilgan. Qablardan birida marhum bilan birga arava qo'shib ko'milgan.

Andronovo madaniyatiga oid manzilgohlar daryolarning bo'yida joylashgan. Ayrim manzilgohlarning atrofi zichlangan tuproq devor bilan o'rab olingan. Uy-joy imoratlari yerto'la va yer usti qurilishlardan iborat.

Xo'jaligining asosini chorvachilik tashkil etgan. Qo'y, qora mol va yilqi boqilgan. Metalga ishlov berish yaxshi rivojlangan. Mis va bronzadan qurol yarog'lar, mehnat qurollari, uy-ro'zg'or anjomlari va zeb-ziynat buyumlari yasalgan. Sopol buyumlari qo'lda, tagi tekis qilib yasalgan. Ular bankasimon yoki gorshoksimon shaklga ega. Sopolarning sirti geometrik va o'yib chizilgan archa bargi shaklli naqshlar bilan bezatilgan.



Shimoliy Amerikada, Buyuk ko'llar hududida, Superior ko'li yaqinida, 99% sof misdan ishlangan

Savol va topshiriqlar:

1. Geoksyur vohasida eneolit davriga oid sag'analar haqida bilasizmi?
2. *Hisor madaniyatiga qaysi Joytun madaniyatiga tegishli hududlarni yozing?*
3. Ashxobod viloyatining Neolit davri yodgorligidan shaxmat toshari topilgan makon?
4. Tutqovul makoni, *Hisor madaniyati*, Uzunko'l, Mingbuloq haqida bilasizmi?

Mavzuga oid test

1. Eneolit va neolit (ilk neolit mustasno) bir vaqtda bo'lganmi farqi nimada?

A Xronologik jihatidan emas, balki madaniy darajalari jihatdan bir-biridan farq qiladi

B Ular bu vaqtda metallardan bexabar bo'lib, chorvalik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar

S Bir-biri bilan davri va ixtirolari bir xil

D Ko'p o'lkalarda neolit qabilalari yashagan, ular bu vaqtda metallardan bexabar

2. Mil. Avv. IV mingyillikning ikkinchi yarmiga kelib, Qadimgi Sharqning yuqori madaniyat o'choqlarida?

A Ilk quldorlik davlatlarida misdan ishlangan mehnat qurollari va zeb-ziynatlar keng tarqaladi.

B Mis qurollar kam bo'lsa-da, ular kelgusida bu yangiliklar yuz berishining darakchisi bo'lgan.

S Ko'p o'lkalarda neolit qabilalari yashagan, ular bu vaqtda metallardan bexabar bo'lib, chorvalik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar.

3. Qadimgi Sharq yuqori madaniyat o'choqlarida eneolit davrida yashovchilarning xususiyatlari qanday?

A Dehqonchilikka asoslangan qabilalar sinfiy jarayonlardan ancha uzoqlashganlar va ular ibtidoiy urug'chilik tuzumining ko'pgina xususiyatlarini saqlab qolganlar.

B Misdan ishlangan mehnat qurollari va zeb-ziynatlar keng tarqalishi bilan xususiyatlanadi

S Madaniy darajalari rivojlangan, shaharlar vujudga kelgan

4. Eneolit davrida O'rta Osiyo aholisi orasida notekis rivojlanish bo'lganligidan dalolat beradi?

A *Unumdor* xo'jaliklarga asoslangan qabilalar tezroq rivojlangan, *qo'shimcha* xo'jaliklar bilan shug'illanganlar madaniy jihatdan orqada qolgan.

B Mis-tosh zamoni qurilishida rejalashtirishga amal qilingan ko'chalar, maydonlar va katta jamoa binolari tartib bilan qurilgan

S A va B

5. Eneolit davri odamning eng katta ishlab chiqarish g'alabasi?

A Irrigatsiya, sug'orish texnikasi rivoji

B Xo'jalikda motiga-ketmoncha bilan qilinadigan dehqonchilik va uy chorvachiligining rivojlanishi;

S Hunarmandchilikda yangi kasblar metallchilik, to'qimachilikning vujudga kelishi;

6-mavzu: Bronza davri arxeologiyasi

Reja:

- 6.1. Bronza davri madaniy tarixiy jarayonlari.
- 6.2. Osiyoning bronza davri arxeologiyasi.
- 6.3. Qrimda joylashgan qadimgi shaharlar va mozor-qo'rg'onlar.
- 6.4. Yevropada bronza davri va manzilgohlar.
- 6.5. Janubiy Turkmanistonning bronza davri arxeologiyasi.
- 6.6. O'zbekistonning bronza davri lokal madaniyatlar.

Tayanch iboralar: to'rt burchakli burjlar, Kellelitepa, Nomozgohtepa, Ubeyda manzilgohida, Hindistonda ilk shahar, Kalibangan, Erlitou, Moxenjodaro, Haq xazinasi, Xassun madaniyati

6.1. Bronza davri madaniy tarixiy jarayonlari. Bronza davri miloddan avvalgi III-II ming yillikni o'z ichiga oladi. Bu davrda Egey dunyosi, Misr, Ikki daryo oralig'i, Hindiston va Xitoyda quldorlik jamiyati ravnaq topgan. Yevropa va Osiyoning ko'p mamlakatlarida esa hali ibtidoiy jamoa tuzumi hukm surgan. Jez miloddan avvalgi III ming yillikda kashf etilgan. Uning vatani Ikkidaryo oralig'i bo'lgan. U mis bilan qalay qorishmasidan iborat bo'lib, nisbat jihatidan turli xilda. Bronza metal sifatida ko'p afzalliklarga ega:

- Bronza qurollar mis qurollardan pishiqroq va o'tkirroq.
- Uni eritib quyish oson, chunki uning erish temperaturasi pastroq.

Bronza davrining xususiyatlari:

- Birinchi mehnat taqsimoti sodir bo'ldi.
- Patriarxat davri boshlandi
- Doimiy qishloqlar paydo bo'ldi
- Uy-joy qurilishida g'ishtdan foydalanildi
- Kulolchilik charxi ixtiro qilindi
- Gildirakli aravalarning ixtirosi
- Mudofa devorlarining qurilishi
- Ipakdan matolar to'qildi
- Manzilgohlarning hajmi kattalashdi

- Aholi bir-necha tabaqaga ajraldi

Mis va bronza tabiatda yombi holida tarqalgan. Misni eritish $t^{\circ} - 1084 S^{\circ}$, bronzaning erish $t^{\circ} 700-900 S^{\circ}$ o'rtasida. Mis va qalayni birga qo'shib, qoliplarga quyishgan. Qoliplar toshdan qumtosh yoki toshtaxtalardan iborat bo'lgan. Bronzaning kashf etilishi ibtidoiy jamoa ho'jaligida ro'y bergan buyuk madaniy xo'jalik ixtiro edi. Yangi metal harbiy qurollarning turini ko'paytirdi, harbiy qurollarning xili va jangovarligi oshdi. Bronzadan yasalgan uy-ro'zg'or buyumlari ham paydo bo'ldi. Ammo bronza mehnat qurollari ishlab chiqarish uchun nodir va kamchil metal bo'lib qolaveradi. U mehnat qurollari yasashda tosh xom ashyosini uzil-kesil siqib chiqara olmadi. Chunki dastlab bronzadan munchoqlar, uzuklar, to'g'nag'ichlar yasalgan. Ular asosan ziynat buyumlari edi. Bu davrda tosh qurollar ham ko'plab ishlatilgan. Tosh parrakchalardan keng foydalanilgan. Ammo bronzaning toshga nisbatan ustunlik tomonlari, ya'ni uning juda tez turli shaklga keltirilishi, turli ishlarda foydalanish mumkinligi, ko'p uchraydigan keskir va qattiq tosh qurollarni kamyobligi, mo'rtligi va tez sinishi kabi xususiyatga ega bo'lgan (bronza) metal siqib chiqara olmagan.

Bu davrda bronzadan asosan turli bezaklar, uy-ro'zg'or va ho'jalik buyumlari, harbiy qurol-aslahalar va mehnat qurollari yasaydigan maxsus temirchilik, chilangarlik va zargarlik ustaxonalari vujudga keldi. Hunarmandchilikning ixtisoslashuvi bilan mintaqalararo ayirboshlash kuchaydi. Kishilik jamiyati tarixida birinchi marta muntazam mol ayirboshlash imkoniyati bevosita dehqonchilik va chorvachilikning bir-biridan ajralishi va hunarmandchilikning paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

Bronza olish usullari kashf etilgan joy va vaqt ma'lum emas. Bronza bir vaqtning o'zida bir nechta joyda ochilgan deb taxmin qilish mumkin. Bronza va bronza mahsulotlari Iroq va Eronda topilgan va eramizgacha miloddan avvalgi 4-ming yillik oxiriga to'g'ri keladi. Miloddan avvalgi 3-ming yillarning boshlarida Anatoliyada va Kavkazning ikkala tomonida bronza tarkibida marsimon aralashmalar ishlab chiqarilgan. Maykop madaniyatining ba'zi bronza mahsulotlari miloddan avvalgi 4-ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi. Bronza davrining

boshlanishi bilan Yevroosiyoning insoniy jamoalarining shakllanib, faol muloqot qila boshladi. Shaharlarning markaziy qismlari tog' tizmalari (Sayano-Oltoy - Pomir va Tyan-Shan - Kavkaz - Karpatiya - Alps) janubida murakkab ijtimoiy tuzilmalari va chorvachilik asosida fermer xo'jaliklari shakllandi, shaharlar, yozuvlar va davlatlar paydo bo'ldi.

Sharqiy Yevropada sof bronza G'arbiy Yevropa yoki Sibirdagidan ko'ra kamroq bo'lganligini aytib utish kerak. Sharqiy Yevropada **qalay** juda kam. Shuning uchun bronza urnida ishlatilgan va ba'zan bronza deb yuritilgan boshqa qotishmalar ko'p bo'lgan. Misni qalay yoki rux bilan aralashtirib eritganlar. Hatto bronza davrining oxirida ham nuqul misdan yasalgan qurollar uchraydi. Shunday bo'lsada, sof bronza ham bir necha marta uchragan. yog'ochband davrida sof bronza yoki uning sun'iy yo'lda tayyorlangan bolta, nayza va boshqa qurol hamda yarog' aslaxalar yasalgan. Hozirgi zamon boltalariga uxshagan, dasta urnatiladigan teshikli boltalar keng tarqalganligini alohida uqtirib utish kerak. Bronza davrida G'arbiy Yevropada bunday boltalar butunlay bo'lmagan deyish mumkin, ammo, Sharqiy Yevropada ular oddiy qurol qatorida bo'lgan. Bunday boltalar bizdan oldin qadimgi Sharq mamlakatlarida paydo bo'lgan. Bobilda ayniqsa ko'p bo'lgan, Bobil boltalari, boltalarning qoliplari topilgan. Topilgan bu qoliplar Sharqiy Yevropada xiyla murakkab buyumlar yasalgan. Buyumlarning ishlab chiqarilgan joyi ba'zan boshqa yul bilan, topilmalarning ma'lum nusxalari rasm bo'lgan. Masalan, dastasiga uyma naqsh solingan, nusxa deb atalgan yaproqsimon xanjar Volga buyidagi mozor qurg'onlar va xazinalarga xosdir.

6.2.Osiyoning bronza davri arxeologiyasi.

Sharqiy Osiyo Xitoyning bronza davri arxeologiyasiga to'xtalib o'tamiz. Xitoyda, temir eritma texnologiyasining paydo bo'lishi bronza asboblarni qo'llashda aniq bir vaqtning ta'siri yo'qligi sababli, davrning aniq chegaralarini belgilashga urinishlar murakkablashdi: ular temir bilan bir vaqtning o'zida foydalanishda davom etishdi. Eng qadimgi bronza buyumlar Majiao madaniyatiga

tegishli (mil. Av. 3100 - 2700); O'sha paytdan boshlab jamiyat asta-sekin bronza zamoniga kirdi.

Xitoyning bronza metallurgiyasining kelib chiqishi Erlitu madaniyati bilan bog'liq. Amerika Qo'shma Shtatlarining Milliy san'at galereyasi mutaxassislari miloddan avvalgi 2000-771 yillar oralig'idagi Xitoyning bronza davrini belgilab olishadi. Erlitu madaniyatining boshlanishi va G'arbiy Jou sulolasining qulashi bilan to'satdan nihoyasiga yetadi. Ushbu talqin aniq vaqt chegarasini beradi, ammo bronzadan Xitoy metallurgiyasiga va butun madaniyatga bo'lgan ahamiyatini va ahamiyatini saqlab qolishga yetarli darajada e'tibor bermaydi. Bronza davri ho'jaliklari ho'jalik va ijtimoiy taraqqiyot darajalari bilan bir-biridan farq qilmasada, sopol buyumlarining xili, qabrlar qurilishi jihatidan bir-biridan farqlanadi.

Sharqiy Osiyoning Qadimgi Xitoyning madaniy me'rosi va Xitoydagi YUNESCO yodgorliklari

Suniy kashfiyotlar Anyangdagi 3500 yoshli Oracle suyaklaridan o'rgangan Anyang - Sharqiy Xitoyning Xenan provinsiyasidagi zamonaviy shahar nomi, u Shinxatan sulolasining buyuk poytaxti Yin (1554 - 1045 yy.) Ning xarobalarini o'z ichiga oladi. 1899-yilda Anyang shahrida yuzlab ornatilgan toshbaqa chig'anoqlari va orqa suyaklari topilgan. 1928-yilda keng ko'lamli qazish ishlari boshlandi va o'sha vaqtdan beri Xitoy arxeologlarining tekshiruvlari buyuk poytaxtning qariyb 25 kvadrat kilometrini aniqladi.

Angliya tilidagi ilmiy adabiyotlardan ba'zilar Anyang kabi qoldiqlarga ishora qiladilar, ammo Shanxay Dynasty aholisi buni Yin deb bilishadi.

Yinni asos slogan Yinxu (yoki Xitoyda "Yinning xarobalari") Xitoyning Shin Ji kabi yozuvlarida tasvirlangan poytaxti Yin deb ta'riflangan. Bu yozuv, Shoh Shoh uyining faoliyatlarini hujjatlashtirgan (boshqa narsalar qatorida) yozilgan yozuvli suyak suyaklariga asoslangan.

Yin, markaziy Xitoyning sariq daryosi bo'lgan Xuan daryosining janubiy qirg'og'idagi kichik bir turar-joy maydoni sifatida tashkil etilgan. U tashkil etilganida, daryoning shimoliy tomonida Huanbei (ba'zan Huayuanzhuang deb ataladi) deb nomlangan eski turar-joy joylashgan. Huanbei miloddan avvalgi 1350-

yillarda qurilgan O'rta Shanxay turar-joyi bo'lib, 1250-yilga kelib, to'rtburchaklar devor bilan o'rab olingan taxminan 4,7 kvadrat kilometr (1,8 km) maydonni qoplagan. Shaharlashish jarajoni miloddan avvalgi 1250 yilda Shanxay sulolasining 21-podshohi Vu Ding (eramizdan avvalgi 1250-1192 yillar) hukmronlik qilgan.

200 yil ichida Yin yirik shaharlar markaziga aylandi, taxminan aholisi taxminan 50 000 dan 150 000 kishiga yetdi. Qoldiqlar orasida 100 dan ortiq tuproq saroyi asoslari, ko'plab turar-joy binolari, ustaxonalar va ishlab chiqarish joylari va qabristonlarni o'z ichiga oladi.

Yinxu shahrining Xiaotun nomli saroy hududidir, taxminan 70 gektarni (170 akr) o'z ichiga oladi va daryo bo'yida joylashgan bo'lib, u shaharning qolgan qismidan xandaq bilan ajratilgan bo'lishi mumkin.

Bu yerda 1930-yillarda 50 dan ortiq tuproq asoslari topildi, bu shaharning foydalanish davrida qurilgan va qayta qurilgan ko'plab binolarni ifodalaydi. Xiaotun elita turar-joy maydoni, ma'muriy binolar, qurbongohlar va ota-bobolar uyiga ega edi. 50 000 ta suyak topilgan bo'lib, suyaklarining ko'pi Xiaotun chuqurligida topilgan va inson skletlarini, hayvonlarni va jang aravalarini o'z ichiga olgan ko'p sonli qurbonlik quduqlari ham bor edi.

Uy-joy ustaxonalari, asbob va kemalar, bronza, to'qimalar, kulolchilik ishlab chiqarish maydonlariga topilgan. Ko'p, katta suyak va bronza ish joylari kashf qilindi, oilalarning ierarxik asosi nazorati ostida bo'lgan ustaxonalar tarmog'iga aylandi.

Shaharda ixtisoslashgan mahallalar orasida Xiamintun va Miaopu bor edi. Suyak ob'ektlari qayta ishlangan Beixinzhuang; va Liujiazhuang Shimoliy Koreyada xizmat ko'rsatuvchi va saqlash idishlari ishlab chiqarilgan. Bu joylar ham uy-joy, ham sanoat edi. Masalan, Liujiazhuang keramika ishlab chiqarish binosi va qozonxonalarini o'z ichiga olgan bo'lib, u yerda tuproq uylari asoslari, ko'milgan joylar, sardobalar va boshqa turar-joylar bilan ajralib turardi.

Katta yo'l Liujiazhuangdan Xiaotun saroyiga boradi. Liujiazhuang, ehtimol naslga asoslangan joylashuv edi; uning nomi bronza muhrga va bronza idishlar bilan bog'langan qabristonga yozilgan edi.

Yinxuda o'lim va marosimlarda zo'ravonlik Inson qoldiqlarini o'z ichiga olgan minglab qabrlar va quduqlar Yinxu shahrida, qurib bitkazilgan chuqurlikdagi yirik, aniq qirol qabristoni, aristokrat qabristonlardan, oddiy qabristonlardan, tanadagi yoki tana qismlaridan topilgan. Ayniqsa royalti bilan bog'liq bo'gan marosimlarda ommaviy qirg'inlar kechasi Yinning 200 yillik ishg'ol paytida 13000 dan ortiq odam va boshqa ko'plab hayvonlar qurbon bo'lishdi.

Yinxuda topilgan suyak va suyakdagi yozuvlarida ikki xil davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan inson qurbonligi bor edi. Renxun yoki "inson sheriklari" tanlangan kishining o'limida halok bo'lgan oila a'zolari yoki xizmatchilariga tegishli.

Ular tez-tez shaxsiy tobutlarda yoki guruh qabrlarida maxsus tovarlari bilan dafn etilgan. Yinxu shahrida insoniyat qurbonligiga oid arxeologik dalillar butun shahar bo'ylab topilgan qoziqlar va qabrlarda topilgan. Aholi yashash joylarida qurbonlik chig'anoqlari miqdori kam, asosan, inson qurbonliklari bilan hayvonlarda saqlanib qolgan, ammo kamdan-kam holatlarda, kamida 12 kishiga yetgan bo'lsa-da, ulardan faqat birdan uchtagacha bo'lgan qurbonlar bor edi. Ammo shohlar qabristonida yoki saroy- ma'bad majmuasi bir vaqtning o'zida bir necha yuz kishiga qurbonlik keltirgan. Qurbonliklarning yarmidan ko'pi o'z hududiga boshqa joydan kelganlar bo'lgan. Yinning g'arbida joylashgan dushmanlarning bir toifasi bo'lishi mumkin; dafn marosimlari bilan kamroq mozor topilgan. Qurbonliklar haqida muntazam tekshiruv olib borilgan tadqiqotlar bioarxeolog Kristina Cheung va uning hamkasblari tomonidan 2017 yilda e'lon qilindigan manbalarda jabrdiydalar haqiqatdan ham mahalliy bo'lmagan deb topdilar.

Qurbonlik qurbonlarini o'ldirishdan oldin qul bo'lgan bo'lishi mumkin; orakent suyagi yozuvlari Qiang xalqining asirligidan dalolat beradi va ularning mahoratli mehnatga jalb etilganligini qayd qiladi.

Yozuvlar va Anyangni tushunish. Yinxudan boshlab 50 mingdan ziyod yozuvli orak suyagi va bir nechta bronza yozuvidagi yozuvlar Shanx davriga to'g'ri keladi (mil. Avv. 1220-1050). Ushbu hujjatlar, keyinchalik, ikkinchi darajali matnlar bilan birga, ingliz arxeologi Roderik Kempbell tomonidan Yinning siyosiy tarmog'ini batafsil hujjatlashtirish uchun ishlatilgan.

Yin Xitoyning eng ko'p bronza davridagi shaharlari, qirolning shaharlarida bo'lgani kabi, shohning buyrug'i bilan siyosiy va diniy faoliyatning yaratilgan markazi sifatida qurilgan. Uning asosiy qismi shohona qabriston va saroy-ma'bad maydoni edi. Shoh nasl-nasabni boshqargan va uning qadimgi ajdodlari va boshqa turmush munosabatlariga aloqador yetakchi marosimlar uchun mas'ul bo'lgan.

Qurbonlik qurbonlari soni va ularga bag'ishlangan kishilar kabi siyosiy voqealar haqida xabar berishdan tashqari, suyaklar shohning shaxsiy va davlat tashvishlari haqida xabar beradi. Yozuvlar, shuningdek, Yindagi "maktablar" ga, ehtimol o'qish-yozishni o'rgatish uchun joylarga yoki ehtimol, o'quvchilarning bashorat qilish yozuvlarini saqlab qolish uchun o'rgatilganiga qaratilgan.

Bronza texnologiyasi

Shanxay sulolasi Xitoyda bronza ishlab chiqarish texnologiyasi ustunligida birinchilardan edi. Bir qancha yirik bronzadan ishlab chiqarish joylari topilgan. Bugungi kunga qadar aniqlangan, Xiaomintun hududi 5 gektardan ortiq maydonni (12kv) tashkil etadi. Ulardan 4 gektargacha maydondan (10kg) qazib olinadi.

Xitoy hukumati tomonidan 1928 yildan boshlab, Akademiya Sinika va uning vorislari Xitoy Fanlar Akademiyasining va Xitoy ijtimoiy fanlar akademiyasining arxeologlari qazishma ishlarini boshlab yuborganlar. 1990-yillarda Xuanbeida qazish ishlari olib borilgan Xitoy-Amerika qo'shma loyihasi tuzilgan. Mamlakatdagi tarixiy hududlarni o'rganish va ro'yxatni jonlantirish uchun. Yinxu 2006 yilda YuNESKO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.



G'ildirakning kashf qilinishi

6.3. Qrimda joylashgan qadimgi shaharlar va mozor-qo'rg'onlar

Dyakova shahar xarobalarida temir buyumlar bronza davri turar joylarida topiladigan bronza buyumlar ko'proq topilsada, ammo uncha ko'p emas. Topilgan mehnat qurollari asosan suyakdan yasalgan. Shu narsani hisobga olish kerakki, singan temir buyumlar quraga solinib qayta ishlangan, biroq suyak buyumlar tashlab yuborilgan. Temir pichoqlar keng tarqalgan. Bu kichkina qurol xo'jalikda katta o'rin tutgan: bu bilan suyak buyumlar yasaganlar. Suyakni ishlashdan oldin suvda qaynatib yumshatganlar. Ishlab tamomlanmagan suyaklarning topilib turilishiga qaraganda Dyakova yertulalarida pichoq bilan suyak buyumlar yasaganlar. Dyakova shahr xarobalarida juda ko'p topiladigan narsa sopol qadoq Dyakovaning o'ziga xos bu buyumlar quziqoringa uxshaydi, buni urchuq deb o'ylaganlar. Sopoldan yasalgan urchuqlar Dyakova shahar xarobalaridan ko'p topilgan. Qabrlar topilmagan.

Bereznyaki shahar xarobasidan qabrlar topilgan. Ulidlarni kuydirib, kulini ko'mganlar, balki yer ustida maxsus joyda saqlaganlar. Dyakova shahar xarobalarining g'arbida shahar xarobalari kam tekshirilgan.

Usti jimjimali naqsh sopol idishlar Baltika buyi shahar xarobalariga xos. Dyakova shahar xarobalarida bunday idishlar kamdan-kam uchraydi, chorvachilik xo'jalikning asosiy turi bo'lgan.

Ananino yodgorliklari eramizdan avvalgi VII-II asrlarga oid. Bu yodgorlik shahar xarobasidan hamda qabristonlardan iborat. Kama bo'yida Elabuga shahriga yaqin Ananino qishlog'i yonidagi qabriston sal kam bir asrdan buyon tekshirilmoqda. Kuydirilgan uliklarng qoldiqlari va uzun qilib yotqizilgan qabristonlar o'rganildi. **Ananino** shahar xarobalari tashqi ko'rinishi va joylanish

tartibi jihatdan Dyakova shahar xarobalariga uxshaydi. Bunday shahar xarobalari Kama, Vyatka, Oq Idil va ularning irmoqlar bo'yanidan topilgan. Ularni ba'zan suyakli shaharlar ham deb ataydilar. Biroq Ananinodagi sopol idishlar Dyakovadagi sopol idishlarga uxshamaydi: bu yerda mato izli sopol idishlar yo'q, idishlarning tagi yumaloq, naqshlari chilvir izlidir. Shahar xarobalarida topilmalar oz, qabrstonlarda yarog'lar va zebziynat buyumlar ko'p. Odamlar yashagan turar joylar bilan qabrlar o'rtasida farq bo'lgan. Topilgan suyaklarning ko'pligi xo'jalikda ovchilik emas chorvachilik muhim o'rin tutganligidandir. Ba'zan tulki, suvsar, qunduz suyaklarining tuplanib qolganligi muyna uchun ov qilish dyakovaliklardan ko'ra bu yerda ko'proq taraqqiy etgan. Yorg'uchoqlarning tez-tez topilishi dehqonchilik paydo bo'lganligidan va suyak motigalardan foydalanganlar. Chusovaya Kamaga qo'yilgan joyda Konesg'or qishlog'i yonida Ananio qishloq xarobalaridan uzunasiga solingan uylar topilgan. Bu qishloq xarobasi shunisi bilan ajoyibki, misliklar xudosi Amonning haykalchasi topilgan. Bu haykalcha bir vaqtlar Nil daryosi sohillaridan Kama daryosi sohiliga olib kelingan.

Ananino qabrlaridagi dafn buyumlari mulkiy tengsizlikning taraqqiy qilganligini ko'rsatadi. Zuyeyo qabristonidagi ko'p qabrlarda buyumlar topilmagan. Oddiy erkaklar qabrlarida bolta, pichoq, o'q va shunga o'xshash narsalar ko'p uchraydi. Erkaklarning boy qabrlarida har xil yarog'lar, mayda oltin zeb-ziynatlar, mis va bronzadan yasalgan qurollar topilgan. Ayollar qabrlari bilan erkaklar qabrlari o'rtasida farq katta bo'lgan.

Ananino qabristonida qabr toshi topilgan. Unda beliga xanjar jan bolg'a qistirgan, bo'yniga xalqa osgan jangchi surati solingan. Bu tosh tagidagi qabr qazib ochigan. Ananino qabrlaridan eng boyi bo'lib hisoblanadi. Undan topilgan buyumlar orasida bronza va temir xanjar, temir jang bolg'a va kumush chiqqan, bularning hamasi qabr toshdagi suratlar bilan bir xil bo'lgan. Qabr toshda Ananino urugi oqsoqoli ta'svirlangan. Kambag'al qabrlar qullarnng qabrlari bo'lgan.

Ananino qabristonidan bitta qabrga (gurga) uch kishi: birinchisi- yoniga temir xanjar, temir nayza va bronza o'qlar qo'yilgan, ikkinchisiga - marjonli ayol,

uchunchisiga - hech narsasi yo'q erkakning skleti va suyaklari ochildi. Bulardan birinchisi xo'jayinniki, ikkinchisi uning xotini yoki cho'risi, uchinchisi esa qulniki bo'lsa kerak.

Ananino qabristonlarida qurol-yarog'lar ko'p. Bronzadan va temirdan nayzalar yasalgan. Ko'proq temirdan yasalgan xanjarlar topilgan. Qilichlar umuman yo'q. Kama daryosiga qo'shigan joyda skif qilichiga uxshash qilich topilgan. **Chekan**-bu qurol bir tomoni tumtoq bolg'a bo'lib, ikkinchi tomoni nayzasimon bo'lib, dushmanni yoki o'ljani bosh suyagini urib sindirish uhun mo'ljallangan. Sibirda bunga o'xshash qurol juda ko'p. Ba'zi skletlarning suyaklari o'sha chekan bilan urib teshilgan.

Ananinoliklarning bronzadan va temirdan ishlangan **chekanlari** ko'p topilgan. Shunisi bilan ahamiyatliki chekan ikki ming yildan keyin ham bronzadan ishlangan, chunki bronza temirdan og'irroq bo'lgan. Kamadagi Pyaniy Bor yonidan qabrston topilgan. Shahar xarobalaridan sopol idishlar o'rniga yog'och idishlar ko'p topilgan. Sababi temirning keng qo'llanilishi natijasida yog'ochga ishlov berish ahamiyati oshgan. Kama aholisi yog'och idishlarga qiziqishi katta bo'lgan.

Ananinoliklarning temir boltalardan keng foydalanishi, ularni guvalalardan uylar qilib zamonaviy yashashga olib kelgan.

O'rta yer dengizidan Kamaga bronza idishlari olib kelingan. Kamadagi Pyaniy Bor yonidan qabriston topilgan bo'lib, uliklar chuziltirib ko'milgan. Erkaklarning qabrlaridan temir bolta, nayza va o'qlar topilgan. Ayollarning qabrlaridan bronzadan yasalgan zeb-ziynatlar, munchoqlar topilgan. Buyumlarda quyosh va unga sig'inadigan qushlar ta'svirlangan. Chusovaya daryosining baland jar tepasidagi Dirovatiy g'oridan ming dona o'qlar topilgan. O'qlarning ko'pi suyakda yasalgan. O'qlarning ko'pi suyakdan yasalgan, temir o'qlar ham ko'p topilgan, bronza o'qlar kam topilgan. Bu yerda o'qlarning shunchalik ko'p to'planib qolishiga sabab shuki, Piyaniiy Bor ovchilari atayin juda ko'p o'qlarni otib muljalga aniq tegishi uchun ko'p mashq qilishgan. Ov jarayonidan oldin

diqqat bilan tayyorgarlik qilishgan, ya'ni ovning muvaffaqiyatli chiqishi uchun mashq qilgan bo'lishlari mumkin, ihtimol.

Suyak qoldiqlari topilgan Glyadenovo o'ziga xos ajoyib joy bo'lib, Pyaniy Borda Kama bo'yidagi 2500 m keladigan, Permda 25 km bo'lib, qalinligi 1,5 m keladigan uy hayvonlari va yovvoyi hayvon suyaklari bilan qoplangan. Bu qurbonliklarning qoldiqlaridir. Qachonlardir bir vaqtda bu joyda xudoning surati yoki muqaddas daraxt bo'lgan bo'lsa kerak. Faqat hayvonlargina qurbon qilingan emas. Suyakzorda nazr-niyoz buyumlari ham juda ko'p. Bu yerda mingdan ortiq uch parrakli sarmat o'qlari topilgan. Shahar xarobalaridan suyak o'qlar turidagi o'qlar nihoyat mingdan ortiq bronzadan ishlangan yalpoq suratlar topildi. Ularning ko'pi odam suratlari. Ayiq, tulki, olmaxon suratlari ham uchraydi. Asalari suratlari esa urmon asalarichiligidan darak beradi. Qurbonlik keltirgan kishilar bu suratlar vositasi bilan xudoga o'z istaklarini bildirganlar. Bunday manzarali suratlar juda ko'plab topilgan va tarixni oydinlashtirishda mihim manba bo'lgan.

6.4.Yevropada bronza davri va manzilgohlar.

Yangi metal harbiy qurollarning turini ko'paytirdi, harbiy qurollarning xili va jangovarligi oshdi. Bronzadan yasalgan uy-ro'zg'or buyumlari ham paydo bo'ldi. Ammo bronza mehnat qurollari ishlab chiqarish uchun nodir va kamchil metal bo'lib qolaveradi. U mehnat qurollari yasashda tosh xom ashyosini uzil-kesil siqib chiqara olmadi. Chunki dastlab bronzadan munchoqlar, uzuklar, to'g'nag'ichlar yasalgan. Ular asosan ziynat buyumlari edi. Bu davrda tosh qurollar ham ko'plab ishlatilgan. Tosh parrakchalardan keng foydalanilgan.

Ammo bronzaning toshga nisbatan ustunlik tomonlari, ya'ni uning juda tez turli shaklga keltirilishi, turli ishlarda foydalanish mumkinligi, ko'p uchraydigan keskir va qattiq tosh qurollarni kamyobligi, mo'rtligi va tez sinishi kabi xususiyatga ega bo'lgan (bronza) metal siqib chiqara olmagan. Bu davrda bronzadan asosan turli bezaklar, uy-ro'zg'or va xo'jalik buyumlari, harbiy qurol-aslahalar va mehnat qurollari yasaydigan maxsus temirchilik, chilangarlik va zargarlik ustaxonalari vujudga keldi. Hunarmandchilikning ixtisoslashuvi bilan mintaqalararo ayirboshlash kuchaydi. Kishilik jamiyati tarixida birinchi marta

muntazam mol ayirboshlash imkoniyati bevosita dehqonchilik va chorvachilikning bir-biridan ajralishi va hunarmandchilikning paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

Bronza davri ho'jaliklari ho'jalik va ijtimoiy taraqqiyot darajalari bilan bir-biridan farq qilmasa-da, sopol buyumlarining xili, qabrlar qurilishi jihatidan bir-biridan farqlanadi.

Yevropadagi ibtidoiy davr qo'rg'onlarining deyarli hammasidan bo'yalgan va bo'yalmagan skletlar topilgan. Skletlar yerda yonboshlab, oyoqlari bukilgan holatda yotishadi. Bu odat keng yoyilgan. Hatto Sharq, Markaziy Osiyo hududlarida ibtidoiy qabilalar tug'ilguncha odam ona qornida qanday holatda bo'lsa, o'lganidan keyin yer bag'rida shu taxlitda yotadi deb o'ylaganlar. Arxeologlar tomonidan murdani bo'yab, bukchaytirib ko'mishning 3 davri ajratib o'rganilgan⁵:

Yog'ochband-yog'och qabr, Shimoliy Yevropada ko'plab tarqalgan. Go'rlarning ichiga murdalar yog'och tobutda qo'yilgan. Shuning uchun ham bu qabrlar yog'ochband qabrlar deb ataladi. Yog'ochband davri miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalariga to'g'ri keladi. Bu davrda dastali, teshikli boltalar keng tarqalgan. Dastlab ular Sharq mamlakatlaridagi yodgorliklardan topilgan. Yog'ochband davrida metallurgiya va chorvachilikning, rivojlanishi boyliklar to'planishiga va harbiy to'qnashuvlarning kuchayishiga olib keladi. Jamiyatda moddiy boyliklarning ayrim kishilar qo'lida to'planishi jarayoni boshlanadi. Bronza davriga oid bo'lgan qo'rg'onsiz qabrlar ham ko'p uchraydi. Unda murdalar kuydirilgan. Bunday holat G'arbiy Yevropada so'nggi bronza davri uchun xarakterlidir. Bronza (Jez) davri mozor-qo'rg'onlari o'rganilishi orqali bu davr haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lindi.

Bu davr mozorlaridan "bo'yalgan va bukchaytirilgan" skletlar ko'plab topilgan. Bu davrda kishilar murdalarga har xil rangdagi (ko'proq qizil, och qizil) tabiiy bo'yoqlar sepishgan. Qizil va och qizil rang - jon, tirilish, qon ramzi hisoblangan. "Bukchaytirilgan skletlar" - murdalarni yonboshlab, oyoqlari bukilgan holatda ko'milishi, odamning dunyoga kelishi, ibtido va intiho haqidagi

⁵ Мартынов А.И. Археология. М. "Высшая школа", 2006.

tasavvurlarning inikosi sifatida, ona qornida va yer bag'rida bir holatda bo'lishini aks etirilishidir.

Yevropada bronza davri chorvador qabilalari o'ziga xos katta birliklarni tashkil etadi. Sopol buyumlarning shakli va naqshlari o'z birliklarga xos bo'lib, ular bir-birlaridan farq qilgan.

Masalan, Janubiy Shvetsiya, Daniya, Germaniya, Polsha, Chexiya, Fransiya, Venetsiya, hududlarida, hattoki, MDH davlatlari territoriyalarida chilvir naqshli sopol buyumlar keng tarqalgan. Angliya, Fransiya, Ispaniya, G'arbiy Germaniya hududlarida esa oddiy, o'ziga xos shakldagi sopol buyumlar tarqalgan. Yer yuzining ko'plab hududlaridan bronza (jez) davri yodgor-liklari topilgan. Arxeologlar ijtimoiy-iqtisodiy va maishiy munosabatlarni yodgorliklardan topilgan moddiy topilmalarni o'rganish orqali tiklab, bronza davri kishilari hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Sharqiy O'rta yer dengizi bo'ylarida, xususan, Falastinda bronza davrida shahar tipi markazlari paydo bo'lgan hunarmandchilik va mustahkamlangan manzillarning shakllanishi bilan ilk bronza davrida kulolchilik charxi paydo bo'ladi. Ushlagichli cho'zinchoq ko'zalar va turli shakldagi idishlar bronza davrida keng tarqaladi.

Bronza davri manzillari ko'pincha mudofaa devorlari, bilan o'ralgan, to'g'ri burchakli binolardan iborat bo'lgan. Bu davr shahar xarobalarining o'rni 2-4ga yetadi va buyumlarning joylanishi, qurilishi shakli o'ziga xos reja asosida bo'lgan.

Miloddan avvalgi 3-2 ming yilliklarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o'zgaradi. Bu davrga oid bo'lgan Iordan vohasidagi Xazor xarobasi 50 gani tashkil etadi. U poytaxt, ya'ni markaz vazifasini o'tagan. Xarobada ibodatxona qoldig'i va zadagon kishilarning uylari qoldiqlari topilgan. Ilk sinfiy munosabatlar mavjud bo'lganligini bildiruvchi topilmalar - yuqori tabaqa, oziq-ovqat omborlari o'rganilgan.

Miloddan avvalgi III-II ming yilliklarga oid makonlardan qadimgi sharq qurollari, qadimgi Ossuriya qilichlari kabi moddiy topilmalar topilgan. Kavkazortida Maykop, Trialeti kabi mozor qo'rg'onlar o'rganilgan. Bronza davrida ibtidoiy jamiyat ho'jalik va madaniy taraqqiyoti yuqori darajada bo'lgan.

Bronza davri urug'chilik jamoasi xarobalari o'rnida dastlabki sinfiy jamiyat vujudga kelganligini ko'rsatuvchi dalillar arxeologlar tomonidan aniqlangan. Bronza davrida mulkiy tabaqalanish jarayoni natijasida ibtidoiy jamoa tuzumidan quldorlik tuzumiga o'tish ro'y beradi. Bu jarayonlarni o'rganishda turli hududlarda topilgan bronza davri arxeologik manbalari katta ahamiyatga egadir.

Bronza davrida baliqchilarning chuqurcha va bo'rtirma kungurador naqshli sopol idishlar rasm bo'lgan makonlar keng yoyilgan Estoniya bilan Latviyada Fatyanovo qabristonlariga uxshagan qabristonlar bor. Bu ulkalardagi qabristonlarda silliqlangan boltalar va boshqa tosh qurollar uchraydi.

Fatyanovo va Baltika buyidagi toshdan yasalgan jang boltalari ravon bukilib kelgan shakliga qarab qayiqsimon boltalar deb ataladi. Janubiy Shvetsiyadagi chorvador qabilalarning mazkur qabristonlarga mos qabristonlaridan topilgan boltalarga nisbatan ham usha termin qollaniladi, bu qabristonlardagi sopol idishlar chilvir iz naqshlidir.

Bu termin bilan ataladigan boltalar ancha xilma-xildir, ularning o'rta rus xili Baltika bo'yi va Shvedlarnikidan farq qiladi. Ularning o'rtasi kengligi jihatidan bir-biriga uxshaydi, bu esa texnika talabidir. Boltalarning ko'z qo'yilgan o'rta qismi qalinroq qilinmaganda murt bo'lar va dastlabki zarbdayoq sinib ketardi. Shunday bo'lsa ham ayrim arxeologlar qayiqsimon boltalarni hamma yerda bitta-markazdan tarqalgan odamlar tomonidan tarqatilgan degan fikrda bo'lgan. Nemis arxeologlari shu munosabat bilan, bronza davrida Yo'qori Volgaga ko'chib borgan fantastik qadimgi nemislarning ekspansiyasi to'g'risida gapirgan edilar. Bunday boltalarning turli yerlarda texnologik qonuniyatlar asosida paydo bulishi va xillari bir-birlariga uxshamaganligi bilangina tasdiq qilingan.

Fatyanovaga xos madaniyat yoyilgan asosiy markaz g'arbda bolmay, Sharqda bo'lganligini arxeologiya fani aniqlab berdi. Fatyanovo qabristonlaridan eng boy Balanovo qabristoni Cheboksardan sharqroqda joylashgan. Unda o'ziga xos juda kop va xilma-xil bronza yaroqlar, zeb-ziynat buyumlar va tosh buyumlar ayniqsa xilma-xil va xarakterlidir. Yaroslavl turkumidagi qabristonlar kambag'alroq bo'lsada, ulardan metall buyumlar juda ko'p chiqadi. Moskva

turkumidagi qabristonlar yana ham kambag'alroq bo'lib, ularda metall buyumlar topilgani yoq. Bu vaqtda o'rta Rossiyaning Baltika bo'yi bilan aloqada bo'lganligi ma'lum emas. Ammo Estoniya va Latviya qabristonlari Fatyanova qabristonlaridan ko'ra kambag'alroq bo'lgan.

Estoniya va Latviyada topilgan bazi bronza buyumlar (yarog- aslaha, mehnat qurollari, zeb-ziynat buyumlari) va ilk temir davriga kirib boradigan bazi katta-katta qabristonlar so'nggi bronza davriga mansubdir. Riga yaqinidagi bitta mozor qo'rg'on ichida 300 dan ziyod o'lik ko'milgan bo'lib, bu ehtimol urug'ning xilxonasi bo'lgandir. Bu yerda narsalar kam, ular ichida bir qancha bronza buyumlar, jumladan, ikkita ustara (u vaqtda bronzadan yasalgan, tig'i yoysimon ustalar G'arbiy Yevropada keng tarqalgan), silliqlangan toshboltalar bor. Kostroma oblastining Galich kuli sohilida ajoyib xazina topildi. Undan erkaklarning bronza haykalchalari chiqdi. Haykalchalardan birining boshida uchta yarim oy qo'yilgan (bu oy xudosi bo'lsa kerak), boshqasining boshi har tomonga nur sochib turgan shulaga o'xshash qilib ishlangan (bu quyosh xudosi bo'lsa kerak). Ular yonidan bronzadan yasalgan har xil narsalar kaltakesak, ko'z qo'yilgan oybolta, xanjar, to'g'ri va o'roqsimon pichoqlar, bilaguzuklar va boshqa buyumlar topildi. Ehtimol bu narsalardan diniy marosimlar vaqtida foydalanilgan va ular urug' birlashmasining mulki bo'lgan bo'lishi mumkin. Xazina topilgan joy qazildi, natijada chorburchak yerto'ladan iborat makon ochilib, ichidan chuqurcha va botirma kungurador naqshli sopol idishlar, chaqmoqtosh qurollar chiqdi. Bu yerdan bronzadan yasalgan narsalar (pichoq, spiral va lavhalar) topildi, ularning shakli xazinadan topilgan buyumlarga o'xshaydi. Bu xazina va makonning bir-biri bilan bog'liqligidan dalolat beradi. Shu narsa qiziqki, g'oyat go'zal bronza buyumlarga ega bo'lgan odamlar bu vaqt ham butunlay neolit hayotida yashaganlar, chaqmoqtoshdan keng foydalanganlar. Bu yerdagi xo'jalik qo'lda tutiladigan baliqchilikka asoslangan, chorvachilik va dehqonchilik alomatlari topilmagan.

Seym qabristonidan topilgan buyumlar o'rmon polosada bronza sanoati ravnaq topganligini ko'rsatuvchi namunalardir. Bu qabriston Volga bilan Oka

daryolari qo'shilgan yerga yaqin Seym stansiyasi yonidan topildi. Bu hudud bronza davrida alohida o'rin tutgan bo'lishi ehtimol. Bu yerdan topilgan panshaxasimon bronza nayzalarning nusxalari Vyatka, Kama, Irtish, Ob va Yeniseyda, janubda esa istisno tariqasida Qora dengiz bo'yidagi Borodino xazinasida bor. Seym qabristonidan chaqmoqtoshdan yasalgan o'qlar topildi. Oq nefritdan yasalgan uzuk, materialga qaraganda, Baykal ko'li bo'ylaridan olib kelingan bo'lsa kerak. Bularning hammasi madaniy va iqtisodiy aloqalarning keng taraqqiy qilganligini bildiradi.

Qabristonda topilgan materiallar Volga bo'yi o'rmonzor rayonlari aholisi madaniy jihatdan taraqqiy etganligini ko'rsatadi⁶.

Abashev, mozor qorg'onlaridan topilgan materiallar ham buni tasdiqlaydi (Cheboksari yaqinidagi Abashevda ochilgan mozor qorg'onlar nomi bilan shunday deb atalgan). Bu bizning urmonlarimizdagi eng qadimgi mozor qorg'onlardir. Bu mozor qorg'onlar Volga bo'yida Oka etagining janubrog'ida, Kama etagining shimolrog'ida ko'proq, ammo ular bunga qaraganda kengroq territoriyaga yoyilgan bo'lsa kerak. Bunday mozor qorg'onlar g'arbda Protvada (Okaning yuqori oqimidagi irmoqlardan biri) tekshirilgan, sharq tomonda Oq Idil bo'yidan topilgan qadimgi turar joylar Abashevda singari narsalari bilan mashhurdir. Bu mozor qorg'onlarda o'liklar bukchaytirib ko'milgan. Uy hayvonlari: sigir, qo'y, cho'chqa, ot suyaklari ko'p uchraydi. Ba'zi kiyimlar guldor bronza tangachalar bilan qoplangan.

Topilgan narsalarning soniga qaraganda Sharqiy Yevropaning boshqa o'rmon territoriyasidan farqli o'laroq baliqchilik ikkinchi o'rinda turgan, chorvachilik esa sira bo'lmagan. Hammadan ko'ra ko'proq bulan suyagi uchraydi, demak asosan shu bilan ov qilingan. Bu sergusht hayvon o'sha zamonda ko'p bo'lgan. Undan tashqari, ayiq va bug'u suyaklari ham ko'p uchraydi, umuman yirik hayvonlarga ov qilganlar. Yog'ochdan yasalgan bulan (hammadan ko'proq), ayiq, oqqush, g'oz va urdaklarning badiiy realistik haykalchalari juda ko'p topiladi. Ular totemiy ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa kerak. Dehqonchilik rivojlangan,

⁶ Стейн Ллойд . Археология Месопотамии М., "Наука" 1984

uchiga suyak tepki bog'langan tayoq (yer qazishga, to'g'rirog'i yer yumshatishga mo'ljallangan), bulan shohidan yasalgan motiga bilan birga yorg'uchoqlar topilganligi buni tasdiqlaydi. Ibtidoiy dehqonchilik ko'pincha chorvachilikda yordamchi kasb bo'lsa, bu yerda u ovchilikda yordamchi kasb bo'lgan.

Uralning bazi joylarida ibtidoiy mis konlari ham topildi, ammo ular Sibir mis konlaridan ko'ra kam o'rganilgan.

Sibir arxeologiyasida Minusinsk, yani Yenisey daryosining yuqori oqimi atrofidan topilgan qadimgi yodgorliklar yetakchi o'rin tutadi. Bronza davridan boshlab madaniyat Sibirning boshqa viloyatlaridan ko'ra bunda tezroq taraqqiy qilgan. Yuqori Yeniseyda bir qancha davrlarga oid qadimgi qabrlar bo'lib, ulardan topilgan ajoyib buyumlar ko'pdan beri arxeologlarning diqqatini jalb qilib keladi. Ammo faqat davridagina muntazam ravishda qazishmalar o'tkazilib, ular asosida o'lkaning qadimgi tarixi vujudga keltirildi. Bu yerda bir qancha arxeologik davr ma'lum. Jumladan, uchyasi, yani Afanasev, Andronovo va Korasuk davrlari bronza davriga, boshqalari temir davriga kiradi.

Chorvador qabilalarning ajralishi va Janubiy Rossiyada metall ishlash paydo bo'lgan vaqtda, yani eramizdan avvalgi III ming yillik oxirlarida, Sibir dashtlarida ham sodir bo'ldi.

Sibirning bronza davri metallurgiyasi yaxshiroq o'rganilgan. Andronovo va qorasuq davrlaridagi mis konlari (Ayinusinsk yonida) tekshirilgan. Qiya uyilgan bu konlarning chuqurligi 20 m keladi, ichi qattiq qurum bosgan. Ularning bronza davriga xos usulda qurilganligi aniqlangan. Odamlarning bu davrda hech qayerda qattiq toshlarni maydalaydigan qurollari bo'lmagan (temir bilan polat yo'q vaqt), mis rudasi esa toshdan ham qattiq bo'ladi. Shuning uchun gulxan yoqib ruda qizdirilgan. Natijada ruda darz ketgan, yoriqlarga esa tosh bolg'a bilan yog'och ponalar qazilgan. So'ngra bu ponalarga suv quyilgan, ponaning namdan shishishidagi tabiiy kuch rudani maydalanishiga yordam bergan, rudani tosh to'qmoq bilan parchalagan bo'lsalar kerak. Olov, yog'och va ruda yordamida ana shu usulni hadeb ishlataverish natijasida kon vujudga kelgan. Parchalangan rudani teri qoplarga yog'och kuraklar bilan to'ldirilib, qoplar tashqariga olib chiqilgan.

So'ngra parchalangan ruda tosh bolg'alar yordamida maydalanib yorguchoqqa oxshagan toshlar ustida unga aylantirilgan va nihoyat, eritilgan.

Qadimgi kon yonidan tosh bolg'alar, yog'och kuraklar va ruda to'ldiriladigan teri qoplar topilgan. Mis gulxanlarda eritilgan ruda bilan utin ustma-ust, qavatma-qavat qilib tahlangan. Bunday gulxanlarning diametri 46 m bo'lgan. Erigan mis gulxanlar tagida qazilgan chuqurchaga oqib tushgan. Yengilroq toshqol esa tepada qolgan. Juda kop mis toshqolga aralashib nobud bo'lib ketgan, bunday toshqollar hozir ham qadimgi konlar atrofida taram bo'lib o'yilib yotibdi. Songgi vaqtlarda Oltoyning janubi-garbida qalay eritilgan bir talay joylar tekshirildi.

Bronza davrida Kavkazdagi patriarxal chorvador urug'lar ichida mulkiy tabaqalanish Sharqiy Yevropa yoki Sibirdagiga qaraganda ancha oldin boshlangan. Biz bronza davrining boshidayoq mulkiy tabaqalanish protsessini ko'ramiz, shu bilan birga bu protsess Zakavkazedagina emas, balki Shimoliy Kavkazda ham bo'lgan.

Maykop mozor qorg'onlari buning yorqin timsolidir. Maykopdagidek bronza davriga oid boy mozor qo'rg'onlar Yevropaning hech yerida yoq, faqat egey dunyosi bundan mustasnodir. Kuban daryosi irmogi Belaya bo'yida Maykop shahrida qazilgan mozor qorg'onning balandligi 11 m keladi. Unda yogoch bilan ishlangan uchta janubiy, shimoliy, g'arbiy va shimoli-sharqiy xonalarga bo'lingan qabr borligi ma'lum bo'ldi. Qabr xonalarining har qaysisiga bittadan o'lik qo'yilgan. Oyoqlari buklab komilgan o'liklar qizil rangga bo'yalgan. Janubiy xona eng kattasi va eng muhimidir⁷.

Eramizdan avvalgi II ming yillikka oid Zakavkaze qabrlari podachilik turmushi bo'lganligidan guvohlik beradi. Boshqa joylarga qaraganda bu yerda uy hayvonlari (ayniqsa qoy)ning suyaklari, hatto butun-butun skeletlar ko'proq uchraydi. Bronza buyumlarning ko'p bo'lganligi metall ishlash nisbatan ancha taraqqiy qilganligini ko'rsatadi. Turar joylarning yaxshi o'rganilmaganligi xo'jalik va ijtimoiy tuzumni o'rganishni qiyinlashtiradi. Eneolit davridayoq ko'p mamlakatlarda keng tarqalgan rangli sopol idishlar Zakavkazening kop joyida

⁷Археология зарубежной Азии. "Высшая школа" М., 1986.

bronza davrida rasm bo'lgan. Idishlarga qoramtir va qora bo'yoq bilan geometrik shakldagi naqshlar, bazan esa odam va hayvon suratlari solingan. Bu san'at bu yerda mahalliy asosda rivoj topgan bo'lsa kerak, idishlar eneolit idishlariga o'xshamaydi, shakl va hajmlariga qaraganda ular dehqonchilik mahsulotlarini solib quyish uchun emas, balki chorva mahsulotlarini solib quyish uchun ishlatilgan bo'lsa kerak. Ozarbayjonda qizil Vank eramizdan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmiga oid qabristondan topilgan rangdor sopol buyumlar juda mashhur va go'zal naqshlar bilan qoplangandir. Naqshlar Zakavkazening turli hududlarida har xil bo'lgan, bu hol ularning shu joyda mustaqil rivojlanganligini tasdiqlaydi hamda qabilalarning bir-birlari bilan aloqalari bo'lmaganligini ko'rsatadi, bu narsa tog'lik mamlakatlarga xos xususiyatdir.

Bronza davri metallurgiya taraqqiyotining to'rtinchi-mis asosida metallarga quyish asosida ishlov berish usulidan foydalanishning boshlanishiga to'g'ri keladi. Yuqori haroratdagi issiqlikni saqlaydigan moslamalar (xumdon, metall eritish o'choqlari) va kulolchilik charxidan foydalanishning boshlanishi hunarmandchilik ishlab chiqarishi sohasida muhim ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Hunarmandchilik ishlab chiqarishining ixtisoslashuvi chuqurlashib, savdo munosabatlari rivojlanadi. Jamiyatda mulkiy tabaqalanish va ijtimoiy tengsizlik kuchayadi. Dehqonchilik markazlari o'rnida shakllangan ilk shahar markazlari har tomonlama rivojlanib, ularning savdo-iqtisodiy, madaniy-g'oyaviy va ma'muriy markaz sifatidagi ahamiyati ortib boradi. Xalqaro savdo va madaniy aloqalar rivojlanib, texnologiya yangiliklari almashinuvi jarayoni tezlashadi. Bunday jarayonlar bronza davri ilk sivilizatsiyalari taraqqiyotining muhim omillari hisoblangan.

Bunday muhim ijobiy o'zgarishlar Yevrosiyoning tabiiy iqlim sharoiti qulay bo'lgan janubiy o'lkalarida nisbatan ilgariroq sodir bo'ladi. Markaziy Osiyoning janubiy o'lkalari ham ilk sivilizatsiya markazlari madaniy ta'sirida mazkur jarayonlarga xos taraqqiyot yo'lidan borgan bo'lsa, shimoliy hududlari ancha orqada qolib ketgan. Shimoliy o'lkalarda ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligiga asoslangan madaniyatlar vujudga keladi.

Shimoliy hududlarida neolit davri o'zlashtiruvchi xo'jalik shaklidagi madaniy an'analarning davomida bronza davrining o'rtalariga kelib, ishlab chiqaruvchi xo'jalikning shakllanish jarayoni kechadi.

6.5. Janubi-g'arbiy Turkmanistonning bronza davri arxeologiyasi.

JTAKE - Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi 1945 -yil Turkmaniston FA Prezidiumi qoshida professor M,Ye.Masson boshchiligida tashkil qilingan. JTAKE boshchiligida Janubiy Turkmanistonda tosh davriga ta'luqli Jabal makoni, neolit davriga ta'luqli Joytun madaniyati, eneolit davriga ta'luqli Anov, Nomozgohtepa, jez davriga Oltintepa, va ilk temir davriga Yoztepa va ayniqsa Parfiya madaniyati bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borilishi natijasida dastlabki insonlar yashagan qishloqlar, shahar makonlari va ularning hayot tarzi o'rganildi.

Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi (JTAKE) va O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU) "O'rta Osiyo arxeologiya" kafedrasida ilmiy jamoasi 30 yildan ortiq davr mobaynida vohaning antik davri markazi bo'lgan Govurqal'a va Erkqal'a yodgorliklarida keng ko'lamdagi arxeologik qazishmalarni olib boradilar. Mazkur tadqiqot ishlarida kafedra arxeolog olimlaridan M.E.Masson Z.I.Usmanova, M.I. Filanovich va boshqalarning xizmatlari katta. Mahalliy arxeologlardan D.Durdiev va qadimshunos arxeolog olim G.A. Kosholenkolar ham vohadagi boshqa bir arxeologik yodgorliklarni o'rganishga o'z hissalarini qo'shishgan.

Bu davrga oid manzilgoh va ko'hna shaharlar me'morchiligi Janubiy Turkmanistonda nisbatan ko'proq o'rganilgan. Janubi-g'arbiy Turkmanistonning ilk va rivojlangan bronza davrlari o'tgan asrning 80-yillariga qadar V.M.Masson olib borgan arxeologik tadqiqot ishlari natijalari asosida quyidagi bosqichlar doirasida belgilangan:

t/r	Bronza davri bosqichlari	Arxeologik majmualar	Davri
1	Ilk bronza	Nomozgoh IV	mil.avv. 2900-2400 yy.
2	Rivojlangan	Nomozgoh V	mil.avv. 2300-1900 yy.

3	So'nggi	Nomozgoh VI	mil.avv. 1800-1400 yy.
---	---------	-------------	------------------------

Nomozgoh V bosqichi madaniy qatlamlari 2,5 metrni tashkil etadi. Sopol buyumlari kulolchilik charxida ishlanib, sirtiga qizg'ish-oq, sariq yoki qisman pushti rangdagi angob berib ishlangan sopol idishlar paydo bo'ladi. Bu bosqichda Nomozgoh IV davri naqshli sopollari asta-sekin muomaladan chiqib boradi.

Bronza davrida so'nggi eneolitdagi kabi manzilgohlarning uch xil shakllari saqlanib qolgan. Bu davrda uchinchi guruhdagi yirik manzilgohlarning maydon xiyla kengayadi. Ulardan 30-70 *ga.* maydoni egallagan ilk shahar markazlari, 10 *ga.* maydonni egallagan o'rtacha va 0,25-1 *ga.* maydonni egallagan qishloqlardan iborat yodgorliklar ajralib turadi. Maydoni yirik bo'lgan manzilgohlar sirasiga Oltintepa, Nomozgohtepa, Dushakdagi Ulug'tepa, Kaushutdagi Qoratepa va Tajang va Murg'ob daryolari oralig'idagi Xapavuztepa yodgorliklarini kiritish mumkin.

Qishloq turidagi yodgorliklardan Ashg'abad yaqinidagi Oqtepa, Shortepa, Anov yodgorligining janubiy tepaligi va boshqalar shu kabi yodgorliklari bronza davri dehqon jamoalari hayotidan darak beradi.

Markaziy manzilgohlardan Nomozgohtepa va Oltintepa kabi yodgorliklar nisbatan yaxshi o'rganilgan. Nomozgohtepaning umumiy maydoni 70 *ga* ni tashkil etadi. Yodgorlikda qazishma ishlari qisman olib borilgan. Ilk bosqichga oid madaniy qatlamining qalinligi joylarida 4-7 *m.* ni tashkil etgan. Qazishmalar davomida tor ko'chalar bilan ajratilgan ko'p xonali uylarning o'rni va kulolchilik xumdonlarining o'rni ochilgan.

Marv O'rta Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan biri. Marv Avestoda Mouru deb tilga olingan. Marvning qoldiqlari 5 qal'a xarobalaridan iborat. Quyidagilar: Erkqal'a, Govurqal'a, Sulton qal'a, Abdullaxon qal'a, Bayramalixon qal'a. Marv haqidagi ma'lumotlarni dastlab arxeologik ma'lumotlarga e'tibor qaratamiz. Dastlab, XIX asrning 80-yillaridan V.A.Jukovskiy, 1946-yildan M.E.Masson rahbarligidagi Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi, keyingi yillarda Ashxobod, Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburgdan kelgan

arxeologlar guruhi qazishma ishlarini olib borgan. Maydoni 12 ga bo'lgan Marvning eng qadimgi qismi Erk qal'a miloddan avvalgi 1-ming -yillikning 1-choragidan mavjud bo'lgan. Marvning ravnaq topgan davri Parfiya va ilk sosoniylar miloddan avvalgi II milodiy III asrga to'g'ri keladi. Bu davrda Marv Govurqal'a va Erk qal'a hududlaridan iborat bo'lib, Erk qal'a Marvning arkiga aylangan. Shahar va uning atrofi (60 km²) mudofaa devori bilan o'rab olingan.

Metallga ishlov beradigan texnika po'lat ishlab chiqarish texnologiyasi birinchi bo'lib Axsikent, Pop, Marvda paydo bo'lgan, keyin Damashqqa, so'ngra esa, g'arbga yetib borgan. Yunon tarixchisi Plutarx tomonidan I asrda shu qadar maqtalgan toblangan po'lat ishlab chiqariladigan haqiqiy sanoat ustaxonalari Marvda bo'lgan. Yahudiy hunarmandlari Misrdan Marvga shishadamgarlik texnologiyalarini olib kelganlar.

Murg'ob vohasining bronza davri arxeologiyasi. Afg'onistondagi Propamis tog'idan boshlangan Murg'ob daryosi hozirgi paytda markaziy Qoraqumgacha yetib boradi. Murg'ob vohasining quyi oqimi hududlari sug'orma dehqonchilik uchun juda qulay yerlar bo'lganligi sababli qo'shni Geoksur vohasidan eneolit davrining oxirlarida bir guruh aholi ko'chib kelib o'zlashtirgan. Bronza davrida esa boshqa bir guruh aholi vohaga ko'chib kelgan.

O'lkada bronza davrida vujudga kelgan ilk sivilizatsiya shaklidagi o'troq dehqonchilik madaniyati ildizlarini V.M.Masson Janubi-g'arbiy Turkmaniston hududlari bilan bog'laydi. Tadqiqotchi olim ob-havoning quruqlashishi natijasida bu yerda yuksak darajada rivojlangan protoshahar turidagi Oltintepa, Nomozgoh madaniyat markazlari inqirozga uchragandan so'ng mil. avv. II ming yillikning boshlarida (mil. avv. 1800) aholi o'z joylarini tashlab Marg'iyona va Baqtriya hududlariga ko'chib kelib joylashgan, degan xulosaga kelgan.

Murg'ob vohasidagi arxeologik yodgorliklarni stratigrafik jihatdan chuqur o'rgangan V.I.Sarianidi esa Janubiy Anatoliya va Shimoliy Suriya hududlari madaniyatlari bilan o'xshashligi to'g'risidagi fikrlarni ilgar surgan. Uning fikrlariga ko'ra mil. avv. IV ming yillikning o'rtalaridan Sharqiy O'rta yer dengizi hududidan Eron tog'lariga qadar bo'lgan keng hududlarda qurg'oqchil iqlim

sharoiti qaror topib, yog'ingarchilik miqdori keskin pasayib ketgan. Bunday ekologik sharoit Anatoliya va Shimoliy Suriyaning aholisi hayotiga jiddiy ta'sir etgan. Iqlimning buzilishi Oronto vohasida taraqqiy etgan protoshahar madaniyatiga o'zining salbiy ta'sir ko'rsatib, u yerda yashagan aholi sharqiy o'lkalarga ko'chishga majbur bo'lishgan. Yangi yerlarni ishlash harakatida aholisining asosiy qismi Murg'ob vohasiga, bir qismi esa Surxon va Balxob vohalariga kelib joylashgan. Qolgan qismi sharqqa tomon harakatini davom ettirib, Sharqiy Turkiston hududlariga qadar borib yetishadi.

6.6.O'zbekistonning bronza davri lokal madaniyatlar.

Baqtriyaning so'nggi bronza davri arxeologiyasi. Ilk yozma manbalarda Baxdi (Avesto), Baqtrish (qadimgi fors), Baqtriya (yunon-rim) nomlari bilan keltirilgan qadimiy o'lkada, uning hududi bronza davrida Surxon vohasi va Shimoliy Afg'oniston doirasida chegaralangan. Bu o'lkada ilk o'troq dehqonchilik madaniyati so'nggi bronza davrida qaror topadi. Dastlabki topib aniqlangan yodgorliklarga nisbatan Janubiy Baqtriyada - Dashtli, Shimoliy Baqtriyada - Sopolli, madaniyati nomlari bilan yuritiladi.

Janubiy Baqtriya. Davlatobod, Dashli, Faruxobod va Nichkin dehqonchilik mikrovohalarida so'nggi bronza davriga oid arxeologik yodgorliklar va qabrlar aniqlangan. Davlatobod mikrovohasida Tikar 1,2,3 Tikar 4 (Girdaytepa) yodgorliklari aniqlangan.Ularning maydoni 0,4-1,0 ga. ni tashkil etadi. Tikar 4 yodgorligi (100x95 m.) mikrorel'efiga ko'ra mudofaa devori va to'rt burchagida burjlari mavjud. Mazkur hududda arxeologik tadqiqot ishlari olib borgan arxeolog olim V.I.Sarianidi janubi-g'arbiy Afg'onistonning so'nggi bronza davrini Tikar va Girday bosqichlarida bo'lganligini e'tirof etgan.

Dashli madaniyati bilan bir davrda Shimoliy Baqtriyada mavjud bo'lgan Sopolli madaniyati ga oid dastlabki o'troq dehqon jamoasi qishlog'i Ko'hitang tog'ning janubi-g'arbiy etaklarida (hozirgi Muzrobod cho'li) Ulanbuloqsoyning so'l yoqasida joylashgan shu nomdagi yodgorlik o'rnida shakllanib, taraqqiyotining so'nggi bosqichlariga qadar Surxon vohasining sharqiga tomon yoyilib boradi. Mazkur madaniyatga oid arxeologik yodgorliklari A.A.Asqarov,

B.Abdullayev, T.Sh.Shirinov, Sh.B. Shaydullaev, N.A.Avanesova kabi mutaxassislar tomonidan o'rganilgan va hozirda ham davom ettirilmoqda. Shimoliy Baqtriyaning so'nggi bronza davriga oid o'rganilgan arxeologik yodgorliklar va ulardan aniqlangan ashyoviy manbalarga asosan Sopolli madaniyati shartli ravishda sopolli, jarqo'ton, ko'zali, molali, bo'ston kabi bosqichlarga ajratilgan.

Sopolli bosqichi. Bu bosqichga oid Ulanbuloqsoy mikrovohasidagi shu nomdagi yodgorlik yaxshi o'rganilgan. 4 ga. maydoni egallagan manzilgohning madaniy qatlami 2,5 metrgacha boradi. Qazish jarayonida 3 ta qurilish davri aniqlangan. Manzilgoh labirint shaklidagi uch qator mudofaa devori bilan o'rab olingan.

Jarqo'ton bosqichi. Bu bosqich Sherobod vohasidagi Bo'stonsoyning chap tomonida joylashgan shu nomdagi yodgorlik taraqqiyoti bilan bog'liq. Manzilgohda hayot sopollining oxirgi bosqichida shakllanadi. Yodgorlik tarqoq joylashgan kichik tepaliklardan iborat manzilgoh va soyning boshqa qismidagi qabristondan tashkil topgan.

Mudofaalagan qal'a va unga tutash joylashgan aholi yashash qismlaridan iborat manzilgoh hozirda suvsizlanib qolgan Bo'stonsoy o'zanining qo'ltiq hosil qilgan qismida joylashgan. Unda arxeologiya qazishma ishlari 1973-1975 yillarda A.A.Asqarov, B.Abdullayev, T.Sh.Shirinov, U.V.Raxmonov Sh.Sh.Shaydullaevlar tomonidan amalga oshirilgan hamda hozirgi paytda nemis va fransuz mutaxassislari bilan hamkorlikda arxeolog tadqiqot ishlari davom ettirilmoqda.

Yodgorlik ark shahriston va manzilgoh tashqarisidagi 3000 yaqin qabrlar o'rin olgan qabriston qismlaridan tashkil topgan. Yodgorligining umumiy maydoni 90 gektardan iborat bo'lib, uning 20 gektarini qabriston tashkil etadi. Manzilgoh qismida joylashgan tepaliklarning madaniy qatlamlari 3 metrdan ortiqroq.

Zamonbobo madaniyati. Zarafshonning quyi oqimida hududlarida mil. avv. III ming yillik oxiri - II ming yillik birinchi yarmida Zamonbobo madaniyati faoliyat yuritgan. Buxoro vohasining shimoli-g'arbiy qismida joylashgan Zamonbobo ko'li bo'yida 1950 yili Ya.G'.G'ulomov bronza davriga oid

qabristonlarni, keyinchalik A.A.Asqarov esa ularga yaqin joyda joylashgan Gujaylining qurib qolgan o'zani bo'yida zomonbobo manzilgohni o'rganganlar. Zomonbobo ko'lidan g'arbroqda soy bo'yida ikkinchi manzilgoh joylashgan.

Tozabog'yob madaniyati. (mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi) Amudaryoning Oqchadaryo deltasi hududida yashovchi ovchi va baliqchi qabilalar sodda dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanuvsi jamolarga almashinadi. S.P. Tolstov tomonidan 1953 yili Anka 5, 1954-57 yillarda Ko'kcha 3 qablari va yodgorligida olib borilgan arxeologik qazish ishlari natijasida Tozobog'yob madaniyati to'g'risida to'laroq tasavvur hosil qilish imkoniyati vududga keldi.

Mavzuga oid atamalar

Chekan-bu qurol bir tomoni tumtoq bolg'a bo'lib, ikkinchi tomoni nayzasimon bo'lib, dushmanni yoki o'ljani bosh suyagini urib sindirish uhun mo'ljallangan. Sibirda bunga uxshash qurol juda ko'p. Ba'zi skletlarning suyaklari o'sha chekan bilan urib teshilgan.

Mavzuga oid savol va topshiriqlar:

1. Zagrosdagi ilk qishloqlarning paydo bo'lishi?
2. Elkantepa, Sho'rtepa, Toychanoqtepa va Tekkemtepa haqida bilasizmi?
3. Bronza davrida Turkmanistonda dehqonchilik sug'orish-irrigatsiyaga asoslangan manzilgohlar?

Mavzuga oid test

1. Tashqi devorda har 15-18 metrda xom g'ishtdan ishlangan har bir tomonida 6 tadan to'rt burchakli burjlar bor?

A Kellelitepada B Nomozgohtepa yodgorligida S Ubeyda manzilgohida

2. Hindistonda ilk shahar hisoblangan may.9 ga. manzilgohi aniq reja asosida qurilgan qayer?

A Kalibangan B Erlitou S Moxenjodaro D Haq xazinasi

3. Xitoyda arxeologik qazishmalar jarayonida maxsus tagkursi ustida bino qilingan yirik hajmdagi saroy?

A Erlitou B Kalibangan S Moxenjodaro D Haq xazinasi

4. Elamda davlatchilik shakllanishi sodir bo'ladi.

A Mil. av. III ming yillikning ikkinchi yarmi

B Mil. av. II ming yillik ikkinchi yarmi

S Mil. av. IV ming yillikning ikkinchi yarmi

5. Ikki yarusli xumdon topib o'rganilgan. Idishlarning naqshlari qora va qizil ranglarda bo'yalgan. Xassun madaniyatiga oid idishlar kosa va ko'zalari qaysi yodgorligidan topilgan?

A Yarimtepa B Kalibangan S Moxenjodaro D Haq xazinasi

7-mavzu: Temir davri arxeologiyasi

Reja:

7.1. Temir davrining xususiyatlari.


7.2. Janubiy Turkmanistonning temir davri arxeologiyasi.

7.3. Hindistonda temir davrida metalurgiyaning rivojlanishi.

7.4. O'zbekistonning ilk temir davri arxeologiyasi.

Tayanch iboralar: *Ilk temi*, Qadimgi fors yozuvlari, Avesto, Kopetdog' yonbag'irlari, Seraxs va Murg'ob vohalari, Janubiy Tojikiston, Qashqadaryo, Zarafshon vohalari, Farg'ona vodiysi, Sopol idishlar, kulolchilik charxi.

7.1. Temir davrining xususiyatlari.



Kristian Yurgensen Tomsen (1788-1865)

“Temir davri” degan tushuncha arxeologiya faniga fransuz olimi Kristian Yurgensen Tomsen tomonidan XIX asrda kiritilgan. Taxminan mil. avv. II ming

yillikning oxirgi choragida Atlatikadan Tinch okeanigacha bo'lgan hududlarda tarqalgan bronza davrining ko'pgina madaniyatlari inqirozga uchrashi yoki shaklini o'zgartirish holati kuzatiladi.

Temir davrining xususiyatlari:

- Temir davri m.avv. I ming yillikdan milodiy I asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.
- **Kashfiyotlar:** Irrigatsiya texnikasi, dehqonchilikning rivojlanishi, o'troq aholi sonining oshib borishi
- **Yirik texnik kashfiyotlar:** Temirchilik ustaxonasi, qo'l tegirmoni, to'quv dastgohi, arxitektura elementlari
- Dehqonchilik - ilk temir davrida ishlab chiqarishning vujudga kelgan birinchi tarmog'i bo'lib, temir metalini ishlatilishi unda alohida o'rin tutgan.
- Ishlab chiqarishning ikkinchi tarmog'i hunarmandchilik bo'lib, ilk temir davrida u dehqonchilikdan ajralib, alohida ixtisoslikka aylanadi. Hunarmandchilik asosan temirchilik kasbidan boshlanadi. Neolit davrining eng katta yutuqlaridan biri kulolchilikning kashf etilishi edi. Ammo bu xo'jalik ixtirosi dehqonchilik doirasida rivojlanadi.

Temir davri ijtimoiy munosabatlari:

- **Temirdan foydalanish:** 1.Ibtidoiy jamoani inqirozga keltirdi.
2.Jamiyatni tabaqalanishini tezlashtirdi.
- **Temirning qo'llanishi:**
- Dehqonchilikni chorvachilikdan to'liq ajratib yubordi.
- Xususiy mulkni mustahkamladi;
- Boylar sinfini shakllanishiga olib keldi;
- Sinfy jamiyatni keltirib chiqardi;
- Ilk shaharsozlik xususiyatlaridan biri bozor va mahsulot almashinuvani keltirib chiqardi.

Bu jarayon Markaziy Osiyoning janubiy hududlarida (Baqtriya, Marg'iyona) ham namayon bo'ladi. Mazkur hududlar yuksak darajada rivojlangan ilk shahar turidagi madaniyatning inqirozi va uning o'rnida yangi madaniyatning qaror topish jarayoni kechadi.

Yangi madaniyat ayrim belgilari bilan so'nggi bronza davri an'alaridan farq qilgan. Birinchidan, yirik ilk shahar turidagi manzilgohlar inqirozga uchrab, ularning o'rnida kichik dehqonchilik qishloqlari paydo bo'ladi. Ikkinchidan, kulolchilikda sopol idishlarni qo'lda yasab, sirtiga geometrik naqshlar berish an'anasi qayta jonlanadi. Uchinchidan esa, yuksak darajada rivojlangan torevtika, gliptika, badiiy san'at yo'qoladi. To'rtinchidan marhumlarni qabrlarda dafn etish an'anasi yo'qoladi.

Markaziy Osiyoning bu davrdagi tarixiy-madaniy viloyatlari, ilk davlat birlashmalari, aholining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, diniy qarashlari to'g'risidagi qisqacha ma'lumotlar "Avesto", Eron ahamoniylarning mixxat yozuvlari va yunon-rim tarixchilarining asarlarida keltirib o'tilgan.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da Markaziy Osiyodagi qadimgi tarixiy viloyatlar: Ariyonam Vayjo yoki Arieysheyona, Mouru, Suguda, Baxdi, Xvarizam hamda qadimgi ko'chmanchi chorvador qabilalari turlar haqidagi qisqacha ma'lumotlar mavjud.

Qadimgi fors yozuvlarida ushbu viloyatlar Margush, Suguda, Baqtrish, Xvarazmish, Parsava hamda yunon-rim mualliflarining asarlarida esa Marg'iyona, So'g'diyona, Baqtriyona, Xorasmiya, Parfiyona nomlari bilan keltirilgan. Qadimgi fors yozuvlarida Markaziy Osiyoning shimolida yashovchi ko'chmanchi chorvador qabilalar saklar, yunon tarixchilarining asarlarida "skiflar" va "massagetlar" nomlari bilan tilga olingan. Shimoli-sharqiy hududdagi dahqonchilik vohalari: Ustrushona, Choch va Farg'ona vodiysi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar antik va ilk o'rta asrlarga oid Xitoy manbalarida uchraydi.

7.2. Janubiy Turkmanistonning temir davri arxeologiyasi

O'rta Osiyoning so'nggi bronza davri oxirlarida O'rta Osiyoning janubiy o'lkalari (Baqtriya, Marg'iyoni) o'zgacha ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Yuksak darajada rivojlangan protoshahar turidagi madaniyat markazlari inqiroz jarayoni, ya'ni protoshahar turidagi manzilgohlar tashlab ketilishi kulolchilikda qo'lda yasalib, sirtiga geometrik naqshlar berish an'anasining qayta jonlanishi, haykaltaroshlik, torevtika san'atining yo'qolishi

kabilar sodir bo'ladi. Bu jarayon o'tgan asr davr tadqiqotlarda O'rta Osiyodan shimolda so'nggi bronza davrida hayot kechirgan oriy qabilalariga tegishli Andronovo madaniyati sohiblarining janubga siljigani natijasi ekanligi arxeolog olimlar tomonidan ma'qullanmoqda. Bronza davri yakunlanishi davomida avval keyingi davr O'rta Osiyo hududidan topilgan dastlabki temir buyumlar mil. av. I ming yillikning boshlari (Anov-IX-VIII, Daratepa-mil. av. VII-VI, Quvisoy-mil. av. VII-VI, Dalvarzintepa - mil. av. VIII-VII) bilan sanaladi. Lekin ularning keng tarqalishi mil. av. VI-V asrlarga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham O'rta Osiyoda ilk temir davrining boshlanishi sanash to'g'risida ilmiy munozaralar mavjud. Ba'zi olimlar O'rta Osiyoda ilk temir davri Eron va Hindistonga zamondosh bo'lib, mil. av. X-VIII asrlarda boshlangan deb hisoblaydilar. O'rta Osiyo hududidan topilgan barcha temir buyumlarning sanalaridan xulosa qilib, bu yerda ilk temir davrini mil. av. VII-IV asrlar deb hisoblash maqsadga muvofiq. Mil. av. X-VIII asrlarni esa bronza davridan ilk temir asriga o'tish davri, deb hisoblash mumkin.

Umuman, mil. av. I ming yillikning boshlarida O'rta Osiyo hududida yashagan qadimgi dehqon, dehqon-chorvodor va chorvodor qabilalari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida qator o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'troq dehqonchilik vohalarida sug'orish tizimi yanada takomillashib, dehqonlar tomonidan yangi yerlar o'zlashtirildi. Manzilgohlarning soni ortib, ularning maydoni kengayadi, hamda ichki strukturasi murakkablashib, yirik shaharlar qaror topadi. Shahar va qishloqlarda me'morchilik va hunarmandchilik takomillashadi. Bu esa ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti-dehqonchilikdan hunarmandchilikning ajralib chiqish jarayonini ta'minlaydi. Yirik davlat birlashmalari paydo bo'ladi.

O'rta Osiyoning janubiy hududlari, xususan, Janubiy Turkmaniston (Kopetdog' yonbag'irlari, Seraxs va Murg'ob vohalari) Surxon, Janubiy Tojikiston, Qashqadaryo, Zarafshon vohalari hamda Farg'ona vodiysi hududlarida muhim o'zgarishlar: dehqonchilikning rivojlanishi va yangi dehqonchilik vohalarining o'zlashtirilishi hamda sug'orish tizimining takomillashishi kuzatiladi. Manzilgohlar soni ortib, muhim madaniy-iqtisodiy markazlar paydo bo'ladi.

Qadimgi Choch va Ustrushona hududlarida ham o'zgarishlar bo'ladi. Bu erda aholining o'troqlashuvi va dehqonchilik xo'jaligi shaklining vujudga kelish kuzatiladi.

Dehqonchilik vohalari atrofida, hamda umumiy tavsifi Shimoliy va sharqiy mintaqalarida xo'jalikning muhim shakli-ko'chmanchi chorvachilik paydo bo'ldi. Ko'chmanchi-chorvador qabilalarining moddiy madaniyatiga oid topilmalar Orolbo'yi, Sirdaryoning quyi oqimi Janubiy Tojikiston hududlaridan topib tekshirilgan. Ular o'troq dehqonchilik aholisi bilan doimiy aloqada bo'lganlar. Ular O'rtasidagi aloqalar va o'zaro ta'sir O'rta Osiyoning tarixiy taraqqiyotidagi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Mil. av. I ming yillikning boshlarida O'rta Osiyoning barcha hududlarida yashovchi xalqlar ijtimoiy hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlarning eng muhimi temirdan yasalgan mehnat qurollari, qurol-yarog'lar va zeb-ziynat buyumlarining tarqalishidir.

O'rta Osiyo hududida qaror topgan umumiy va o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turuvchi bir necha dehqonchilik madaniy markazlari aholisining ijtimoiy munosabatlari, diniy tushunchalari, tarixiy viloyatlar, ilk davlat birlashmalari, tabiiy-geografik joylar, alohida joylar va ularning chegaralari bilan bog'liq bo'lgan qisqa ma'lumotlar "Avesto", ahamoniylarning mixsimon yozuvlari va yunon-rim tarixchilarning asarlarida o'z aksini topgan.

O'rta Osiyo hududida ilk temir davri arxeologiyasi yaxshi o'rganilgan hududlardan biri Murg'ob vohasi sanaladi. O'lkadagi dastlabki yodgorliklar (Yozdepa, Aravalidepa, Ko'hnedepa va Uchdepa) 1903 yili amerikalik tadqiqotchi olim R.Pompeli tomonidan aniqlangan bo'lib, 30-yillarda ham tekshirish ishlari olib borilgan. Arxeologik tadqiqot ishlari ikkinchi jahon urushidan so'ng Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi tashkil etilishi bilan faollashib ketadi. O'tgan asrning 50-60 yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli qazishma ishlari olib borilishi bilan tadqiqotlar jadallashib ketadi. Natijada Yozdepa majmuasining ilk temir davri xronologik ustuni ishlab chiqiladi:

Yoz I mil. av. 900-650 yillar

Yoz II mil. av. 650-500 yillar

Yoz III mil. av. 500-350 yillar

Lekin o'tgan asrning oxirlarida Yozdepa yodgorligida amalga oshirilgan radiokarbon tahlili Yoz I davrini mil.av. 1300 bilan belgilagan.

Bu voha Murg'ob daryosidan bosh oladigan anhorlar yoki hosil qilgan deltalari tashkil etgan kichik vohalar yoki xo'jalik tumanlari Toxirboy, Yazdepa, Aravalidepa, Toip va To'g'aloqlardan tashkil topgan bo'lib, ularning har birida 3 tadan 25 tagacha kata-kichik manzilgohlar butun vohada 60 ga yaqin manzilgoh aniqlangan. Yozdepa ular orasidagi nisbatan yirik va markaziy vohani tashkil etadi. Ular arkli nisbatan yirik manzilgohlar, arksiz yirik manzilgohlar va kichik qishloqlar uy- qo'rg'onlar.

Voha aholisining asosiy xo'jalik mashg'uloti sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikni tashkil etgan. Arxeologik tadqiqotlar davomida Marvliklarning asosiy xo'jaligi sug'orma dehqonchilikdan iborat bo'lgan. Yozdepa kichik vohasida Gatioqar (eni 5-8 m, chuqurligi 2-3 metr, uzunligi 55 km) va Aravalidepa kichik vohasida esa Guniyab (5-6 m, chuqurligi 1,5-2 metr, uzunligi 36 km.) kabi hozirda mavjud bo'lgan anhorlar tadqiqotchi olimlarning taxmanlariga ko'ra o'sha davr o'zanlari bilan mos kelar ekan. Ushbu anhorlar atrofida qadimda foydalanilgan ekin maydonlarining o'rni saqlanganligi arxeologik jihatdan ma'lum. Dehqonchilikda boshqoli don va poliz ekinlari ekishgan. Chorvachilik holati qay darajada bo'lganligi to'g'risidagi yetarli va aniq ma'lumotlar kam.

Bu yerdagi Toxirboy I va Churnok manzilgohlaridan temir toshqollari uchraydi. Kulolchilik ishlab chiqarishi bilan bog'liq masalalar yaxshi o'rganilgan. Bu yerdagi ko'pgina manzilgohlardan kulolchilik pechlarining izlari topilgan. Ular ichida Churnokdan topilgan ikkita pech diqqatga sazovardir. Ular qo'ng'iroqsimon shaklga ega bo'lib, olovxonalar va idishlar joylashtiriladigan qismlardan iborat. Uchdepadan esa kulollar mahallasi o'rganilgan, undagi xumdonlar mil. av. V-IV asrlarga oid.

Mil. av. X-VII asrlarga (Yoz I) oid sopol idishlar qo'lda yasalgan. Idishlar sariq angob bilan bo'yalgan, ustidan jigar va qizil bo'yoqlar bilan geometrik naqshlar berilgan. Mil. av. VII-IV asrlarga kelib, idishlarni kulolchilik charxida yasash an'anasi kuchayadi, atrofiga naqshlar solingan idishlar uchramaydi. Marv vohasidagi manzilgohlardan tosh qurollar, yer o'choqlar, zeb-ziynat buyumlari, qurol- aslaha va kamon o'qlarining uchlari ham topib o'rganilgan. Mil. av. IV (Yoz III) kelib vohalarning barcha manzilgohlarda inqirozi kuzatiladi. Sug'orish tizimining murakkablashishi natijasida aholi yangi yerlarni o'zlashtiradi.

Shimoliy Parfiya. Kopetdog' tizmalarining yonbag'irlarida ilk temir avriga oid quyidagi tipdagi manzilgohlar o'rganilgan.

1.Yirik hajmdagi stitadelga ega bo'lgan manzilgohlar. (Yelkantepa, Ulug'depa).2.O'rta hajmdagi stitadelga ega bo'lmagan manzilgohlar(may. 1 ga. dan ortiq), (Yassidepa, Agachlidepa) 3.Kichik manzilgohlar (kichik qishloqlar may. 1ga. gacha), (Kraxandepa I,II,III, Elandepa, Ovadandepa). Yelkantepa I va Ulug' III, so'ngi bronza davrda shakllangan. Elkan II, Ulug' II lar mil. av. 650-500, hamda Yelkan III, Ulug' I lar mil. av. 500-350 yillar bilan sanaladi. Yelkantepa sitadeli bronza davrida barpo etilib, atrofida 14,5 ga iborat joyda aholi manzilgohi shakllanadi. Mil. av. X asrlarda mudofaa devorlari (umumiy qalinligi 10, 5 m; o'rtada- 6 m. dan iborat karidor mavjud) bilan o'ralib, imoratlarning asosiy ko'pchilik qismi quriladi. Mudafaa devori atrofida chuqur xandaklar qazilgan. Mil. av. VII-VI asrlarga kelib esa manzilgoh atrofida imoratlar barpo etiladi. Uning atrofi ham mudofaa devorlari bilan o'rab olinadi. Shunga o'xshash Ulug'depa ham bronza davrida shakllanib, mil. av. X asrlarda baland saxni ustida qo'rg'on barpo etiladi. Yelkandepadan farqi o'laroq bu yerda aholi imoratlari joylashgan qismi mudofaa devorlarining izlari aniqlanmagan. Imoratlar to'rburchak g'ishtlardan qurilib, devorlari va uylarning sahni loy suvoq qilingan. Ba'zi bir imoratlarning devorlari ganch bilan suvalgan.

Aholining asosiy mashg'uloti sug'orma dehqonchilik va hunarmandchilik bo'lgan. Dehqonchilikda asosan bug'doy va arpa ekilgan. Sug'orish inshootlarining izlari o'rganilmagan bo'lsada, tog'dan oqib tushadigan kichik

daryo suvlari dehqonchilikda asosiy manba bo'lgan. Suvga bo'lgan talabning yuqori bo'lganligini hisobga olib, qadimgi dehqonlar damba va tug'onlardan foydalangan, degan xulosaga kelish mumkin. Keyingi davrlarda bu yerda korizlar paydo bo'ladi.

Bronza va temirdan mehnat qurollari, qurol aslahalar tayorlanganligi arxeologik jihatdan aniqlangan. Bulardan tashqari toshdan qurollar hamda sopol buyumlar o'rganilgan. Sopol buyumlari Marg'iyonanikiga o'xshash. Mil. av. X-VII asrlarga oid sopol buyumlarning asosiy qismini qo'lda yasalgan, hamda naqshli buyumlar tashkil etadi. Naqshlar geometrik shaklda. Ulug'tepaning mil. av. VII-IV asrlarga oid sopol buyumlari Yozdepaning shu davrga oid buyumlari bilan o'xshash. Yoz I sopollariga o'xshash sopol buyumlarining bu eyrda bronza davridayoq paydo bo'lishi o'ziga xos xususiyatlardan biridir.

Janubiy Turkmanistondagi Tajang daryosi atrofida Seraxs vohasida ham tadqiqot ishlari olib borilgan (Ko'xna Seraxs, Movlekdepa, Beshdepa, Akchadepa manzilgohlari). Bu yerda hayot neolit davrida boshlanib, mil. av. I ming yillikning boshida qaytadan o'zlashtiriladi. Ko'hna Seraxs Yozidepali o'rnida manzilgoh shakllanib, atrofi mudofaa devori bilan o'ralgan. Sitadeldan tashqarida imoratlarning o'rnini saqlangan. Movlikdepada qadimgi kanal izlari o'rganilgan. Vohaning sopol idishlari Marv sopol idishlariga o'xshash. Tosh qurollari, yorg'uchoqlar, temir qotishmalarning chiqindilari topilgan.

Qadimgi Daxiston Turkmanistonning janubiy-g'arbida qadimgi Daxiston vohasi o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Qadimgi Daxiston yodgorliklari Gurgen, Sumbar va Atrek Benguvona kabi kichik daryo vohalarida rivojlanadi. Qadimgi Daxiston yodgorliklari ham stitadelga ega bo'lgan. Yirik manzilgohlar yoki qadimgi shaharlar (Madov, Izzatquli), yirik hamda kichik hajmdagi qishloqlardan iborat. Imoratlar xom g'ishtdan qurilgan, tomlari tekis yopilgan. Bu yerda Atrek daryosida chiqarilgan qadimgi kanal izlari o'rganilgan. Ularning uzunligi 50-60 km. ni tashkil etadi. Kanallarning suvlari bir necha ariqlar orqali ekin maydonlariga taqsimlangan. Dehqonchilik aholining asosiy mashg'uloti hisoblanib, bug'doy, arpa va boshqa dukkakli ekinlar ekishgan. Chorvachilik ham

yaxshi rivojlangan. Sopol idishlar kulolchilik charxida ishlanib, naqshlar berilgan. Bu yerda temir bo'laklari, temir qotishmasining chiqindilari ham topilgan. Umuman, Daxiston topilmalar Janubiy Turkmanistonning I ming yillik boshlariga doir moddiy manbalardan keskin farq qiladi. Ko'rinishdan qadimgi Eron qabilalari bilan keng aloqada bo'lib, ularning ta'sirida rivojlangan.

7.3.Hindistonda temir davrida metalurgiyaning rivojlanishi.

Hindistonning bepoyon hududi, iqlim sharoitlari, re'lefi, joyi va tuprog'i jihatdan bir necha zonaga bo'linadi. Shimoliy-g'arbiy viloyatlar qadimda qalin o'rmonlar bilan qoplangan. Hind vodiysining tuprog'i juda hosildor. Shu yerda eramizdan avvalgi III ming yillikda janubiy Osiyoda eng qadimgi shahar sivilizatsiyasi shakllandi. Hindiston shimoldan va shimoliy-sharqdan Osiyoning boshqa qismidan Himolay tog'lari bilan ajratilgan. Er. avv. II ming yillikda bu yerdan hind-yevropa qabilalari yo'li o'tgan.

Hind-Gang tekisligining markaziy qismi qadimda "oriy" larning "muqaddas yeri" (Ar'yavarta) deb atalgan. Ikki buyuk daryoning oralig'ida va Gangning yuqori qismida er. avv. I ming yillikning birinchi yarmida veda sivilizatsiyasi shakllandi.

Gang daryosining shimoliy-sharqiy havzasida namlik darajasi juda yuqori va boy tropik o'simliklarga ega. Er. avv. I ming yillik o'rtalarida bu hududda keng miqyosda dehqonchilik ishlari boshlanadi. Er. avv. I ming yillikning ikkinchi yarmida bu yerda Qadimgi Hindistonning eng muhim siyosiy va madaniy markazlari vujudga keldi.

Hind-gang tekisligining Dekan (qadimgi hind tilida "Danishna" - janub) yarim orolidan yassi tog'lar ajratib turadi. Dekan yarim orolida faqat eramizning boshlarida yirik davlatlar paydo bo'ldi. Orolning markaziy qismida Shri-Lanka (Seylon) o'rmonli tog'lik hudud. Orolning geografik o'rnini janubiy Hindiston qirg'og'i bilan muntazam aloqalar shartlab keladi.

Janubiy Osiyoning hozirgi aholisining katta qismi asosiy yevropoid irqiga mansub. Faqat yarim orolning janubiy qismi va Shri-Lankaning aholisi irqiy

belgilariga qarab (badani, sochining qora rangi va boshqalar) avstroloidlarga yaqin turadi. Shimoliy sharqning qator qabilalari janubiy mongoloid irqiga mansub.

Yilnomalar eramizning I asrlarida Seylondagi budda monastirlarida tuzilgan va boshqa asosan budda ta'limotiga oid siyosiy-xo'jalik hujjatlari bo'lgan. Davlat va xususiy arxivlar yetib kelmagan. Hujjatlar palma daraxti barglari, po'stloq yoki mato parchasi kabi murt asosda yozilgani uchun saqlanmagan.

Bizgacha faqat eramizdan avvalgi III-II ming yilliklarga oid o'qish qiyin bo'lgan Hind sivilizatsiyasiga oid muhrlardagi qisqa yozuvlar va Ashoki davri (er. avv. III asr) yozuvlarigina yetib kelgan.

Qadimgi Hindistonda qurilish materiali sifatida asosan yog'och ishlatilgan. Tosh va bronza haykaltaroshligi keyingi asrlardagina paydo bo'lgan. Yana shuningdek, Hind qadimiy obidalarini o'rganish asosan XX asrda boshlandi. Faqat ozgina shaharlar, Moxenjo-Daro, Xarappa katta maydonlarda qazib ochilgan.

Janubiy Osiyo tarixini o'rganish XVII oxiridan aniqrog'i, 1784 yil Kalkuttada sharqshunoslarning birlashmasi Osiyo jamiyatiga asos solinishidan boshlandi. XVIII asr oxirida sanskrit adabiyotining yodgorliklari: "Manu qonunlari", Kalidasining "Shakuntali" dramasi, falsafiy poema "Bxagavagita" tarjima qilindi.

XIX asrning 70-yillari XX asrning boshlarida Hindistonda arxeologik qazishlar boshlandi. Asrimizning 20-30 yillarida janubiy Osiyoning eng qadimgi hind sivilizatsiyasi ochildi.

Hind sivilizatsiyasi: Hind daryosining g'arbida neolit davrida er. avv. VII-VI ming yilliklarda aholi dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaydi. Vodiya paxsa uyli kichik qo'rgonlar paydo bo'ladi. Dastlabki ikki shahar markazi Moxenjo-Daro va Xarappa, keyinchalik Chanxo-Daro va Kalibangan qazib ochiladi. Hozirgi vaqtda Hind vodiysi havzasida Xind sivilizatsiyasining bir necha yuz qo'rgonlari ochilgan.

Moxenjo-Daro, Xarappa va Kalibangan shaharlari qurilishi ikki qisimli rejaga ega. Shahring bir qismi sun'iy tepalikda qurilib devor bilan uralgan. Bu ma'muriy-diniy ishootlar deb taxmin qilinadi. Moxenjo-Daro qal'asida topilgan

katta inshoot yoki hokim qarorgohi bo'lgan. Uning yaqinida diniy marosimlar uchun xizmat qiladigan basseyn topilgan. Xarappa qal'asida ulkan g'alla ombori qurilgan.

Moxenjo-Daro bir necha o'n ming kishi yashaydigan 2 kv. km. maydondan iborat. To'g'ri ko'chalar o'n metrgacha kenglikda qurilgan. Uylar 2 qavatli, kanalizatsiyaga ega. Shahar hunarmandchiligi to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Kulolchilik, to'qimachilik yuqori darajada rivojlangan. Haykalchalar kichik hajmda, hokim-kohin, yalang'och ayolning (raqqosa deb taxmin qilinadi), jez haykalchalari topilgan. Ikki to'g'ri burchakli muhrlar topilib, ularning ko'pchiligida mifologik manzaralar tasviri tushirilgan. Bu yerda topilgan boshqa muxrlarga o'xshash buyumlar Hind vodiysidan uzoq bo'lgan Baxreyn orollari, Mesopotamiyadan, Eron va Turkmanistondan topilgan. Bu Moxenjo-Daro va Xarappaning qadimgi Sharq sivilizatsiyalari bilan keng aloqada bo'lganidan dalolat beradi.

Moddiy madaniyat va san'at yodgorliklari asosida, Hind vodiysi aholisining diniy tasavvurlari to'g'risida tushuncha hosil qilish mumkin. Muxrlardagi tasvirlar bu yerda yashagan aholining daraxtlar, hayvonlar, osmon jismlariga e'tiqod qilganidan guvohlik beradi. Ona ma'buda haykalchasi dinning dehqonchilik xususiyatini ko'rsatadi. To'rt hayvon qurshovida Iog holatida turgan erkak ma'bud dunyoning to'rt tomonini hukmdori deb qaraladi.

Er. avv. XVIII asr oxirida Xarappa madaniyati tushkunlikka tushib, sekin-asta halok bo'ladi. Er. avv. II ming yillikning oxiri I ming yillik boshlarida Shimoliy Hindiston tarixining asosiy manbalari "vedalar" Hind diniy adabiyotining eng qadimgi yodgorliklaridir. Vedalar madhiyalar, qo'shiqlar, qurbonlik aytishlari, muqaddas marosimni tushuntiradigan keng asarlardan iborat to'plamlardir. Til, din va mifologiya bo'yicha ular "Avesto" bilan o'xshashdir. "Avesto" vedalari tadqiqotchilarning fikricha "Oriy (ar'iya-so'zidan "oliyjanob") qabilalari tomonidan tuzilgan.

Tuzilish bo'yicha "vedalar" ilk veda (er. avv. I ming yillik boshlari) va so'nggi veda (er. avv. IX-VII asrlar) davrlariga bo'linadi.

“Rigveda” (hind-oriylarning vedalarini eng qadimgi qismi)da uchraydigan geografik nomlarga ko’ra, u Panjobda tuzilgan so’nggi veda matnlari shakllangan paytda oriy qabilalari Hind-Gang tekisligining butun markaziy qismiga tarqalgan edi. “Rigveda” yaratilgan davrida oriylarda sinfiy jamiyat va davlat hali shakllanmagan edi. Iqtisodiyotda yirik qoramolchilikka asoslangan chorvachilik rivojlangan, dehqonchilikka e’tibor berilmagan. Oriylar mis va jezdan foydalanganlar, uy-joyni qamish va loydan qurganlar.

Gang daryosini yuqori qismi, Gang va Jamna o’rtasidagi yerlar “Mahabxarat” epik asarining syujetini tashkil qiladi. Ijtimoiy tashkilot qabila bo’lgan, qabila boshlig’i roja-harbiy boshliq va yo’lboshchi sifatida o’z qarindoshi va xizmatkorlariga tayangan. Qabila uch tabaqa: kohinlar, harbiylar va oddiy jamoachilarga bo’lingan

So’nggi veda davrida iqtisodiyot, ijtimoiy siyosiy tuzumda keskin o’zgarishlar yuz bergan. Dehqonchilik rivojlanib, Hind-Gang vodiysida keng dalalar o’zlashtiriladi, daraxtning qattiq yog’ochidan omoch yasay boshlanadi. Eshaklar asosiy yuk tortish vazifasini o’tagan. Sutlik ovqat kundalik yemish bo’lgan. Bayramlarda chorva mollari mo’l-ko’l qurbonlik qilingan.

Temirdan faqat kamon uqi, nayza uchlari tayyorlangan, uylar yog’och va bambukdan qurilgan, “Rigveda” (hind-yevropaliklarning mashhur kitobi) davrida harbiy yo’lboshchilar aravalarda jang qilganlar. Maxabxarotda yengil jang aravalari to’g’risida eslatiladi. Jang aravalarida poygalar o’tkazilgan. Diniy va epik asarlarda aholining asosiy qismi to’g’risida ma’lumotlar juda kam.

Er. avv. II ming yillik oxiri I ming yillik boshlarida Shimoliy Hindistonning ijtimoiy - siyosiy taraqqiyoti jamiyatning “kohinlar”, qabila harbiy zodagonlari, kshatriylar to’la huquqli xalq, vayshi jamoani pastki to’la huquqli bo’lmagan aholi qismi shudra (qullar) kabi to’rt qatlamini vujudga keltiradi.

Har bir qatlam yepik toifalar - varna (so’zma-so’z “nav”)ga aylanadi. Har bir varna vakilining merosiy mavqei ularning mashg’uloti va diniy majburiyatlarini belgilagan. Kohinlik va o’qituvchilik majburiyati braxmanlarga, jang qilish va

boshqarish kshatriylarga mehnat qilish, shudralarga uch oliy varnalarga so'zsiz xizmat qilish majburiyati yuklatilgan.

Hind-Gang tekisligida temir qurollarning tarqalishi sun'iy sug'orish inshootlarni qurish va muntazam hosil olish imkoniyatini tug'diradi. Hindistonning shimoliy-sharqida sug'orma dehqonchilik sharoitida asosiy ekin sholi bo'lgan.

Bu davrda shaharlar aholisining soni keskin oshadi. Tovar - pul munosabatlarining o'sishi natijasida er. avv. I ming yillik o'rtalarida tanga pul zarb qilina boshlaydi. Yirik shaharlarning maydoni Udayin va Kaushanbi - 1,5-2,5 kv. km.ni tashkil etgan. Bu o'sha davrdagi eng mashhur yunon shaharlari maydoni bilan teng edi. Salavkiylar davlatining elchisi yunon Megasfen elchi sifatida Maurilar saroyiga kelganda Pataliputra shahri devorlarini uzunligi 30 km deb hisoblaydi.

Qishloqda oila yetakchi o'rin tutgan. Oila boshlig'i ota yer-chorvani oila nomidan boshqargan. Ayollar hurmat qilinsada, lekin mulk huquqiga ega bo'lmaganlar. Patriarxal oilada bir necha avlod yashagan. Xususiy mulkchilikning rivojlanishi mulkiy tengsizlikka olib kelgan.

Arxeologik qazishmalar ham er. avv. I ming yillik o'rtalarida Shri -Lankada birdaniga temir asri madaniyati paydo bo'lganidan guvohlik beradi. Seylon xronikalari Ashokining ukasi maxsus missiya bilan mahalliy hokimni Buddha ta'limotini afzalligiga ishontirgani va tez orada bu yerda birinchi budda monastirlari paydo bo'lgani to'g'risida hikoya qiladi. Shri-Lanka Ashoki davridan to shu kungacha Buddha dini hukmron bo'lgan mamlakatdir.

Qadimgi Hindistonda xudolar pog'onasi mavjud emas. Xudolar samoda yashaydi. Oriylar xudolar tasviriga sig'inganlar. Qurbonlik keltirish, olovga moy quyish, arpa donini tanlash bilan ifodalangan, guyoki qurbonlik tutun bilan samoga ko'tarilib, xudolar qurbonlikdan to'yib yerdagi bandalariga ovqat yuboradilar. Dastlab ibodatxonalar qurish rasm bo'lmagan.

Hindiston yarim orolidagi metallurgiya tarixi miloddan avvalgi 3-ming yillikgacha boshlanib, Britaniya hukmronligiga qadar davom etgan. Metallar va ular bilan bog'liq tushunchalar Vedik davriga oid turli xil matnlarda aytib o'tilgan.

Rigved allaqachon sanskrit tilida Ayas (metal) atamasini ishlatgan. Yaqin Sharq va Yunon-Rim dunyosi bilan Hindiston madaniy va tijorat aloqalarida metallurgiya fanlari almashinuviga yo'l qo'yildi. Hindistonda Mugallarning paydo bo'lishi bilan Mug'al imperiyasi (tashkil topgan: 1526 yil 21 aprel, tuzilgan: 1857 yil 21 sentyabr) Hindistonda o'rnatilgan metallurgiya va metallga ishlov berish an'alarini yanada takomillashtirdi. Britaniya hukmronligining imperatorlik siyosati Hindistonda metallurgiyaning turg'unligiga olib keldi, chunki Hindistonda Britaniya tomonidan tartibga solinadigan tog'-kon va metallurgiya Hindistonda ishlatilgan, ilgari uning hukmdorlari armiyalar qurish va Angliya bilan turli urushlarda to'qnashish uchun foydalanganlar. O'rta Ganges vodiysidagi so'nggi qazishmalar arxeolog Rakesh Tevari Hindistonda metall konstruksiyalarni namoyish qildi, bu ehtimol miloddan avvalgi 1800 yillardan boshlangan. Uttar-Pradesh shtatidagi Malhar, Dadupur, Raja Nala Ka Tila va Lahuradeva kabi Hindistonning arxeologik joylari miloddan avvalgi 1800 yillar orasida temir asboblarni namoyish etdi. Miloddan avvalgi 1200 yil. Sahi (1979: 366) eramizdan oldingi 13 asr boshlarida Hindistonda quyma temir eritish albatta keng miqyosda amalga oshirilgan, degan xulosaga kelib, ushbu texnologiyaning yaratilish sanasi ham mumkin degan xulosaga keldi. miloddan avvalgi 16-asr boshlarida joylashtirilgan Qora va qizil kiyimlar madaniyati hanuzgacha Shimoliy Hindiston yarim orolining arxeologik madaniyati edi. U miloddan avvalgi 12 - 9 asrlarga borib taqaladi va post-Rigvedik Vedik sivilizatsiyasi bilan bog'liq.

U Sharqiy Vindhya tizmasidagi Uttar Pradesh va G'arbiy Bengalning yuqori Gangetik tekisligidan cho'zilgan. Ehtimol miloddan avvalgi 300 yilda, garchi, shubhasiz, milodiy 200 yilda Hindiston janubida yuqori sifatli po'lat ishlab chiqarilgan bo'lsa-da, Yevropaliklar keyinchalik muhim texnologiyani talab qiladilar. Ushbu tizimda yuqori tozaligi bilan ishlangan temir, ko'mir va shisha xochga mixlangan va temir erigan va uglerod so'rilmaguncha qizdirilgan. Arab va fransuz tillarida "fūlād fūl'a" deb nomlangan yuqori uglerodli po'latlar natijasida ko'pgina Osiyo va Yevropaga eksport qilindi. Uill Dyurant I sivilizatsiya tarixida yozgan: Sharqiy merosimiz: "Qadimgi Hindistonda quyma temirning kimyoviy

ustunligi to'g'risida, shuningdek, Hindiston, hatto imperator Rimni ham bo'yash, ko'nchilik, sovun kabi kimyoviy sanoat sohasidagi eng tajribali mamlakatlar deb bilgan paytdan boshlab Guptaning yuqori sanoat rivojlanishi haqida gapirishdi. Ishlab chiqarish, shisha va sement VI asrda hindular sanoat kimyosi sohasida Yevropadan ancha oldinda edilar, ular qovurish, distillash, sublimatsiya, bug'lash, mahkamlash, issiqliksiz yorug'lik ishlab chiqarish, og'riq qoldiruvchi va uyqu tabletkalarini aralashtirish ustalari edilar. Metall tuzlari, aralashmalari va qotishmalarini olish qadimgi Hindistonda Yevropada hozirgi kungacha noma'lum bo'lgan mukammallikka keltirildi ;. King Por Iskandar uchun alohida qimmatbaho sovg'a sifatida tanlangan deb aytiladi, ammo oltin yoki kumushdan emas, balki o'ttiz funt po'latdan yasalgan musulmonlar Yaqin Sharq va Yevropadagi ushbu hind kimyoviy fan va sanoatining katta qismini egallagan, masalan, "Da" Mascus Blade yasash sirini. Uni arablar forsiylar va Hindistonlik forslar olib ketishgan.

7.4.O'zbekistonning ilk temir davri arxeologiyasi.

O'rta Osiyoning qadimgi tarixiy-madaniy viloyatlaridan biri bo'lgan Baqtriyaning Shimoliy hududlari. Bu o'lka hozirgi Surxon vohasi va Tojikiston Respublikasining janubiy hududlari kiradi. Mazkur mintaqada mil.av. I ming yillikning boshlariga kelib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan tub o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ma'lumki II ming yillikning oxiriga kelib Surxon vohasidagi Sopolli madaniyati inqirozga uchragandan so'ng o'ziga xos o'troq dehqonchilik madaniyati vujudga keladi. Bu turdagi madaniyat ayrim jihatlariga ko'ra O'rta Osiyoning janubida, xususan, Surxon vohasi va Janubiy Tojikiston hududlarida joylashgan umumiy tavsifi **Shimoliy Baqtriyaning** ilk temir davriga oid yodgorliklarini o'rganish o'tgan asrning 50-yillaridan, ya'ni Qalan Mir manzigohida olib borilgan tadqiqot ishlaridan so'ng kuchayadi. Umumiy tavsifi Shimoliy Baqtriyaning mil. av. I ming yilliklarning boshlariga oid manzilgohlari Surxon va Sherobod daryolarining irmoqlari atrofida Sopolli madaniyatining inqirozidan so'ng rivojlangan bo'lsa, Surxon va Amudaryolarning O'rta oqimi, Kofirnigon, Vaxsh va Panj daryo vohalari esa qadimgi dehqonlar tomonidan mil. av. I ming yillikning ikkinchi choragi va o'rtalarida o'zlashtirilgan.

Shimoliy Baqtriyada mil. av. I ming yillikning birinchi yarmida o'ndan ortiq dehqonchilik vohalari o'zlashtirilib, turli shakllardagi manzilgohlarning rivojlanishi kuzatiladi. Shulardan ettitasi Sargandak -To'palang-(Xolchayonning qo'yi qatlami), Xalqajar (Mirshodi)-(Qiziltepa, Qizilcha guruhidagi manzilgohlari, Ahatqul), Urgulisoy (Bandixon)-(BandixonI,II, G'ozimulla), Sherobod-(Jondavlattepa, Talashkantepa I, Pachmaktepa), Ulonbuloqsoy-(Kuchuktepa, Pshaktepa, Dabilqo'rg'on), O'rta Surxon-(Xayitobod, Nomsiztepa), O'rta Amudaryo-(Ko'xna Termizning quyi qatlami, Kampirtepa yaqinidagi Nomsiztepa.) kabi kichik daryo vohalari Surxon vohasida va Kuyi Kofirnigon-(Qalam Mir, Munchoqtepa, Xirmontepa), Vaxsh-Yavon-(Tomoshatepa, Boldoy I, Sho'rchitepa), Boytudasht-(Boytudasht) kabi vohalar Tojikiston Respublikasining janubida rivojlanadi. Ularning har birining hududi tabiiy chegaralanib, Arxeolog olim A.S.Sagdullayevning ilmiy tahlillariga ko'ra ularning har biri alohida dehqonchilik tumani yoki kichik ma'muriy tuzilmani tashkil etgan. Mazkur ma'muriy bo'linmalarning har birida taxminan 3-5 tadan manzilgoh joylashgan. Ulardan biri hajmi kata va strukturasi ko'ra murakkab bo'lgan. Ko'rinishdan ular ma'lum tumanning ma'muriy markazi bo'lgan bo'lishi mumkin.

Keltirilgan vohalardagi manzilgohlarning quyidagi shakllarini ajratish mumkin.

1. Atrofi mudofaa devori bilan o'ralib, stitadelga ega bo'lgan yirik hajmdagi manzilgohlar (yoki qadimgi shaharlar) - Qiziltepa, Hayitobodtepa.
2. Mudofaa devorlariga ega bo'lgan qal'a-qo'rg'onlariga imoratlar tutush joylashgan manzilohlar - Kuchuktepa BandixonII, Talashkontepa I.
3. Yirik xajmdagi manzilgohlar yoki qadimgi qishloqlar- g'G'ozimullatepa.
4. Uy-qo'rg'onlari - Qizilcha guruhdagi manzilgohlar
5. Alohida vazifani bajaruvchi manzilgohlar (diniy inshootlar)- Pishaktepa, Pachmaktepa.

Mil. av. II ming yillikning oxirgi va mil. av I ming yillikning boshlariga kelib, bu yerda o'ziga xos madaniyat shakllanadiki, bu davr tarixi arxeologik jihatdan Kuchuk I (mil. av. 1000-750) Qizil I (mil. av. 1000-700 yillar) Kuchik II

(mil. av. 750-600) hamda Qizil II (mil. av. 750-600), belgilangan. Kuchik III (mil. av. 600-500), Kuchuk IV (mil. av. 500-350), Qizil III (mil. av. 600-350) bosqichlari esa ahamoniylar davriga to'g'ri keladi.

Vohaning mil. av. I ming yillikning birinchi choragiga oid tarixini arxeologlar Kuchuk madaniyati, deb yuritishga odatlangan. Bu davr yodgorliklarining hajmi ancha kichik (3 ga dan oshmaydi). Ulardan mashhuri Kuchiktepa manzilgohi hisoblanib, baland sahni (4 metr qalinlikda) ustiga qurilgan qal'a-qo'rg'onchadan iborat. Manzilgoh atrofida imoratlar joylashgan hamda ular mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Keyingi bosqichda Kuchiktepa madaniyati taraqqiyoti davomida Qadimgi Baqtriya madaniyatining vujudga keladi. Bu davr voqa ijtimoiy-iqtisodiy muhim jarayonlar kechganligi bilan tavsiflanadi. O'troq deqqonchilik madaniyati hududi kengayib, manzilgohlar soni ko'payadi va ularning hajmi ortib boradi. Shuningdek, O'rta Osiyoning janubiy o'lkalaridagi kabi qadimgi yirik shahar markazlari shakllanadi.

Janubiy Tojikiston hududidagi manzilgohlardan Boytudasht va Bolday I kabi yodgorliklar ajralib turadi. Bu yodgorliklarning shakllangan davri mil av. I ming yillikning ikkinchi choraklariga to'g'ri keladi Bu yodgorliklarda ham shahar alomatlari mavjud bo'lib, Surxon vohasi manzilgohlarinikiga nisbatan soda va ularda jarayonlar kechroq sodir bo'lganligi bilan ajralib turadi. Kichik vohalaridagi markaziy manzilgoh atrofidagi manzilgohlarda ham uy-joy va ho'jalik imoratlari aniqlangan. Manzilgohlar shakllaridan uy-qo'rg'onlar muhim o'rin tutadi. Qiziltepa yodgorligi atrofida joylashgan Qizilcha guruhidagi manzilgohlar mazkur davr qishloq xo'jaligi hayotini o'rganishdagi ahamiyati kata. Ulardan Qizilcha I va VI yodgorliklari arxeologik jihatdan yaxshi o'rganilgan. Bu yodgorliklarning maydoni taxminan 0,2 ga. ni tashkil etadi. Manzilgoh qo'ra shaklida barpo qilingan. Umumiy devor bilan o'rab olingan hovlining bir qismida uy-joy imoratlari va uning old tamonida hovli joylashgan. Ko'rinishdan bu manzilgoh mazkur davr davlatmand patriarxal oilasiga tegishli uy-joy kompleksi hisoblangan. Umuman boshqa turdagi manzilgohlarda ham arxeologik tadqiqot ishlari olib borilishi natijasida o'lkaning qurilish-me'moriy xususiyatlarini

o'rganish imkoniyatlari mavjud Barcha turdagi imoratlar xom g'isht va paxsadan barpo qilingan. Devorlar loysuvoq qilingan. Ba'zi imoratlarda yog'och ustunlarining o'rni aniqlangan. Imoratlarning tomi tekis yopilgan.

Umuman, mazkur davr O'rta Osiyo tarixida chuqur tarixiy-madaniy o'zgarishlar bilan belgilanib, yirik shaharlarning paydo bo'lishi, qadimgi davlatlarning qaror topishi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy yuksalishlar sodir bo'lgan davr hisoblanib

Aholining asosiy mashg'uloti sug'orma dehqonchilik bo'lib kichik daryolardan anhorlar orqali suv chiqarilgan, yoki to'g'ridan-to'g'ri daryolardan ariqlar orqali suv chiqarilgan. Katta anhorlardan birining izlari Bandixondan topib tekshirilgan. Bu erda boshoqli o'simliklar poliz va bog'dorchilik rivojlangan. Chorvachilikning ham yaxshi rivojlanganligi to'g'risida Kuchuktepa va Bandixondan topilgan hayyovon suyaklari etarli ma'lumot beradi. Topilmalarga ko'ra Umumiy tavsifi Shimoliy Baqtriyaning qadimgi aholisi qo'y, echki, qoramol, ot, cho'chqa boqishgan.

Ma'lumki, Sopolli madaniyati inqirozga uchragandan so'ng o'lkada o'ziga xos madaniyat qaror topadi. Bu davrda Sopolli madaniyati uchun xos bo'lga ayrim yutuqlardan voz kechiladi, xususan kulolchilikda qulda idishlar yasash an'anasi paydo bo'ladi. Shimoliy Baqtriyaning ilk temir (Kuchuk I) davri sopol idishlar asosan qo'lda va qisman kulolchilik charxlarida yasalgan. Ko'lda ishlangan idishlarning sirtiga geometrik shakllarda naqshlar bilan bezatilgan. Ularning shakllari turlicha, ko'pchiligining tagi yassi. Tosh va bronzadan yasalgan mehnat qurollari hamda qurol aslohalari ko'plab topilgan. Keyingi (Kuchuk II, Qizil II) bosqichida kulolchilik charxida sopol buyumlarini tayyorlash kuchayadi. Bu bosqichdagi sopol idishlar konsussimon va bankasimon shakllardan iborat. Idishlarning atrofi to'q jigar rangda angob berilgan. Bu davrda sopollarni qo'lda yasash an'anasi ham saqlanib qoladi.

Bu davrga oid topilgan tosh qurollari, xususan yorg'uchoqlar, temir va bronzadan ishlangan turli mehnat qurollari va quro-yarog'lar boy madaniyat namunalari.

So'g'd So'nggi bronza va ilk temir davrining dastlabki bosqichiga kelib, So'g'diyonaning janubiy hududlarida o'troq dehqonchilik madaniyati qaror topadi. İlk temir davrida So'g'diyonaning barcha hududlari dehqonlar tomonidan egallanadi. So'g'diyona hududlarida ilk temir davriga oid yodgorliklar bir xil suratda rivojlanmagan. Bu davrga oid yodgorliklar ko'proq uchraydigan va yaxshi o'rganilgan voha Qashqadaryo hisoblanadi. Zarafshon vohasida esa Afrosiyob, Lolazor va Ko'ktepalarning quyi qatlamlarida bu davrga oid moddiy topilmalar qisman saqlangan.

Umuman, So'g'diyonaning ilk temir davri yodgorliklari ham daryo vohalarida alohida shakllanadi. Bu an'anani Qashqadaryo vohasida aniq ko'rish mumkin. bu erda ilk temir davriga oid bir nechta vohalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Manzilgohlarini esa, xajmi va avzifalariga ko'ra quyidagi tiplarga ajratish mumkin.

1. Ark va mudofaa devorlariga ega bo'lgan yirik shahar xarobalari (Afrosiyob, Uzunqir, Yerqo'rg'on).
2. Qishloqlar (Daratepa, Chiroqchitepa, Beshqo'tontepa).
3. Mudofaa devorlari bilan o'ralgan alohida vazifalarini bajaruvchi manzilgohlar, ko'rinishidan ibodatxona (Sangirtepa).

Shimoliy So'g'dning ilk temir davri yodgorliklari Qadimgi So'g'd to'g'risidagi dastlabki yozma ma'lumotlar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestoda uchraydi Uning eng qadimgi qismlaridan bo'lgan Gat qismida Sugud, qadimgi fors manbalarida Sug'd va Yunon-rim mualliflarining asarlarida esa So'diyoni nomlari bilan keltiriladi. Bu o'lka Zarafshon vohasi, va Qashqadaryo vohasi hududlaridan tashkil topgan. So'nggi bronza va ilk temir davrining dastlabki bosqichiga kelib, So'g'diyona muhim jarayonlar sodir bo'ladi. Bu davrda o'troq dehqonchilik madaniyatiga asoslangan jamoa qishloqlari vujudga keladi.

Ilk temir davrida So'g'diyonaning barcha hududlari dehqonlar tomonidan egallanadi. So'g'diyona hududlarida ilk temir davriga oid yodgorliklar bir xil suratda rivojlanmagan. Bu davrga oid yodgorliklar ko'proq uchraydigan va yaxshi o'rganilgan voha Qashqadaryo hisoblanadi. Zarafshon vohasida esa Afrosiyob,

Lolazor va Ko'ktepalarning quyi qatlamlarida bu davrga oid moddiy topilmalar qisman saqlangan.

Afrosiyob Sug'dning qadimiy markaziy shaharlaridan birining o'rnini Yunon-rim mualliflari asarlarida keltirilgan Maroqanda nomi bilan tilga olinadi. Manzilgoh mil. av. I ming yilliklarning boshlarida shakllangan. Uning eng pastgi qismidagi madaniy qatlamlari mil. av. I ming yillikning boshlari (Yangi radiokarbon bo'yicha mil. av. XIV asr) dan qo'lda sirtiga naqsh solib ishlangan sapol buyumlari topib o'rganilgan. Bu jarayon O'rta Osiyoning janubiy o'lkalarida ham kuzatiladi.

Janubiy So'g'ddagi madaniy-iqtisodiy markazlardan biri bu Yerqo'rg'ondir. Maydoni 34 ga, manzilgohning quyi qatlamida mil. av. VIII-VII asrlarga oid mudofaa devori o'rnini saqlangan. Mil. av. VI asrda shahar maydoni kengaytirilib, Yangi mudofaa devori bilan o'rab olinadi Ichki tomondan hashamatli ma'muriy bino barpo etiladi, hamda temirchilar mahallasi paydo bo'ladi. Ushbu davrga oid ark izlari aniqlanmagan.

Uzunqir. So'g'diyonaning (Qashqadaryo, Kitob tumani) ilk temir davriga oid madaniy markazlaridan biri maydoni 70 ga. Hozirgi paytda 450 metrdan iborat mudofaa devori saqalanib qolgan. Mudofaa devorining pastki qismi guvala, yuqori qismi esa paxsa va xom g'ishtda ko'tarilgan. Devorning qalinligi 1,85 metr bo'lgan. mudofaa devori tashqi tomonidan to'g'ri burchakli minora- burjlar bilan kuchaytirilgan. Burj va devorda jangovar va "aldamchi" shinaklar mavjud.

So'g'diyonaliklar sug'orma dehqonchilik hamda chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Qashqadaryo vohasidan arpa, bug'doy, javdar hamda hayvon suyaklari topib tekshirilgan. Qashqadaryo vohasida topib tekshirilgan sopol idishlar ikki guruhga bo'linadi. Kulolchilik charxida yasalgan naqshsiz idishlar. Ular kosa, tovoq, xumchalardan iborat. Qo'lda ishlangan idishlar geometrik va egri chiziqlar bilan naqshlangan. Naqshli idishlar Qashqadaryoning tog'oldi hududlaridan ham topib tekshirilgan.

Vohada hunarmandchilik, hususan temirchilik va to'g'imachilik keng rivoj topgan deyish mumkin. daratepadagi mil. av. VII-VI asrlarga oid temir buyumning topilishi fikrimiz dalilidir.

Farg'ona (Chust va Eylaton madaniyat). Farg'ona (Chust va Eylaton madaniyat) vodiysining I ming yilliklarda oid moddiy topilmalar 30-yillardan ma'lum. XX asrning ikkinchi yarmida ko'plab yodgorliklarda arxeologik qazish ishlari olib borildiki, vohaning ushbu davrdagi moddiy madaniyati xo'jaligi va dehqonchilik madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish imkoniyatini yaratdi. Farg'ona vodiysidagi I ming yilliklarga oid madaniyatining Chust va Eylaton bosqichlari ajralib turadi. Chust davridagi manzilgohlar alohida vohalarda rivojlanadi. Hozirgi paytda quyidagi vohalar aniqlangan: O'zgan, Qorasuv, Tava-Koson, Qoradaryo-Xo'jabod. Ularning ko'pchiligi markaziy manzilgohga ega bo'lganlar. Ularda quyidagi shakldagi manzilgohlar o'rin olgan. Yirik manzilgohlar (Ashkol, Dalvarzin) O'rtacha manzilgohlar (Chust, Dehqon, Kichik manzilgohlar) bu yerdagi manzilgohlarning asosiy ko'pchilligi.

Birinchi turdagi manzilgohlar, uy-joy va xo'jalik imoratlar va ochiq maydon joylashgan shahar hamda shahar atrofi qismlaridan iborat. Ularning har biri mudofaa tizimiga ega. Bu turdagi manzilgoh sirasiga kiruvchi Dalvarzin yaxshi o'rganilgan. Ko'rinishidan u butun vohaning markazi hisoblangan.

Ikkinchi turdagi manzilgohlar ikki qismdan iborat bo'lib, bunday yodgorliklar sirasiga Chust yodgorligini kiritish mumkin. Manzilgohning Shimoliy g'arbiy qismi (1,5ga) mudofaa qilingan. Qolgan asosiy qismi esa mudofaa tizimiga ega emas. Kichik manzilgohlar bir-necha xonadan iborat uy-joy imoratlaridan tashkil topgan. Ular dehqon jamoasining katta patriarxal oilasi yashaydigan manzil bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Chustliklar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Dehqonchilikda arpa, bug'doy va boshqa dukkakli o'simliklar etishtirganlar. Bu yerda sug'orma dehqonchilik asoslanmagan. Chorvachilikda qoramol, qo'y, echki boqqanlar. Daryo va ko'l bo'ylarida yashagan xalqlar baliqchilik bilan ham shug'ullanganlar. Chustliklarda bronzaga ishlov berish, ulardan mehnat qurol-

yarog'lar tayyorlash yaxshi rivojlangan. Dalvarzintepa yodgorligidan mil. av. IX asrga oid temir buyum namunasi topib o'rganilgan bo'lsada, farg'onaliklarda temir metallurgiyasi paydo bo'lgan, degan xulosa yasab bo'lmaydi. Toshidan mehnat qurollari yasash o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Chustliklarning sopol buyumlari qo'lda yasalgan. Ularda bu davrga oid kulolchilik charxi yasalgan sopol buyumlar uchraydi. Sopol buyumlarining tagi dumaloq shaklda bo'lib, ularning aksariyatining atrofiga turli naqshlar solingan. Naqshlarning asosiy qismi geometrik (romb, uchburchak) shakllardan iborat.

Chust madaniyatining davomi sifatida Farg'ona vodiysida Eylaton madaniyati (mil. av. VII-IV asrlar) rivojlanadi. Eylaton madaniyatiga doir yodgorliklar Farg'ona vodiysining deyarli barcha hududlarida aniqlangan. Ulardan Eylaton manzilgohida to'liq bo'lmasdan keng ko'lamlilik qazish ishlari olib borilgan. Manzilgoh uchburchak shaklda, mudofaa devorlari (eni 4 m) bilan o'ralgan. Mudofaa devorlari bir necha burjlarning o'rni aniqlangan. Manzilgoh darvozasi burchaklarida ham burjlar mavjud. Manzilgohda uy-joy qoldiqlari ham aniqlangan. Qurilishda paxsa, xom g'isht hamda guvaladan foydalanilganlar. Eylaton madaniyati sohiblari mashg'ulotining asosini arpa, bug'doy ekishga asoslangan sug'orma dehqonchilik tashkil etgan. Guruch ham shu davrdan ekila boshlaganligi shubhasizdir. Chorvachilik ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Kichik tuyoqli chorva mollari qoramollarga nisbatan ko'proq boqilgan.

Eylaton sopol idishlari dastlab qo'lda va keyinchalik kulolchilik charxida yasalgan. Bu davrda temirdan buyumlar yasashlar keng tarqala boshlaydi. Bronza ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. To'qimachilik ham rivojlanadi.

Toshkent vohasi (Burgulik madaniyati). Toshkent vohasining ilk temir davri moddiy madaniyati Burgulik madaniyati misolida yaxshi o'rganilgan. Bu madaniyatga oid dastlabki moddiy topilmalar 1940 yili Terenojkin A. I. tomonidan Ohangoron daryosining O'rta oqimida Burguliksoyyoqasidan topib o'rganilgan.. Hozirgacha bu madaniyatga oid 10 dan ortikmanzilgohlar 50 ga yaqin uy-joylari ma'lum. Bu madaniyat dastlab X.Duke tomonidan mil.av.IX-VII sanalangan. Keyinchalik Yu.F. Buryakov va M.I.Filanovichlar olib borgan

tadqiqotlari ushbu madaniyat mil. av IV asrga qadar davom etganligi qayd etilgan. Burgulik I mil.av. IX-VII, Buruglik II mil.av. VI-IV asrlar bilan sanaladi. Burgulik madaniyati sohiblarining manzilgohlari sug'orish usuli uchun qulay bo'lgan kichik soy bo'ylarida joylashgan. Ularning yirik manzilgohlaridan biri hozirgi Tuyabo'g'iz suv ambori hududida, Ohongaron daryosining ikkala sohilida joylashgan yerto'la uy-joylardan iborat. Keyinchilik Ohangaron va Chirchiq vohalaridagi ko'pgina manzilgohlarning quyi qatlamlaridan Burgulik madaniyatiga oid yerto'la uylar aniqlandi. Shunday uylar Qanka, Shoshtepa, va boshqa yodgorliklarning qo'yi qatlamlarida uchrab ushbu manzilgohlar ularning ustida shakllangan.

Burgulik madaniyatiga oid yirik, o'rtacha va kichik uy-joylar xos bo'lib, yiriklari loy devor orqali xonalarga ajratilgan. Ular aylana yoki cho'ziq shaklidagi yerto'lalardan iborat. Suniy sug'orishning sodda usullari uchun qulay bo'lgan joylarida dehqonchilik bilan shug'ullangan. Sug'orish usuli ko'rfaz shaklidan iborat. Dehqonchilikda bug'doy, arpa yekishgan. Vohaning keng dashtlari va tog'oldi hududlari chorva uchun yaylov vazifasini o'tagan. Haydab boqiladigan chorvochilik mavjud bo'lib, yirik va kichik tuyoqli chorva mollari boqilgan. Toshkent vohasining Chotqol-Qurama tog' tizmalari turli ma'danlaga boyligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Xo'jalikning boshqa bir turi metallarga ishlov berish va ulardan qurol yarog', uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlash va zargarlik yaxshi rivojlangan. Hunarmandchilikning boshqa bir turi to'qimachilik bo'lgan. Sapol idishlarning bir qismi mato qolipda ishlangan bo'lib, ularning ichki tomonida matoning izlari saqlanib qolgan.

Bu yerda bronzadan yasalgan mehnat qurollari va qurol-yarog'lari, o'rog', pichoq, igna, bigiz, qoshiq, sovut, komon o'qi uchlaridan iborat. Bunday buyumlar shaklida ko'ra O'rta Osiyoning shimolmiy xududlarida bir paytda rivojlangan madaniyatlariniki bilan o'xshash. Sapol idishlari qo'lda yasalgan bo'lib, tagi dumoloq, bir qismi jigar randagi naqshlar bilan bezatiladi.

Burgulik madaniyatining so'ngi bosqichiga kelib vohada urbanizatsiya jarayoni shakllanadi. Burgulik madaniyati Toshkent vohasida mil. av. I ming

yillikning boshlarida shakllanadi. Bu madaniyatga oid dastlabki moddiy topilmalar 1940 yili Terenojkin A. I tomonidan Burguliksoydan topib tekshirilgan. Hozirgacha bu madaniyatga oid 10 ortiq yodgorlik aniqlangan. Burgulik madaniyatining ikki bosqichi Burgulik I (mil. av. IX-VII asrlar) Burgulik II (mil. av. VII-III asrlar) mavjud. Bu yerdagi yodgorliklarning ko'pchiligi daryo bo'ylarida joylashib ba'zi bir tadqiqotchilarning fikriga ko'ra ulardan ba'zilarining atrofida chuqur va keng xandaklar qazilgan bo'lgan.

Uylari loydan ba'zilarida esa xom g'isht ishlatilgan. Yerto'lalarning eshigi daryo tomon qurildi. Yirik xajmdagi yerto'lalar paxsadan qilingan yupqa devorlar bilan xonalarga ajratilgan yoki bitta eshikdan kiruvchi bitta yerto'ladan iborat bo'lgan.

Ustrushona ilk temir davrida. Farg'onadan janubiy-sharqda Sug'd va Choch oralig'ida O'rta Osiyoning yana bir muhim tarixiy madaniy viloyati joylashgan bo'lib, keyingi manbalarda Ustrushona nomi bilan yuritilgan. U Turkiston tog' tizimidan shimolda Xo'janddan Jizzaxgacha bo'lgan hududda joylashgan. Bu yerda mil.av. VII-V asrlarda dastlabki o'troq dehqonchilik qaror topadi. Ularning o'rnida mil.av. I ming yillikning O'rtalariga oid Nurtepa, O'ratepa (Mugtepa) Xo'jand kabi manzilgohlar rivojlanib, ahamoniylar davriga me'moriy tizimi shakllangan. Arxeologik jihatdan bu yerda rivojlangan madaniyat Nurtepa madaniyati nomi bilan ham yuritiladi. Bu madaniyatga oid Nurtepa va Xo'jand manzilgohlari arxeologik jihatdan yaxshi o'rganilgan Nurtepaning maydoni 18 gektardan iborat bo'lib, ark va shahar qismlariga bo'linadi. Ular o'zlarining alohida mudofaa devorlariga ega.

Mil. av. VI-V asrlarda Qadimgi Xo'jand o'rnida aholi manzilgohi shakllanadi. Bu yerda mudofaa devori aniqlangan. Manzilgoh arkiga ega. Ustrushonaliklar dastlab yerto'la shaklidagi uylarda yashib, keyingi bosqichda paxsa va xom g'ishtdan uy-joylar qurishni o'zlashtirganlar. Xo'jalikda dehqonchilik asosiy o'rin tutgan. Kulolchilik idishlari qo'lda va charxda yasalgan. Xo'jand xarobalaridan naqshlangan idishlar ham topib o'rganilgan. Bu davrda vohada metalga ishlov berish ham keng tarqala boshlaydi. Xorazmning I ming

yillikning boshlariga oid yodgorliklari Amirobod madaniyati misolida o'rganadi. Bu davrda alohida kanal bo'ylarida dehqonchilik rivojlanadi. Yodgorliklarda yerto'la, yarim yerto'la, yer usti engil qurilishlari tadqiq qilingan. Mil. av. VI-V asrlarda vohada atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralgan manzilgohlar tarqala boshlaydi. Ulardan Qal'aliqir va Ko'zaliqirlardan qazish ishlari olib borilgan. Manzilgohlar mudofaa devorlari bilan o'ralib, burjlar bilan kuchaytirilgan.

Xorazm. Xorazmning I ming yillikning boshlariga oid yodgorliklari Amirobod madaniyati misolida o'rganadi. Bu davrda alohida kanal bo'ylarida dehqonchilik rivojlanadi. Yodgorliklarda yerto'la, yarim yerto'la, yer usti yengil qurilishlari tadqiq qilingan. Mil. av. VI-V asrlarda vohada atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralgan manzilgohlar tarqala boshlaydi. Ulardan Qal'aliqir va Ko'zaliqirlardan qazish ishlari olib borilgan. Manzilgohlar mudofaa devorlari bilan o'ralib, burjlar bilan kuchaytirilgan. Ko'zaliqirdan yirik imorat hamda uchta minorasimon inshoot aniqlangan. Ko'rinishidan bu diniy xarakterga ega bo'lgan. Qalamgirda katta hajmdagi saroy o'rni aniqlangan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra bu inshoot ahamoniylarning Xorazmdagi vakiliga tegishli bo'lgan.

Xorazmning qadimgi qishloqlarini o'rganishda Bozorqal'a xarobasi muhimdir. Qadimgi Xorazm qishloqlarida imoratlar tig'iz qurilgan. Ayniqsa bu davrda uy qo'rg'onlar paydo bo'ladi. Bu davrga oid Dingelji uy-qo'rg'oni to'liq qazib ochilgan. O'rta Osiyoning qadimiy tarixiy madaniy viloyatlaridan biri bo'lgan o'lka Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Xorazm viloyati, Qoraqolpag'iston avtanom respublikasi va Turkmaniston Respublikasining Toshxovuz viloyatlari hududlari mos keladi. Bu o'lka qadimdan mustaqil siyosat yurguzib, yunonlar davlati tarkibiga kirmagan. Faqat ellin madaniyatining ayrim alomatlari O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari orqali kirib kelganligini ko'rish mumkin. Xitoy manbalarida keltirilgan ma'lumotlardagi Kanguyalar davlatining kichik mulklaridan biri bo'lgan Yuegan ko'pchilik tadqiqotchi olimlar tomonidan Xorazm hududi bilan qiyoslanadi.

Qadimgi davrlardan boshlab Amudaryodan bosh olgan anhorlar atrofida hayot shakllanib, aholi manzilgohlari taraqqiy etgan. Arxeologik jihatdan bu

yerdagi manzilgohlarning shahar shaklidagi yirik va qishloqlardan iborat kichik shaklidagi ikki turi mavjud bo'lganligi aniqlangan. O'lkada dastlabki shaharlar mil. av. VI asrdan boshlab taraqqiy etganligini Ko'zaliqir yodgorligi misolida guvoh bo'lish mumkin. Bu shahar ahamoniylar davrida barpo qilinib, janubiy hududlar shaharlar qurilish an'anasi asosida barpo qilingan. Keyingi asrda Qal'aliqir o'rnida yirik shahar shakllanadi.

Mavzuga oid savollar:

1. Toshkent vohasining ilk temir davri moddiy madaniyati haqida yozing?
2. Farg'ona Chust va Eylaton madaniyat haqida bilasizmi?
3. Turkmanistonning janubiy-g'arbida joylashgan qadimgi Daxiston haqida gapirib bering?
4. Qal'aliqir va Ko'zaliqir va Amirobod madaniyati haqida bilganlaringizni mustahkamlang?

Mavzuga oid test

1. Temir Shimoliy Evropada: Germaniya, Skandinaviya urmon polosasida taxminan qachon paydo bo'lgan?

- A. Eramizdan avvalgi X asrda
- B. Eramizdan avvalgi IX asrda
- C. Eramizdan avvalgi XI asrda
- D. Eramizdan avvalgi XII asrda

2. Qachondan boshlab butun Yevropada temir yarog'lar rasm bo'lgan?

- A. Eramizdan avvalgi VII asrda
- B. Eramizdan avvalgi VIII asrda
- C. Eramizdan avvalgi X asrda
- D. Eramizdan avvalgi VI asrda

3. Temirni eritish uchun harorat qancha bulishi kerak?

- A. 1530°
- B. 1084°
- C. 1200°
- D. 1250°

4. Metallurgiya vujudga kelgandan keyin qaysi xalqda daktillar, kabirlar, kuretlar va telxinlarga siginish paydo bo'lgan?

- A. Greklarda
- B. Rimliklarda
- C. Xetlarda
- D. Etrusklarda

5. Nemislarning temirchi xudosi qaysi?

- A. Viland
- B. Seflay
- C. Sustell
- D. Svarog



Temirdan ishlangan xanjar va qin. Mil. avv. I mingyillik

8-mavzu: Antik davr yirik shahar markazlari

Reja:

- 8.1. Antik davri umumiy tavsifi.
- 8.2. Janubiy Turkmanistonning antik davri arxeologiyasi
- 8.3. O'zbekistonning janubiy va markaziy hududlarining antik davri arxeologiyasi (Baqtriya va So'g'd).
- 8.4. O'zbekistonning shimoliy hududlarining antik davri arxeologiyasi.
- 8.5. Xorazmning antik davri arxeologiyasi.

Tayanch iboralar: Davan, Ellin shaharsozligi, Afrosiyob, Shimoliy Parfiya, **Marg'iyona**, Yerqo'rg'on, Ko'ktepa, Uzunqir, Sangirtepa majmuasi.

Antik davr

Antik iborasi lotincha “antigus” so'zidan olingan bo'lib, u qadimgi degan ma'noni anglatadi. Bu ibora XV asrda Italiya gumanistlari tomonidan dastlab ishlatilgan bo'lib, u asosan qadimgi Yunon va Rim madaniyati va san'atini ta'riflash uchun qo'llanilgan. U quldorlik davlatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishini ta'riflaydi. Aynan Yunoniston va Rimning qadimgi madaniyat uchog'i, deb qabul qilinishida ra'mziy ma'no bor. Chunki bu hududda qadimdan buyuk davlatlar hukm surgan, bo'lib ularning har biri qaysidir ma'noda jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan.

8.1. Antik davri xususiyatlari. Markaziy Osiyoning Aleksandr Makedonskiy boshchiligidagi yunonlar bosqiniga qadar bo'lgan siyosiy tarixi bevosita ahamoniylar bilan (hozirgi Toshkent va Farg'ona hududlari bundan holi) bog'liq bo'lib, imperiyaning bir necha satrapligini tashkil etgan. Mil. 327 yili Markaziy Osiyoning Sirdaryoning Markaziy oqimigacha bo'lgan hududlar yunonlar tomonidan bosib olinib, dastlab Aleksandr Makedonskiy davlati tasarrufiga, uning vafotidan so'ng esa (mil. avv. IV asrlar oxirida) selavkiylar davlati tarkibiga kiradi. Mil. avv. III asr boshlarida Yaksart Sirdaryo) orti, ya'ni Toshkent vohasi ham selavkiylar davlati tarkibiga kiradi.

Mil. avv. III asrning o'rtalarida (mil. avv. 250 yil) Janubiy Turkmanistonda Yunon-Parfiya (arshakiylar), O'zbekiston janubida Yunon-Baqtriya davlatlari qaror topadi. Baqtriyaning bu davr chegaralari siyosiy vaziyat taqozosi bilan o'zgarib borgan. Dastlab, Marg'iyona arshakiylar tomonidan bosib olingan bo'lsa, keyinroq So'g'diyona mustaqil davlat sifatida ajralib chiqadi. O'zaro urushlar tufayli siyosiy tanazulga uchrayotgan Yunon-Baqtriya erlari mil. avv. II asr ikkinchi yarmida (mil. avv. 140/130 yillar) shimol-sharqdan kelgan yuechji

qabilalari tomonidan bosib olinib, ular ittifoqi tarkibida dastlab vujudga kelgan Kushon podsholigi va imperiyalari (mil. avv. II-milodiy IV asrlar) tarkibida bo'lgan. Mil. avv. III asrda kushonlar davlati boshqaruvini sosoniy hukmdorlari qo'lga o'tadi. Mil. avv. IV asrda ko'chmanchi to'xtarlar kushonlar davlatiga barham beradi.

Shimoliy o'lkalari, xususan Xorazm, Farg'ona vodiysi va ko'chmanchi sak-massaget qabilalari yerlari yunonlar ta'siridan chetda qolib, ularning tarixi o'zgacha siyosiy jarayonlar bilan belgilanadi. Toshkent vohasi hamda Sirdaryoning quyi oqimigacha bo'lgan erlar mil. avv. III asrda tashkil topgan Kanguy davlati tarkibiga kirgan bo'lsa, Farg'ona vodiysi yerlarida esa alohida ma'muriy hududni tashkil etib, mil. avv. II asrga oid xitoy manbalarida keltirilgan Davan (Dayuan) davlatlari rivojlangan.

Mazkur siyosiy jarayonlar Markaziy Osiyo tarixiy o'lkalari madaniy hayotiga sezilarli ta'sir qilib, u yoki bu xalqlar madaniyatining ta'sirida ko'rinadi. Xususan, Markaziy Osiyoning janubiy o'lkalarida ellin madaniyati an'analari: shaharsozlik, qurilish, me'morchilik kulolchilik va haykaltaroshlik sohalariga sezilarli ta'sir qilib, keyinchalik shimoliy o'lkalarda ham ta'siri namoyon bo'la boshlaydi.

Ellin shaharsozligi uchun kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak shaklidagi aniq reja asosida kvadrat xom g'ishtlardan barpo etilgan mudofaa devorlari bilan o'rab olingan shaharlar qurish xos. Mudofaa devorlari odatda to'g'ri to'rtburchak minoralar va ularda joylashgan shinaklar bilan kuchaytirilgan. Devorlar ikki qator bo'lib, ichki tomondan karidor qurilgan. Ichki galareya (uzun xona)da kamonchilar uchun mo'ljallangan shinaklar joylashgan. Kamonchi askarlar uchun mo'ljallangan shinaklar ikki qavatda joylashgan. Bu manzara Afrosiyobning ellinlar davriga oid mudofaa devorida to'liq namoyon bo'ladi. Bu davrga oid boshqa shaharlar qurilishida ham ellin me'morchilik usullari keng tarqaladi. Shuningdek, Markaziy Osiyoning janubiy o'lkalarining ellinlar davriga oid me'morchiligida imoratlarni palmetta (daraxt bargi o'xshash me'morchilik bezagi) va antifiks (shaklan palmettaga o'xshash) va kungaralar bilan bezatish an'anasi mavjud bo'lgan.

Janubiy Turkmanistonning antik davri arxeologiyasi

Bu hudud O'rta Osiyoning boshqa hududlari kabi Aleksandr Makedonskiy vafotidan bir necha yillar o'tib, vujudga kelgan selevkiylar davlati tarkibida bo'lgan. Mil. av. 250 mahalliy yunon zodogoni Androgor selevkiylar davlatidan mustaqil bo'lib olgandan so'ng mamlakat mil.av. 247 yili shimoldan kelgan ko'chmanchi dax (dai) yoki dai tomonidan bosib olinib, arshakiylar sulolasi tarkib topadi. Arxeolog olim L.M. Levina Arshak boshchiligidagi dax (dai) qabilalari migrastiyasini Sirdaryo deltalaridan birida rivojlangan Chirikrabot madaniyat qurg'oqchilik tufayli inqirozi uchrashi natijasi bilan bog'laydi. Mil. av. II asrlarda Parfiya davlatining qudrati yanada kuchayib, mamlakat chegaralari Suriyaga qadar erlarga qadar kengayib yirik imperiyalardan biriga aylanadi. Bu davrda Marg'iyona ham bosib olinib, Parfiya tarkibiga kiritiladi. III asrning birinchi choragida Eronda tobor kuchayib borayotgan sosoniylar Parfiya davlatiga barham berib, Umumiy tavsifi Shimoliy Parfiya va Murg'ob vohalari bosib olinadi.

Shimoliy Parfiya hududining antik davri yodgorliklarini o'rganish 1930 yildan boshlangan. Vohaning antik davri moddiy madaniyat meroslarini o'rganishning yangi bosqichi 1946 yili Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleksi tashkil etilgandan so'ng boshlanadi. O'tgan asrning ikkinchi yarmi davomida M.E.Masson, A.A.Marushenko, G.A. Kosholenko, D.Durdiyev, V.N.Pilipko va boshqa arxeolog olimlar tomonidan amalga oshirilgan turli darajadagi tadqiqotlar davomida barcha turdagi arxeologik yodgorliklar o'rganilgan.

Eng yirik yodgorliklar sirasiga Yangi Niso, Eski Niso, Yariqdepa, Xusravqal'a shu kabi qadimgi shahar xarobalari qal'a-qo'rg'on, dehqonchilik qishloqlari yoki alohida maqsadlar uchun xizmat qilgan manzilgohlar (Eski Niso, Mansurtepa) aniqlanib, ularda turli darajadagi qazishma ishlari amalga oshirilgan.

Hozirgi Ashgabad shahridan 18 km. g'arbda joylashgan Yangi Niso nisbatan yaxshi o'rganilgan manzilgohlar sirasidagi qo'hna shahri xarobasi sanalib, o'z davrida sun'iy do'nglikda joylashgan ark (4 ga. atrofida) va unga tutash shahar

(18 ga.) va shahar atrofidan tashkil topgan qadimgi shaharning uchala qismlari alohida mudofaa devorlari bilan muhofaza qilingan.

Muhim maqsadlarda foydalanilgan manzilgohlar sirasiga kiruvchi Eski Niso ehtimol Mitridat I (mil.av. 171-138 yy.) hukmronligi davrida barpo qilingan Parfiya hukmdorining qo'riqxonasi qal'asi-Mixrdatkirt (Mitridatokert) yodgorligi markazida saroy-ibodatxona majmuasi va ular uchun xizmat qilgan xo'jalik hamda yashash xonalari joylashgan. "Kvadrat zal", "Aylana ibodatxona" va "Minorasimon ibodatxona"lar muhim o'rin tutadi.

Ayrim ilgari rejalashtirish asosida aniq o'lchamda barpo qilingan shahar turidagi manzilgohlar odatda qalin mudofaa devorlari bilan muhofaza qilinib, to'g'ri to'rtburchak burjlar bilan ta'minlangan. Shuningdek, aylana yoki kvadrat o'lchamga asoslangan manzilgohlar qal'a vazifasini bajarib, ularning atrofi odatda zichlangan tuproq devorlar (val) muhofaza qilingan. Bu davrda asosiy qurilish ashyosini tuproq tashkil etib, odatda xom g'isht va paxsa sifatida foydalanilgan. Xom g'ishtlar to'g'ri to'rtburchak va kvadrat o'lchamlardan iborat. Ayrim ko'tarma devorlar pishgan g'ishdan barpo qilingan. Imorat tomlari asosan yog'och bolor asosida tekis, ayrim hollarda esa gumbaz qilib, aylana moratlar chodirsimon shaklda yopilgan.

Shimoliy Parfiyaning asosiy xo'jaligi sug'orma dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik shakllaridan iborat bo'lgan. Hunarmandchilikda birinchi navbatda dehqonchilik ish qurollari yasash asosiy o'rin egallagan. Bu davrdagi harbiy qarama-qarshilik qurol-yarog'lar ishlab chiqarishga bo'lgan talabni kuchaytirishi tabiiy, edi. Shimoliy Parfiyaning nisbatan yaxshi o'rganilgan hunarmandchilik turlaridan biri-kulolchilik sapol parchalari, xumdonlar ko'plab qdgorliklarda o'rganilgan. O'rganilgan xumdonlar aylana shakldagi ikki yarusdan iborat. Angob berish va pardoqlash keng qo'llanilgan antik davri sapollari yuqori sifati bilan ajralib turgan. Bu davrda kosalar, piyolalar, ko'zalar va bokalsimon idishlardan foydalanilgan. Antik davrining oxirlarida angob berish va pardoqlash susayadi. Angoblar qizil, qizil-jigar va jigar ranglaridan iborat. Bu davrda ayniqsa, tagli bokalsimon idishlar urf bo'lgan.

Marg'iyona. Marg'iyona O'rta Osiyoning antik davri yirik tarixiy madaniy o'lkalaridan biri bo'lib, Marg'iyona Turkmaniston Respublikasining Murg'ob vohasi hududida joylashgan.

Ma'lumki, mil av. 521 yil Frada boshchiligidagi qo'zg'alon Doro I buyrug'i bilan Baqtriya podshosi Dadarshish tomonidan bostirilgandan bostirilgandan so'ng Marg'iyona o'lkasi Baqtriya satrapligi tarkibiga kiritilib, mil.av. II o'rtalarida o'lka Parfiya davlati tomonidan bosib olingunga qadar Yunon-Baqtriyasi podsholigi tarkibida bo'lgan. Keyinchalik esa II asrning birinchi choragida Parfiya davlati vorisi sifatida vujudga kelgan sosoniylar davlatining tarkibida rivojlanadi.

O'lkaning Aleksandr Makedonskiy bosqinidan keyingi tarixiga oid qisqacha ma'lumotlar yunon-rum mualliflarinig asarlari va keyichalik xitoy manbalarida uchraydi.

Marg'iyonaning antik davri moddiy madaniyati XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridagi arxeologiyaga havasmand olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. O'lka arxeologiyasini ilmiy jihatdan o'rganish ishlari ikkinchi jahon urushidan keyin Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspedistichsi (YuTAKE) tashkil etilgandan so'ng boshlanadi. O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU) "O'rta Osiyo arxeologiya" kafedrasini ilmiy jamoasi 30 yildan ortiq davr mobaynida vohaning antik davri markazi bo'lgan Gyaurqal'a va Erkqal'a yodgorliklarida keng ko'lamdagi arxeologik qazishmalarni olib boradilar. Mazkur tadqiqot ishlarida kafedra arxeolog olimlaridan M.E.Masson, Z.I.Usmanova, M.I. Filanovich va boshqalarning xizmatlari katta. Mahalliy arxeologlardan D.Durdiev va antikshunos arxeolog olim G.A. Kosholenkolar ham vohadagi boshqa bir arxeologik yodgorliklarni o'rganishga o'z hissalarini qo'shishgan.

O'lkada saqlanib qolgan antik yodgorliklar arxeologik belgilariga ko'ra qadimgi shaharlar va qadimgi dehqon jamoalarining qishloqlarini tashkil etadi. Vohaning antik dariga oid manzilgohlaridan Gyaurqal'a, Erkqal'a, Ko'hna Kishman, Jintepa, Takirjatepa, Durnali va Devqal'a kabi yodgorliklar arxeologik jihatdan yaxshi o'rganilgan.

Marg'iyoni madaniyati o'ziga xos taraqqiyot yo'nalishiga ega bo'lganining guvohi bo'lish mumkin. Zardushtiylik asosiy diniy e'tiqod sifatida mavqei yuqori bo'lgan. Mahalliy mabudalar kultiga sig'inish odatlari ham saqlanib qolgan.

Moddiy madaniyatda terrakotik haykalchalar namunalaridan muhim ahamiyat kasb etadigan san'at tarSapol idishlari tez aylantiradigan charxda ishlangan. Yodgorliklardan temirdan ishlangan ro'zg'or anjomlari, mehnat qurollari va qurol yarog'lar yasalgan. Shuningdek, zeb-ziynat buyumlari, ayol va ma'buda tasvirlari berilgan terrakotik haykalchalar qadimgi marg'iyonaliklarning boy moddiy madaniyatidan dalolat beradi.

Qadimgi marg'iyonaliklarning asosiy mashg'uloti sug'orma dehqonchilik bo'lgan. Qadimgi yunon va xitoy yozma manbalarida bug'doy, guruch, uzum ekishganliklari to'g'risida xabar beradi. Arxeologik jihatdan esa poliz mahsulotlari yetishtirganliklari to'g'risida ashyoviy manbalar aniqlangan.

Janubiy O'zbekistontonning antik davri arxeologiyasi

Baqtriya. Dastlab ahamoniylar, keyin selevkiylar tarkibidagi satraplikni tashkil etgan. Mil.avv. III asrning o'rtalari yunon zodogonlaridan bo'lgan Diodot selevkiylardan mustaqil bo'lgan Yunon-Baqtriya davlatiga asos solgan. Bu davrda (Evtidem, Demetriy, Evkratid) mamlakat hududi Hindistonning shimoli-g'arbga qadar kengayadi. Ayrim ilmiy farazlarga ko'ra So'g'd hududlari ham ushbu mamlakat tarkibida bo'lgan. Mamlakat makazlashgan monarxiyaga aylanadi. Mil.avv. II asrning o'rtalarida (Mitridat I davrida) g'arbda Parfiyaning qudrati kuchayib, Marg'iyona bosib olingan. So'g'd ham taxminan mana shu davrlarda ajralgan bo'lishi mumkin.

Tinimsiz olib borilgan urush harakatlari mamlakat harbiy qudratiga salbiy ta'sir etib, mil.avv.140/130 yillarda sak-yuechji qabilalarining hujumi uning batamom tanazuliga sabab bo'lgan. Mil. avv. I asrda besh guruhdan *da-yueji* qabilalari (*da*-katta, buyuk) ittifoqidan tashkil topgan davlat o'rnida Kushon podsholigi qaror topadi. Kanishka hukmronligi davridan mamlakat hududi Hindistonning shimoliga qadar kengayib, o'z qudratining yuqori cho'qqisiga chiqadi. Kanishkadan keyingi hukmdorlar davrida mamlakat qudrati susayib

ketadi. Bu vaziyatdan foydalangan Eronda sasoniylari, mamlakatni boib olib, III asrning ikkinchi choragidan mamlakat boshqaruvi forslarga hukmronligiga o'tgan.

Baqtriyaning antik davri moddiy madaniyati XIX asrning oxirgi choragida (1877 yil) Amudaryo xazinasi o'rganishdan boshlangan. O'tgan asrning birinchi yarmida aniq ilmiy maqsadlarga qaratilgan arxeologiya dala qidiruv ishlari Termiz shahrining atrofidagi antik davriga oid yodgorliklarni o'rgangan.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab Baqtriyaning antik davri arxeologiya yodgorliklarini o'rganish ishlari yangi pog'onaga ko'tariladi.

Baqtriyaning antik davri yodgorliklari shakli va vazifasi jihatdan bir necha turlari ajralib turadi. Ular maydoni jihatdan o'zaro farq qiladigan katta-kichik shahar markazlari, dehqonchilik qishloqlari, alohida joylashgan saroylar, diniy inshoot-ibodatxonalardan iborat bo'lgan. Ularni tadrijiy jihatda ham ahamoniylar, yunon-baqtriya va kushonlar davrlarida shakllangan antik davriga oid qo'hna shaharlarini tadrijiy jihatdan bir necha guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh shaharlari mil.avv. I ming yillikning o'rtalarida shakllanib, ellinlar davrida ham faoliyat yuritgan (Talashkontepa II, Jondavlattepa, Hayitabodtepa, Qal'ai Mir). Ikkinchi guruh shaharlar Yunon-Baqtriya davrida (Eski Termiz, Dalvarzintepa, Kampirtepa-Kofirqal'a, Keykabodshoh, Saksanoxur), uchinchi guruh shaharlar esa Kushonlar davrida (Zartepa, Budrach, Garovqal'a, Shaxtepa va boshqalar) vujudga kelib, faoliyat yuritgan.

Yunon manbalarida Tarmita, xitoy manbalarida *Tami* nomlari bilan keltirilgan shahar eski Termiz yodgorligi o'rnida faoliyat yuritgan.

Kushonlar davrida shahriston qismi ham shakllanib, alohida mudofaa devori barpo etiladi. Manzilgohning barcha hududi o'zlashtirilib, shahar atrofi qismi ham paydo bo'ladi. Shaharda turli tabaqa vakillarining uy-joy imoratlari, ishlab chiqarish inshootlari, budda dini ibodatxonalari paydo bo'ladi. Ayrim uy-joylarning ko'lami xiyla katta bo'lib, ularni barpo qilishda yog'och ustunlardan foydalanilgan. Saroy imoratlari va hashamdor uylar ichki tomondan boy mazmundagi rang-tasvir bezaklari bilan jihozlangan.

Manzilgoh ichkarisida oldindan rejalashtirish asosida barpo qilingan davlatmand va oddiy shaharliklar uy-joylari hamda hunarmandlar kulollar mahallasi o'rganilgan. Oddiy shaharliklarning sodda uylaridan tortib, uy devorlari ichki tomondan boy mazmundagi rang-tasvirlar va o'yma ganchli naqshli bezaklar berib ishlangan davlatmand va shaharlik zodagonlarning mahobatli, shinam uylari ajralib turadi.

So'g'd. Markaziy Osiyoning yirik madaniy-tarixiy viloyatlaridan biri bo'lgan So'g'd antik davrida Zarafshon (Samarqand va Buxoro viloyatlari) va Qashqadaryo vohalarilari hududlaridan tashkil topgan. Ayrim yunon mualliflari (Strabon) manbalarida keltirgan ma'lumotlarda uning janubiy hududi Amudaryo bilan chegaralanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud.

Umumiy etnik jihatdan hisoblangan butun o'lka aholisining madaniy taraqqiyoti darajasi va xususiyatiga ko'ra nisbatan yaqin bo'lsada, ular o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadigan alohida vohalar yoki mikrovohalardan tashkil topgan.

So'g'dning antik davri tarixi oid va ayrim toponimlariga oid qisqa va mavhum yozma manba ma'lumotlari yunon-rim, xitoy va qisman arman manbalarida uchraydi.

O'lkada antik dariga oid turli vazifalarni bajargan arxeologik yodgorliklar aniqlanib, ularning asosiy qismida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. O'z davri tarixi va madaniyatidan xabar beruvchi moddiy manbalar yirik shahar turidagi yodgorliklarda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida nisbatan ko'proq to'plangan. Yirik shahar markazlarining asosiylari (Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Ko'ktepa, Uzunqir-Podayotoq-Sangirtepa majmuai) ilk temir va arxaik davri o'rnida faoliyat yuritgan bo'lsa, boshqa bir guruh ko'hna shaharlar (Qalai Zaxaki Maron, Kitob shahridagi Qalandartepa yodgorligi, Talli Barzu, Buxoro va boshqalar) bevosita antik davrida shakllangan.

Afrosiyob o'lkaning asosiy yirik shaharlar makazi sifatidagi ahamiyatini saqlab qoladi. Antik davri manbalarida qayd etilgan Marokandaning o'ni bo'lgan.

Shaharning antik davridan darak beruvchi moddiy manbalar Afrosiyob II va III bosqichlariga oid madaniy qatlamlarda o'z aksini topgan.

Markaziy Osiyo hududi yunonlar tomonidan bosib olingandan so'ng barcha hududlardagi kabi o'lkada ellin madaniyatining ta'siri kuchayadi. Ayniqsa, bu jarayon shahar qurilishida ko'proq namoyon bo'ladi.

Samarqand So'g'dning antik davri san'at namunalari terrakotik haykalchalarda o'z aksini topgan. Qo'llarida ho'l meva, o'simlik, gullar yoki o'simlik ushlab turgan hosildorlik ayol ma'budalarining haykalchalaridan iborat. Ust bosh kiyim kechagi turli holatlarda tasvirlangan. Musiqa asoblari bilan tasvirlangan ayol va erkaklarning haykallari ham uchraydi.

Buxoroda antik davri yirik shahar markazlar yaxshi o'rganilmagan. qishloq tipidagi manzilgohlarning ikki turi ajralib turadi. Qizilqir I Setaloq II, Romish manzilgohlari arxeologik jihatdan nisbatan yaxshi o'rganilgan yodgorliklari hisoblanadi.

Qadimgi Buxoro shahrining antik davrining qaysi bosqichida shakllanganligi to'g'risidagi aniq arxeologik ma'lumot yaxshi o'rganilmagan.

Qadimda Janubiy So'g'dni tashkil etgan hozirgi Qashqadaryo vohasining moddiy madaniyati xususiyatlariga ko'ra umumiy va xususiy jihatlari bilan qisman farqlanadigan ikkita alohida vohalari ajralib turadi. Vohaning sharqiy qismi kichik daryo o'zanlari va Qashqadaryoning oqimi pasaygan o'rta oqimi hududlaridan tashkil topgan.

Paxlaviy, yunon-rim va xitoy yozma manbalarida keltirilgan ayrim toponimlar (Kish, Nikshapiya va Nautaka, Ksenippa) zamonaviy tadqiqodchi olimlar tomonidan Qashqadaryo vohasi hududlari bilan qiyoslangan. O'tgan asrning oxirlariga qadar antik davri yunon-rim mualliflari yozma manba ma'lumotlarida tilga olingan Nautaka va Ksenippa viloyatlari S.K.Kabanov tomonidan Kesh va Naxshab vohalariga qiyoslanib, uning fikrlari vohaning qadimgi davr tarixi bilan shug'ullanuvchi boshqa olimlar tomonidan ma'qullanib kelingan.

Naxshabning antik davri yirik shahar markazi bo'lgan Yerqo'rg'on yodgorligi arxeologik jihatdan yaxshi o'rganilgan. Ilgaridan rejalashtirilgan loyiha asosida qurilgan ko'hna shahar qudratli mudofaa tizimi va ikki kator mudofaa devori bilan mustahkamlangan. Ichki mudofaa devori 40 ga, tashqari mudofaa devori 150 ga maydonni o'rab olgan. Ark shaharistonning shimoliy qismida joylashgan bo'lib, 90x60 metr hajmda ark mudofaa devori mudofaa burjlari va shinaklar bilan kuchaytirilgan. Yodgorlikdan mil. avv. III-IV asrlarga oid saroy bino o'rni hamda III-IV asrlarga oid ibodatxona o'rganilgan. Ibodatxonaning markaziy toat-ibodat qilinadigan xonasi yirik xajmda bo'lib, ustunlari ostida yopilgan va uning devorlari haykalchalar va rang tasvirlar bilan bezatilgan. U erdan tutatqi idishlar, oyna, ilon va qurbaqa tasvirlari topilgan. Ibodatxona ko'rinishidan olov va suvga sig'inuvchilar uchun hizmat qilgan. Shuningdek, Yerqo'rg'ondan kulolchilik mahallalasining o'rni aniqlangan bo'lib, u ilk temir davri devori tashqarisida joylashgan.

Qarshi vohasida mil. avv. II asrda o'ziga xos yirik shahar markazi qaror topadi. Uning xarobalari Qarshi shahri hududida joylashgan Qalai Zaxoki Maron yodgorligida aksini topgan. Bu yodgorlikning saqlanib qolgan xarobalari uchta qismlardan iborat bo'lib, ularning har biri alohida mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Ko'hna shaharning umumiy maydoni 225 gektardan iborat bo'lib, markaziy qismidagi ichki qal'asi 1 ga, ikkinchi xalqasi 43 ga.dan ortiq maydonni egallagan. Mudofaa devorlarida burjlar uchramaydi. Manzilgohning ikkinchi devorida IV-V asrlarda ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi. Manzilgohning markazidagi qal'ada VII asrlarga oid kichik mulkdorlar qasri barpo etiladi. Ko'rinishdan manzilgoh ilk o'rta asrlar davrida ham shahar sifatida faoliyat yuritgan.

O'ziga xos me'moriy-muxandislik xususiyatiga ega bo'lgan mazkur shahar markazining Qarshi vohasida paydo bo'lishini arxeolog olim R.H. Sulaymanovning ilmiy taxminlari ko'ra Sirdaryoning quyi oqimida Chirikrabod madaniyatining inqirozga uchrashi natijasida Orolbo'yi saklarining So'g'diyonada siyosiy doirani egallashi bilan bog'liq bo'lgan. Ma'lumki, mil.avv. II asr

Sirdaryoning quyi oqimi o'zanlarida ekologik inqiroz tufayli Babishmulla, Chirikrabad kabi madaniyatlar inqirozga uchrab, u erda yashagan aholi turli joylarga ko'chishga majbur bo'lganlar. Ularning bir qismi O'rta Osiyoning chekka janubiy-sharqiga, boshqa bir guruhi esa Sirdaryoning o'rta oqimi, ya'ni Toshkent vohasiga, boshqa bir guruhi Qashqadaryo vohasiga kelib joylashganlar.

Qashqadaryo vohasining sharqida Kitob shahrining qadimgi o'rni 40 ga ortiq bo'lgan. Shaharlarning arki (may. 1 dan ortiq) kulolchilar mahallasi aniqlangan. Ba'zi bir tadqiqotchilarning fikriga ko'ra qadimgi Kesh Qang'larning janubiy viloyati bo'lib, yozma manbalarda keltirilgan Qang'-Susega to'g'ri keladi. Lekin Qashqadaryo vohasining Kushonlar davlati tarkibida bo'lgan, degan fikrlar ham mavjud.

Qashqadaryo vohasining sharqida Kitob shahrining qadimgi o'rni 40 ga ortiq bo'lgan. Shaharlarning arki (may. 1 gektardan ortiq) kulolchilar mahallasi aniqlangan.

Ba'zi bir tadqiqotchilar olimlarning taxmin qilishlarichafikriga ko'ra qadimgi Kesh Kangyuy davlatining janubiy viloyati bo'lib, yozma manbalarda uning tarkibida keltirilgan beshta viloyatlardan biri - Si-sega qiyoslanadi. R.H. Suleymanov mazkur qiyosni boshqa tomondan ma'qullaydigan fikrni bildiradi.

O'zbekistontonning shimoliy hududlarining antik davri arxeologiyasi

Farg'ona. Antik davri yunon-rum yozma manbalaridagi qayd qilingan ayrim xalqlar keltirilgan mavhum xabarlarni orqali Farg'onaning antik davri to'g'risida mulohaza yuritish qiyin. Geradotda keltirilgan parikaniylarni Farg'onaga joylashtirishga qarama-qarshi fikrlar mavjud. Xitoy manbalarida keltirilgan *Davan (Da-Yuan)* Uning ma'lumotlarida Davan davlati qo'shni Kanguy davlati bilan bir qatorda Xitoy qo'shinlari qarshiligiga tura oladigan qudratli davlatlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Yozma manbalarda davlat poytaxti **Ershi** shahridan tashqari yuzlab shaharlar mavjud bo'lganligi ta'kidlangan. Bu ma'lumot birinchidan xitoyliklarning shahar tushunchasidan kelib chiqqan holat bo'lsa, ikkinchi Farg'ona vodiysida ushbu davrga oid manzilgohlar sonining ko'pligi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, ushbu manbalarida Davanning afsonaviy uchar

otlari-arg'amaqlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Hatto, xitoyliklar otlarni qo'lga kiritish maqsadida o'lkaga harbiy yurish uyushtirib, mahalliy hokimiyat ma'lum muddat ularga qarshi tura olganligi manbalardan ma'lum.

Farg'ona vodiysining antik davri arxeologiyasini ilmiy jihatdan o'rganish XX asrning 30-yillaridan B.A.Lat'min olib borgan tadqiqot ishlari bilan boshlangan. Farg'ona kanalini qurilish munosabati bilan arxeologik tadqiqot ishlari ko'lami kengayadi. M.E.Masson, G'ulomov Ya.G', Jukov V.D, T.G.Oboldueva, Yu.A.Zadneprovskiy kabi arxeologlar tomonidan tadqiqot ishlari rivojlantiriladi. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot yodgorliklarni o'rganishning yangi bosqichi bo'lib, mazkur davrning boy tarixi va madaniyatidan darak beruvchi moddiy manbalarga ega bo'lgan arxeologik yodgorliklar o'rganildi. Ularni o'rganishda Yu.A.Zadneprovskiy, Baruzdin Yu.D, N.G.Gorbunova, D.F.Bыkina, B. Abulgazieva, keyinchalik esa A.Anorboev, B.Matboboev, F. Maqsudovlar qo'shilishadi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar tadqiqot ko'lamining kengayishi bilan birga mavjud ma'lumotlarni yangi metodologik yondashishga asoslangan.

Antik davriga oid yodgorlik majmualarni Yu.A.Zadneprovskiy Sho'rabashat (mil. avv. IV-I asrlar-Sho'rabashat va Qoratepa bosqichlar) va Marhamat (I-IV asrlar Xo'jambog' va Marhamat bosqichlari) davrlariga ajratadi.

N.G.Gorbunova esa Elaton o'rnida vujudga kelgan yangi arxeologik majmuani Ko'gay-Qorabuloq madaniyati (mil.avv. II-VII asrlar) faoliyat yuritgan, deb hisoblaydi. Bu davrlashtirishga muvofiq uning dastlabki ikki bosqichi (ilk-mil.avv. II - milodiy I, ikkinchi bosqichi I-IV) antik davriga oid.

Sho'rabashat bosqichiga oid yodgorlikning eng yirigi va yaxshi o'rganilgani shu nomdagi manzilgoh hisoblanib, u Yassi daryosi bo'yida joylashgan. Umumiy maydoni 70 ga. dan iborat. Daryodan tashqari barcha tomonlari tuproq uyumidan iborat devorlar (val) bilan o'ralgan Ark manzilgohning sharqida joylashgan. Bundan tashqari Qoradaryo manzilgohida arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Uning maydoni 10 ga. dan iborat. Moddiy madaniyat namunalariidan kulolchilik

buyumlari, yorug'uchoq, tosho'roq, urchuqbosh va boshqalar topilgan. Kulolchilik buyumlari qo'lda va charxda yasalgan. Ularning sirti naqshlar bilan bezatilgan.

Ustrushona. Ustrushona o'lkasi to'g'risida qadimgi yozma manbalarda ma'lumolar uchramaydi. Faqat antik davri mualliflari asarlarida Aleksandr Makedonskiyning Yaksart (Sirdaryo) bo'yiga yurish qilib, bu erdagi Eron shohi Kir tomonidan asos solingan Kiropol shahrini vayron qilgach uning o'rnida o'rnida barpo ettirgan mustahkam qal'ani Aleksandriya Esxata nomi bilan ataganligi to'g'risidagi ma'lumotlar saqlangan. O'lkaning antik davri manzilgohlari nisbatan yaxshi o'rganilmagan. Bu davrda Xo'jand ko'hna shahri, O'ratepa (Mug'tepa), Munchoqtepa va Shirin kabi shahar turidagi manzilgohlar faoliyat yuritgan.

Xo'jand qo'hna shahrida aniqlangan madaniy qatlamlarga ko'ra hayot milodning boshlariga qadar davom etgan. Shirin manzilgohining quyi qatlami sopollari mil. av. IV asrlarga oid bo'lib, tadqiqotchi olimlarning taxminlariga ko'ra milodning birinchi asrlarida shaharga aylangan. Umumiy maydoni 10 *ga.* ni tashkil etgan. Mug' (O'ratepa) manzilgohi ham taxminan mana shu davrda shakllangan. Sirdaryo bo'yida joylashgan Munchoqtepa manzilgohi nisbatan yaxshi saqlangan. U to'g'ri to'rtburchak shaklli 4 *ga.* dan iborat manzilgohni bo'lib, daryo suvi muntazam yuvib turganligi tufayli maydon qisqarib ketgan. Shimoliy-sharqida nisbatan baland joyda joylashgan 70x40 *m.* qismi ko'rinishidan qo'hna shaharning ark bo'lgan. Manzilgoh xom g'ishtlar bilan terilgan devorlari bilan mudofaa qilingan. Shirin va Mug'tepa (O'ratepa) manzilgohlari o'rnida ham milodning birinchi asrlarida hayot shakllangan.

Choch. Qadimgi Choch-Chirchiq vohalaridan tashkil topgan hozirgi Toshkent viloyati hududidan iborat o'lka. Choch tarixiga oid aniq ma'lumotlar qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida uchraydi. Tarixchi Strobosning "Geografiya" asarida keltirilgan ma'lumotlarda mil.avv. I ming yillikning o'rtalarida Yaksart (Sirdaryo) ortidagi erlarda jangavor sak qabilalari istiqomat qilganligi keltirilgan.

Boshqa bir yunon muallifi Dionisiy Periegit asarida Selevkiylar sarkardasi Demodam daryo ortiga (Yaksart) yurish qilib, qal'aga asos solganligi to'g'risidagi

ma'lumot mavjud. Bu voqea kamida mil.avv. III asr boshlarida sodir bo'lgan. Bu shahar akademik Yu.F.Buryakovning fikriga ko'ra hozirgi Qanqa yodgorligining dastlabki o'rnida (maydoni 6,5 gektar) bo'lgan. Bu yodgorlikning eng qadimgi o'rnini aniq reja asosida, ya'ni to'g'ri to'rtburchak shaklda ellinlar o'lchamidagi kvadrat g'ishtlardan barpo qilingan. Shaharning bir qismida ark joylashgan. Shahar uch tomonidan mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Devor ikki qatordan iborat bo'lib, o'rtasida yo'lakcha-galereya joylashgan. Mudofaa devori to'g'ri to'rtburchak shaklidagi burjlar bilan kuchaytirilgan. Mudofaa devori va burjlar jangavor shinaklar bilan kuchaytirilgan. Devordan tashqarida suv to'ldirilgan keng va chuqur xandak joylashgan. Devor bilan xandak o'rtasida "berma" yoki "proteyxizm" qoldirilgan ("berma" yoki "proteyxizm"- devorni suvdan himoya qilish dushmanning qarshiligini sindirish maqsadida mudofaa devordan xandakga tomon biroz bo'rtib chiqqan joy). Ark bilan shahar o'rtasida ham xandak qazilgan. Shahar arkiga shimoli-sharqiy tomondan pandus orqali kirilgan. Shahar darvoza janubiy-g'arbda joylashgan. Darvozaning ikki tomonida soqchilar turadigan burjlar (minora)o'rin olgan. Xandakdan ko'tarma ko'prik orqali o'tilgan.

Keyingi davr tarixi bilan bog'liq voqealar tavsiloti bilan Xitoy manbalari orqali tanishish mumkin. Chjan Stzyan (mil.avv. II asrning ikkinchi yarmi) keltirgan ma'lumotlarda o'lka *Yuni* nomi bilan tilga olinib, uning Kanguylar davlati tarkibiga kirganligi ta'kidlanadi. Keyingi davr xitoy manbalarida *Shi*, *Chjeshi* (*Chjesi*) shaklida keltirilgan.

O'lkada dastlabki shahar (Qanqa) yuqorida ta'kidlanganligi kabi mil. avv. III asr boshlarida shakllanadi. Mil. avv. III asr u'rtalarida vohaga Sirdaryoning quyi oqimi hududidan ilgari shaharsozlik an'analari bilan tanish bo'lgan qabilalarning ko'chib kelib joylashishi kuzatiladi. Bu erda mahalliy Burgulik, ko'chmanchi sak qabilalari va Jetiosar madaniyati qisman o'lkaga ellin madaniyati an'analari kirib kelishi bilan antik davrida o'ziga xos madaniyat shakllanadi.

Arxeologik jihatdan vohaning antik davri dastlabki o'rganilgan yodgorlikga nisbatan Qovunchi madaniyati nomi bilan yuritiladi. Qovunchi I (mil. avv. III asrning ikkinchi yarmi-mil. miloning boshiga qadar) Qovunchi II (milodning I

asridan-IV asrlar boshi). Vohada antik davriga oid dan ortiq yodgorliklar aniqlangan bo'lib, ulardan 13 tasi Yu.F. Buryakovning taxminlariga ko'ra qadimgi shahar sirasiga kiradi. Ulardan Qovunchitepa, Kindiktepa, Shoxruxiya, Kavardan, Xonobodtepa, Quloqchintepa, Kugaittepa, Mingo'rik, Shoshtepa va boshqalarni qayd etish mumkin.

Vohaning dastlabki shahar xarobasi Ohangaron vohasida mil. avv. IV asrning oxirlari Kanka ko'hna shahri paydo bo'ladi. Devor ellinlar qurilishi an'anasi asosida barpo qilinib, kvadrat g'ishtlardan barpo kilingan mudofaa devorining o'rtasida soqchilar yurishi uchun maxsus yo'lakcha (galareya) oldirilgan va burjlar bilan kuchaytirilgan. Devor tashqarisida chuqur va keng xandak qazilgan. Taxminan mil. avv. II-I asrlarga kelib, Kangyuylar davlatining ma'muriy markaziga aylangandan so'ng shahar maydoni xiyla kengayib uning umumiy maydoni 150 ga yetadi. Ushbu maydondagi manzilgoh, to'g'ri to'rtburchak shaklidagi xom g'ishdan qurilgan mudofaa devorlari bilan o'ra olinadi. Devorning taxminan har 40-50 metrda yarim aylana shaklidagi mudofaa burjlari barpo qilinadi. Mazkur maydonni egallagan shahar eftalitlar davriga kadar rivojlanadi. Undan keyin shahar o'rta Osiyoning boshka ba'zi shaharlarida kuzatilganligi kabi maydoni ancha qisqaradi.

Sirdaryoning chap sohilida joylashgan Shohruxiya harobasidir. Uning qadimgi davrdagi tomonlari 600x600 metrdan iborat bo'lib, hozirgi paytda ko'pgina qismini daryo yuvib ketgan va uchburchak shaklida saqlanib qolgan.

Shoshtepa manzilgohi ibodatxona shaklidagi qurilish majmuasi bo'lib, Jetiosar diniy inshootlari bilan umumiy aloqadorligi mavjud. Qovunchi madaniyatining keyingi bosqichida Mingo'rik manzilgohining shakllanishi kuzatiladi. Manzilgoh 35 gektardan iborat maydonni egallagan. Shahar umumiy mudofaa devoriga ega. Ark va shahriston qismlari ajralib turadi. Arkda saroy, harbiy zahira uchun mo'ljallangan imorat va boshqalarning o'rnini aniqlangan. Imoratlarning devorlari turli mazmundagi rang-tasvir namunalari bilan bezatilgan.

Voha antik davri madaniyat bosqichlarini o'rganishda kulolchilik buyumlari muhim ahamiyatga ega. Dastlabki bosqichga oid sopol buyumlar asosan qo'lda

yasalgan. Kovuni II bosqichidan boshlab kulolchilik charxida yasalgan sopol buyumlar soni ko'payadi va shakli o'zgaradi. Bandida avval qo'y keyingi bosqichda esa buqanin boshi tasvirlangan sopol buyumlari paydo bo'ladi. Ular aholining xo'jalik faoliyati va g'oyaviy qarashlari bilan an'analardan iborat bo'lgan. Voha shaharlarida amalga oshirilgan arxeologik qazishmalar davomida old tomonida Choch hukmdorlarining tasviri va aks tomonida tamg'a tushirilib, atrofiga so'g'd yozuvi berib zarb qilingan bir necha minglab nusxadagi tangalarning guvohlik berishicha o'lkada savo-ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasi nihoyatda yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Umuman Toshkent vohasi Farg'ona, So'g'd va Xorazmning Jettiosar madaniyatlari bilan madaniy aloqada bo'lib umumiy va o'ziga xos tomonlari mavjud.

Xorazmning antik davri arxeologiyasi.

Xorazmning antik davri tarix to'g'risidagi qisqacha ma'lumotlar yunon-rim mulliflari asarlarida saqlangan. Mil. avv. IV asr boshlarida ahamoniylardan mustaqil bo'lib olgan Xorazm shoh Farasman (Arrian) yoki Fratafern (Kurstiy Ruf) ning Aleksandr Makedonskiy bilan kelishuvi tufayli mustaqilligini saqlab qolgan. Xorazmning selevkiylar tarkibiga kirganligi to'g'risida ma'lumotlari uchramaydi.

Mil. avv. II asrning - I asr boshlariga Xan sulolasi yilnomasi (Uyan Xan shu) da keltirib o'tilgan Kanguy davlatiga tobe bo'lgan beshta viloyatlardan biri Yuegyan mulkligi tadqiqotchi olimlar tomonidan Urgench (Xorazm) bilan qiyoslangan. Xorazmshohlar to'g'risida ayrim ma'lumotlar sosoniylarning paxlaviy III-IV asrlarga oid bitiklarida keltirilgan. Beruniy keltirgan ma'lumotlarga ko'ra 305 yilda Xorazm afrig'iylar sulolasi tomonidan mustaqil boshqarilgan.

Qadimgi Xorazmning antik davri madaniyatini o'rganilishi ishlari dastlab 1936-1937 yillarda Ya.G'ulomov va T.Mirg'iyozovlarning tadqiqotlari bilan boshlangan. 1937 yilda S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspedistiyasi (XAEE), keyinchalik O'zRFA Qoraqolpag'iston arxeologiyasi bo'limi tomonida olib borilgan keng qamrovli arxeologiya tadqiqot ishlari natijasida o'lkaning qadimgi davr madaniyati yaxshi o'rganilgan.

Amudaryoning quyi oqimi hududlarida o'rganilgan arxeologiya yodgorliklarining vazifasi jihatdan bir necha turlari ajralib turadi. Yirik shahar markazlari, istehkom-qal'alar, ishlab chiqarish manzillari, uy-qo'rg'onlari va diniy inshootlar.

Xorazmning arxeologiya yodgorliklari, xususan, ko'hna shaharlari tuzilishiga ko'ra Markaziy Osiyoning boshqa hududlarinikidan farq qiladigan jihatlari bilan ajralib turadi. Bu erdagi qo'hna shahar uchun aniq o'lchamli qal'a atrofida aholi uy-joy va ishlab chiqarish inshoot qismlar joylashgan qismlari to'liq shakllanmagan tuzilish xos.

Xorazmning antik davri aholi manzillar shakllanish tarixiga ko'ra arxaik, kanguy-yunon va kushon davrlarida ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar asosida shakllangan. Quyi Amudaryoning antik davri shahar turidagi markazlaridan Qo'hna Hozorasp, Ko'hna Xiva, Axshaxonqal'a, Bozorqal'a, Yonboshqal'a, Tuproqqal'a kabi yodgorliklar Qadimgi Xorazm madaniy taraqqiyotida muhim o'ringa bo'lgan.

Amudaryoning o'ng sohili hududida ham qadimgi sug'orish inshootlaridan tashkil topgan bir necha Aqchaxonqal'a (Qozoqliyotganqal'a). Beruniy tumani hududida joylashgan yodgorlik kvadratsimon shakldan iborat bo'lib, umumiy mudofaa devoriga ega bo'lgan ko'hna shahar yuqori va quyi qal'alardan tashkil topgan.

Quyi qal'a kvadratsimon shaklli 50 ga. dan iborat joylashishi dunyo tomonlariga mos keladi. Ikki qator (6 metr.) mudofaa devorlariga ega bo'lgan. Devor mudofaa burjlari, jangavor shinaklar, xandak va "proteyxizm" yoki bermalar bilan kuchaytirilgan.

Yodgorlikning quyi qatlamidagi ashyoviy manbalar so'nggi arxaik davriga oid bo'lib, mil.avv. IV asrda shahar -milodiy IV asrlarga oid sopollar majmuasi, antropomorf va zoomorf shaklli haykalchalar bo'lib, budda haykalchalaridan iborat. G'ishtlarda tamg'alar uchraydi. Bu yerdan qisman so'nggi arxaik davri sopollari uchraydi.

Tuproqqal'a Qadimgi Xorazmning so'nggi antik madaniy-ma'muriy markazi bo'lgan. Manzilgohdan saroy ibodatxonalar va uy-joy imoratlarining o'rnini ochib o'rganilgan. Loydan yasalgan haykalchalar, xususan xorazmshohlar va ularning ajdodlari tasviri tushirib ishlangan haykalchalar va devorlardagi rang-tasvir namunalari Xorazmning qadimgi davr boy san'at namunalaridan darak beradi. Bu erda sopol sirtiga bitilgan yozuv namunalari bir tomondan qadimgi Xorazm yozuvini ikkinchi tomondan esa xo'jalik xususiyatlarini o'rganishdagi muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Qurol yarog' yasash ustaxonasi esa davlatning kuchli harbiy qudratga ega ekanligidan dalolat.

Xorazmda I-IV asrlarda juda katta qurilish ishlar amalga oshirilgan. Mamlakatda davlat hokimiyati qudratining kuchayishi natijasida yangi istehkomlar qurilib, eskilarida ta'mirlash ishlari olib boriladi.

Ba'zi bir qal'alarning mudofaa devorlari ta'mirlash bilan birgalikda, eski devorlar buzib tashlanib, yangi devorlar barpo etiladi. Hazorasp, Devkesgan, Xivadagi Tuproqqal'a va boshqa ayrim qal'alarning mudofaa devorlari o'rnida yangisi barpo etilgan.

Bu davrda qal'alarning umumiy tarhi kanguylar davridagi holatidagidek qolgan bo'lsada, ularning umumiy manzarasida keskin o'zgarishlar kiritiladi. Xususan mudofaa devorlarining tagdevorlari baland ko'tarilib, devorlar tik qurila boshlandi.

Bu davrda Xorazm me'morchiligida aylana shaklda qal'alar barpo etish an'anasi e'tibor pasayganligi ko'zga tashlanadi. I-III asrlarda aylana shakldagi qudratli devorli ayrim qal'alar o'zining mudofaa vazifasidan voz kechganligi kuzatiladi.

Qadimgi savdo yo'llarida mustahkam mudofaa tizimiga ega bo'lgan Kaparas, Qal'aijiq, Ko'nauaz va boshqa qal'alar rivojlanadi.

Milodning boshlaridagi qal'a shaharlar ma'lum hududda joylashgan dehqonchilik qishloqlarining markazida joylashgan bo'lib, mazkur sug'orma dehqonchilik hududi uchun ma'muriy markaz va harbiy istehkom vazifasini bajarganligi, tabiiy.

Qo'yqirilgan qal'a 42 diametrdan iborat aylana shakldagi minorasimon inshootdan tashkil topgan me'moriy majmua. Atrofi 9 ta minoradan tashkil topgan

mudofa devoriga ega bo'lib, 8 metr balandlikda saqlanib qolgan. Qal'a mil. avv. IV-milodiy I asrlarda ibodatxona-observatoriya sifatida faoliyat yuritgan.

Majmua xonalarining birida yirik xumlar joylashgan. Ibodatxonaning asosiy zallarida mahalliy ma'budalar haykalchalari topilgan. Shuningdek, haykal shaklidagi ossuariylar va sopollar sirtiga xo'jalik hisoblari bitilgan yozuv namunalari aniqlangan. Tuproqqal'a Xorazmning so'nggi antik davriga oid yodgorliklaridan sanaladi.

Xo'jaligining asosini dehqonchilik tashkil qilgan. Dehqonchilikda bug'doy, arpa, tariq poliz ekinlari ekilgan. Bog'dorchilik, xususan, uzumchilik yaxshi rivojlangan. Sug'orma dehqonchilik hududlari chorvachilik xo'jaligida qoramollar ustunlik qilgan Sariqamish atrofi hududlarida yashovchi aholi xo'jaligida qoramol va yilqichilik ustunlik qilgan.

To'qimachilikda paxta jun ipak tolalaridan turli matolar, gazlamalar, gilamlar, chodirlar va kigizlar to'qilganligi, tabiiy.

Xorazmliklarning g'oyaviy hayotida antik davri zardushtiylik diniy e'tiqodlari saqlanib qoladi. Antik davri ostadonlari shakllariga ko'ra xilma-xil bo'lgan.

Qadimgi Xorazm yodgorliklarida uchrab turadigan moddiy ashyolar muhim o'rin egallaydi. Xumbuztepa yodgorligidan topib o'rganilgan topilmalar orasida hayvon tasviri (otning boshiga o'xshash) tushirilgan ritonlar ham mavjud. Ritonlarga obdon ishlov berilib, sirtiga qizg'ish angob surtilgan. Uning bo'yin qismida teshigi mavjud. Bunday ritonlar Qadimgi Xorazm o'lkasining Qo'yqirilganqal'a va Oybuyriqal'a kabi ayrim yodgorliklaridagina uchraydi.

Mavzuga oid savollar:

1. Xorazmning antik davri aholi manzillar shakllanish tarixiga oid ma'lumotlar?
2. Mingo'rik manzilgohining shakllanishi va tuzilishini arxeologik tadqiq etilishi?
3. Qo'hna Hozorasp, Ko'hna Xiva, Axshaxonqal'a, Bozorqal'a, Yonboshqal'a, Tuproqqal'a kabi yodgorliklar haqida bilasizmi?
4. Antik davri xususiyatlarini sanab o'ting?

Mavzuga oid test

1.Yerqo'rg'ondagi dastlabki arxeologik qazishma ishlari kim tomonidan olib borilgan?

- A Ya.G'ulomov
- B M. E. Masson
- S S.P.Tolstov
- D A.Muhammadjonov

2.Mil.avv. VII asrda Yerqo'rg'onning maydoni necha gektar bo'lgan?

- A 10 ga
- B 20 ga
- S 30 ga
- D 40 ga

3.O'rta asrlarda O'rta Osiyoning yirik shaharlari necha qismdan iborat bo'lgan?

- A 2 qismdan: qo'handiz va shahriston
- B 3 qismdan: qo'handiz, shahriston va rabot
- S 3 qismdan: qo'handiz, shahriston va madina
- D to'g'ri javob yo'q

4.Buxoro shahrining yoshini aniqlang?

- A 2500 yil
- B 2750 yil
- S 2600 yil
- D 3000 yil

5.Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik yubileylari nechanchi yilda nishonlangan edi?

- A 1997 y.
- B 1998 y.
- S 1999 y.
- D 2000 y.

9-mavzu: O'rta asrlar davri arxeologiyasi

Reja:

9.1. Ilk o'rta asrlar davrida Kesh va Kitob.

9.2. O'rta Osiyoning ilk o'rta asr monumental va amaliy san'at namunalari (Afrosiyob, Varaxsha, Panjakent).

9.3. Marv shahrining IX-XII asrlar me'morchiligi, moddiy-madaniyati va san'ati.

9.4. Choch (Shosh) shahrining IX-XII asrlar me'morchiligi, moddiy-adaniyati va san'ati.

9.5. Termiz ilk o'rta asrlar davrida.

9.6. O'rta asrlar davri Axsiket, Quva shaharlari.

O'rta asrlar davri

Tarix fanda o'rta asr tushunchasi uyg'onish davri mutafakkirlari tomonidan kiritilgan bo'lib, madaniyat yuksak taraqqiy etgan antic davr bilan uyg'onish davr o'rtasidagi davrga nisbatan ishlatiladi. O'rta asrlar feodal yer egaligi munosabatlari davri bo'lib uch bosqichdan iborat:

1- Ilk o'rta asrlar V-IX asrlar

2- Rivojlangan o'rta asrlar IX-XV asrlar

3- So'nggi o'rta asrlar XVI-XVII asrning o'rtalari

9.1. Ilk o'rta asrlar davrida Kesh va Kitob.

Qashqadaryo vohasi haqidagi ilk xabarlar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da uchraydi. "Avesto" matnlarining eng qadimiylari milodga qadar bo'lgan IX – VIII asrlarga oid bo'lib, u to'la ravishda milodning IV asrlarida yozib olingan. Kesh shahri tarixini xitoy yozma manbalarida ham uchratishimiz mumkin. Xitoy tarixchilari Keshni turlicha nomlar bilan tilga olishgan. Xitoy yilnomasidan biri "Tyanshu"da Kesh toponimi Kyusha shaklida 656 – 660 yillarga oid voqealarda qayd etilgan. Xitoy manbalaridan biri "Katta Xon Uyi tarixi"da Kesh

shahri Suse yoki Suxe shaklida uchraydi. Yana bir manba “Beyshi”da bu hudud Shu yoki Shi tarzida talaffuz qilingan. Uni Di-chje boshqargan bo’lib, So’g’dda birinchi bo’lib Xitoy xukmdori Da-ie (605 – 616 yillar) bilan diplomatik aloqalarni o’rnatgan. Arab fors manbalarida bu nomning uch xil shakli: Kishsh, Kiss va Kashsh qabul qilingan. As-Sam’aniy XII asrning birinchi yarmida Kesh hududida o’n ikki kun bo’lib, Kesh talaffuzda Kashsh shaklida tarqalganligini aniqladi. “Hudud al-alam” asarida faqat birgina Kish shakli uchraydi. Tojikistonning Mug’ tog’idan topilgan Sug’d manbalarida “keshliklar” “Keshda yashovchilar” so’zi uchraydi. So’ngi antik davrdagi Shimoliy Qashqadaryoda kanallar va ariqlar tarmog’i O’rta Osiyoda eng rivojlangan tarmoqlardan biri bo’lgan. Vohaning janubidagi Qayrag’ochtepa qal’asi hamda Kitob o’rnidagi poytaxt arki bo’lgan Qalandartepadagi imoratlar Podayoqtepa yuqori qatlamlari bilan bir davrga oiddir. Bu vaqtda vohada shakllanayotgan shaharlar bo’lgan va ilk shahar markazlaridagi qal’alar baquvvat asos poydevor ustida barpo etilgan. Kitobda butun shaharni o’rab olgan qal’a devori ichidan eni 1,15 metr bo’lgan yo’lak ketgan, undan borib maxsus tuynuklar orqali xonalarga kirish mumkin bo’lgan. Bu xonalar devorlari chiziqdan turtib chiqib turgan tashqi qismida joylashgan bo’lib, uning etagini o’qqa tutishga mo’ljallangan. Turtib chiqqan joy o’z navbatida, devorteshar zarbadan va boshqa qamal texnikasidan himoyalaniшни ta’minlaganki, antik davrda bunday texnika jadal rivojlangani shahar istehkomlarini mustahkamlashni taqozo etgan. Mudofaa devorini, shuningdek, burjlar ham kuchaytirgan. Asosan tekis joyda bunyod etilgan Kitob devori paxsadan ko’tarilgan, ostidan to’g’ri burchakli, tamg’a bosilgan bir necha qator xom g’isht terilgan. Paxsa qatlamlari orasiga bordon bosilgan, u zaxdan va sho’rlanishdan asragan. Ayni mahalda, ilk o’rta asrlarda Kitob hududida ancha mustahkam uylar qurilgan, ular, odatda, maxsus asos ustiga joylashgan. Sharqiy Qashqadaryoda ham qurilishda yoppasiga xom g’isht ishlatishga o’tila boshlandi. Ilk o’rta asrlarda uylar, odatda, har xil vazifani bajaruvchi bir nechta xonadan iborat bo’lgan. Maydoni 20 - 30 kvadrat metrgacha borgan turar joy xonalardan tashqari, unga albatta xumxona kirgan. Imoratni tiklash jarayonida turli usullar qo’llanilgan, materiallar almashlab ishlatilgan. Xona

devorlari yerga biroz chuqur kirgan yoki, ko'pincha, poydevorsiz, tekislangan maydoncha ustiga ko'tarilgan. Tadqiqotchilar fikricha, ilk o'rta asrlarga oid Kesh Oqsuvning o'ng sohilida, hozirgi Kitob o'rnida shakllangan. Ilk o'rta asrlarda markaziy shahar hayoti Qalandartepadan g'arbga ko'chadi. Bu davrda Kesh hukmdorlarining qarorgohi "Qo'rg'on" nomi bilan mashhur qal'ada joylashgan. Ushbu qal'aning qoldiqlari hozirda mavjud.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra ilk o'rta asrlar Keshi VI asrda vujudga kelgan, ya'ni VI - VII asrlardan boshlab bu shahar Kesh deb atala boshlangan. Shaharning gullab - yashnagan davri ayniqsa, VII asrning birinchi yarmiga to'g'ri kelib, bu davrda Kesh Sug'dning (Qashqadaryo va Zarafshon vodiylari) poytaxtiga aylanadi. Bu ma'lumotlar IX asrda al-Yoqubning ma'lumotlarida ham uchraydi.


Kesh tarixiy shahar hisoblanib, arab manbalarida Kashsh, Kass, Kise nomlari bilan tilga olingan. Hozirgi Qashqadaryo viloyatining shimoliy-sharqiy qismini egallagan. Dastlab Kesh Kitob o'rnida bo'lgan, keyin IX-X asrlarda Shahrisabz hududiga ko'chgan. Kesh nomining xitoycha transkripsiyasi birinchi marta VII asrga oid xitoy yozma manbalarida Syuysha shaklida uchraydi. Uning sug'd tilidagi nomi esa VII asr oxiri VIII asr boshlarida hukmdorlik qilgan Kesh hokimi Axurpat tangalarida hamda VIII asr o'rtalarida Keshni idora qilgan hokim Ixridning dastlabki arabcha fale (tanga) larida ilk bor zikr etilgan. "Kesh" atamasining kelib chiqishi Qashqa-Qashqrud nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. A.Muhammadjonov fikriga ko'ra, "Kesh" toponimining ma'nosi ilk bor uy, qishloq, shahar, poytaxt, viloyat, el-yurt, diyori, hatto "Kishvar" shaklida esa mamlakat va Vatan kabi ma'nolarni anglatgan. Xitoy yozma manbalarida qayd etilishicha, hokim Digja (Dichje) (VI asr oxiri VII asr boshlari) Keshga asos solgan bo'lib, o'sha vaqtda shahar aylanasi 1 km ga yetgan. Arab tarixchisi Yaqubiyning yozishicha, Kesh milodiy VII asr o'rtalarida yuksalib, Sug'dning bosh shahriga aylangan.


Kesh bu davrda hunarmandchilik, savdo-sotiq, madaniyat yuksak rivojlangan shaharga aylanib ark, ichki va tashqi shahardan iborat bo'lgan. Ichki shahar mudofaa devori va 4 darvozaga ega edi. VI asrda arkning g'arbiy qismida

shahar hokimi Digja tomonidan yangi qarorgohga asos solingan. VII asr oxiri VIII asrning 1-yarmida Keshni arablar bir necha bor fath etgan. 751 - yilda Kesh hukmdori Ixrid Xuroson noibi Abu Muslim buyrug‘i bilan qatl qilingan bo‘lib, at-Tabariyning guvohlik berishicha, arablar Keshda katta o‘ljani qo‘lga kiritganlar. 775-776 - yillarda Kesh viloyati Muqanna qo‘zg‘olonining asosiy markazlaridan biri bo‘lgan. Somoniylar davrida Kesh hududi eni va bo‘yiga 1/3 farsax (2 km ga yaqin) maydonini tashkil etgan. Bu vaqtda aholi Keshning ko‘handiz va madinasini tark etgan bo‘lib, hayot faqat uning rabodida davom etayotgandi. Asta-sekin aholi rabodni ham tark etib, hozirgi Shahrisabz o‘rnida yangi shaharga asos solgan. Arxeologik tekshiruvlar Kitob o‘rnidagi Keshning aynan shu vaqtda barham topganligini isbotladi. Keshning bundan keyingi tarixi Shahrisabz bilan bog‘liq bo‘lib, bu nom XIV asrda xalq ongiga uzil-kesil o‘rnashgan. Shunday bo‘lsada, shaharning qadimgi nomi talay vaqt uning yangi nomi bilan bir qatorda aytilib yurgan.

Shaharda ilm-ma’rifat rivoj topishi oqibatida “Koshiy, Keshiy” taxallusi bilan mashhur olim-fozillar etishib chiqqanligi tufayli Kesh shahri ,“Dilkash”, Qubbatul ilm val-abad, ya’ni “Ilm va ta’lim gumbazi” degan sifat bilan shuhrat topgan.

9.2.O‘rta Osiyoning ilk o‘rta asr monumental va amaliy san’at namunalari (Afrosiyob, Varaxsha, Panjakent).





1220 -yilda Chingizxon qo‘shinlari shaharning devor va darvozalarini vayron qilib saroy, masjid va madrasalarga, aholi xonadonlariga o‘t qo‘ydilar. “Qo‘rg‘oshin ariq” qayta tiklanmadi. Afrosiyobda suvsiz qolgan aholi Siyobdan charxpalaqda suv chiqarib, kun ko‘rgan, so‘ng aholi bora-bora Afrosiyobni butunlay tashlab ketgan. Kimsasiz xarobaga aylangan qadimgi Samarqand avvallari “Hisori ko‘hna”, “Qal’ai Hisor” atalib, XVII asrdan boshlab aholi orasida “Qal’ai Afrosiyob” yoki “Afrosiyob” deb atala boshlangan.

Afrosiyob va uning topilmalariga qiziqish 1868 yilda Chor Rossiyasi tomonidan Samarqand bosib olingandan keyin boshlandi. Afrosiyobda dastlabki qazish ishlari bilan mayor Borzenkov (1874), podpolkovnik V. V. Krestovskiy (1883), sharqshunos olimlar N. I. Veselovskiy (1884-85, 1895), V. V. Bartold (1904) va V. L. Vyatkin (1905; 1912– 13) lar shug‘ullanishdi. 1919 -yilda M. V. Masson, V.L.Vyatkin tadqiqot boshlagan joylarda qazish ishlarini davom ettirib, somoniylar saroyi (IX asr) xarobalarini ochdi. 1925, 1929-30 yillarda V. L. Vyatkin Afrosiyobda qazish ishlarini davom ettiradi va uning turli davrdagi tarixiga oid ko‘plab materiallar to‘playdi. Ammo 1930 -yillarga qadar Afrosiyobda olib borilgan arxeologik qazishmalar qadimgi Samarqand tarixiga doir juda kam materiallar bergan. Urushdan keyin O‘zbekiston FAning Tarix va arxeologiya instituti olimlaridan I. Terenojkin tomonidan Afrosiyobda jiddiy dala tadqiqotlari o‘tkazildi. Natijada uning eng pastki qatlamidan miloddan avvalgi VI-V asrlarga taalluqli buyumlar, uy-joy xarobalari topildi. V. Shishkin (1958-66) va Ya. F. G‘ulomov (1967–70)lar rahbarligida olib borilgan keng ko‘lamli arxeologik qazishlar natijasida qadimgi madaniy qatlam materiallari Afrosiyobning boshqa joylaridan ham topildi. 1966 -yil 13 iyulda Afrosiyobni arxeologik jihatdan kompleks o‘rganishni tashkil etish maqsadida Respublika hukumatining maxsus qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, Afrosiyob “arxeologik qo‘riqxona“ deb e‘lon qilinib, uni o‘rganish ishiga Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institut bilan

birgalikda Toshkent va Samarqand davlat universitetlari hamda Madaniyat vazirligining San'atshunoslik instituti ham safarbar etildi.

Aniq ilmiy rejalar asosida boshlangan arxeologik tadqiqotlar tufayli nafaqat shaharning ko'p asrlik yoshi, balki uning har xil davrlardagi tarixiy topografiyasi, shahar tarkibi, shahar hayotining rivojlanish bosqichlari, bosqinlar tufayli yuz bergan buhronlar davri aniqlandi.

Afrosiyobda qazishma ishlari ayniqsa Samarqandda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti tashkil topgach, keng ko'lamda kuchaydi. Ya.G'ulomovdan so'ng Afrosiyobdagi arxeologik qazishmalarga G. V. Shishkina, Sh. Toshxo'jaevlar rahbarlik qildi. Keyingi yillarda (1989 -yildan) Afrosiyobni arxeologik jihatdan tadqiq etish ishiga fransuz arxeologlari Pol Bernar, Frans Grene va boshqalar jalb etilgan. Fransuz arxeologik missiyasi O'zbekiston arxeologlari bilan (M. Isomiddinov va boshqalar) hamkorlikda Afrosiyobni o'rganishda qatnashdi. O'zbek va fransuz olimlarining hamkorlikda olib borgan tadqiqot natijalari qadimgi Samarqand tarixiga oid qator masalalarga aniqlik kiritdi.

Samarqandning qadimgi tarixini yoritishda Afrosiyobda olib borilgan tadqiqotlarga tayanamiz. Shu o'rinda Afrosiyob nomi qayerdan kelib chiqqan, degan savol tug'ilishi tabiiydir. Ma'lumki, ulug' shoir Abdulqosim Firdavsiy o'zining mashhur "Shohnoma"sida Eron bilan Turon o'rtasidagi munosabatlar, nizolar haqida so'z yuritar ekan, Turonning podshosi Afrosiyob bo'lganligini yozadi. Mahmud Koshg'ariyning yozishicha esa Turon podshosining nomi Alp Er Tung'a bo'lib forslar uni Afrosiyob deb ataganlar. Samarqand Alp Er Tunga - Afrosiyobning poytaxti bo'lganligi uchun uning ilk o'rne ham Afrosiyob nomi bilan atalib kelingan.

Afrosiyob hozirgi Samarqandning shimoliy chegarasiga tutashgan keng bo'sh tepaliklar bo'lib, uning maydoni 219 ga. Tepalikning shimoliy Siyob arig'i bilan chegaralangan. Janubiy tomondan "eski shahar" deb atalgan Samarqandga qo'shib ketgan.

Yozma manbalarda shaharning dastlabki tarixi haqida ma'lumotlar juda kam uchraydi. Ko'hna shaharda o'tkazilgan arxeologik qazishlar esa bunday ma'lumotlarni ko'proq beradi.

Arxeologik qazishmalar bir necha metr qalinlikdagi madaniy qatlamlar qanday bo'lganligini ko'rishga, boylar va kambag'allarning uylarini, hunarmandlarning ustaxonalarini, savdogarlarning do'konlarini, ko'cha va maydonlarni, shohona saroylar va ibodatxona, masjid va madrasalarni, mudofaa inshootlarini, shaharning suv bilan ta'minlash tizimi aniqlashga yordam beradi. 1966 -yil 13 iyulda Samarqand ixshidlarining shohona saroyi ochildi.

Afrosiyobda topilgan arxeologik materiallar Samarqand miloddan avvalgi VIII-V asrlarda Sug'diyonaning markaziy shahri sifatida vujudga kelganligini ko'rsatadi. Miloddan avvalgi III-I asrlarda, Kushonlar saltanati davrida shahar hayotida yuksalishlar yuz bergan. Miloddan avvalgi III asrda shahar qo'shaloq mudofaa devori bilan o'rab olingan. U davrlarning qalin madaniy qatlami Afrosiyobning shimolida, uning arki a'losi joylashgan qismida yaxshi saqlangan. Arxeologik materiallar va yozma manbalarda ta'kidlanishicha, bu zamonda Samarqand orqali Buyuk ipak yo'li o'tgan, ichki va tashqi savdo, hunarmandchilik rivoj topgan.

Ilk o'rta asrlarda Samarqand Sug'diyonaning bosh shahri sifatida nufuzli mavqega ega bo'lib, shahar ijtimoiy va iqtisodiy hayotida tub o'zgarishlar yuz berdi. Badavlat dehqon xo'jaliklari kuchaydi, xuddi shu kezlarda ularning qasrlari joylashgan Afrosiyobning shimoliy qismi mudofaa devori bilan o'rab olindi. Bu holat Movarounnahr va unga qo'shni viloyatlarda ham yuz berdi. Bu davrda Samarqand hukmdorlari "ixshid", Buxoro hukmdorlari esa "buxorxudot" deb atalgan. 712 - yilda arablar fotixi Qutayba ibn Muslim qo'shin tortib kelganda, Samarqandning mudofaa devorlari mustahkam bo'lib, atrofida suv to'la xandaq bor edi. Qutayba Samarqandga Farg'ona, Shosh va turklardan yordamga kelgan lashkarlarni yenggach, ko'maksiz qolgan Sug'd hokimi G'urak noiloj u bilan sulh tuzdi, Shaharning ichki qismi (shahriston)ni arablarga bo'shatib berishga majbur

bo'ldi. Arxeologik topilmalar islomga zid bo'lgan haykal va devoriy rasmlarning ataylab qilich bilan chopilganini isbotlaydi.

Afrosiyobda somoniylar davrida o'ymakor ganch naqshlar bilan bezatilgan saroylar, badavlat dehqon xonadonlari, masjid va madrasalar, hammom va kanalizatsiyalar, tosh ko'chalar topilmoqda. Shaharni suv bilan ta'minlash og'irligidan aholining ehtiyojini qondirish uchun shahar hayotining dastlabki - yillaridayoq Darg'om tomonidan kanal qazib, suv keltirilgan. Ana shu kanal izlari hozirgi shahar xiyobonining janubida, Alisher Navoiy haykali qad ko'tarib turgan maskanda ochib o'rganildi. Bu kanal Registon maydoni orqali Hazrati Xizr masjidi tomon yo'l olgan. Tarixiy manbalarga ko'ra Afrosiyobga janubdan kiraverishda shahar xandaqi ustiga pishiq g'ishtlardan ravoqli suvayirg'ich qurilib, uning tepasidan katta ariq o'tkazilgan. Bu ariqni "Juyi arziz" ("Qo'rg'oshin ariq") deb ataganlar. Ariq shu yerda uchga bo'lingan va shahar oralab Siyob arig'i bo'yiga borgan.

X asrning oxirida savdo, hunarmandchilik, shahar obodonchilik ishlari davom etadi. Shaharning hunarmandchilik qiyofasi kuchayib, zodagon dehqon qasrlari endi shahar tashqarisida, ularning dala hovlilarida markazlashadi. 1220 yilda Chingizxon qo'shinlari shaharning devor va darvozalarini vayron qilib saroy, masjid va madrasalarga, aholi xonadonlariga o't qo'ydilar. "Qo'rg'oshin ariq" qayta tiklanmadi. Afrosiyobda suvsiz qolgan aholi Siyobdan charxpalaqda suv chiqarib, kun ko'rgan, so'ng aholi bora-bora Afrosiyobni butunlay tashlab ketgan. Kimsasiz xarobaga aylangan qadimgi Samarqand avvallari "Hisor ko'hna", "Qal'ai Hisor" atalib, XVII asrdan boshlab aholi orasida "Qal'ai Afrosiyob" yoki "Afrosiyob" deb atala boshlangan.

Samarqandning yoshi miloddan avvalgi VIII asr o'rtalariga oid ekanligi isbotlandi; shaharning arki a'lo qismidan milodiy VIII asrga oid murabba (70x70) shaklidagi Samarqand ixshidlarining mahobatli saroyi qoldiqlari ochildi. Fransiya ilmiy tadqiqotlar markaziga qarashli Jiv-Syur-Ivst shahridagi radioaktiv laboratoriyada tadqiq qilindi. Laboratoriyadagi tahlillar bu ashyolar bundan 2750

yil ilgari yaratilganligini ro'rsatdi. Shu tariqa Samarqandga 2750 yil ilgari asos solinganligi isbotlandi.

Afrosiyob er.avv. 6 - 5 asrlarda shakllangan va Sug'diyonaning markaziy shaharlaridan biri bo'lgan. Afrosiyob xalq orasida mashhur, afsonaviy shaxs podshoh, xalq qahramoni bo'lib, shahar uning nomiga qo'yilgan. Afrosiyob shahri Firdavsiyning "Shahnoma" asarida turonlik qahramon, sarkarda sifatida tavsirlanadi. Afrosiyob qadimdan dunyoga mashhur shahar bo'lib, uning san'ati, madaniyati, me'morchiligi beqiyos rivoj topgan, g'oyat boy, xalqi madaniyatli, yuksak ma'naviyatli holda tanilgan. Arxeologik tadqiqotlar bergan ma'lumotga ko'ra Afrosiyob er.avv. 6-5 asrlarda vujudga kelgan va Sug'diyonaning eng go'zal, ko'rkam, boy, san'ati va madaniyati yuksak darajadagi markaziy shahriga aylangan. Shaharni er.avv. 329 yili Makedonskiy zabt etadi va vayronaga aylantiradi. Afrosiyob arxeologiyasi kuzatishlari shuni ko'rsatadiki, shahar san'ati, madaniyati va me'morchiligi er.avv. 6-5 asrlarda, Sug'dlar davri eramizning 1-2 asrlarida (Kushon davri), 5-7 asrlarda (ixshidlar davri), IX-X asrlarda (Samoniylar davrida) g'oyat yuksak darajada rivojlandi. Afrosiyob san'atida devoriy rasmlar alohida e'tiborda bo'lib, ular eramizning 5-7 asrlari tasviriy san'ati taraqqiyotini ochib beradi. Afrosiyob saroyi devorlaridagi turli tema va syujetlarda rasmlar ishlangan. Rasmlarda to'y marosimlari, ov manzaralari, daryoda cho'milish kompozitsiyalari yuksak mahorat bilan ishlangan. Shuningdek, devoriy rasmlarda fillar, otlar, kuyov-shoh, kelin-malika, kanizaklar, sug'd tilidagi yozuvlar ifodalangan. Rasmlardagi uch ayoldan birining tasviri yaxshi saqlangan. Ayol qizil kuylakda, sariq lozimda, oq kulrang ro'mol, oyog'ida qora etik tasvirlangan. Devoriy kompozitsiyalarda o'sha davrning qurol-aslahalari, qushlar, turli zebziynatlar, amaldorlik liboslari, og'zini berkitib olgan xizmatkorlar va boshqa turli toifadagi kishilar ifodalangan. Mehmonxona devorlaridagi rasmlarda qabul marosimi, unda dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan elchilar tasvirlangan. Qabulxona rasmlari shunchalik aniq ishlanganki, ular qaysi mamlakat elchisi ekanligini anglab olish mumkin. Kompozitsiyada elchilar, ular ko'tarib olgan sovg'alar, itlar, qushlar, qurol-aslahalar juda mohirlik bilan tasvirga olingan. Yana

bir rasmda dengizda baliq, toshbaqa, o'rdaklar suzib yuribdi. Qirg'oqda bolalar, ayollar, otdan tushib turgan erkak kishi tasvirlangan. Yana bir rasmda to'qayzorda yo'lbars ovi tasvirlangan. Yo'lbarsga nayza urayotgan g'olib yaxshi tasvirlangan. Bu yerda qayiqda suzish ifodalangan bo'lib, kishilarning hammasi yaxshi kiyingan. Afrosiyob devoriy rasmlari qavat-qavat qilib ishlangan bo'lib, ular turli davrlarga mansubligi aniqlangan.



Afrosiyob ko'hna shahar



Afrosiyob devorlaridagi VI-VII asrlarlarga oid suratlar

Varaxsha qadimiy shahar. Arxeologik qazishmalardan ma'lum bo'lishicha, Varaxsha miloddan avvalgi II asrda bir-biriga tutashgan bir nechta istexkomli qishloqlar tarzida qad ko'targan Buxorodan 40 km shimoli-g'arbda, Dashti Urganji ko'lining qadimiy Rajfandun vohasida joylashgan. Varaxsha maydoni 9 ga va balandligi 10-20 m li ulkan tepa shaklida saqlangan. Varaxsha va uning atrofida A. Shishkin (1937–39, 1947-54) keng ko'lamda arxeologik tadqiqotlar olib borgan; A. Muhammadjonov (1975-77), O. V. Obelchenko (1977-79), G. V. Shishkina (1987-90) ham Varaxshaning ayrim qismlarida qazishmalar olib borishgan.

1949 - 54 yillarda Varaxsha tarixi va me'morchiligi o'rganildi. Kvadrat shakldagi yirik xom g'ishtlardan balandligi 15 metr qo'shminora tarzida o'rab chiqilgan tagkursilarning biriga podsho saroyi va ikkinchisiga soqchixonali darvozaxona bino qilingan. Arkning sharqiy qismida tomi ravoqsimon gumbaz tarzida yopilgan uzun yo'laksimon - navkarxona va darvozaxonalar mavjud bo'lgan. Arkning markazida janubiy tomoni mudofaa devoriga yondoshgan Varaxsha hukmdorining saroyi joylashgan. U Sharqiy (11,5x17 m) va G'arbiy (6,6x7,25 m) mehmonxona hamda qizil xona (zal) (8,5x12 m) lardan iborat bo'lgan. Saroy g'arb tomonidan 3 ravoqli ganchkori ustunlar o'rnatilgan hashamatli peshayvon bilan o'ralgan. Ayvon ravoqlarining ustunlari va toqilari ganchkori qabartma tasvirlar hamda turli xil girixlar bilan bezatilgan. Saroyning qizil xona va Sharqiy mehmonxonalarini to'la kavlab ochilgan. Xona devorlari mayda somonli loy suvoq ustidan yupqa ganch suvoq qilinib, devoriy rasmlar qizil, sariq, ko'lrang, qora, zangori, pushti va jigarrang bo'yoq bilan bezatilgan. Ularda turli xil manzaralar, fil mingan shaxzoda va qoplolar bilan olishuvi; qayrilib nishonga kamondan o'q uzayotgan ot ustidagi chavandoz, qanotli tuya shaklidagi oltin taxtda o'tirgan hukmdor tasvirlangan. Sharqiy mehmonxona devorida tiz cho'kib, qo'lida qadah tutgan malika, belida shamshir, bir qo'lida qisqich ushlagan podshoh, o'rtada vazasimon otashgopa yonib turgan muqaddas olov, otashgohdan o'ngda beliga xanjar taqilgan shahzodaning tiz cho'kib ibodat qilayotgan tasviri yoki sovut va dubulg'a kiygan, qo'llarida nayza, qalqon ushlagan suvoriylarning jang qilayotgan,

shuningdek butazor, to‘qay ichidagi ov manzarasi kabi tasvirlar ayniqsa diqqatga sazovordir.

Arxeologik topilmalardan aniqlanishicha, janubiy xonalarning ikkinchi qavatidagi xona ganchkori naqshlar bilan bezatilgan. Ko‘plab topilgan qabartma ganchkori naqshlar orasida xovuzda suzib yurgan baliqlar, elkasidan o‘q yegan arxar, yelib borayotgan jayron, bedanalar, ayol boshli baxt qushi Xumo, hamlga tayyorlanayotgan ajdarho, taqimiga sadoq bog‘lagan suvoriy hamda ko‘pdan-ko‘p ayollarning bosh qismlari bilan bir qatorda turli xil islimiy va girix parchalari uchraydi.

Varaxsha xarobalarining shimoli-g‘arbida qadimiy qo‘rg‘onlardan birining tashqi devori hamda yarim doira shakldagi burji (ichki saxni 4,5x5 m) kavlab o‘rganilgan. Devor (qalinligi 1,8-1,9 m) xom gishtdan (hajmi 37x41x10 sm) qurilgan. Devor va burjlarida paykonsimon nishon tuynuklari (ichki tomoni 38-40 sm, tashqarisi 75-80 sm, keng-ligi 20-22 sm) ochilgan. Miloddan avvalgi Varaxsha II- I-asrlarda va miloddan I-II-asrlarda Varaxsha va uning atrofida madaniy hayot gullagan. 3-4-asrlarda Varaxsha tanazzulga uchragan. V-asrda Varaxsha yana tiklanib Buxoroning qadimiy hukmdorlari buxorxudotlarning qarorgohiga aylangan. Shu davrda Varaxsha mustahkam devor bilan o‘ralgan, uning janubiy qismida ark qurilgan. VIII-X-asrlarda ayniqsa obod bo‘lgan.

Varaxsha va uning atroflari 12 kanal bilan sug‘orilib, Rajfandun vohasidagi eng yirik va markaziy qal‘alardan biriga aylangan. Istaxriy va Ibn Xavqal ma’lumotlarida keltirilishicha, Buxoro va Xorazm oralig‘idagi karvon yo‘li Varaxsha orqali o‘tgan. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida ta’kidlanishicha, har o‘n besh kunda Varaxshada bir kunlik, -yil oxirida 20 kunlik bozor sayli (navro‘zi kasho varzon, ya’ni dehqonlar yangi yili) o‘tkazilgan. Buxorxudotlar qarargohi qilinishi bilan Varaxsha yirik shaharga aylangan. XI-XII-asrlarda uning xududi eniga 6 km. dan ziyod bo‘lgan. XII-asrda Varaxsha vohasidagi hayot to‘satdan noma’lum sabablarga ko‘ra to‘xtab qolgan.



Varaxsha.

Varaxsha Buxoro hukumdorlarining qarorgohi bo'lib, bu yerdan saroy qoldiqlari bilan bir qatorda devoriy suratlar ham topilgan. Mazkur yodgorlik 1938-1953 yillarda tekshirilgan. Varaxsha devorlariga loy suvoqdan so'ng yelimli rang bilan suratlar solingan. Ularda podsho saroyi hayoti tasvirlangan. Shuningdek Varaxshadan ganchdan ishlangan haykallar ham topilgan. Varaxsha devoriy suratlarida (VII-VIII asrlar) buxorudodlarning hayot tarzi, ya'ni saroy hayoti, ibodat va ov manzarasi tasvirlangan. Saroyning sharqiy zali janubiy devorining o'ng tomonida qanotli tuya shaklida ishlangan taxtda podsho tasviri, devorning chap tomonida saroy ahlining altar qarshisidagi ziyorati, saroyning qizil zal devoriy suratlarida esa fil mingan ovchining yo'lbars bilan olishuv manzarasi tasvirlangan.

Panjikent harobasini tekshirish 1946 yildan buyon olib borilmoqda. Tadqiqotlar natijasida V,VI,VII asrlarga oid bo'lgan turar joylar tekshirildi. Turar-joylar jumlasiga Divashtich saroyi, boy va oddiy shahar aholisi uylari kiradi. Boy xonadon uylari murakkab reja asosida qurilgan. Bu yerda ham ijtimoiy uylar va 2 ta ibodatxona ochib o'rganildi. Saroy va yirik binolarning devorlariga hayotiy va diniy mavzudagi rasmlar solingan. Samarqand, Varaxsha, Panjikent rasmlari ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda tasviriy san'at yuqori darajada bo'lganligini ko'rsatadi.

Ilk oʻrta asrlarda saroylar haykaltaroshlik namunalari bilan ham bezatilgan. Quva ibodatxonasi Budda haykallari topilgan. Badisatvalar, farishta va jinlar birgalikda tasvirlangan bu Fargʻona haykaltaroshlik maktabining oʻziga xos tomonlari mavjudligini aks ettiradi. Uning shaklanishida hind ikonografiyasi bilan mahalliy, ilohiy sanamlari oʻz aksini topgan. Haykaltaroshlik sanʼatining izlari mil. IV-V asrlarga oid Toharistonning Kuyovqoʻrgʻon qalʼadan topilgan. Kuyavqoʻrgʻon haykallari zeb-ziynatli bezaklarga boy engil kiyimlardagi erkak va ayol tasvirlaridan iborat.

Ilk oʻrta asrlarda hunarmandchiligida ostodonlar tayyorlash keng rivojlandi. Chunki zardushtiyluk dinida murdalarni bevosita erga koʻmishni taqiqlagan va ularning tozalangan suyaklarini **ostodon** deb atalgan maxsus sopol yashiklarda koʻmishni taqozo etgan. Bu sopol yashiklarning qopqoqlari va devorlarining tashqi tomoni har xil boʻrtma naqshlar ilohiy personajlar va meʼmoriy kolonnalar, daraxt va oʻsimlik barglari bilan bezatilgan. Ostodonlarning ishlanishi turli joylarda turlicha boʻlgan. Masalan: Xorazmda meʼmoriy ostodonlar, Chochda chizma naqshli yashiksimon ostodonlar, Soʻgʻda esa otashparastlik ilohiyati eʼtiqodi bilan bogʻliq boʻlgan syujetli ostodonlar keng tarqalgan. Ostodonlar maxsus inshoot **naus**larda saqlangan. VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asrning boshlarida Oʻrta Osiyo hududlariga islom diniy mafkurasining kirib kelishi mahalliy madaniyat rivojlanishida toʻsqinlikni keltirib chiqardi. Islom aqidashunosligi mahalliy muhitga majburan kiritildi, mahalliy anʼanaviy badiiy madaniyat va sanʼat olami islomiylashdi.

9.3.Marv shahrining IX-XII asrlar meʼmorchiligi, moddiy-madaniyati va sanʼati.

Tarixdan maʼlumki, Oʻrta Osiyo IX-asrga kelib arab xalifaligidan chiqib, mustaqil Somoniylar davlatiga aylandi. Somoniylar davrida Oʻrta Osiyoning madaniy-maishiy taraqqiyoti ancha tezlashib ketadi. Shaharlar qurilishi, xalq xoʻjaligi taraqqiyoti, yer osti boyliklarini ishlab chiqarishi mamlakatda sanʼat, madaniyat va meʼmorchilikni rivojlanishiga, chet ellar bilan madaniy-iqtisodiy aloqalarni kuchayishiga olib keldi.

Ayniqsa, qog'oz ishlab chiqarilishi bilan kitobsozlik san'ati kuchaya boshladi. Ko'plab qo'lyozma kitoblar tayyorlandi. Kitob kollegrafiyasi, illyustratsiyasi vujudga keldi. Miniatyura san'ati rivojlana boshladi.

IX-XI asrlarda Mervda hunarmandchilik san'ati yaxshi rivojlandi. Yirik shaharlarda chilangarlik va misgarlik rivoj topdi. Qozon, g'alladon, bargash, ko'za, jom, qadah, obdasta, shamdon, pardozlik buyumlar, zebu-ziynatlar yuksak mahorat bilan ishlandi. Kulolchilik, kashtachilik, shisha idish tayyorlash, sopolga sir berish ixtiro qilindi. Sopol idishlarga gul, barg, sharcha, naqsh, baliq, qush kabilarning tasviri ishlanadigan bo'ldi. Memorchilik san'ati yangi an'analar bilan boyidi. Bu davrda ko'plab masjid, madrasa, maqbara, minoralar qurildi. Me'morchilikda ko'proq pishgan g'isht, yo'nilgan tosh bilan qurildi. Binolarni bezashda o'yama terrekota, sirlangan g'isht va koshinlardan foydalanildi. Ichki intererlari ganch o'ymakorligi, bo'yama naqshlar, arab-kufiy nasx yozuvlari tasviridan foydalanilgan holda bezatildi.

X asrdan boshlab, saroylar qurilishi shahar ichkarisida olib borildi. IX-XI asrlarda me'morchilik bilan uyg'unlashgan holda naqqoshlik san'ati avj oldi. Uning turli xillari, uslublari, kompozistiya va elementlari vujudga keldi. Bu davrda me'morchilikni nazariy asoslari ham rivojlandi. Abu Rayhon Beruniy me'morchilik haqida ilmiy asar yozdi. Bu asar "Kitob al-xiyal ar-ruxoniyya va-l asror at-tabiyya fi daqioq al-ashkal al-xandasiyya" nomi bilan yuritilib, u 10 kitobdan iborat edi. Bu asar Beruniy zamonidan bugungi kungacha me'morchilikni asosiy qonuniyati bo'lib keladi.

9.4.Choch (Shosh) shahrining IX-XII asrlar me'morchiligi, moddiy-adaniyati va san'ati.

Toshkentning o'zoq o'tmishi va qad ko'targan qadimgi Choch yoki Shosh viloyati haqida manbalarda xilma-xil tarzda uchraydi. Xitoy manbalarida "Je-She" va "Shi" toponimi xitoychada "tosh" ma'nosini anglatgan. Toshkentning turkiy nomi "tosh shahar"da ham o'z aksini topgan. Bu nom sof ma'noda emasligi aniq, chunki shahar hech qachon toshdan barpo etilmaganligi manbalarda uchraydi. Bu ta'rif Choch aholisining dushmanlarga qarshi kurashda

mardlik va matonatini aks etganligini ifodalaydi, degan fikrlar ham bor. Shaharning Avestoda himoya qilingan “qudratli turlar” mamlakatida vujudga kelganligi ta’kidlangan. Bu nom o‘zagida Chotqol-Qurama tog‘laridagi boylik-yarim qimmatbaho feruza toshiga ishora beib aytilgan. Xitoy matnlarida “Shi” atamasi “tosh”, “qimmatbaho tosh”ni anglatgan. Toshkentni “asl tosh”, ya’ni “feruza shahar” deb atalgan.

Hozirgi Toshkent vohasida qadimgi shahar madaniyatining vujudga kelib, bu o‘kada ilk katta-kichik shaharlarning barpo bo‘lishi tarixi yozma manbalardan ko‘ra, Toshkent teritoriyasida qad ko‘targan qadimgi shaharlarning xarobalari hisoblangan tepaliklar qa’rida to‘laroq va aniqroq saqlangan.

Toshkent vohasida shahar madaniyatining shakllanib, shaharning qad ko‘tarishi shu o‘lkada yashagan qadimgi chorvador va dehqonlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi ulkan tarixiy jarayon bo‘lib, bu jarayon shubhasiz o‘lkaning o‘zlashtirilib, obod etilishi, ayniqsa, unda chorvachilik va dehqonchilik xo‘jaliklarining tashkil topishi hamda hunarmandchilik, ichki va tashqi savdning rivojlanish tarixi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu jarayonning tarixiy manzarasi nihoyatda keng bo‘lib, u yozma manbalarga nisbatan ko‘proq arxeologik tadqiqotlar vositasi bilan tiklanmoqda. Shuning uchun ham Toshkent hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning natijalari qadimgi va o‘rta asrlarga oid manbalardagi ma’lumotlarni to‘ldirib, ularga aniqlik kiritmoqda. Geografik jihatdan qulay, iqlimi mo‘tadil bo‘lgan Chirchiq va Ohangaron vodiylarida uzoq o‘tmishdayoq chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan aholi yashagan.

Arxeologik yodgorliklarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi II - ming yillikning oxiri va 1 - ming yillikning boshlarida ko‘chmanchi chorvador aholining o‘troqlashuvi kuchayib, dehqonchilik kengaya boshlagan. Hali sug‘orma dehqonchilik va irrigatsiya inshootlari qurish imkoniyati bo‘lmagan Toshkentning dastlabki dehqonlari, garchi daryoning asosiy oqimidan suv bog‘lab olishga qurbilari kelmagan bo‘lsa-da, lekin, daryo toshqinlari va adirlardan kelgan suvlardan hosil bo‘lgan irmoqlar bo‘yida, tabiiy zaxob yerlarda dehqonchilik qilganlar. Hozirgi Toshkentning Qorasuv, Salor va Jo‘n arig‘idan sug‘oriladigan

janub qismida shunday ibtidoiy dehqonchilik madaniyati tashkil topgan. Toshkentning bu ibtidoiy dehqonchilik madaniyatining izlari dastavval shahardan 30 km janubda Burganlisoy yoqasida topilib, tadqiq etilgani tufayli tarix fanida u Burganli madaniyati nomi bilan mashhur bo'lgan.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Qorasuv, Salor va Jo'n arig'i yoqalarida dastlab ilk qishloqlar qad ko'targan. Shulardan biri Jo'n arig'i bo'yidagi Shoshtepaning ostki qatlamidan qazib ochilgan qal'a xarobasidir. 1980 - 1982 - yillarda olib borilgan qazish ishlari uning miloddan avvalgi VI-IV asrlar va II-I asrlardagi rivojlanish bosqichlarini aniqlashga imkon berdi. Bir tomoni Jo'n arig'iga yondoshgan bu qadimgi joy atrofi dastavval tuproq bilan o'ralib, qal'a, istehkom qiyofasini olgan. Shoshtepaning qadimgi aholisi chorvachilik (qoramolchilik, yilqichilik, qo'ychilik hamda tuyachilik) bilan shug'ullangan. Qadimgi shoshtepaliklar jez va temirdan qurol-yarog' va asboblarni yasashni, kulolchilik hamda to'qimachilikni yaxshi bilgan. Toshkent vohasida shahar madaniyati shakllanib, qadimgi Toshkentning asta-sekin qad ko'tarishiga zamin bo'ldi.

Miloddan avvalgi II - I asrlarda Shoshtepada qadimgi shahar belgilari paydo bo'ldi. Qadimgi qishloq xarobalari ustida atrofi qalin aylanma devor bilan o'ralib olingan doira shaklidagi qal'a (qo'rg'on) qad ko'tardi.

Milodiy I - II asrlarda suyakdan yasalgan yozuv tayoqchasi (stil) qadimgi Shoshda yasalib ishlatilgan. 15 smli bu suyak qalamning bir tomoni yozish uchun uchli qilib, ikkinchi o'chirg'ich tomoni esa qiyshiq ko'p burchak shaklida kurakcha qilib yasalgan. Bu topilma milod boshlaridayoq Toshkent vohasida ham xattotlik mavjudligidan guvohlik beradi.

Shoshtepadagi arxeologik obidalar shaharning mustahkam mudofaa devori, hashamatli me'moriy majmuoti, hunarmandchilik buyumlari, xat-savod va savdodan dalolat beruvchi topilmalar milod bo'sag'asida Toshkent vohasida shahar madaniyati rivojlanib, Shoshtepadagi qadimgi qishloq shahar qiyofasini o'z boshlaganini ko'rsatadi. Shoshtepani o'rganish Toshkent hududidan

shahar madaniyati tarixi xuddi shu davrdan boshlangan, ya'ni uning yoshi 23 asrdan kam emas deb bahslashga imkon berdi.

Choch shahri yo'llarining shakllanishi

Toshkent vohasida o'troq dehqonchilik va ilk shahar madaniyati o'z tarixini miloddan avvalgi I-asr oxiridan qadimgi shahar Mingo'rikdan boshlangan. Mingo'rik Salor kanali bo'yida joylashgan. Shahar 35 ga bo'lgan. Mingo'rikdagi shahar mustahkam qo'rg'on, baland "qasr" va qal'a devorlar bilan o'ralgan taxminan 5 metr balandlikda. Bino sharqqa kun chiqar tomonga qaragan. O'rtadagi kvadrat 6-7 metrgacha bo'lgan balandlikda saqlangan. Milodning I-asrlarida diniy e'tiqod obekti sifatida olov va quyoshga sigingan. Arxeologlar tomonidan diniy marosimlar o'tkazilganligi aniqlangan. Avestoda Qanqa nomi "muqaddas" deb tilga olingan, sababi Mingo'rik diniy qasr majmuasi bu Qanqa davlatining asosiy diniy markazi bo'lgan.

Milodning III-IV asrlarida Mingo'rikdagi qadimgi qurg'on birmuncha kengayib, uning tashqi mudofa devoirs ta'mir etilgan. Ochilgan xonalardan topilgan ma'lumotlarda xonalar xom g'ishtdan va paxsadan bino qilingan devor balandligi 2 metri saqlangan xonaning eni bir metr, devorlaridan VI-VII asrlarga oid rasmlar topilgan.

Mingo'rikdagi shaharning poytaxt maqomini olganligi uning hududi kengayishida va milodiy VII asrning birinchi choragidan boshlab saroy tipidagi yirik inshootlar qad ko'tarishida o'z aksini topdi.

Milodning III asrida Qang' davlati tarixiy manbalarda bir-iri bilan iqtisodiy jihatdan bog'langan bir necha mayda mustaqil viloyatlarga bo'linib ketdi. Shu vaqtlarda Toshkent vohasida mustaqil Choch davlati tashkil topdi. Mingo'rikdagi qadimgi shahar markaziy shaharlardan biriga aylandi. Manbalarda bu shahar Choch nomi bilan tilga olinib boshladi.

Milodning I asriga kelib Chirchiq, Salor, Qorasuv bo'ylaridagi vohaning qariyb yarmidan ko'prog'i o'zlashtirilib obod etilgan. Salor yonida joylashgan Choch shahri bu davrda har tomonlama etakchi mavqega ega bo'lib, uni muarrixlar haqli ravishda milodning boshlaridagi Toshkentning asosi deb hisoblaydilar.

Buyuk ipak yo‘lida joylashgan Toshkent Yevropa mamlakatlarining Hindiston va Xitoy bilan olib borgan turli aloqalarida muhim rol o‘ynagan.

Milodiy V asr o‘rtalarida Choch, bir vaqtlar Qang‘ davlati tarkibidagi boshqa mulklar singari Eftaliylar davlatining bir qismiga aylangan. Milodiy VI asrda bu davlat janubdan Sosoniylarning, shimoldan Turk xoqonligi zarbalariga uchraydi. VI asrdan boshlab Choch Turk xoqonligining tarixi bilan bog‘lanadi. Choch, Parak (Chirchiq)ning butun hududi turk xoqoni Buminning ukasi Istami xoqon qo‘liga o‘tadi. Turk xoqonligining eftaliylar bilan kurashi natijasida Sirdaryo bo‘yidagi aholi hayoti biroz izdan chiqadi. “Shohnoma”da yozilishicha, Choch suvoriylarining shiddatli to‘qnashuvlari natijasida Sirdaryo suvi “qizil gul” tusiga kirgan.

Qanqa shahar xarobalaridagi tadqiqotlarda janglar davomida shahar vayron bo‘lganligi va mahalliy aholining qo‘zg‘olonlari bostirilganligi, shaharning V-VI asrlarda asosiy ibodatxonalari hujum va yong‘inlar ostida qolganligi aytilgan.

VII asrning birinchi choragida Chirchiqning o‘rta havzasidagi yerlarda shahar aholisining mikrovohada yashash madaniyati jadal rivojlangan. Chotqol-Qurama tog‘laridagi rangli va asl metal konlarining o‘zlashtirilishi shaharning iqtisodiy yuksalishiga yordam berdi, bu tog‘larda “Choch kumush koni” ishlab turgan. Bu Chochning rivojlanishiga shahar aholisining “Ipak yo‘li” savdosida faol qatnashishiga qulay imkoniyatlar yaratdi.

VI-VII asrlarda Chochning urbanistik jarayoning ko‘chayishiga olib keldi. Shahar hududi va aholisi soni avvalgi davrga qaraganda 2,5 baravar o‘sgan. Savdoda almashinuv vositasida foydalanilgan ko‘plab tangalar topilgan. Bu tangalar XX asrning 70-yillaridan o‘rganila boshlagan. Tangalarning yozuvlariga qarab Choch hukumdorlarining nomlari va unvonlari aniqlangan. Tangaga o‘rilgan tamg‘alarga qarab sulolalar almashinuvi belgilangan.

Choch G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibiga kirgan va nazorati ostida bo‘lsada, Xitoy doimiy ravishda davogarlik qilib kelgan. Bu shahar VI-VIII asrlarda, ayniqsa, ravnaq topgan. Shaharning Turk xoqonligi tarkibiga kirishi, uning Qoramozor tog‘laridagi konlar yaqinida joylashganligi, hunarmandchilik

mahsulotlariga doimo muhtoj dasht ko'chmanchilarining yondoshligi, shuningdek, asosiy karvon yo'llari, xususan, Buyuk ipak yo'li vohaning shimoliy hududlaridan o'tishi uni tezda Choch davlatining poytaxti bo'lib qolishiga imkon berdi. Shahar atrofi kuchli mudofaa devorlari bilan o'rab olinib, maxsus saroy-qal'a qurilgan. Arxeologik qazishmalar vaqtida topilgan ishlab chiqarish qurollari va uy-ro'zg'or buyumlari bu yerda yuksak madaniyat bo'lganidan dalolat beradi. Manbalarga ko'ra, shahar ichida saroy, ibodatxona bo'lgan ark, amaldorlarning uylari joylashgan shahriston, hunarmandlar mahallalari o'rnashgan ichki va tashqi rabodlardan iborat bo'lgan.

Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, Binkat shahrining keyingi asrlardagi o'rni Toshkentning to'rt dahasida, asosan, uchtasi Sebzor, Ko'kcha, Beshyog'och hududida joylashgan bo'lib, u alohida qalin devorlar bilan o'rab olingan 4 qism: ark (o'rda), shahriston (shaharning asosiy qismi) hamda ichki va tashqi rabodlardan iborat bo'lgan va bir necha qator mudofaa devori bilan o'ralgan. Shu davrdagi ark (maydoni 3 ga) va shahriston (maydoni 15 ga cha) shahar markazida hozirgi Shayxontohur tumani hududidagi Eski jo'va bozori va undan sharqdagi katta tepalikda joylashgan. Qal'ada hukmdor saroyi va zindon bo'lgan. Saroyning bir darvozasidan shahristonga, boshqasidan shaharning ichki rabodiga chiqilgan. Shahar markazida bozor bo'lgan, u "Jo'ba" deb yuritilgan. Markaz bilan shahar darvozalari ko'chalar orqali bog'langan. Bir va ikki qavatli paxsa yoki sinchkori devorli hovlilari qilib turar joylar qurilgan. Ichki va tashqi rabod devorlari oralig'i 4 km bo'lgan. Shaharda kulolchilik, o'q-yoy, gazlama, gilam, chodir hamda charm mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlangan.

Arab istilosi arafasida bir necha mulkliklar bo'lib, ularning o'z hukmdorlari bor edi. 712 -yil Qutayba qushinlari Chochga yurishni uyushtirdilar. Chochning mard aslzoda farzandlari arab bosqinchilariga qarshi mardonovor jang qilganlar o'z shaharlarini saqlab qolishga harakat qilganlar

Toshkent arablar tasarrufiga o'tgach, arab alifbosida "ch" harfining yo'qligi bois arabiy asarlarda "Shosh" deb yuritilgan. Ilk o'rta asrlarda u "Choch", "Shosh", "Shoshkent", "Madinat ash-Shosh", "Binkat" va "Tarkan" deb nomlangan.

Shahar “Toshkent” nomi bilan dastavval XI asrning mashhur allomalari Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Koshg‘ariyning asarlarida tilga olinadi.

X asr oxiri XII asr o‘rtalarida Choch Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirdi. 1214 - 15 yillarda Muhammad Xorazmshoh qoraxitoylar qo‘shini hamda naymanlar xoni Kuchluq bilan jang qilib, Shosh viloyatini ulardan tortib oldi va viloyat dushmanlar qo‘liga o‘tmasligi uchun Shosh markazi aholisini ko‘chirtirib yubordi. Shu bois mo‘g‘ullar 1220 yilda shaharni qarshiliksiz qo‘lga kiritgan bo‘lishi mumkin. XIII-XIV asrning 1-yarmida Toshkent viloyati Chig‘atoy ulusi tarkibida bo‘lgan. XIII asr oxirida shahar qayta tiklangan. Tarixchi Jamol Qarshiy “bu shahar doimo farovon, suvi mazali, iqlimi mo‘tadil, tuprog‘i unumdor, shahar atrofi obodonlashgan”ligini xabar qiladi.

Tarixchi Zakariyo al-Qazvaniy XIV asrda “Shosh-ozoda va ajoyib, yamyashil, juda go‘zal va ko‘ngilli shahar” deb yozgan. Manbalarda shaharda gullar ko‘p bo‘lganligi ta’kidlanadi. Shahar suv bilan yaxshi ta’minlangan va bog‘-rog‘li uylar qurilgan. Shahar mahallalarga bo‘linib, ularning har qaysisida 50-70 tadan xonadon va ko‘plab masjidlar bo‘lganligi haqida ma’lumotlar bor.

XIV asrning 2 - yarmi - XV asrning 80 -yillarigacha Toshkent Amir Temur va Temuriylar tarkibida bo‘ldi. 1404 -yilda Ulug‘bek ixtiyoriga mulk tarzida berildi. Bu davrda shahar voha bilan dasht chegarasidagi kuchli qal‘aga aylandi, uning hududi kengaydi, ishlab chiqarish, savdo-sotiq, madaniyat rivojlandi. Registon, Shayxontohur ansamblidagi maqbaralar, Jome masjidi va boshqalar qurildi. Arxeologik topilmalar, me’moriy obidalar mahalliy an‘analarning qo‘shni Sharq mamlakatlari madaniyati bilan uyg‘unlashib ketganligini ko‘rsatadi. Temuriylar o‘rtasida boshlangan taxt uchun kurash natijasida Toshkent 1485 - yilda Mo‘g‘uliston xoni Yunusxon ixtiyoriga o‘tdi va uning qarorgohiga aylandi. Lekin, u ko‘p hukmronlik qilmay, 1487 yilda Toshkentda vafot etdi. Yunusxondan keyin taxtga uning o‘g‘li Sulton Mahmudxon o‘tirdi. Uning hukmronligi ham ko‘pga bormadi. Toshkent 1503-yilda Shayboniyxon va Ko‘chkunchixon tasarrufiga o‘tdi. XVI asrda Toshkent

yana obodonlashib, Turkistonning hunarmandlik, savdo-sotiq va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Shahar yangi devor bilan o'raldi. Me'morlik obidalari qad ko'tardi. Hunarmandlikning taraqqiyoti savdo-sotiq aloqalarining kengayishiga olib keldi.

Arablar bosqini davrida O'rta Osiyoning shahar va qishloqlarida deyarli to'xtab qolgan. Qurilish ishlari IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yana jonlana boshlagan X-XII asrlada kuchaygan. Bu davrda mahalliy hokimiyat vakillari oldida avval shahar mudofaasini ta'mirlash va uy-joy jamoatchilik imoratlari (bozor, karvon, saroy, sardoba), mahalliy amaldorlar uchun saroy, qasrlarni barpo etish vazifasi turar edi. shuningdek bu davrda mahalliy aholi uchun yangi imoratlar-machit, madrasa qurish talab qilinar edi. Buyuk shaxslar qabrlari ustiga maqbaralar barpo etish an'anasi kuchaydi.

IX asrdan boshlab qurilishda pishgan g'ishtdan foydalanish boshlanib, X asrda undan keng foydalanilgan. Pishiq g'ishtdan qurilishda foydalanish nafaqat imoratning mustahkamligini ta'minlagan balki, ularning tashqi manzarasining ko'rkamligini ham ta'minlagan. Bu davr me'morchiligida islamiy va girrih uslubidagi naqshlar bilan bezash keng tarqaladi. Shuningdek me'morchilikda devorlarning sirtini koshinlar bilan bezash keng yoyilib, ularda ko'k va yashil ranglardan keng foydalanilgan. Me'morchilik inshootlarini barpo etishda murakkab qurilish usullari (qubbalar, yoysimon arklar, gumbazlar, peshtoq) keng qo'llanilgan.

IX-X asrlardan boshlab, shisha ishlab chiqarish hunarmandchilikning asosiy tarmoqlaridan biriga aylanadi. Hunarmandchilikning bu turi asosan shaharlarda rivojlanadi. Afrosiyob, Varaxsha va Nisalarning O'rta asrlar davri madaniy qatlamlaridan bu davrga oid shisha buyumlar topib o'rganilgan. Ular shakl va hajmdagi uy-ro'zg'or buyumlardan tortib, zeb-ziynat va parod-andoz buyumlarigacha tashekil etadi. shishalarning asosiy ko'pchiligi rangsiz. Rangli shishalar ham mavjud bo'lib, ular asosan idishlarni bezashda ishlatilgan. Bu davr shishasozlari turli usullardan foydalanganlar va puflash yo'li bilan yupqa shishalar ishlab chiqarganlar. Puflash yo'li bilan idishlarga pardoz berish ham keng

foydalanishgan. IX-X asrlarda puflash yo'li bilan deraza oynalari ham yasalgan. XI-XII asrlarga kelib shishaga bo'lgan talab yanada ortib ishlab chiqarish sur'ati tezlashadi. Bu davrda shuningdek rangdor shishalar miqdori ko'payadi.

Temirchilik ham ancha rivojlanadi. Temirchilik nafaqat shaharlarda balki qishloq joylarda ham ancha rivojlanib, undan mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, kulf-kalitlar bilan bir qatorda, shamdonlar, surmadonlar va boshqa antiqa buyumlar yasalgan. Temir buyumlari, quyish va bolg'alash usulida yasalgan.

Metalchilikning yana bir muhim tarmog'i misgarlik bo'lgan. Misgarlar tomonidan nafis ko'zalar, qozonlar, shamdonlar yasalgan. Kulolchilik ishlab chiqarish nafaqat shaharlarda balki qishloq joylarda ham yaxshi rivojlangan bo'lib, arxeologik jihatidan yaxshi o'rganilgan. Shahar va qishloq harobalaridan kulollar mahallalari, ustaxonalar va xumdonlarning o'rni ochib o'rganilgan.

9.5. Termiz ilk o'rta asrlar davrida.

Termiz shahri manbalarda

IX asrining ikkinchi yarmi va X asrning birinchi choragida yashagan sayyoh va geograf olim Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forsiy al-Istaxriy (850-934) "Masolik ul-mamolik" ("Mamlakatlarga olib boradigan yo'llar haqida") asarlarida Termiz viloyatining chegaralari, iqlimi, ma'muriy bo'linishi, aholisi va uning mashg'uloti, mashhur kishilari, savdo-sotiq masalalari haqida ma'lumot bergan. Ularda aytilishicha, Jayhun bo'yidagi Termiz qal'asi va shahriston shahar chekkasida joylashgan hamda mustahkam devor bilan o'rab olingan rabotdan iborat. Hukumdor saroyi qal'ada, qamoqxona (zindon) kuhandizda emas, shahristonda, ya'ni bozorning o'rtasida bo'lib, shu yerda jome masjidida mavjud, nomozgoh (fuqarolar nomoz o'qiydigan joy) esa rabotda, ya'ni devorning ichkarisida qad ko'tarib turibdi.

Bozor ichkarisidagi imoratlar xom g'ishtdan qurilgan, keng ko'chalarga va maydonga pishiq g'isht yotqizilgan. Jayhun bo'yida, daryoning kechuv joyida shahar aholisi istiqomat qiladi, Termizning ekinzorlari Sag'oniyon (Chag'onrud)

daryosi suvi bilan sugʻoriladi, aholi uchun ichimlik suvi quvurlar yordamida Jayhun daryosidan olingan.

X asr oxirida yashagan Al-Muqaddasiy (Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr al-Muqaddasiy) oʻzining “Ahsan at-taqosim fi maʼrifat al-aqolim” (“Iqlimlarni oʻrganish uchun yaxshi qoʻllanma”) nomli asarida Termiz Jayhun boʻyidagi eng katta shahar ekanligini, hamma joydan bu yerga koʻplab ziyoratchilar, savdogarlar kelishini qayd qilgan.

Shaharning Kuhandiz qalʼasi alohida taʼkidlanadi, Kuhandizda bitta, shahristonda esa uchta darvoza borligi eʼtirof etiladi. Al-Muqaddasiy, shuningdek, yuqoridagi fikrlarni tasdiqlab, Sagʻoniyon shahri Ramiuga, uning viloyati esa Falastinga oʻxshashligini, uning pishiq gʻishtdan terilgan baland ustunli, ravoqsiz masjidi bozorning oʻrtasida joylashganligini, shaharning har bir mahalla va uy-xonadonlariga sopol suv quvurlari oʻtkazilganligi aytilgan. X asrning koʻzga koʻringan yirik olimi Istaxriyning shogirdi sayyoh geograf Ibn Xavqal (Abulqosim ibn Xavqal an-Nasibiy) uztozining iltimosiga koʻra “Kitob ul-masolik”ning xatolarini tuzatib, unga xaritalar ilova qiladi. Ibn Havqal oʻzining “Kitob surat al-ard” (“Yerning shakli”) nomli asarining Movarounnahr qismiga tarixiy voqealarni kiritib, kitobning qimmatini oshirishga erishadi. Sagʻoniyon Amudaryoga Termiz shahridan pastroqda qoʻshilishini tasvirlagan Ibn Xavqal oʻz asarida Istaxriy qoʻllagan “qalʼa” atamasini ishlatmaydi, balki faqat kuhandiz-eski qoʻrgʻon haqida maʼlumot keltiradi.

9.6.Termiz shahri ilk va oʻrta asrlar davrida

Termizda dastlabki arxeologik qazishma ishlari 1926 – 1927 yillarda B.P.Denike, 1936-1938 -yillarda M.V. Masson rahbarligidagi Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan. Eski Termizda arxeologik qazishma ishlari keyinchalik Sh.Pidaev, T.Annaev tomonidan davom ettirilib, shahar tarixi yanada oydinlashtirildi.

Arab va yunon manbalarida keltirilgan maʼlumotlar Termizning Sharqdagi qadimgi shaharlardan biri ekanligidan dalolat beradi. Shaharning qulay geografik oʻrni, strategik ahamiyatga molik joyda boʻlganligi, sharqni gʻarb, janubni shimol

bilan bog'lovchi savdo chorrahasida barpo etilishi, uning tez sur'atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratgan. Buyuk ipak yo'linint muhim bir tarmog'i ham Termiz orqali o'tgan.

Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining shakllanishida Termizning o'ziga xos o'rni bor. Ko'hna Termizning qal'a qismida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari va yozma manbalarning tahliliga ko'ra shaharga miloddan avvalgi 1 - ming yillikning o'rtalarida asos solingan. Termiz Sug'diyona, Xorazm, Marg'iyona va Parfiya davlatlari bilan madaniy va savdo aloqalarini o'rnatgan. Topilmalarga qaraganda shaharning Hindiston bilan madaniy va savdo aloqalari ham juda faol va uzviy bo'lgan.

Termizning qadimgi tarixiga biroz to'xtalib o'tamiz. Miloddan avvalgi IV - III asrlarda 10 ga. maydonni egallagan Termizning qadimgi qal'asi o'rnida aholi manzili bo'lgan. Hofizi Abruyning yozishicha, shahar nomi "Taramastxa" (baqtriycha "narigi sohildagi manzil") so'zidan olingan bo'lib, asrlar davomida turlicha atalib kelgan (masalan, Antioxiya, Demetrias, Tarmid, Tarmiz, Tami, Tamo), X asrdan Termiz deb atala boshlagan.

Termiz miloddan avvalgi III - II asrlarga kelib Baqtriyaning eng rivojlangan, siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Ashyoviy dalillarga ko'ra bu davrlarda shaharda me'morlik va hunarmandchilikning bir qancha sohalari (kulolchilik, degrezlik va metallsozlik, shishasozlik), Salavkiylar, Yunon-Baqtriya shohlari tovar-pul muomalasi Movarounnahrning boshqa shaharlariga qaraganda ancha oldin rivojlanganligidan dalolat beradi.

Termiz shahri kushonlar saltanati davrida va o'rta asrlarda o'z taraqqiyotining eng rivojlangan bosqichiga ko'tarilgan. Termiz shahrining gullab yashnagan davri Kushonlar hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Bu davrda Termiz hududiy jihatdan kengayib, Shimoliy Baqtriyaning yirik shahriga aylangan. Shaharda shu davrga oid me'morlik va hunarmandchilik binolari va namunalari, turli nafis sopol va shisha idishlar, fil suyagi, qimmatbaho metall va toshlardan tayyorlangan zargarlik buyumlari kabi topilmalarning ko'plab qayd qilinishi buning dalilidir. Masalan, Dalvarzintepadan topilgan va fil suyaklaridan yasalgan shaxmat donalari (fil va

ho‘kiz-zebu shaklida) hozirgi kunda yer yuzida aniqlangan eng qadimgi shaxmat donalari (milodiy II asr) hisoblanadi. O‘sha davrda Termiz Kushonlar davlatining muhim shahri va buddizmning markazlaridan biri bo‘lgan.

Shaharning eng qadimiy nomi arman manbalarida (IV-V asrlarda) “Drmat” deb atalgan VII asrlarga oid xitoy manbalarida “Tamn”, XIV asrga oid xitoy manbalarida “Talima” deb qayd qilingan. IX-XI asrlarga oid arab-fors manbalarida “Tarmid”, ”Tarmiz” va “Tirmiz” shaklida bo‘lgan.

XII asrda yashagan tarixchi Samoniyning ma’lumoticha ”Tarmiz” so‘zi qadimdan ma’lum bo‘lgan. IX-XII asrlarda shaharda zarb qilingan tangalarda ham ”Tarmiz” so‘zi qayd etilgan. Kushonlar davrida Baqtriyada yuzlab shahar va qishloqlarga asos solingan. Mana shunday shaharlardan biri bu Termiz. Kushonlar hukmronligi davrida shimoliy baqtriyaning eng katta shaharlaridan biriga va poytaxtga aylangan. Hunarmandchilikning turli tarmoqlari kulolchilik, metalsozlik, toshtarozlik rivojlangan. Termizlik kulollar tayyorlagan ko‘zalar, qadahlar, tog‘oralar va boshqa uy-ro‘zg‘or bo‘yumlari o‘zining sifati bejirim shakli va naqshlari bilan ajralib to‘rgan. Bu buyumlarni shahar aholisi va boshqa shaharlarga ham sotishgan. Kushonlar davrida Termizda savdo-sotiq ham rivojlangan. Madaniy va mafkuraviy hayotida buddizm alohida o‘rin egallagan.

Eftalitlar va sosoniylar milodning V asrida Eron bilan bir necha bor jang qilib, uning sharqdagi, xususan Baqtriya va Parfiya yerlarini tortib oladi. Eftalitlar va sosoniylar Eroni o‘rtasidagi harbiy harakatlar Baqtriyadagi shahar qishloqlarga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shahar aholisining ko‘pchiligi shaharni tashlab ketdilar. Termiz hayotida ham shu holat sodir bo‘ldi. Natijada Termiz shahri kichik bir shaharchaga aylanib qoldi. Termiz hokimligi yarim mustaqil davlat bo‘lib, avval eftalitlar, so‘ngra turk hoqonligi tarkibiga kirgan. Termiz ilk o‘rta asrlarda yirik port shahar bo‘lgan.

Shaharni Termizshohlar idora qilgan. O‘sha davrda Termiz Termizshohlar hokimligining poytaxti bo‘lib turgan. Arablar bosib olgan davrda (686 - 704)

Termiz 70 gektarga yaqin maydonni egallagan, to'rtburchak shaklidagi qal'adan iborat bo'lgan.

“Jayxun bo'yidagi ko'rkam va obod shahar Termiz bo'lgan. Qal'asi daryo bo'yida, bo'lib ulkan bozori mashhur, Xuttalon va Chag'oniyon ahli shu yerda savdo qiladi”, deb X asrda yozilgan “Hudud ul-Olam” asarida ta'riflangan.

Arab lashkarboshisi Musa Ibn Abdulloh 689 -yili Termizni bosib oladi va shu yerdan turib Movarounnahrning katta qismini boshqargan. 704 -yilda Muso ibn Abdulloh turk xoqonligi va mahalliy hokimlarning birlashgan qo'shinlarining zarbasiga uchraydi.

XX asrning 20-yillarida Termiz shahrining o'rta asrlar davri tarixi va shahar madaniyatini sharhlashda asosiy manba bo'lib akademik V.V.Bartoldning asarlari muhim manba bo'ladi. “Turkiston mo'g'ullar bosqini davrida” nomli asarida Termizda mavjud bo'lgan qishloq va shaharlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

1936-1938 yillarda Eski Termizdagi Termizshohlar saroyi o'rganilib, Termizning o'rta asrlar davri mudofa devorlari, temirchilar mahallasi o'rganilib Termiz shahrining o'rta asrlar davri tarixiy topografiyasi ishlab chiqildi.

X-XII asr boshlarida Termiz ravnaq topgan. Toxaristonning yirik shahri, hunarmandchilik va savdo markaziga aylangan. Bu davrda Termiz hududi 500 ga dan ortiq maydonni egallagan. Shaharda bir qancha mahobatli binolar barpo etilgan. Shulardan Eski shahar qismida Termizshohlar saroyi saqlanib qolgan. XI-XII asrlarda ayniqsa shaharlar kengayadi, aholisining soni ko'payib, ular yanada gavjumlashadi. Samarqand, Buxoro, Termiz, O'zgan, Toshkent kabi shaharlar ichki va tashqi savdo uchun xilma-xil hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan hamda chaqa-tangalar vositasi bilan olib boriladigan bozor tijoratining markaziga aylanadi. Shaharlar markazida shohona saroylar, masjid, madrasa, minora kabi ko'plab mahobatli imorallar qad ko'taradi.

Shahar ichi va uning atrofida savdo va hunarmandchilik mahallalari, karvonsaroylar va bozorlar barpo etiladi. Bu davrda shaharlarda ayniqsa, kulolchilik, shishasozlik, misgarlik va chilangarlik rivoj topadi. XI-XII asrning

sirli koshinkor va qabartma naqshli sopol idish va tovoqlari, rangdor shisha buyumlari, naqshinkor mis idishlari o'zining xilma-xilligi va yuqori darajada nafisligi bilan ajralib turadi. Hunarmandchilikning taraqqiy etishi hamda ichki va tashqi savdoning kengayishi bilan bozor tijoratida pulga talab oshadi. Natijada qoraxoniylar va ularning viloyat hokimlari eloqxonlar tomonidan kumush va misdan ko'plab chaqa va tangalar zarb qilinadi.

Shaharda temirchilik, shishasozlik, kulolchilik rivojlangan. Termizda tayyorlangan hunarmandchilik buyumlariga talab yuqori bo'lgan. Shaharda o'nlab karvonsaroylar faoliyat ko'rsatgan. O'sha davrda Termiz yirik madaniyat va ilm-fan markazi sifatida ham nom qozongan. Termizlik olimu-ulamolar o'rta asr Sharqining fan, madaniyat va ma'rifatiga o'z hissasini qo'shgan.

Termiz IX asrlarda kichik bir shaharcha bo'lgan. X asrdan boshlab sekin-asta kattalashib borgan. Shahar aholisi ko'payib, yangi maydonlarni o'zlashtira boshladilar. X asr boshlarida Termiz qal'a, shahriston va rabotdan tashkil topgan. Shahar qal'ai Jayhun daryosi bo'yida hokimning saroyi joylashgan.

Termiz shahri uchun IX-XII asrlar gullab yashnash davri bo'ladi, u yirik feodal shahar, ma'muriy savdo, hunarmandchilik markaziga aylanadi. Shaharda temirchilar mahallasi besh gektar yerni ishg'ol etardi, temirchi hunarmandlar qishloq xo'jaligi va turmush uchun zarur bo'lgan boshqa qurol va ashyolar tayyorlar edi. Qurolsozlar, simgarlar, shishadamgarlar ishi va simobdon ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yildi, bunday idishlarda simobdan tashqari boshqa suyuq jismlarni, ya'ni xalq tabobatida qo'llanadigan xushbo'y birikmalar muattar (molekulasi tarkibiga bir yoki bir necha benzol yadrosi bo'lgan organik birikmalardan iborat) dori-darmonlarni saqlash mumkin edi. Shaharda sopol idishlar ishlab chiqarishda va uni sirlash shaklining turli-tumanligi, mustahkamligi hamda sifati ancha oshdi.

Shahar XI asrda jadallik bilan rivojlandi, uning sug'orish tarmog'i rivojlandi, u har jihatdan o'sdi. Shaharning jadal ravishda o'sishi bilan ahvol ham yangilandi, binolar tashqi qiyofasi o'zgardi, shaharning yangi qismi rivojiga yirik inshootlar bozor, hunrmandlar mahallasi qurilishiga katta ahamiyat beriladi. Ilgari qurilgan

devorlar pishiq g'isht bilan qoplanadi. 1073-1074 -yillarda Malikshoh topshirig'i bilan shahriston devorlari yana mustahkamlanadi. Arab zamin bitikchisi Maqdisiy (X asr)ning yozishicha Termizda sovun va muattar (xushbo'y)ni ko'plab ishlab chiqarish va uni chetga sotish keng yo'lga qo'yilgan. Termiz hunarmandlari sharq bozorlarida baliq, kir yuvish ishqori, qo'lda to'qilgan matolari bilan shuhrat topganlar. Hatto, vizantiyalik savdogarlar Termizdan kelib paxta olib ketishgan, o'z galida Termiz bozorida boshqa shaharlardan keltirilgan mahsulotlar bilan savdo qilingan. Manbalarning guvohligicha, XI-XII asrlarda faqat Termiz shahrining ichida 16 mingdan ziyodroq aholi yashagan, bu o'rta asr sharoitida katta ko'rsatgichdir. Shaharda jamoa va xususiy qurilishlar XI-XII asrlarda avjga chiqadi, g'ishtga bo'lgan talab o'sadi, uni ishlab chiqarish kengayadi. G'isht ishlab chiqarish va yangi g'isht quyish maydonlari bir necha gektarga kengayadi hamda katta hududni egallaydi, endilikda bu yerda 20 dan ortiq g'isht pishiradigan xumdonlar paydo bo'ladi. Termiz shahri XI-XII asrlarda galma-gal G'aznaviylar, Saljuqiylar va Qoraxoniylar qo'lga o'tib turganli tarixiy manbalarda to'liq ifodasini topgan. Shu davrda shaharda shohlar saroyi quriladi va uni Termizshoh unvonli hukmdor idora qila boshlaydi. Shahar yana obod bo'ladi, tijorat va hunarmandchilik rivojlanadi.

XI-XIII asrlarda Termiz O'rta Osiyodagi katta shaharlardan biriga aylandi. Termizda ishlab chiqarish va savdo-sotiq rivojlandi. Termizda sovun ishlab chiqarish yo'ga qo'yildi va boshqa shaharlarga borib sotildi. Rivoyatlrga qaraganda Termiz bozorlari shovqinini hatto Balxga ham eshitilgan. Shuning uchun shahar bozoriga "shahri g'ulg'ula" deb nomlangan.

1220 -yilda Termiz mo'g'ullar tomonidan vayron qilib tashlangan. Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida qayd qilinishicha, Termiz aholisi mo'g'ullarga qattiq qarshilik ko'rsatgan va shu bois shahar "Madinat ur-rijol" ("Mardlar shahri") deb ham atalgan. Mo'g'ullar istilosidan so'ng, XIV asrda Termiz Surxondaryo sohiliga yaqin joyda yangidan qadimgi ko'tardi. Shahar o'z o'rnini bir necha bor o'zgartirsada, asrlar davomida o'z nomini Tarmita, Antioxiya-Tarmita, Tarmiz, Tirmiz, Termiz ko'rinishlarida saqlab kelgan.

XII-XIV asr Xitoy manbalarida aytilishicha, Termiz eski va yangi shahardan iborat bo'lgan. Bir necha yuz oilani tashkil qiluvchi aholi chorvachilik bilan shug'ullangan, Amudaryoning sharqida joylashgan Tislimi shahri baliqlari bilan mashhur bo'lgan, to'qay va qamishli chakalakzorlar g'arbga tomon cho'zilib ketgan. Ibn Battuta "Sayohatnoma"da yangi Termizning tasviri shunday berilgan: "Bu chiroyli imoratlari va bozorlari ko'p bo'lgan yirik shahardir, uni boshdan-oyoq anhorlar kesib o'tadi, bog'lari ham juda ko'p. Ayniqsa, uzum bilan behisi juda shirin, go'sht, sut juda serob". Sayyoh Xorazmda bo'lganida, u yerga daryo orqali o'n kun muddatda Termizdan bug'doy va so'li keltirilganiga guvoh bo'ladi.

9.7. Amir Temur va temuriylar davrida Termiz shahri

Amir Temur 1370 -yil Movarounnahrni egallagach, Termiz Surxondaryo vohasi bilan birga Temur davlati tarkibiga kirdi. Surxon vohasining rivojida Amir Temur shaxsining alohida o'rni bor. Keyingi tarixiy izlanishlar shu narsani aniq ta'kidlamodagi, Amir Temurning davlat boshqaruv faoliyatida Surxon vohasining o'ziga xos o'rni bo'lib, uning janubiy mamlakatlar bilan olib borgan jamiki harakati Termiz bilan bog'liq edi. Amir Temur o'z armiyasiga yangi kuch qo'shib, uning iqtisodiy ta'minotini Termizda mustahkamladi.

Amir Temurning Termizga yaqin Biyo qishlog'ida to'xtab, "Temur tuzuklari"da qayd etilgan: "Birinchisi - davlat va saltanatimga bog'langan mening birinchi tuzugim - Tangri taoloning dini va Muhammad Mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim" degan fikrni bildirgan. Chunki, Biyo qishlog'ida Amir Temur Makkayu Mukarrama sayyidlarining boshlig'i Sayyid Baraka bilan uchrashadi.

Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida ko'hna Termiz haqida ma'lumot berar ekan, 1399-yil 11- sentabrda Kesh (Shahrisabz)dan Balxga borayotgan Amir Temur bir necha termizlik sayyidlarning qabrlarini, jumladan, Xoja Muhammad Ali Hakim Termiziy va Shayx Abu Bakr Varroqning mozorlarini ziyorat qilib o'tganligini eslatadi. Amir Temur 1404 -yilning yozida Balxdan orqaga qaytayotganida ham Termiz sayyidlaridan Xudovanzoda A'lo al-muluk xonadonida to'xtab o'tadi. 1404-yilning kuzida Ispaniya qiroli Genrix III ning

elchisi Klavixo ham Termizda bo‘gan edi. Rui Gonsales de Klavixoning “Samarqandga, Temur huzuriga sayohat kundaligi” (1403-1406 yy) dagi ma’lumotga ko‘ra, Temur Xurosonga qilayotgan yurishida Amudaryoga qayiq ustida turuvchi yog‘och ko‘prik qurdiradi va qo‘shinlar o‘tib bo‘lgach, uni buzdirib tashlaydi. Bu davrda Kichik Hindiston deb ataluvchi mazkur hudud Balx tumaniga qarashli edi. Termiz tumaniga tegishli qadimgi kechuv joylari Sho‘rob va Cho‘chqa Guzar Aleksandr Makedonskiygacha ham bor edi, bu joylar ilgari Kichik Hindistonga bo‘ysungan bo‘lsa, endi Amir Temur tomonidan Samarqand saltanatiga bo‘ysundirildi, deb qayd etildi. Sohibqiron saroyiga Kastiliya va Lion qiroli Genrix III nomidan elchi bo‘lib kelgan Rui Gonzalis de Klavixo Termiz shahrini shunday ta’riflaydi: “Termiz juda katta va aholisi zich, unda tashqi devor mudofaa istehkomlari yo‘q. Shahar atrofida ko‘plab bog‘lar va anhorlar joylashgan. Bu shaharga kirganimizdan so‘ng doimo xilma-xil mollar sotiladigan gavjum ko‘cha va maydonlardan yurib bordik. Bu shahar elchilarga ko‘p marotaba marhamat ko‘rsatdilar”. Xuroson hukmdori Shohrux Mirzoning Anhud va Balx viloyatlarida ta’siri kuchayishidan tahlikaga tushgan Xalil Sulton 1407-yilda Amudaryo bo‘ylab joylashgan Termiz qal’asini qayta tiklagan. 1431-yili Shohruh Mirzo topshirig‘iga ko‘ra yozilgan Hofizi Abruning geografiyaga doir asarida Amudaryoning Orol dengiziga emas, balki Kaspiy dengiziga quyilishi, Movarounnahr va uning yirik shaharlari Buxoro, Samarqand, Kesh, Nasaf, Termiz, Xo‘jand haqida ma’lumotlar berilgan. Hofizi Abru Termiz shahri bilan qal’a bir joyda, bundan tashqari, Termiz tashqi shaharga ham ega ekanligini, imoratlar paxsadan qurilgan, bozor va jome masjidi shaharning markazida bo‘lganligini ta’kidlaydi. Buyuk geografik kashfiyotlar arafasida bo‘lgan Temur davri butun Turon zamin xalqaro savdosining yuksak rivojlangan bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Kichik Hindiston (g‘arbiy Yevropa adabiyotida Kichik Hindiston va Eron oralig‘idagi hududlar, ya’ni Afg‘oniston, Belujiston va Mekron nazarda tutilgan)dan Samarqand sari yo‘l olgan karvonlar Termiz kechuvidan o‘tgan. Bundan ko‘rinadiki, Surxon vohasi hududi Temur davri savdosida muhim ahamiyat kasb etgan. Temur va temuriylar davrida vohada nafaqat savdo, balki

iqtisodiy hamda madaniy siljishlar ham yuz berganini XIV-XV asrlarga oid bo'lgan 80 dan ortiq obidadan topilgan ashyoviy manbalar isbot eta oladi. Bu yodgorliklardan qazib olingan, sifat darajasi bilan Xitoy chinnisiga tenglashgan sopol buyumlar, zargarlik namunalari, me'moriy koshinlar Surxon vohasi amaliy san'atining Temur davlati markaziy shaharlari madaniyati bilan hamohang taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

1407 -yilda Temuriy Xalil Sulton farmoni bilan daryo sohilidagi Termiz qal'asi qayta tiklandi. Ko'p o'tmay o'z tangalarini zarb etadigan katta shaharga aylandi.

1504 - 1505 -yillarda shaharni Shayboniyxon egalladi. Keyinchalik turli sulolalar tasarrufida bo'lib, XVIII asrning 2 - yarmida shahar o'zaro urushlar natijasida butunlay vayron qilingan. Faqat, uning atrofidagi Pattakesar va Solihobod qishloqlari saqlanib qolgan.

Mustaqillik yillarida shaharlarning va mutaffakirlarning yubiliylari keng nishonlandi. Jumladan, Termizda islom dini arboblardan Hakim at-Termiziy, Shaxobuddin Sobir Termiziy, Muhammad ibn Hamid Termiziy, Abu Bakr Varroq Termiziy kabi olimlar yashab o'tishgan. Termizda 1999 - yilda Alpomish dostonining 1000 yilligi, 2002 - yilda xalqaro miqyosda Termizning 2500 yillik yubileyi o'tkazildi.

9.8.O'rta asrlar davri Axsiket, Quva shaharlari.



Axsikent yodgorligi -qadimiy shahar xarobasi. Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi Shahand qishlog'i hududida, Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan.

Qadimgi va O'rta asrlarda Axsikent

Buyuk ipak yo'lining gullab yashnashida poytaxt shaharlarning roli katta bo'lgan. Savdoda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy mahsulotlar shaharda ko'p bo'lgan. Jumladan, Farg'ona poytaxti Axsikent diqqatga sazovordir. Hozirgi vaqtda Axsikent xarobalari To'raqurg'on va Jomashuy orqali Namangan-Farg'ona yo'lining ikki tomonida, Sirdaryoning o'ng sohili bo'ylab chuzilib ketgan baland tepaliklar ko'rinishida yotibdi. Xalq orasida Eski Aysi deb ataytiladi. Axsikentning o'z qal'asi, shahristoni (ichki shahar) va rabodi (tashqi shahar) bo'lgan.

Axsikentning asosiy qismlarini Sirdaryoning suvi yuvib ketgan, qolgani qor yomg'irda tekislanib ketgan. Qal'aning shimoli va shimoliy sharqiy qismi saqlanib qolgan. Eng pastki qatlam miloddan avvalgi III-II asrlarga teng. Axsikent arxeologik jihatdan o'rganish ishlari XIX asr oxirilari XX asr boshlaridan boshlangan. 1885 - yilda N.I.Veselovskiy, 1914-yilda I.A.Kastane qazish va qidiruv ishlari olib borgan. Sho'rolar davrida 1939-yilda M.E.Masson, 1948-yillara N.Bernshtamlar tekshirganlar. 1957-1959 yillarda Axsikat Namangan o'lkashunoslik muzeyi xodimlari tomonidan ham o'rganilgan. 1960-yilda O'zbekiston FA Tarix va

arxeologiya instituti uyushtirgan maxsus ekspeditsiya Axsikat rabodidan XI asrga oid koʻhna hammom oʻrnini ochgan. U yerdan sopol idish, quvur, chaqa tanga va shisha buyumlar topilgan. Bundan tashqari, Axsikent xarobalaridan gʻarbroqda oʻrta asrlarga oid yana bir shahar xarobalari borligi aniqlangan.

Akademik Ya.Gʻulomov va arxeolog I.Ahrorov mazkur tadqiqotlar asosida bu yerda turli davrlarga oid ikkita shahar boʻlganligini, ulardan biri qadimgi Axsikent va ikkinchisi Bobur tugʻilgan Aysi ekanligini birinchi boʻlib isbotladilar. 1967-yilda rassom I.A.Smironov Axsikat xarobalaridan yigʻib jamlagan sopol idish, jez buyum va zeb-ziynatlar majmuasini Moskvadagi Sharq xalqlari davlat muzeyiga taqdim etgan. Axsikent yodgorligi oʻzbek xalqi madaniyati tarixida muhim oʻrin tutganligi uchun 1950 yildan davlat muhofazasiga olingan.

Shahriston ikki ichki va tashqi qismdan iborat boʻlib beshta darvozasi boʻlgan. Ikkala shahriston ham balandligi 20 metrga yaqin devorlar va chuqur handaqlar bilan oʻrab olingan. Tashqi shahristondan 20 ga yaqin minoralar topilgan. Har -yili devorlar taʼmirlanganligidan 100-150 yil davomida devor qalinligi 10 metrga balandligi 20 metrga etgan.

Xitoy manbalarida qayd etilishicha, Xitoy imperatori bir juft otga butun Sindzyan viloyatini berishga rozi boʻlgan ekan. Buyuk ipak yoʻli savdosida ot muhim ahamiyatga ega ekanligidan Xitoy imperatori shu fikrga kelgan. Milodning I asrlarida shahar kengaydi. Shahar oʻzini himoya qilishda muhim strategik ahamiyatga ham ega edi. Bu davrda shaharda hunarmandchilik savdo muhim ahamiyat kasb etdi.

Ayniqsa V-VII asrlarda shaharda uy-joy qurilishiga katta ahamiyat berildi. Uylarning ichki devorlari suvalgan va buyoqalar bera boshlaganlar. Har bir xonadonda yotoqxona, omborxonona, oshxonona, toza ichimlik qudugʻi ham boʻlgan. Soʻgʻd-turk savdogarlari sharqiy Xitoy orqali Koreya va Yaponiya, janubiy Hindistonga borib savdo-sotiq ishlari bilan shugʻullanganlar.

Tinch osoyishta hayot arablar istilosi natijasida buziladi. Lekin koʻp utmay VIII asr oxirlarida yana qudratini tiklab oldi. VIII-IX asrlarda arab yilnomalarida Axsikat “Fargʻona” deb yuritilgan. Poytaxt vodiy nomi bilan atalgan.

Axsikent markazlashgan Somoniylar davlati davrida IX-X asrlarda siyosiy iqtisodiy markaz sifatida gullab yashnadi. Ichki bozorda mis tangalar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Axsikatda mis tangalar zarb qilindi. Shaharda mudofa devorlari ahamiyatini yo'qotgan, chunki somoniylarda mudofa devorsiz muhofaza qila olgan.

Axsikentning bosh bozori shahristonda bo'lgan, u 2 ga ni tashkil qilgan. Yer osti suv quvurlari topilgan X asrga oid, sababi aholi zich joylashganligidan quvurlar yer ostidan utkazilgan uzoq yillarga xizmat qilishi uchun. Yer osti suv quvurlari pishgan g'ishtdan qilingan.

Ikkinchi shahristondan to'qqiz joyida zilol suv to'la hovuzlar topildi. Temirchi ustalarning mahallalari ham ko'p bo'lgan. Shaharga tunel orqali yer ostidan suv kelgan.

XI asrda Qoraxoniylar davlati davrida siyosiy poytaxt Axsikentdan O'zganga ko'chirildi. Arxeologik materiallarga ko'ra XI-XII aslargaacha Axsikent butun Farg'onani iqtisodiy markazi bo'lib qolgan. Buyuk ipak yo'li bo'ylab joylashgan eng yirik shahar bo'lib qoldi. Bu yerdan topilgan hunarmandlarning idishlarining namunalari Parijdagi Luvr Davlat muzeyida saqlanmoqda. Axsikentda tayyorlangan "Damashq" qilichlari butun dunyoga mashhur bo'lgan.

XIII asrda Axsikent mo'g'ullar tomonidan butunlay vayron qilindi. Yer osti suv quvurlari, jome masjidlar buzib tashlandi, mashhur hunarmand ustalar Mo'g'ilistonga olib ketildi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, Axsikent shahri yangi yerda, Eski Axi yodgorligidan 5-6 kilometr shimoli-g'arbda, hozirgi Yakkayigit qishlog'i o'rnida qad ko'tardi. Bu shaharning xarobalari hozir xalq orasida Yangi Axi deb yuritiladi.

IX-XII asrlarda jahon sivilisatsiyasining markazi Osiyo va O'rta Osiyo hududlariga ko'chganligi qulay imkoniyatlarni yaratib berdi. Ilm-fan va madaniyat ivojlandi. Matematika, astronomiya, falsafa, tarix va ilohiyot fanlarining rivojlanishiga o'zbekistonlik buyuk ajdodlarimizning xizmatlari katta. Farg'onalik Ahmad al-Farg'oniy, Burhoniddin al-Marg'iloniy, aka-uka Axsikentiy va boshqalarning o'ziga xos o'ni bor. Ahmad al-Farg'oniyning "Samoviy harakatlar

haqida kitob va yulduzlar haqidagi bilimlar majmuasi” degan mashhur asarni yozgan. Bu asar XII asrda lotin va boshqa tillarga tarjima qilindi.

Quva Farg‘ona vodiysining eng qadimgi shaharlaridan biri



Shahristonning shimolida VII asrga oid ibodatxona

Shahristonning shimolida VII asrga oid ibodatxona yoki ibodatxona majmuasi bo'limlari qazilgan bo'lib, ular qator kirish xonalari, markaziy hovli va ikkita katta zaldan iborat bo'lgan. Rabot (qishloq) da ishlab chiqarish izlari bor: sirlangan va sirlanmagan idishlar, g'isht pechi (Shahristondan shimoli-g'arbiy qismida), shisha ishlab chiqarish izlari topilgan. Arxeologik qazishmalarning birinchi natijasi qadimgi Quvada hunarmandchilikning mislsiz gullab-yashnaganligini tasdiqlaydi.

Arab manbalarida ma'lum bo'lishicha, Quva odatdagi Sharqiy shahar bo'lib, uch qismdan iborat bo'lgan: qo'rg'on - shahriston, devor bilan o'ralgan shahar va rabadalar - shahar atrofidagi savdo va hunarmandchilik aholi punktlari. Shahar qurilish rejasi kvadrat shaklga yaqinroq bo'lib, balandligi 10 metrgacha bo'lgan qal'aning bir qismi saqlanib qolgan; shimoldan, janubdan va sharqdan shahar atrofi bilan o'ralgan bo'lib, uning zonasi yodgorlik markazidan 1 km uzoqlikda joylashgan. Shaharda madaniy qatlam 9 metrgacha, yuqori qatlamlar to'liq o'rganilgan. Shahristonda XI-XII asrlarga oid turar joylarni rivojlantirish hududlari (ichki hovlisi bo'lgan uylar) qazilgan. Shahriston markazida o'choqlari bo'lgan

VII-VIII asrlarning to'g'ri to'rtburchak shaklidagi bir necha xonalari o'rganilgan.
(yassi qoplama 4ta yog'och ustunlar bn ko'tarilgan)



Quva shisha ishlab chiqarish markazi bo'lganligi

Quva Farg'ona vodiysining eng qadimgi shaharlaridan biri. Shaharning vujudga kelishi va nomi haqida turli rivoyatlar mavjud."Farg'ona tarixi"ning muallifi Ibratning yozishicha, Quva Qubod yoki Qubo deb atalib, keyinchalik "Quva" shaklini olgan.

Istaxriyning ta'kidlashicha, Quva kattaligi jihatidan Farg'onada Axsikatdan keyin ikkinchi shahar hisoblangan. Ibn Havqalning yozishicha, Quva Sayxun (Sirdaryo) gacha etib boradigan nahr sohilida qad ko'targan.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asariga ilova qilingan xaritasida ko'rsatilishicha-Quvada hunarmandchilik rivojlangan. Temirchilik va shishasozlik yuksak darajaga yetgan, shaharning o'z tangasi zarb qilingan. "Boburnoma" da Quva Andijondan 4 og'och (farsax) narida joylashgan qishloq deb aytiladi.

Tarixchi A.Muhammadjonovning fikricha, shahar nomi "Qaviybod", "Qavobod" yoki "Qaybod" shakllarida talaffuz etilgan va qaviylarning qarorgohi,

tojdor hukmdorning taxti oʻrnatilgan qasr va mamlakatning bosh shahri - poytaxt maʼnosini anglatgan. Keyinchalik oʻzgarib Quva shaklini olgan.

Quva, oʻrta asr manbalarida Qubo deb yuritilgan maydoni 12 ga. Eng quyi qatlami I-III asrlar. 1956 -yildan boshlab Quva shahar xarobasi oʻrganila boshlandi. 1970 yilgacha arxeologik tadqiqotlar olib borilib Quva shahri tarixi shahar hayoti oʻrganildi.

1990 yil Quvada yaʼna tekshirish ishlari boshlandi. Buyuk ipak yoʻlida joylashgan shaharning savdo sotiqqa taʼluqli manbalari, hunarmandchilik sohasiga taʼluqli manbalar koʻplab topildi. 1996-1999 yil Oʻzbekiston Respublikasi FA Arxeologiya instituti maxsus guruh tuzib, Quva shahrida arxeologik tadqiqotlar olib borganlar.

Quva atamasi haqida bir necha qarashlar bor. Etnografik yondashib, Quba xudosi boʻlib ular bu xudo nomiga otlarni qurbonlik qilganlar. Samoviy otlar Davan, Marhamat, Aravon, Asaka atrofida mashhur boʻlgan Quva esa qushni hudud boʻlgan va Quvada yerlar serhosil boʻlib, otlar uchun yem hashak yaʼni beda shu yerlarda yetishtirilgan degan xabarlar uchraydi.

Arxeologik maʼlumotlarda 8 metr chuqurliklarda V-VI asrlarga oid mudofa devorlari topilgan. Kulolchilik charxisiz qoʻlda yasalgan, ostki qismi yumaloq idishlar va kulolchilik charxida qilingan silliqqlangan idishlar topilgan.

Yozma manbalarda Quva (Qubo) nomi VIII asrda birinchi marta tilga olingan.

Arab tarixchisi at-Tabariyning (839-923) xabar berishicha, xalifalikning Xurosondagi noibi Nasr ibn Sayyor Shoshda oʻz gʻanimlarini yengib bitim tuzgandan soʻng 738-739 yillarda Fargʻona tomon birinchi yurish qiladi. Quva shahri aholisi ularga keskin qarshilik qiladi. Hatto quvaliklar bosqinchilar qoʻliga tushmasin deb oziq-ovqatni yashirib, yem hashaklarni yoqib yuboradilar. Kuchlar etishmasdan Fargʻona taslim boʻladi va arablarga har yiliga 600 kg.dan ziyod kumush va mingalab qullar yetkazib berish majburiyatini oladi.

VIII asr oxirlariga taʼluqli tangalar topilgan va Quvada pul zarbxonasi boʻlgan, shahar iqtisodiy jihatdan vodiyning eng yirik shaharlaridan boʻlgan. VII-VIII asrlarda shahar dahalarga (kvartallarga) ga boʻlingan. Har bir dahada umumiy

odamlar yig'iladigan maydon va diniy marosimlar uchun maxsus xonalar mavjud bo'lgan va maxsus devor bilan o'rab olingan.

X asrdan boshlab Quva to'g'risida ko'p malumotlar uchraydi. Quva shahri uch qismdan iborat, ark-hokim qarorgohi, shahriston-ichki shahar, aholi yashaydigan va tirikchilik qiladigan joy va savdo-sotiq, hunarmandchilik, bog'-rog'lar rabod-tashqi shaharda joylashgan.

Aholi dahalarda uy xo'jaliklariga bo'lingan. Ma'lum qismi hunarmandchilik markazi bo'lgan. Sharqiy tomonida shisha ishlab chiqarilgan, g'arbiy tomonida simob ko'zacha ishlab chiqariadiga ustaxona bo'lgan. Shahristonda oddiy aholi tor ko'chalar bo'ylab yashagan. Dahalarda alohida uy xo'jaliklari bo'lib, oila er-xotin va bolalari yashagan. Yashaydigan uyning o'ng tomonida ovqat tayyorlaydigan o'choq joylashgan.

X-XII asrlarda shahar aholisining uylari devorlarining qalinligi 1,5 metr, balandligi 2 metr bo'lgan.

Shahar devorlari: V-VI asrlarda qalinligi 5-6 metr, balandligi 5 metr eftaliylar davri bilan bog'liq, VIII asrda arablar bosqini vaqtida devor qalinligi 5-6 metrdan qalin bo'lgan.

Quva shahri o'ziga xos iqtisodiy savdo-sotiq shahri. VII-VIII asrlarda otashparastlik diniga shiginishgan, hatto budda ibodatxonalari ham bo'lgan.

Oyna ishlab chiqishda quvaliklarga teng keladigani bo'lmagan. Shishadan atir upalar, tibbiyot kolbalari yasaganlar. Quvadan topilgan tangalar urtarsi teshik qilib ishlangan.

Uning markazida Registon maydoni, ko'handizda jome masjidi, rabodida esa saroy, qamoqxona va bozorlari joylashgan qismlari mo'g'ullar istilosi oqibatida vayron etilgan.

Axsikent. Tarixiy manbalarning guvohligi va hozirgacha olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra Axsikent eramizdan avvalgi III asrlarda vujudga kelgan. Shaharning bu qismi ijtimoiy-siyosiy tuzum jihatdan antik davriga mansubdir. Eramizning VI asrlarida qad ko'targan ilk o'rta asrga mansub shaharning ikkinchi qismi 1218 yilda Chingizxon boshliq tatar-

mo'g'ul istilochilari tomonidan vayron qilingan. Ikkinchi Axsikent arki a'lo, shahriston va rabot qismidan iborat bo'lib, IX-XIII asrlarda Farg'ona vodiysining eng katta siyosiy-iqtisodiy va madaniy markazi bo'lgan. IX-X asr arab geograflari o'z asarlarida Farg'onadagi shaharlarni sanab o'tadilar. Ular tomonidan tuzilgan xaritalarda esa X asrda Farg'ona vodiysidagi 39 ta shaharning nomi keltirilib sanab o'tiladi. Bular ichida Axsikent, Quva, Bop (Pop), Koson, Andukon (Andijon) va boshqa shaharlarning nomlari bor. Afsuski, o'sha davr yozma manbalarida, yilnomalar, xotiralar va boshqalarda Namangan nomi uchramaydi. So'nggi yillarda shahar hududida qurilish ishlarining kengayishi natijasida turli xil sopol parchalari, pishiq g'isht qoldiqlari va boshqalar topildi. Shahar qurilishi vaqtida tasodifan chiqib qolgan bu sopol idishlarning siniqlari arxeologlarning fikricha taxminan X asrda taalluqlidir. Shuningdek, ko'hna Axsikent va Afrosiyob (Samarqand) shaharlarida topilgan g'ishtlarga o'xshash katta-katta pishiq g'ishtlarning bu erdan ham topilishi diqqatga sazovor.

Quva shahrining IX-X asrlarda eng rivojlangan davri bo'lgan. Shaharni arxeologik jihatdan o'rganishda B.A.Latinin, V.D.Jukov, A.N.Bernshtam, V.A.Bulatova, I.Ahrorov, Yu.A.Zadneprovskiy, B.X.Matboboevlarning xizmatlari katta. Shaharning eng quyi madaniy qatlami I-III asrlarga oid. Quvani muntazam ravishda o'rganish 1956 yildan boshlangan. 1996-1999 yillarda O'zRFA Arxeologiya instituti tomonidan tadqiqot ishlari olib borildi. Shaharning mil.avv. V-IV asrlarga oid topilmalar topilgan. Bular charxsiz qo'lda yasalgan, osti qismi yumaloq idishlar va kulolchilik charxida ishlangan yupqa idishlar topilgan. Ularning sirtiga bo'yoq bilan geometrik naqsh berilgan. Ark va shahriston V-VII asrlarda mudofaa devori bilan mustahkamlangan. Shaharning 3 qismi ham mudofaa devori bilan o'ralgan. Uning maydoni 12 ga. bo'lgan. X asrdan boshlab Quva to'g'risida ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Bu davrda Quva dahalarga bo'lingan va har bir dahada markaziy maydon va diniy marosimlar uchun maxsus xonalar bo'lgan. Quvada X-XI asrlarga oid zarbxona topilgan. Tangalarning bir tomoniga qur'onu Karimdan oyat, ikkinchi tomoniga, Ahmad ibn Ali nomi

tushirilgan. U Quvaning X asr o'rtalardagi hokimi bo'lgan. XI asrda Janubiy Farg'onada Marg'ilon shahrining rivojlanishi Quva shahri rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Quvada hayot mo'g'ullar istilosi davrigacha davom etgan. Quva Arki yodgorlikning shimoli - sharq tomonida joylashgan. U mil.avv. II-I asrlarda qurilgan. X asrgacha markaz faoliyatini bajargan. Undan keyin shahar markazi rabotga ko'chgan. Shahar shahristoni 12 gektarni egallagan. U kuchli mudofaa devori bilan o'ralgan. Uning hozirda saqlanib qolgan qalinligi 12-15 metr, balandligi 6-8 metr, umumiy uzunligi 1330 metr bo'lgan. Devorda burjlar bo'lgan. Uning atrofi suv to'ldirilgan handaklar bilan o'ralgan. 1998 yilda olib borilgan tadqiqotlar jarayonida shahristonning yaxshi saqlangan darvozasi topilgan. Shahristondan hunarmandchilik sohalari asosida dahalarga bo'lingan va aholi uylari zich qurilgan. Rabot 150-200 gektarni tashkil etgan. Bugungi kunda u saqlanib qolmagan. Rabotda bozor, bog'lar, amirlar saroyi, qamoqxona, hunarmandlarning uylari bo'lgan. bo'lganligini yozma manbalarda yozib qoldirilgan. Quva ustalari o'zlari ishlagan shishalari bilan mashhur bo'lgan. U yerda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ko'plab shisha buyumlar topilgan. Ular nihoyatda yupqa ishlangan qadah, atir sepkich, mushk-anbar taratkich, qon bosimini tushurgich-alambika, grafin, atir - upa idishlari, tibbiyot kolbalaridir. Shishasoz ustalar qurilish oynalari ham ishlab chiqarganlar. Ular yasagan oynalar derazalar va tuynuklarga qo'yilgan bo'lib, qora ranglilari ham uchraydi.

X-XII asrlar shaharsozlik madaniyatining rivojlanishi.

Rivojlangan o'rta asrning birinchi taraqqiyot bosqichida Somoniylar olib borgan markazlashtirish siyosati mamlakatning iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Shaharlar o'sdi va ularning iqtisodiy savdo aloqalari mustahkamlandi. Masalan, arab tarixchi va geograflarining ta'kidlashicha, birgina Choch va Iloqda 50 dan ortiq shaharlar bo'lgan. Shaharlarda hunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik, temirchilik, yog'och va terini ishlash hamda to'qimachilik sohalari rivojlangan. X asr oxirlarida Movarounnahrda qoraxoniylar hukmronligi o'rnatildi. Qoraxoniylar somoniylarning mamlakatni

boshqarish, pul zarb etish va boshqa an'analarini davom ettirganlar. Ammo, oltin dinor zarb qilmaganlar. Arab tarixchilari Yoqut va Ibn Xavkallarning yozishiga qaraganda, Buxoroda savdoda dirham ishlatilgan, dinor esa, tovar sifatida sotilgan. Bu davr madaniy hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. Ilm-fan, din va tasavvuf, me'morchilik va san'at, musiqa san'ati rivojlandi. XI asrdan boshlab shaharlarning ijtimoiy - iqtisodiy qiyofasi o'zgargan. Shaharlar hunarmandchilik va savdo - sotiq markaziga aylandi. Ular hunarmandchilikning ma'lum bir tarmog'i bo'yicha ixtisoslashdi. Aholisining soni ham oshib borgan. Shaharlarning tuzilishida ham o'zgarishlar kuzatildi. Ularning maydoni kengaydi, ark avvalgidek, alohida istehkom ichida emas, balki shahar devori ichiga quriladigan bo'ldi. Shuningdek, rabotlarda ko'plab karvon saroylar, ulgurji, tashqi savdo bozorlari bo'lgan. Shaharlarning qurilish rejasi avvalgidek saqlanib qolgan, ya'ni shaharlar to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, shahar markazida kesishib o'tgan ikki ko'cha bo'lgan. Rivojlangan o'rta asr shaharlarida yangi bino turlari vujudga kelgan. Jumladan, masjidlar, minoralar, maqbara, karvon saroy, sardoba, xonaqoh va boshqalar. IX asr boshlarida binolarni qurishda xom g'isht va paxsa ishlatilgan. Keyinchalik ma'muriy va jamoa binolarini qurishda pishiq g'ishtdan foydalanila boshlangan. Turar joy binolarini qurish ishlarida esa, sinch va paxsa asosiy o'rinni egallangan. Pardoiz ishlarida esa, somonli loysuvoq, ganch, sirlanmagan koshin va sopol plitkalardan foydalanganlar. XII asrdan sirlangan koshin va mayolika ishlatish usuli kashf etilgan. IX-X asrlarda xom g'isht va paxsadan bunyod qilingan imoratlar turli holatda saqlanib qolingan. Afrosiyobda Somoniylar qasrining bir qismi saqlangan. U nafis o'ymakorlik usulida bezatilgan. Termiz yaqinidagi Qirqqiz qal'asi xom g'isht va paxsadan qurilgan hashamatli bo'lib, uning asosiy devorlari bugungi kungacha saqlanib qolgan. Bunday hol nihoyatda kam uchraydi. Arxeologlar bu qalaning yaxshi saqlanishini loy qorish va uni ishlatish texnologiyasining mukammalligida deb bilishadi va bu uslub vaqt o'tishi bilan unitilib ketgan deb hisoblashadi. Qadimiy Xorazm hududidagi Qavat qala ham yaxshi saqlangan. Bu davrda pishiq g'ishtdan dastlabki imoratlar bunyod qilina boshlangan. Bunga Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasini misol keltirish

mumkin. Samarqand viloyati Tim qishlog'idagi Arab ota maqbarasi ham bu davrga oid diqqatga sazovor binolardan biridir. Bu maqbarada dastlabki peshtoq namunalari uchraydi. Maqbaraga kirish bir tomonlama, peshtoq orqali bo'lib, u butun sharqiy devorni egallagan. Umuman, XI-XII asrlarga oid maqbaralar O'rta Osiyo hududida ko'p saqlanib qolgan. Ularning qurilish uslublari bir-biriga yaqin. Maqbaralar orasida chodirsimon gumbaz bilan yopilganlari alohida ajralib turadi.

Vasiliy Lavrentievich Vyatkin Samarqand yaqinidagi Ulug'bek rasadxonasining qoldiqlarini topish va qazish uchun keng tanilgan. 1896 yilda Samarqandda Arxeologiya muzeyini asos solgan bo'lib, u uzoq vaqt davomida rejissyor edi. Samarqanddagi Afrosiyob shahrining qadimgi turar-joyini ham qazib oldilar

Ulug'bek rasadxonasi 1424 – 1428 – yillar mobaynida Samarqand shahri yaqinidagi Obirahmat anhuri bo'yida qurilgan. Rasadxona Mirzo Ulug'bek farmoniga muvofiq qad ko'targan bo'lib, uni bunyod etishda Ulug'bekning ustozlari Qozizoda Rumi va G'iyosiddin Jamshid bosh – qosh bo'ladilar. Rasadxona joylashgan ushbu mavze mahalliy aholi o'rtasida “Naqshi jahon” degan nom bilan mashhur bo'lgan. Rasadxonaning asosiy qismi radiusi 40,2 metrli sekstant bo'lgan.

Rasadxona qoldiqlari topilgan tepalik yer sathidan balandligi taxminan 21 metr, sharqdan g'arbga cho'zilgan kengligi qariyb 85 metr, janubdan shimolga cho'zilgan uzunligi 170 metr keladigan tabiiy toshli balandlikdan iborat. Qazishma ishlari olib borilgan vaqtda turli rangdagi ko'pgina koshin g'ishtchalar, shuningdek, mozaika bo'lakalari ham topilgan.

Qazishma ishlari olib borilgan vaqtda turli rangdagi ko'pgina koshin g'ishtchalar, shuningdek, mozaika bo'lakalari ham topilgan. XVII – XVIII asrlarga oid adabiyotlarda Ulug'bek rasadxonasi haqida gapirilib, uning ulkanligi va ulug'vorligi ko'rsatib o'tilad. Rasadxonaning balandligi 31 metr bo'lgan va rasadxona tevaragida olimlar va xizmatchilar uchun katta - kichik hujralar qurilgan



Ulug`bek rasadxonasi.

Ulug`bek rasadxonasidagi 1908-1909 yilgi qazish ishlari natijalari haqida V. L. Vyatkin O`rta va Sharqiy Osiyoni tarixiy arxeologiya, lingvistika va etnografiya jihatdan o`rganish Rus qo`mitasida hisobot berdi. 1909 yilgi qazish ishlarining birinchi kunlarida V. L. Vyatkin bir g`isht qalinligida, balandligi ikki metr atrofida bo`lgan aylana devor va uchta parallel joylashgan, ikkita g`isht to`siq bilan ajratilgan, keskin pastga, binoning tashqi qatlamida qazilgak chuqurga tushadigan zinalarni topdi. Zinalarni tozalab, ocha borib arxeolog rasadxonaning asosiy

falakiyotshunoslik uskunasi - ulkan kvadrantning bir qismini topdi. Keyingi tadqiqotlar rasadxona binosining diametri 48 metr bo'lgan aylana shaklida bo'lganini ko'rsatdi, meridian bo'yi radiusi esa 40,212 metr ekanligi aniqlandi. V. L. Vyatkinning bu yutug'i shubhasiz, jahonshumul ahamiyatga ega bo'ldi. Akademik Bartoldning aytishicha, Ulug'bek shaxsi hamda uning Samarqand rasadxonasi faoliyati mavzui sharqshunos sifatida e'tiborini tortdi. Bu qazish ishlari unga birinchi bo'lib «Ulug'bek va uning davri» asarini yozish imkonini berdi. Bu asar 1915 yil yozilib, 1918 yili e'lon qilindi.

V. L. Vyatkin 1932 yilda Samarqandda vafot etdi, uning qabri mashhur Ulug'bek rasadxonasining qoldiqlari yonida joylashgan bo'lib, uning qoldiqlarini bir vaqtlar o'zi kashf qilgan.

Rasadxonaning qoldiqlari arxeolog VL Vyatkin tomonidan 1908 yilda kashf qilindi va o'rganildi. 1948 yilda O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining Tarix va arxeologiya instituti boshchiligida arxeolog V.A.Shishkin boshchiligidagi ekspeditsiya qazilma ishlarning yakuniy bosqichini yakunladi, binoning asosi va rasadxonaning asosini tabiiy tosh ustida yaratishga olib keldi.

2010 yilda muzey yonida Ulug'bek haykali tantanali ochildi. Samarqandning tarixiy yodgorliklari orasida 1424-1428 yillarda Samarqand yaqinidagi Ko'haq tog'ida Ulug'bek qurgan rasadxonaning qoldiqlari alohida o'rin tutadi.

Mavzuga oid savollar

1. Ilk o'rta asrlar davrida Kesh va Kitob shaharlari tarixini bilasizmi?
2. O'rta Osiyoning ilk o'rta asr monumental va amaliy san'at namunalari (Afrosiyob, Varaxsha, Panjakent).
3. Marv shahrining IX-XII asrlar me'morchiligi va san'ati.
4. Choch (Shosh) shahrining IX-XII asrlar me'morchiligi.
5. Termiz ilk o'rta asrlar davrida.
6. O'rta asrlar davri Axsiket, Quva shaharlarining arxeologik tadqiq etilishi?

Mavzuga oid test

1. Anov tepaliklari ayniqsa dunyoga mashhur. Anov madaniyatini dastlab kimlar tekshirgan

- A R.Pompelli, Shmidt tekshirgan
- B A.S. Sagdullaev, A.Asqarov
- S V.M.Massey, I.Markvart
- D S.P.Tolstov, G.A.Pugachenkova

2.Mari viloyati (Turkmaniston) Tohirboy - 3 madaniy qatlamining qaysi davrga taluqli qishloq xarobasi

- A miloddan avvalgi 2 - ming yillikning 2 - yarmiga
- B miloddan avvalgi 1 - ming yillikning 1 - yarmiga
- S miloddan avvalgi 3 - ming yillikning 3 - yarmiga
- D miloddan avvalgi 2 - ming yillikning 1 - yarmiga

3. Tohirboy - 3 (Turkmaniston) madaniy qatlamining qalinligi 2,5 m gacha bo'lib, 20 ga yaqin hududni egallagan. 1954 - 1956 yillarda kim boshchiligida arxeologik guruh qazish ishlari olib borgan.

- A V.M.Massey
- B I.Markvart
- S G.A.Pugachenkova
- D R.Pompelli

5. Marg'iyona (Turkmanistonda joylashgan) Avestoda qanday atalgan

- A Mouru
- B Margush
- S Marv
- D Murg'ob

10-mavzu: Arxeologiyani XVIII asr oxiri XIX asrdagi rivoji.

Reja

10.1. XIX asrdan boshlab "buyuk arxeologik kashfiyotlar" davri

10.2. Rossiyada arxeologiyaning rivojlanishi.

Tayanch so'zlar: Assurologiya, Ashurbanipal kutubxonasini, klinopis yozuvi, mixxat yozuvi, buyuk arxeologik kashfiyotlar, Rozetta topilmasi, barelef tasviri.

10.1. XIX asrdan boshlab "buyuk arxeologik kashfiyotlar" davri

Arxeologiyani keyingi rivojlanishi Yevropadagi siyosiy va iqtisodiy rivojlanishlar bilan bog'liq. Jumladan, Fransiyadagi inqilob, Napoleon urushlari, boshqa davlatlarda ham boshlangan burjua inqiloblari, kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi, ayniqsa transport vositalari, sanoat korxonalarining rivojlanishi arxeologiyani rivojlanishiga olib keldi.

Yevropadagi davlatlar qadimgi Rim Respublikasi siyosiy tuzum sifatida, davlat shakli sifatida ideal tuzum ekanligini tushundilar va nihoyat Fransiyada ham aynan shunday davlat tuzildi.

Napoleon Bonapartning Misrga qilgan ekspeditsiyasi natijasida Sharq mamlakatlariga yo'l ochildi. Misrga Napoleon bilan birga juda ko'plab talantli olimlar ham kelishgan edi. Arxeologiyani rivojiga ham katta ta'sir etdi. Napoleonning Misrda qilgan dastlabki ishlaridan biri bu Yerdagi Misr institutini ochilishi bo'ldi. Bu davrda Yevropada ibtidoiy davr arxeologiyasi rivojlandi. Sanoatni rivojlanishi natijasida temir yo'llarni qurilishi, avtomobil yo'llarini qurilishi, suv tegirmonlari, shamol tegirmonlarini qurilishi kabi ishlar boshlanishi munosabati bilan shu qurilishlar olib borilgan joylarda juda ko'plab ibtidoiy davr yodgorliklari ochildi.

XIX asrdan boshlab "buyuk arxeologik kashfiyotlar" davri boshlandi. Napoleonnin Misrga olib borgan olimlari ichida Denon degan juda talantli, ziyarak olim bor edi. U juda qisqa vaqtda butun Misrni kezib chiqadi va juda ham ko'plab arxitektura obidalariga yozilgan yozuvlarni nusxasini oldi, boshqalarini chizma nusxasini tushirdi, turli topilmalarni sotib oldi va to'pladi.

Misrning turli qismlarida toshdan qurilgan ibodatxonalar, maqbaralar, turli haykallarning ostonasi toshlavhalar bilan to'la edi. Shunday topilmalardan biri Rozetta qishlog'idan topilgan yozuvli bazalt toshi bo'lib, unda uch xil tilda Qadimgi Misr tilida - ieroglifda, yangi Misr tilida - demotik yozuvida va grek tilida - grek alifbosida yozilgan edi. Keyinroq aniqlanishicha, har uchta yozuv bitta narsani ifodalardi.

Misrning qadimgi yozuvlarini o'qish albatta juda qiyin edi. Ammo, Fransuz olimi Fransua Shampolon (1790-1832) ning juda ko'p tillarni bilishi tufayli va

Rozetta topilmasidagi uch tilda yozilgan yozuvlar tufayli Misr ierogliflarini 15 ta belgisini aniqlashga muvaffaq bo'ldilar. Shu 15 ta belgini aniqlash usuli keyingi Qadimgi Misr ierogliflarini tadqiq etish uchun katta baza bo'lib xizmat qildi.

Fransiya ekspeditsiyasi davrida Misr yodgorliklaridan juda yaxshi kolleksiyalar to'plandi. Biroq, tuzilgan bitimiga ko'ra bu topilmalarni hammasi, shu bilan birga Rozetta qishlog'idan topilgan toshlavha ham Angliya ixtiyoriga berildi. Ammo, Fransiyada hamma topilmalarning chizmalari, yozuvlardan ko'chirmalari bo'lganligi tufayli bu yerda 1808-1813 yillarda Misr topilmalarini jamlagan 12 tomndan iborat grafiklar va 24 tomndan iborat matnli kitob chiqarildi.

Shampolondan keyin Fransiyaga kelib katta ishlar qilgan yirik nemis olimi Lepsius (1810-1884 yy) edi. Lepsius Shampolonga nisbatan o'zining juda aniqligi va ziyrakligi bilan ajralib turar edi. U Misr topilmalarini o'rganishga juda ham aniqlik, albatta uslubiy jihatdan to'g'ri yondashdi. Har bitta topilmadan qanday ma'lumot olish mumkin bo'lsa, maksimal darajada oladi. Misrning Memfis shahri yaqinida u 67 ta piramidani, yaqin 130 ta mozor-maqbarani tadqiq qiladi. U birinchi marta shu topilmalarga asoslanib turib Misrni davrlashtirish ishlarini amalga oshirdi. Misr, Efiopiya, Sinay yarim oroli hududlarini ko'p tomli yodgorliklari nomli kitoblarni nashr etdi. Nemis olimi Lepsius tomonidan to'plangan arxeologik materiallar keyinchalik o'zi direktori bo'lgan Berlin arxeologiya muzeyiga topshirildi.

Yevropaliklar uchun Messopotamiya tarixi to'g'risidagi ma'lumotlar juda ham kam edi va ular har bir yangilikni juda ziyraklik bilan kuzatib turishar edi. Shu bilan birga, Misrga borgan Yevropaliklar toshdan yasalgan piramidalarni, mavzoley va maqbaralarni ko'rishgan bo'lishsa, Messopotamiyada bunday narsalar umuman yo'q edi.

Bu yerdagi qurilishlar asosan g'ishtdan, ko'p hollarda xom g'ishtdan, juda kam hollarda pishiq g'ishtdan bo'lar edi. Shuning uchun qadimda juda ulug'vor bo'lgan shaharlar ham ko'proq xom g'isht bilan ko'tarilgan bo'lganligi uchun ular tashlab ketilgandan keyin oddiy jonsiz dashtdan farqi bo'lmay qoldi.

Messopotamiya tarixini **assurologiya-** (Ossuriya va Qadimgi Mesopotamiyaning boshqa davlatlarining tillari, yozuvlari, madaniyati va tarixini o'rganuvchi murakkab gumanitar fan keng ma'noda - mixxat yozuvidan foydalangan sivilizatsiyalar bilan bog'liq fanlar to'plami) yo'nalishini o'rganishni boshlab bergan olim Klavdiy Djems Rich (1784-1821 yy) bo'lib, aslida kelib chiqishi fransuz, ammo Angliyada yashab inglizlarni Ost-Ind kompaniyasini Bag'doddagi vakili bo'lib ishlagan. U Mosulda bo'lgan paytda mahalliy aholining xotiralarida qolgan rivoyatlarda eslatiladigan Nineviyani asoslagan podshoh Nimrod to'g'risida so'raganda mahalliy arablar o'sha shaharning o'rnini ko'rsatishadi. Ammo, Klavdiy Djems Rich bu yerni qazib ko'rgani bilan hech narsani topa olmaydi. Lekin keyinroq ma'lum bo'lishicha Klavdiy Djems Rich Nineviyani o'rnini juda aniq aniqlagan ekan. U qazishmalar olib borgan davrda sopoldan yasalgan plitalarni to'playdi. Bu topilgan plitalar Ashurbanipal kutubxonasini **klinopis yozuvli** (mixxat yozuvi ma'lum bo'lgan eng qadimgi yozuv tizimidir. Yozuv shakli asosan yozuv materiali - loy lavha, loy hali yumshoq bo'lganida, yozuv uchun yog'och tayoq yoki uchli qamish bilan siqib chiqarilgan belgilar bilan belgilanadi; shuning uchun "xanjar shaklidagi" zarbalar.) kutubxonasining birinchi hujjatlari ekanligi aniqlangan.

1942 yilda Fransiyaning Mosuldagi konsuli Emil Botta Dur- Sharrukin shahri yaqinidagi Xosrobod qishlog'idagi tepani qazib ko'rganda Assuriya podshosi Sargon (mil.il. 722-705 yy.) ning saroyini topadi. Sargon saroyi - saroy zallari, ichki hovli, ibodatxona, zinapoyasimon burj, omborxonalar, oshxona, vino saqlaydigan xonalar, otxona topilgan, odamning yuz qismi, qolgan qismi besh oyokli qanotli buqa tasviri tushirilgan haykal topilgan. Saroylarning devorlari yozuvli va bo'rtma usulda ishlangan **barelef tasvirli** (**Barelef** (frans. bas-relief - past relief) - bo'rtma tasvir, haykaltaroshlikda sathidan bo'rttirib ishlangan tasvir asli shaklining yarmidan ortmasa (tanga, nishon yuzasiga ishlangan tasvirlar deb ataladi. Me'moriy inshootlar bezagi va bezak san'ati asarlarida keng tarqalgan) plitalar bilan qoplangan edi.

Ingliz Genri Leyyard Nineviyani topishga muvaffaq bo'ldi. U faqat bitta emas, balki bir nechta Nineviya podsholari saroylarini topdi. Ularning ichida eng mashhuri Ashshurbanapal kutubxonasi bo'lib, 20000 ortiq sopol taxtachalariga yozilgan matematikaga, astronomiyaga, medistinaga, tarixga, grammatika va boshqa fanlarga doyr asarlar bor edi. Bundan tashqari davlatning qonunlari, buyruqlari, xatlar, xabarlar, xo'jaliklarning daromadlari va hisobotlari, arznomalar va iltimoslar, sud qarorlari, shartnomalar, uylarni oldi-sottisi, yerlar, qullar, qarz olib, qarz berish to'g'risidagi, xullas juda ham ko'p hujjatlar bor edi

Baxtga qarshi Rich ham, Botta ham, Leyyard ham nemis olimi Lepsius kabi arxeolog-olim emas edilar. Shuning uchun qazishmalar davrida qazish uslublarini, ayniqsa topilmalarni ahamiyatini tushunib yetmaganliklari sababli ularni juda ko'plari, shu jumladan sopol-taxtachalardagi hujjatlar yo'qotildi.

Arxeologik qazishmalar XIX asrning birinchi yarmida Suriyada, Kichik Osiyoda va Falastinda ham oz bo'lsa ham davom etdi. Xuddi shu davrdan boshlab Gretsiya hududida ham qazishmalar boshlanib, Qadimgi Elladaning klassik materiallarini olishga muvaffaq bo'ldilar. Ma'lumki, Yevropalik olimlar Gretsiyaning qadimgi materiallari bilan faqat Fransiyadagi nusxalarga qarab turib fikr yuritilar edi.

Pompey shahrini to'liq o'rganish uchun qazishmalar boshlab yuboriladi. Endilikda shaharning turli qismlarida alohida-alohida chuqurlar qazib faqat topilmalarni sug'urib olish emas, balki katta maydonlarda qazishmalar olib borilib, faqat yaxshi topilmalar emas, balki har bitta buyumning holati to'g'risida batafsil ma'lumotlar yig'dilar. Natijada butun boshli shaharni kundalik hayoti, xalqning kundalik turmushi to'g'risidagi ma'lumotlarni olishga muvaffaq bo'ldilar. Antik davrning kichik shahrini to'liq ochishib, uni kundalik hayotini har tomonlama o'rgandilar.

10.2. Rossiyada arxeologiyaning rivojlanishi

Rossiya tarixining 12 asrga oid Ipatevski yilnomasida Ladoga ko'li bo'yidagi aholi to'g'risida yaxshi malumotlar saqlanib qolgan bo'lib ularning birida aholi orasida bo'lgan real voqealar to'g'risida xabar beradi. Unda yozilishicha osmonni

qalin bulut qoplab kuchli yomg'ir yog'gan paytda Ladoga ko'li bo'yida juda ko'lab tangalar va munchoqlar yog'ilishi'ni aytishganligi to'risida xabar bor. Bu xabar albatta o'sha paytda arxeologik tushunchaning yo'qligi mahaliy aholini shu jumladan yilnoma tuzuvchisini Ladoga ko'li bo'yidagi qadimgi manzilgohni yomg'ir suvlari yuvganligi sababli yer yuzasiga qadimgi osori antiqalar chiqib qolgan. Shu bilan birga bizga o'ta sodda aholini arxeologik obida yomg'ir suvi tufayli asori antiqalarni yer yuziga chiqib qolayotganligini tushunmaganligini ham ko'rsatadi. Yoki xalq orasida arxeologiya fani to'g'risida hali umuman tushunchaning yo'qligidan dalolat beradi. O'rta asrlardan boshlab Yevropaning yirik shaharlarida turli buyumlarni maxsus joylarda muzeylarda saqlash ishlari boshlanadi.

Rossiyaning XVII arsdan oid bir qator hujjatlarda qadimgi shahar xarobasi atamasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xuddi shu davrdan boshlab Rossiyaning turli hududlarida qimmatbaho xazinalarni qidirish avj oladi. Bunday xazinalarga albatta Sibirdagi juda ko'plab qadimgi chorvador aholiga mansub mozor qo'rg'orlarda talonchilik maqsadlarida olib borilgan qazishmalarni kiritish mumkin. Bunday qazishmalar natijasida bir qancha tillo buyumlar bilan ko'milgan xazinalar topilgan.

Rossiyada arxeologik tasavurlarni paydo bo'lishida Pyotr I ning yodgorliklarini saqlash, unda Rossiya hududining qayeridan qanday topilma topilsa uni olib kelib davlatga topshirish yana keyinroq chiqarilgan buruqda esa topilgan joyning holatini sharoiti chizishni topshiradi. Bu buyruq arxeologik obidalarni saqlash kerak bo'lgan joyda foydalanish imkoniyati jihatidan Rossiyaning o'z davrida Yevropa mamlakatlaridan ancha ilgari ketishiga sabachi bo'lgan buyruq edi.

Arxeologik olim Z.Ya Xodakovskiy (1784-1825). U birinchi marta arxeologik yodgorlik real tarixiy jarayon ekanligini aytdi. U sayohat qilib juda ko'p arxeologik yodgorliklarni topadi va uni qazish kerakligini aytsada bu yodgorlikni to'liq tushunib yetmaydi. Hatto sahar xarobasini ibodatxona deb o'ylaydi xuddi shu davrdan boshlab Rossiya hududida antik arxeologiya o'z ishini boshlaydi.

1811 yildan Kerch yarim orolda P.A.Dubruks Kul-Oba yodgorligida qazish ishlari olib borgan.

Rossiya arxeologi A.S.Uvarov 1825-1884 o'sha davrdagi arxeologlar jamiyatini aktiv ishtirokchisi P.S.Savelev bilan birgalikda 1851-1854yilari Vladimir atroflaridagi mozor qo'rg'onlarni shu atrofdagi xalqlarni tarixini bilish uchun qazishadi. Ammo u davrda bunday mozor qo'rg'onlarni qazish uslublarini bilmaganliklari uchun yaqin 7000 ta mozor qo'rg'onni qazishgan bo'lsa ham birorta ham mozor qo'rg'on uchun pasport yaratishmagan edi. Rus arxeologlaridan I.E. Zabelin bo'lib (1820-1908), asosan Dneprbo'yi hamda Qora dengizbo'yi atroflaridagi skif mozor qo'rg'onlarida qazishmalar o'kazib birinchilardan bo'lib skiflarni o'zlari qadimgi zamonlardayoq qabrda o'likni yoniga qo'yilgan buyumlar o'g'irlanganligini aniqlaydi. Aynan Zabelin mozor qo'rg'onni qazigunga qadar o'g'irlangan yoki o'g'irlanmaganligini aniqlash usulini topishni o'rgandi. Bu narsa arxeologik izlanishlar olib borish usullarini taraqqiyotida mozor qo'rg'onni ustki qismida qo'yilgan tuproq uyumini holatiga qarab qadimgi davrlarda uni o'g'irlangan yoki o'g'irlanmaganligi usulini aniqladi. Zabelin arxeologik qazishmalar olib borishda ilmiy usullarni qo'llash, ayniqsa arxeologik stratigrafiyani yani biron bir qazishmalar olib boradigan obykti qatlam - qatlam ochish kerakligini aytdi. Xuddi shunday usullardan qazishmalar olib borilganligi tufayli juda katta Chertomlik mozor qo'g'oni dunyoga tanildi. 1864 - yilda Moskva arxeologlar jamiyati tashkil etiladi. Bu tashkilotning tashkilotchilari A.S.Umarov va Zabelin edilar.

Bu davrda dastlabki fransuz paleolitshunos arxeologi Mortille bo'lib u birinchi marta arxeologiyaga geologik atama qatlam so'zini kiritdi. Aynan tosh davrini o'rganishda geologiya bilan arxeologiya o'rtasida yaqinlik ko'rindi. Shulardan biri geolog A.A.Inotrsev bo'lib u Ladoga ko'li bo'yidagi neolit davri yodgorliklaridagi ma'lumotni keltiradi.

Krit orolida qazishma ishlarini olib borgan ingliz arxeologi **A.Evans** juda ko'p topilmalar topiladigan obidalarni yaxshi tushungan. B.V.Farmakovskiy 1870-1928 Oliviya qazishmalarini o'rgandi.

A.A.Sipitsin (1860-1945) yirik rus arxeloglaridan uning eng katta yutuq'i arxeologlar uchun arxeologik qazishmalar uchun ko'rsatmalarni chiqargan. D.A.Samokvasov 1874yilda Kiyevda bo'lib o'tgan "Arxeologiyaga bag'ishlangan" yig'ilishda shahar qoldiqlarini, mozor qo'rg'on va g'orlarda qazishmalar o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar mavzusida maruza qildi. U topografik xarita va planlarga juda katta etibor berib, qazishmalar o'tkazilayotgan yodgorlikni saqlashga etibor berish kerakligini tushuntirgan.

XIX-XX ars boshlarida yashagan arxeolog B.A.Gorotsov bo'lib u juda ko'plab shogirdlarni arxeolog sifatida tarbiyaladi va eng muhimi "Arxeologik qazishmalar o'tkazish va topilgan materiallar ustida ishlash" bo'yicha ko'rsatma degan kitobni chop ettirdi. Eng muhimi Gorotsov o'zining ko'rsatmalarida har qanday yodgorlikni qatlam qatlam qazish kerakligini aytadi. Uning aynan shu ko'rsatmasi ahamiyati jihatidan juda yuqori edi. Chunki o'sha davrning taqozosi bilan olib borilgan qazishmalarning deyarli barchasi faqat turli buyumlarni topib olish uchun qilinar edi.

Izohli so'zlar:

1. **Barelef tasviri-** (**Barelef** (frans. bas-relief - past relief) - bo'rtma tasvir, haykaltaroshlikda sathidan bo'rttirib ishlangan tasvir asli shaklining yarmidan ortmasa (tanga, nishon yuzasiga ishlangan tasvirlar deb ataladi. Me'moriy inshootlar bezagi va bezak san'ati asarlarida keng tarqalgan)
2. **Klinopis yozuvi** - mixxat yozuvi ma'lum bo'lgan eng qadimgi yozuv tizimidir. Yozuv shakli asosan yozuv materiali - loy lavha, loy hali yumshoq bo'lganida, yozuv uchun yog'och tayoq yoki uchli qamish bilan siqib chiqarilgan belgilar bilan belgilanadi.
3. **Assurologiya-** (Ossuriya va Qadimgi Mesopotamiyaning boshqa davlatlarining tillari, yozuvlari, madaniyati va tarixini o'rganuvchi murakkab gumanitar fan keng ma'noda - mixxat yozuvidan foydalangan sivilizatsiyalar bilan bog'liq fanlar to'plami

Savol va topshiriqlar:

1. Misr, Misopotamiyada arxeologik tadqiqotlar olib brogan arxeolog olimlarni ayting?


2. Rossiya hududidagi XVIII-XIX asrlardagi arxeologik manzilgohlardagi tadqiqotlarni bilasizmi?



Livan arxeologiyasi



Yupitir qalasi suriyadagi Baalbek



Misr piramidalari tadqiqotlari 19-asr



Britaniya arxeologik ekspeditsiyasi



1870-yil misrdagi tadqiqotlar

GLOSSARIY-qisqacha izohli lugʻat

Angob- sapol sirtiga yuqori sifatli tuproqni suyultirib beriladigan boʻyoq

Ark- shaharning maʼmuriy boshqaruv bugʻini joylashgan qismi

Artefakt- inson tomonidan yaratilgan predmet

Arxeolog — tegishli oliy maʼlumotga ega boʻlgan tadqiqotchi;

Arxeologiya ashyolari davlat katalogi - har bir arxeologiya ashyosi toʻgʻrisidagi asosiy maʼlumotlar mavjud boʻlgan hisobga olish hujjati;

Arxeologiya ashyosi - arxeologiya qidiruvlari, arxeologiya qazishmalari va arxeologiya nazoratini amalga oshirishda yoki xoʻjalik va oʻzgacha faoliyat jarayonida aniqlangan, shuningdek tasodifan topilgan (xazina) va identifikastiyalashdan oʻtkazilgan moddiy qoldiq;

Arxeologiya yodgorligi - Moddiy madaniy meros obʻektlarining davlat kadastriga kiritilgan arxeologiya obʻekti;

Arxeologiya qazishmalari - arxeologiya tadqiqotining arxeologiya obʻektida qazishma ishlarini qoʻllagan holda madaniy qatlamlar, meʼmoriy va boshqa moddiy qoldiqlarni oʻrganish maqsadida amalga oshiriladigan turi;

Arxeologiya qidiruvlari - arxeologiya tadqiqotiniig arxeologiya obʻekti madaniy qatlamining emirilishi bilan bogʻliq boʻlmagan (madaniy qatlam qalinligini aniqlash uchun cheklangan qazishmadan tashqari) va arxeologiya obʻektini aniqlash, xaritalashtirish, uning chegaralarini belgilash, izohlash, tekshirish, shuningdek ilgari aniqlangan arxeologiya obʻekti toʻgʻrisida zamonaviy maʼlumotlarni olish maqsadida amalga oshiriladigan turi;

Arxeologiya merosi obʻektlari - arxeologiya obʻektlari va arxeologiya ashyolari majmui;

Arxeologiya nazorati - arxeologiya tadqiqotining arxeologiya obʻektini saqlash maqsadida amalga oshiriladigan va arxeologiya obʻekti hududining chegaralarida er qazish, er tuzish, qurilish, meliorastiya, xoʻjalik, yoʻlsozlik ishlarini va boshqa ishlarni bajarishda madaniy meros obʻektlarini saqlash talablariga rioya qilinishi ustidan nazorat oʻrnatiladigan turi;

Arxeologiya tadqiqoti - arxeologiya ob'ektlari, arxeologiya yodgorliklari va arxeologiya ashyolarini o'rganish orqali yangi bilimlarni egallash maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat

Antik-lotin tilida “qadimgi ajoyibot” ma’nosini bildirib, tarixda qadimgi Gresiya madaniyati an’analari asosida rivojlangan davr nomi.

Arxeologiya-arxayos-qadimgi, logos-fan so'zlaridan tarkib topgan bolib, qadimiyat haqidagi fandır.

Artefakt - odamlar tomonidan yaratilgan moddiy madaniyat obyektlari, ya’ni turli mehnat, ov va jangovor qurollar, sopol buyumlar, turli hunarmandchilik va zargarlik buyumlari, tangalar, uy-joy qoldiqlari, qal’a, qasr va qo‘rg‘onlarning harobalari, qadimiy dalalar, ariq va kanallarning izlari, m ozor-qo‘rg‘onlar va boshqalar.

Arxantropolar - paleolit davrining urug‘-jamoachilik bosqichiga qadar yashab o‘tgan odam ajdodlari, ya’ni ularning suyak qoldiqlari.

Girih - arabcha “tugun” so‘zidan olingan. Geometrik shakllardan tuzilgan naqsh.

Yorma texnika usuli - ilk paleolit davrida ixtiro qilingan tosh qurollarni ishlash uslubi. Bunda qurol yasaladigan chaqmoqtoshning bosh tomoni ustalik bilan urib tekis maydoncha hosil qilinadi. Shu maydoncha orqali toshning mayda paraqalari olinib qurolga shakl beriladi.

Islimiy - o'simliksimon naqsh.

Kertma texnika - chaqmoq tosh xom ashyosi parchasigatosh bolg‘a (otboynik) yordamida har tomonlama ishlov berish, yengil zarba berish yordamida uchirish usuli.

Madaniy qatlam - insonlarning xo'jalik faoliyati izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami. Madaniy qatlamlar ma'lum bir joy da odamlarning qancha vaqt yashaganligi bilan bog‘liq xolda bitta yoki bir nechta va qalinligi ham bir necha santimetrdan 30- 35 metrgacha bolishi mumkin.

Manjaniq - jangda foydaianiladigan maxsus tosh otadigan qurilma

Mag'ok – “yashirincha” degan ma’noni anglatadi, ya’ni binolarning yarmisining yer ostida qurilganligini anglatadi. Buxorodagi Mag’oki Attori va Mag’oki Ko’rpa binolari qisman yer ostida qurilgan.

Morpech - o‘ralib chiqqan bo‘rtma shakl

Nous-zardushtiylik dinida ostodonlar saqlanadigan maxsus bino.

Nukleus - tosh o‘zagi, u turli texnik usullar asosida tosh paraqalarning olinishi natijasida hosil bo‘ladi. Ular disksimon, prizmatik, qalamsimon tuzilishda bo‘lgan.

Palaxmon - jundan to‘qilgan tosh otuvchi qurol.

Piktogrifiya - rasmlı yozuv turi

Petroglif - urib-o‘yib, chizish usuli bilan ishlagan qoya tosh rasmlari.

Plyuvia davri - lotincha so‘zdan olingan bo‘lib “plyuvia”- yomg‘ir degan ma’noni beradi. Ashel davri oxirida tropik o‘lkalarda boshlangan yomg‘irlar davri

Retush - mayda tosh qurollari ishchi qismini yasash uslubi.

Sardoba - maxsus suv yig‘gich inshooti bo‘lib, u gumbazli aylanasiimon hovuzlar tarzida qurilgan. O‘nga qor, yomg‘ir ba‘zan quduq suvlari maxsus inshootlar orqali to‘planib yo‘lovchilar uchun uzoq muddatga saqlangan.

Tigel - metall eritiladigan maxsus sopol qozon.

Tosh bolg‘alar (otboyniklar) - og‘irligi 0,5 kgdan kam bolmagan qayroqtoshdan yasalgan qurol.

Xonaqo - fors tilidan olingan bo‘lib, “xane”-“uy”, “ga”-“o‘rin” degan ma’nolarni beradi. Xonako musulmon dunyosiga xos bino hisoblanadi. U machit, madrasalar yonida gumbazsimon tarzda qurilgan. Xonako tashqaridan kelgan mehmonlar yashashiga mo‘ljallagan. U yerda ko‘pincha so‘filar va darveshlar iste‘qomat qilishgan.

Sharafa - binoning devori, ustuni yuqori qismida, shiftiga ganchdan quyib yoki o‘yib ishlangan naqshlar

Shurf - nemischa so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “qaziyman” degan ma’noni bildiradi. Shurf solish deganda yodgorliklardagi dastlabki qazish ishlari tushunilib, madaniy qatlamni aniqlash va yodgorliklar haqida dastlabki ma’lumotlarni olishdir.

“Ekofakt” - insonlarni qurshab turgan tabiiy muhit omillari hisoblanadi. Inson yashash uchun kurashib, tabiiy muhitga moslashadi va o‘z hayot tarzi uchun zarur narsalarni mavjud tabiatdan undiradi va o‘ziga xos madaniy izlarni qoldiradi.

O‘roq randa - chaqmoqtosh plastinkasidan yasalgan qurol, tig‘i keng yoysimon qilib ishlangan. Undan daraxt پوستini shilish va randalash quroli sifatida foydalanishgan.

Hisor - shaharning devor bilan o‘ralgan qismi (arkdan tashqari) temuriylar davrida shu nom bilan atalgan.

Ierixon- Yaqin sharqning ilk ishlab chiqaruvchi xo‘jalik shaklidagi madaniyati

Ilmiy hisobot- ochiq varaq va ruxsatnomaga muvofiq amalga oshirilgan arxeologiya qidiruvlari, arxeologiya qazishmalari va arxeologiya nazoratining natijalari to‘g‘risida to‘liq ma‘lumot beruvchi hujjat;

Kiklad stivilizastiyasi- Yevropaning bronza davri madaniyati.

Klepton madaniyati-mil avv. 550-475 ming yilliklarda Yevropaning quyi paleolit davri madaniyati

Madlen madaniyati -Fransiya, Ispaniya, Shveysariya, Belgiya, Germaniya xududlarida keng tarqalgan paleolit davri madaniyati.

Maxenjadar- Hindistonning protoshahar manzilgohi

Moddiy madaniyat - qazish ishlari davomida to‘plangan barcha ashyoviy manbalar narsalar

Mozaika –si bilan qoplangan yirik bezakli kubiklar

Nom- Qadimgi sharqdavlatchilikning ilk bosqichi - shahar-davlat

Olduvay, ashel, muste va so‘nggi paleolit-Paleolit davri bosqichlari.

Orinyak-Fransiyaning (Yuqori Garonna departamentidagi) Orinyak (Aurignac) g‘ori.

Ochiq varaq - arxeologning professional darajasini tasdiqlovchi va unga arxeologiya qidiruvlari, arxeologiya qazishmalari va arxeologiya nazoratini amalga oshirish huquqini beruvchi hujjat;

Polis- yunonlarning antik davri shahar-davlati

Protoshahar- shaharsozlikning ilk bosqichi

Ryossen- Markaziy Yevropaning miloddan avvalgi 4600-4300 ming yillarga oid o'rta neolit davri madaniyati.

Ruxsatnoma - ochiq varaq olgan arxeologga arxeologiya ob'ektida arxeologiya qidiruvlari, arxeologiya qazishmalari va arxeologiya nazoratini amalga oshirish huquqini beruvchi hujjat.

Soan—Hindiston hududida tarqalgan paleolit davri madaniyati.

Solyutre madaniyati- (Solutre, Fransiya) Luara departamenti) madaniyati

Stratigrafiya - madaniy qatlam

Stupa- buddaviylik dini ibodatxonasidagi ibodat inshooti

Tardenuaz madaniyati- G'arbiy Yevropaning miloddan avvalgi VII-IV ming yilliklar mezolit davri madaniyati.

Xarappa- Hindistondagi bronza davri protoshahar turidagi manzilgohi

Xomo sapiens – Yuqori paleolit davrida yashagan ibtidoiy ajdodimiz.

Shahriston- qadimgi shaharlarning aholi yashash va ishlab chiqarish joylashgan qismi

Erlitou- Xitoyning bronza davri protoshahar turidagi manzilgohi

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. "Ilm-fan yutuqlari Vatanimiz ravnaqiga xizmat qilsin" // Qarang: Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. "Халқ" сўзи" газетаси, 2020-йил 30-декабрь.
3. Archaeological theory today. Edited by Ian Hodder. Cambridge University Press 2001
4. Colin Renfrew, Paul Bahn. Archaeology: Theories, Methods and Practice. London 2004
5. Connah G. Writing about Archaeology. Cambridge University Press. 2010
6. Ian Shaw, Robert Jameson. A Dictionary of Archaeology. UK. 1999.
7. Jane Balme. Alistair Paterson. Archaeology in practice. Oxford. 2006.
8. Avdusin D.A. Основы археологии М., "Высшая школа" 1989
9. Annaev T., Shaydullaev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. T., 1997.
10. Brey U., Tramp D. Arxeologicheskiy slovar M., "Progress" 1990
11. Djurakulov M.D. Avanesova N.A. Istoriografiya epoxi bronzy Sredney Azii. Uchebnoe posobie. Samarkand: Izd.SamGU. 1983. pdf.
12. Drevneyshie gosudarstva Kavkaza i Sredney Azii. M. "Высшая школа" 1985
13. Kabirov J., Sagdullaev A. Toshkent "O'qituvchi" 1990
14. Egamberdieva N.A. Arxeologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2011.
15. Arxeologlar hikoya qiladi. To'plam. Toshkent, 1974.
16. Arsixovskiy A. Arxeologiya asoslari. Toshkent, 1970.
17. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent, 1990.
18. F.X. Utayeva O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi. O'quv qo'llanma "Durdona nashriyoti" 2022
19. Мартинов А.И. Шер Я.А. Методы археологического исследования. - М.: 2002.

20. Halim To'rayev Buxoro Toponimikasi darslik "Durdona" nashriyoti Buxoro 2021
22. Annayev T., Tilovov B Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. T., 1999.
23. Мартинов А.И Археология. М., 2006
24. F.X.Utayeva "Arxeologiya" Uslubiy qo'llanma "Durdona" nashriyoti Buxoro 2019

Elektron manbalar

3. www.history.ru
4. www.natura.com
5. www.archaeology.ru
6. www.archaeology.com

MUNDARIJA

Soz boshi.....	3
1-mavzu. Arxeologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari.....	6
2-mavzu. Paleolit va uning bosqichlari	25
3-mavzu. Mezolit davri arxeologiyasi	88
4-mavzu. Neolit davri arxeologiyasi	100
5-mavzu. Eneolit davri arxeologiyasi	116
6-mavzu. Bronza davri arxeologiyasi.....	142
7-mavzu. Temir davr arxeologiyasi.....	167
8-mavzu. Antik davr yirik shahar markazlari.....	193
9-mavzu: O’rta asrlar davri arxeologiyasi.....	213
10-mavzu: Arxeologiyani XVIII asr oxiri XIX asrdagi rivoji.....	260
Glossariy.....	270
Adabiyotlar ro’yxati.....	275